

## MUNDARIJA

<b>1. Kinematika</b>	
Ko'chish. Yo'l. Tekis harakat.....	6
Harakatning nisbiyligi. Tezliklarni qo'shish.....	6
O'rtacha tezlik.....	8
Tekis tezlanuvchan harakat.....	9
O'girlik maydonidagi harakat (vertikal bo'yicha).....	10
Ikki jism harakati.....	12
Harakatning bir nechta ketma-ket bosqichlari.....	13
Gorizontal otish.....	14
Burchak ostida otish.....	15
Aylanma harakat.....	17
Kinematik bog'lanishlar.....	18
<b>2. Dinamika</b>	
Nyutonning ikkinchi qonuni.....	19
Ishqalanish koefitsiyenti.....	22
Ishqalanishli qiya tekislik.....	23
Ikki jismdan iborat sistema. Bloklar.....	25
Butun olam tortishish qonuni.....	27
Yo'ldoshlar.....	28
Aylana bo'ylab harakat dinamikasi.....	29
<b>3. Impulsning saqlanish qonuni</b>	
Impulsnii aniqlash.....	32
Impulsning o'zgarishi va o'rtacha kuch.....	33
Impulsning saqlanish qonuni.....	35
Impuls proyeksiyasining saqlanishi.....	37
Kompleks masalalar. Massalar markazi.....	37
<b>4. Ish va energiya</b>	
Ish.....	39
O'zgarmas quvvat. FIK.....	40
O'zgaruvchan quvvat. O'rtacha quvvat.....	41
Kinetik energiya. Ish va kinetik energiyaning o'zgarishi.....	41
Potensial energiya. Ish va potensial energiyaning o'zgarishi.....	43
Mexanik energiyaning saqlanish qonuni.....	44
Energiyaning saqlanish qonuni + aylana bo'ylab harakat dinamikasi.....	46
Energiya va impulsning saqlanishi. Elastik to'qnashuv.....	48
Mexanik energiyaning ichki energiyaga o'tishi. Ishqalanish kuchlarining ishi.....	51
Mexanik energiyaning tashqi kuchlar ta'sirida o'zgarishi.....	53
Mexanik energiyaning o'zgarishi va impulsning saqlanish qonuni.....	54
<b>5. Statika</b>	
Teng ta'sir etuvchi kuch. Qo'zg'almas jism uchun Nyuton qonuni.....	57
Momentlar qoidasi.....	59

Og'irlik markazi.....	63
<b>6. Gidrostatika</b>	
Paskal qonuni. Suyuqlik ustunining bosimi.....	64
Gidravlik press. Tutash idishlar.....	65
Aximed qonuni.....	66
Jismalarning suzishi.....	68
Tezlanuvchan harakatlanayotgan idishdagi suyuqlik.....	71
<b>7. Molekulyar fizika. Gaz qonunlari</b>	
Molekulyar fizika.....	72
Ideal gaz holatining o'zgarishi.....	73
Birlashgan gaz qonuni.....	76
Mendeleyev – Klapseyron tenglamasi.....	77
Modda miqdorining o'zgarishi.....	78
<b>8. Termodinamika</b>	
Issiqlik miqdorini hisoblash. Isitkichning FIK.....	79
Mexonik va ichki energiyaning o'zaro aylanishi.....	81
Issiqlik balansi tenglamasi.....	83
Ideal gazning ishi.....	85
Termodinamikaning birinchi qonumi. Ideal gazning ichki energiyasi.....	87
Bir atomli ideal gaz.....	88
Sikllar. Issiqlik mashinalari.....	90
Bug'larning xossalari. Namlik.....	91
Sirt taranglik.....	93
<b>9. Elektrostatika</b>	
Kulon qonuni. Superpozitsiya prinsipi.....	93
Maydon kuchlanganligi.....	96
Potensiallar farqi.....	99
Zaryadlar sistemasining o'zaro ta'sir energiyasi.....	102
O'tkazgich shar.....	105
Yassi kondensator. Elektr sig'im.....	105
Kondensatorlarni ulash.....	107
Kondensatordagi maydon energiyasi.....	109
<b>10. O'zgarmas tok</b>	
Tok kuchining zaryad bilan bog'liqligi. O'tkazgichning qarshiligi.....	111
Bir jinsli zanjir uchun Om qonuni.....	113
Elektr o'ichov asboblari.....	114
Yopiq zanjir uchun Om qonuni.....	115
Zanjirda bir nechta EYK.....	116
Joul-Lens qonuni.....	117
Tok manbaining ishi.....	119
Yopiq zanjirdagi energetik balans.....	120
Elektroliz.....	122
<b>11. Magnetizm</b>	
Amper qonuni.....	123
Lorens kuchi.....	124
Magnit og'imi. Elektromagnit induksiya qonuni.....	127
Magnit maydonda o'tkazgich harakati.....	129

Induktivlik. O'zinduksiya EYK. Magnit maydon energiyasi.....	132
<b>12. Tebranishlar va to'lqinlar</b>	
Garmonik tebranishlar kinematikasi.....	133
Matematik mayatnik.....	134
Prujinali mayatnik. Tebranishlar tenglamasi. Tebranishlar energiyasi.....	135
To'lqinlar.....	138
Elektr konturi.....	138
O'zgaruvchan tok. Transformatorlar.....	139
<b>13. Optika. Atom fizikasi</b>	
Elektromagnit to'lqinlar. Sindirish ko'rsatkichi. Difraksiya.....	141
Yorug'likning qaytishi va sinishi. To'la ichki qaytish.....	141
Linzalar.....	143
Yorug'lik kvantlari.....	147
Fotoeffekt.....	148
Vodorod atomi.....	149
Yadroviy reaksiyalar.....	149

\*Izoh

Masalalarni yechish uchun kerakli bo'lgan barcha doimiylar masala shartida berilgan (suvning zichligi va yorug'likning vakuumdagi tezligidan boshqa). Iqlar vaznsiz va cho'zilmas, bloklar esa vaznsiz va ishqalanishsiz aylanuvchan deb hisoblansin. Agar alohida aytilgan bo'lmasa, havoning qarshiligi inobatga olinmasin.

Javoblar masala shartida ko'rsatilgan birliklarda berilgan. Agar shartda bunday ko'rsatma bo'lmasa, unda javob S1 birliklarida keltirilgan.

## 1. KINEMATIKA

### Ko'chish. Yo'l. Tekis harakat.

1. Jism koordinatalari  $(0,3)$  (m) bo'lgan nuqtadan koordinatalari  $(3:-1)$  (m) bo'lgan nuqtaga ko'chirildi. Jism ko'chishining modulini toping.

Javob: 5

2. Koptok 3 m balandlikdan tushib, poldan sapchidi va 1 m balandlikka ko'tarilganda tutib olindi. Koptok o'tgan yo'l uning ko'chish modulidan necha marta katta?

Javob: 2

3. Samolyot to'g'ri yo'nalishda 600 km uchdi, so'ngra to'g'ri burchak ostida burilib yana 800 km uchdi. Samolyotning ko'chish vektori moduli qanchaga (km da) teng?

Javob: 1000

4. Yo'lovchi ko'cha bo'ylab 240 m yo'l o'tdi, so'ngra chorrahada burildi va perpendikulyar yo'nalishda yana 70 m yo'l yurdi. Yo'lovchi o'tgan yo'l uning ko'chishining modulidan necha foizga ko'p?

Javob: 24

5. Jism koordinatasi  $x_0 = -7$  m bo'lgan nuqtadan  $x$  o'qi bo'ylab doimiy  $6 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlana boshladi. Qancha sekunddan so'ng jismning koordinatasi  $5$  m bo'ladi?

Javob: 2

6. Piyoda yo'lni  $4,2 \text{ km/h}$  tezlikda, yo'l yo'nalishi bilan  $30^\circ$  burchak hosil qiluvchi to'g'ri chiziq bo'ylab bir minut davomida kesib o'tdi. Yo'lning kengligini aniqlang.

Javob: 35

7.  $20 \text{ m/s}$  tezhkda yuruvchi tovar poyezdi stansiyadan yo'lga chiqdi. Oradan  $10$  daqiqa o'tih xuddi o'sha yo'nalishda tezligi  $30 \text{ m/s}$  bo'lgan ekspress yo'lga chiqdi. Stansiyadan qanday masofada (km da) ekspress tovar poyezdini quvih yetadi?

Javob: 36

8. Sportchilar  $20 \text{ m}$  li kolonna bo'lib, bir xil  $3 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakat qilishmoqda. Qarama-qarshi yo'nalishda murabbiy  $1 \text{ m/s}$  tezlik bilan yugurib kelmoqda. Murabbiy bilan uchrashgan har bir sportchi ortiga oldingi tezlik bilan qaytib ketmoqda. Barcha sportchilar burilib olganidan keyin kolonna uzunligi qanday bo'ladi?

Javob: 10

9. Tekis sho'ng'iyotgan suvosti kemasidan  $30,1 \text{ s}$  davomiylikli tovush impulsleri chiqariladi. Suv tubidan qaytib, kemada qabul qilingan impulsning davomiyligi  $29,9 \text{ s}$ . Kemaning sho'ng'ish tezligini aniqlang. Tovushning suvdagi tezligi  $1500 \text{ m/s}$ .

Javob: 5

### Harakatning nisbiyligi. Tezliliklarni qo'shish

10. Agar teploxdodning oqim bo'yicha tezligi  $22 \text{ km/h}$ , oqimga qarshi esa  $18 \text{ km/h}$  bo'lsa, oqim tezligini ( $\text{km/h da}$ ) aniqlang.

Javob: 2

11. Mototsiklchining tezligi  $54 \text{ km/h}$ , qarshi esuvchi shamolning tezligi esa  $3 \text{ m/s}$ . Mototsiklchi bilan bog'langan sanoq sistemasida shamolning tezligi qanday?

Javob: 18

12.  $54 \text{ km/h}$  tezlik bilan tekis harakatlanayotgan poyezdning yo'lovchisi qo'shni yo'lda, xuddi o'sha yo'nalishda katta tczlik bilan harakatlanayotgan,  $300 \text{ m}$  uzunlikli boshqa poyezdnı  $60 \text{ s}$  davomida ko'radi. Ikkinchı poyezdning tezligini ( $\text{km/h da}$ ) toping.

Javob: 72

**13.** 54 km/h tezlik bilan borayotgan poyezdning derazasi yonida turgan yo'lovchi tezligi 36 km/h, uzunhg'i esa 150 m bo'lgan, qarama-qarshi yo'nalishda uning oldidan o'tib ketadigan poyezdni necha sekund davomida ko'radi?

Javob: 6

**14.** 45 km/h tezlikda harakatlanayotgan avtomobil 10 s ichida o'sha yo'nalishda, doimiy tezlikda harakatlanayotgan avtobus 15 s da o'tganiga teng yo'l o'tdi. Ularning nisbiy tezligining kattaligini (km/h da) toping.

Javob: 15

**15.** Shosse bo'ylab bir yo'nalishda ikki mototsiklchi harakatlanmoqda. Birinchisining tezligi 10 m/s, ikkinchisiniki 20 m/s. Boshlang'ich momentda ikkinchi mototsiklchi birinchisidan 200 m ortda qolayotgan edi. Necha sekunddan so'ng u uni quvib yetadi?

Javob: 20

**16.** Qayiqning suvg'a nisbatan tezligi daryo oqimining tezligidan ikki marta katta. Ikki punkt orasida oqimga qarshi suzib borish, oqim bo'ylab borishga qaraganda necha marta ko'p vaqt oladi?

Javob: 3

**17.** Metropoliten eskalatori tekis harakatlanib, unda turgan harakatsiz yo'lovchini bir minutda yuqoriga olib chiqadi. Yo'lovchi harakatsiz eskalatorda tekis harakatlanib, 3 minutda ko'tariladi. Yuqoriga barakatlanayotgan eskalatorda yo'lovchi necha sekundda ko'tariladi?

Javob: 45

**18.** Shamolsiz havoda A shahardan B shaharga borish va qaytib kelish uchun samolyot 8 soat uchish vaqtini sarflaydi. Agar butun parvoz davomida A dan B ga qarab 20 m/s tezlikda shamol esib tursa, bu vaqt necha minutga ortadi? Samolyotning havoga nisbatan tezligi 312 km/h.

Javob: 27

**19.** Qayiqning suvg'a nisbatan tezligi 4 m/s va qirg'oqqa tik yo'nalgan, daryo oqimining tezligi esa 3 m/s. Qayiqning qirg'oqqa nisbatan tezligini toping.

Javob: 5

**20.** Kengligi 800 m bo'lgan daryodan suzib o'tayotgan kater suv bilan bog'langan sanoq sistemasiida daryo oqimiga tik yo'nalgan 4 m/s tezlik bilan harakatlandi. Agar daryo oqimining tezligi 1,5 m/s bo'lsa, kater oqim tomonidan qanchaga surib yuboriladi?

Javob: 300

**21.** Samolyot shimalga yerga nisbatan 48 m/s tezlikda uchdi. Agar g'arbdan 14 m/s tezhkda shamol essa, samolyot yerga nisbatan qanday tezlikda harakatlanadi?

Javob: 50

**22.** Ikki velosipedchi o'zaro perpendikulyar yo'llarda 10,8 km/h va 14,4 km/h tezliklarda borishmoqda. Ularning nisbiy tezligi qanchaga teng (km da)?

Javob: 18

**23.** A punktdan o'zaro perpendikulyar yo'llar bo'ylab bir vaqtida ikki avtomobil yo'lga chiqdi: biri 80 km/h tezlik bilan, boshqasi – 60 km/h tezlik bilan. Ular bir-biridan qanday tezlikda uzoqlashadi?

Javob: 100

**24.** Avtobus bekatda turgan paytda yomg'ir tomchilari yon oynada vertical izlar qoldiradi, u 72 km/h tezlik bilan harakatlanayotganda esa tomchi izlari vertikalidan  $30^{\circ}$  burchak ostida og'adi. Yomg'ir tomchilari qanday tezlikda tushmoqda?  $\sqrt{3} = 1,7$ .

Javob: 34

**25.** Shamolning tezligi 10 m/s bo'lganda yomg'ir tomchilari vertikalga  $30^{\circ}$  burchak ostida tushadi. Shamolning tezligi qanday bo'lganda yomg'ir tomchilari vertikalga  $60^{\circ}$  burchak ostida tushadi?

Javob: 30

**26.** Shamolning tezligi 20 m/s bo'lganda yomg'ir tomchisining tezligi 40 m/s. Shamolning tezligi 5 m/s bo'lganda tomchining tezligi qanday bo'ladi?

**Javob:** 35

27. Samolyot shamolsiz havoda shaharlar orasidagi borib kelishda 6 soat vaqt sarflaydi. Agar uchish yo'nalishiga tik holda 20 m/s tezlik bilan yondan shamol essa, uchish vaqt necha minutga ortadi? Samolyotning havoga nisbatan tezligi 328 km/h ga teng.

**Javob:** 9

28. A shahardan B shaharga uchib borib qaytib keluvchi samolyot uchish davomida havoga nisbatan 328 km/h tezlikka erishadi. Yondan uchish yo'nalishiga tik holda shamol esganda borish va qaytish uchun parvozga 6 soat vaqt sarflandi. Agar shamol barcha vaqtida A dan B ga tomon yo'nalishda essa, bu parvozga necha minut ko'proq vaqt sarflanadi? Ikkala holda ham shamolning tezligi 20 m/s.

**Javob:** 9

29. 60 m kenglikli daryoni kechib o'tishda start nuqtasidan oqim bo'yicha 80 m pastda joylashgan nuqtaga borib tushish kerak. Qayiqchi motorli qayiqni shunday boshqaryaptiki, u qirg'oqqa nisbatan 8 m/s tezlik bilan aniq nishonga qarab harakatlanyapti. Agar daryo oqiminining tezligi 2,8 m/s bo'lса, bunda qayiqning suvga nisbatan tezligi qanday?

**Javob:** 6

30. 80 m kenglikli daryoni kechib o'tishda start nuqtasidan oqim bo'yicha 60 m yuqorida joylashgan nuqtaga borib tushish kerak. Qayiqchi motorli qayiqni shunday boshqaryaptiki, u qirg'oqqa nisbatan 4,5 m/s tezlik bilan aniq nishonga qarab harakatlanyapti. Agar daryo oqiminining tezligi 2,1 m/s bo'lса, bunda qayiqning suvga nisbatan tezligi qanday?

**Javob:** 6

31. Daryo oqiminining tezligi 5 m/s, uning kengligi 32 m. Qayiqchi tezligi suvga nisbatan 4 m/s bo'lgan qayiqda daryoni kechib o'ta turib, imkonli bo'lgan eng kichik surilishni ta'minladi. (ya'nisi, qayiqni oqim surib ketishi mumkin bo'lgan masofaning eng kichigini ta'minladi). Shu surilib ketish necha metrga teng?

**Javob:** 24

32. Avtomobil A punktga 80 km/h tezlik bilan yaqinlashmoqda. U manzilga (A punktga) yetishiga 10 km qolganda A punktdan perpendikulyar yo'nalishda 60 km/h tezlikda yuk mashinasi yo'lga chiqdi. Avtomobil va yuk mashinasi orasidagi eng qisqa masofa qanchaga (km da) teng?

**Javob:** 6

#### **Ortacha tezlik**

33. Dastlabki 5 soat davomida poyezd o'rtacha 60 km/h tezlikda harakatlandi, keyin esa 4 soat davomida 15 km/h tezlik bilan. Butun harakat davomida poyezdnинг o'rtacha tezligini toping.

**Javob:** 40

34. Velosipedchini 12 km/h tezlikda 4 km masofani o'tib to'xtadi va 40 daqiqa dam oldi. Qolgan 8 km yo'lни u 8 km/h tezlikda o'tdi. Velosipedchining butun yo'ldagi o'rtacha tezligini (km/h da) toping.

**Javob:** 6

35. Velosipedchini dastlabki 5 s da 35 m yo'l o'tdi, keyingi 10 s da 100 m va oxirgi 5 s da 25 m. Butun yo'ldagi o'rtacha harakat tezligini toping.

**Javob:** 8

36. Poyezd o'z harakat vaqtining dastlabki 3/4 qismida 80 km/h tezlikda. qolgan vaqtida esa 40 km/h tezlikda yurdi. Poyezdnинг butun yo'ldagi o'rtacha harakat tezligi (km/h da) qanday?

**Javob:** 70

37. Yo'lning birinchi yarmini avtomobil 40 km/h tezlikda o'tdi, ikkinchisini 60 km/h tezlikda. Avtomobilning butun yo'ldagi o'rtacha harakat tezligini (km/b da) toping.

**Javob:** 48

38. Avtomobil yo'lning dastlabki choragida 60 km/h tezlikda harakatlandi, qolgan yo'lda 20 km/h tezlikda. Avtomobilning o'rtacha tezligini toping.

**Javob:** 24

**39.** Kater yo'lning birinchi yarmini ikkinchisiga qaraganda uch marta katta o'rtacha tezlikda o'tdi. Butun yo'ldagi o'rtacha tezlik 6 km/h ni tashkil qiladi. Katerning yo'lning birinchi yarmidagi o'rtacha tezligi qanday (km/h da)?

Javob: 12

**40.** Yo'lning birinchi yarmini avtomobil 60 km/h tezlikda o'tdi. Yo'lning qolgan qismidagi vaqtning yarmida u 35 km/h tezlik bilan harakatlandi, oxirgi uchastkani esa 45 km/h tezlikda o'tdi. Avtomobilning butun yo'ldagi o'rtacha barakat tezligini (km/h da) toping.

Javob: 48

**41.** Velosipedchi 3 km yo'lni 12 km/h tezlikda o'tdi, so'ngra burilib perpendikulyar yo'nalishda qandaydir masofani 16 km/h tezlikda o'tdi. Agar butun vaqt davomida velosipedchining o'rtacha yo'l tezligi 14 km/h bo'lsa, uning ko'chish modulini toping (km da).

Javob: 5

**42.** Jism vaqtning birinchi yarmida 30 m/s tezlik bilan berilgan yo'nalishga  $30^{\circ}$  burchak ostida harakatlanadi, vaqtning ikkinchi yarmida esa xuddi o'sha yo'nalishga (berilgan yo'nalish)  $120^{\circ}$  burchak ostida 41 m/s bilan harakatlanadi. Berilgan yo'nalish bo'ylab jism ko'chishining o'rtacha tezligini (cm/s da) toping.  $\sqrt{3} = 1,7$ .

Javob: 250

#### Tekis tezlanuvchan harakat

**43.** Avtomobil tekis tezlanuvchan harakatlanib, harakat boshlanganidan 10 s o'tib 36 km/h tezlikka erishdi. Uning tezlanishini toping.

Javob: 1

**44.** Samolyot ko'tarilishi uchun bo'lgan yo'lning uzunligi 675 m. Agar samolyot tekis tezlanuvchan harakatlanib 15 s dan so'ng yerdan ko'tarilsa, uning yerdan uzilish tezligi qanday?

Javob: 90

**45.** Tinch holatidan boshlab 6 m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan harakatlanayotgan raketa 75 m yo'lda qanday tezlik oladi?

Javob: 30

**46.** Tinch holatidan boshlab tekis tezlanuvchan harakatlanayotgan shar dastlabki sekundda 10 cm yo'l o'tdi. Harakat boshidan 3 sekund ichida u qanday (cm da) yo'l o'tadi?

Javob: 90

**47.** Miltiq stvolining 1/4 ini o'tgan o'qning tezligi stvoldan uchib chiqayotgandagidan necha marta kichik? O'qning tezlanishini doimiy deb hisoblang.

Javob: 2

**48.** Agar poyezd tormoz yo'lini 30 s da 0,5 m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan o'tsa, u tormozlanish boshlanguncha qanday tezlikda harakatlangan?

Javob: 15

**49.** Agar haydovchi 20 m/s tezlikda darhol tormozni bossa, va tormozlash paytidan to'xtaguncha 6 s vaqt o'tsa, avtomobil to'liq to'xtaguncha qanday yo'l o'tadi?

Javob: 60

**50.** 30 m/s tezlikda harakatlanayotgan avtomobil avariyalı tormozlanishda tormoz yo'lini 5 m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan o'tadi. Tormoz yo'lini toping.

Javob: 90

**51.** Avtomobilning to'liq to'xtaguncha tormozlanishiga 4 s vaqt ketdi va bunda uning tezlanishi 4 m/s<sup>2</sup> edi. Tormoz yo'lini toping.

Javob: 32

**52.** 15 km/h tezlikda avtomobilning tormoz yo'li 1,5 m ga teng. 90 km/h tezlikda uning tormoz yo'li qancha bo'ladi? Ikkala holda tormozlanish bir xil tezlanishda sodir bo'ladi.

Javob: 54

**53.** Gorizontal muz maydoni sirti bo'ylab tosh qanday tezlikda otilsa, u 0,5 m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan sirpanib boshlang'ich vaziyatdan 100 m masofada to'xtaydi?

Javob: 10

54. Harakatlanayotgan poyezddan oxirgi vagon ajratib yuborildi. Poyezd o'sha tezlik bilan harakatini davom ettiradi. Vagon doimiy tezlanish bilan harakatlanadi, deb hisoblab, uning to'xtaguncha o'tgan yo'l poyezdning shu vaqt momentigacha o'tgan yo'lidan necha marta kichikligini toping.

Javob: 2

55. O'q 20 cm qalinlikdagi doskani teshib o'tadi. O'qning doskaga yetguncha tezligi 200 m/s, undan uchib chiqishdagi tezligi 100 m/s. O'qning doska ichidagi harakatida tezlanishi ( $\text{km/s}^2$ ) da qanchaga teng?

Javob: 75

56. Harakatning bir sekundida jism 10 m yo'l o'tdi, bunda uning tezligi yo'nalishini o'zgartirmay, boshlang'ich holat bilan solishtirganda 4 marta ortdi. Jismning tezlanishi qanday bo'lgan?

Javob: 12

57.  $0,5 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatlanib, jism o'z tezligini 60 m yo'lda 4 martaga oshirdi. Jismning hoshlang'ich tezligini toping.

Javob: 2

58. Chang'ichi 180 m uzunlikdagi tog'dan tushmoqda. Agar chang'ichining tezlanishi  $0,5 \text{ m/s}^2$ , boshlang'ich tezligi esa 4 m/s bolsa, tushish qancha vaqtini oladi?

Javob: 20

59. Jism tinch holatdan tekis tezlanuvchan harakatlana boshladi va harakat boshidan beshinchi sekundda 27 m yo'l o'tdi. U qanday tezlanish bilan harakatlangan?

Javob: 6

60. Avtomobil tekis tezlanuvchan harakatlanib, harakat boshidan 5 s o'tgach 36 km/h tezlikka erishdi. Avtomobil harakatning uchinchi sekundida qanday yo'l o'tgan?

Javob: 5

61. Jism tinch holatdan tekis tezlanuvchan harakatlanyapti. Uning ikkinchi sekundda o'tgan yo'l birinchi sekundda o'tgan yo'lidan necha marta katta?

Javob: 3

62. Doimiy tezlanishli to'g'ri chiziqli harakatning beshinchi sekundida jism 5 m yo'l o'tadi va to'xtaydi. Jism bu harakatning ikkinchi sekundida qanday yo'l o'tadi?

Javob: 35

63. Bir yo'nalishda doimiy tezlanish bilan harakatlanib, jism har biri 2 s dan bo'lgan ketma-ket ikki vaqt oraliqlarida 16 va 8 m li yo'l kesmalarini o'tadi. Jismning birinchi kesma boshidagi tezligini toping

Javob: 10

64. 10 m/s boshlang'ich tezlik berilgan jism o'zgarmas  $2 \text{ m/s}^2$  ga teng bo'lgan va boshlang'ich tezlikka qarama-qarshi yo'naligan tezlanish bilan harakatlanadi. Harakat boshidan 8 s ichida jism o'tgan yo'lni aniqlang.

Javob: 34

#### Og'irlilik maydonidagi harakat (vertikal bo'yicha)

65. Yerdan 12 m balandlikdan boshlang'ich tezliksiz jism tushadi. Tushish boshidan 1 s o'tgach jism qanday balandlikda bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 7

66. Erkin tushayotgan jismning o'ninchisi sekundda o'tgan yo'l, undan oldingi sekundda o'tgan yo'lidan necha metrga ko'p ekanligini aniqlang. Jismning boshlang'ich tezligi nolga teng.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 10

67. Otish momentidan jismning yerga tushish momentigacha bo'lgan vaqt 3 s ga teng bo'lishi uchun, uni yer sirtidan qanday tezlik bilan vertical yuqoriga otish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 15

**68.** Jism yer sirtidan 20 m/s tezlik bilan vertical yuqoriga otildi. U qanday maksimal balandlikka ko'tariladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 20

**69.** Vertikal yuqoriga otilgan sharcha otlish nuqtasiga 2,4 s dan so'ng qaytib keldi. Sharcha qanday (cm da) balandlikka ko'tarilgan?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 720

**70.** Yerdan ikki jism vertical yuqoriga otildi. Birinchi jismning boshlang'ich tezligi ikkinchisining boshlang'ich tezligidan 4 marta katta. Birinchi jism ikkinchisiga qaraganda necha marta balandroq ko'tariladi?

Javob: 16

**71.** Qaysidir vaqt momentida erkin tushayotgan jismning tezligi 6 m/s bo'ladi. 2 s dan keyin jismning tezligi qanday bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 26

**72.** Koptok qandaydir balandlikdan 4 m/s tezlik bilan vertical pastga otildi. Harakatning dastlabki ikki sekundida koptokning o'rtacha tezligini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 14

**73.** Tosh 2 m/s tezlik bilan vertical pastga otildi. Otishdan 1 s o'tgach, toshning tezligi necha marta ortadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 6

**74.** Vertikal pastga otilgan jismning tezligi bir sekunddan so'ng 6 martaga ortdi. Otishdan ikki sekund o'tgach uning tezligi boshlang'ich bilan solishtirganda necha marta ortadi?

Javob: 11

**75.** Agar ko'tarilishda jismning tezligi otishdan 0,8 s o'tgach ikki marta kamaygan bo'lsa, u qanday tezlik bilan vertical yuqoriga otilgan?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 16

**76.** 20 m balandlikdan doskaga tushgan metal sharcha undan 25 % tezligini yo'qotib sakraydi. Sharcha urilishdan necha sekund o'tib doskaga ikkinchi bor tushadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

**77.** Tosh 50 m/s tezlik bilan vertical yuqoriga otildi. Necha sekund o'tgach uning tezligi 30 m/s bo'lib pastga yo'nalgan bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 8

**78.** Jism 40 m balandlikdan 5 m/s boshlang'ich tezlik bilan vertikal yuqoriga otildi. 2 s o'tgach jism qanday balandlikda bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 30

**79.** Jismi vertikal yuqoriga 20 m/s tezlik bilan otildi. Jismning harakat boshidan 3 s ichida o'tgan yollini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 25

**80.** Yerdan 8 m balandda bo'lgan nuqtadan vertical yuqoriga otilgan jism otish paytidan 2 s o'tgach yerga tushadi. Jism qanday tezlik bilan otilgan?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 6

**81.** Jism 15 m balandlikdan 10 m/s boshlang'ich tezlik bilan vertikal yuqoriga otildi. Necha sekunddan so'ng u yerga tushadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

**82.** To'p 2,4 m balandlikdan 1 m/s tezlik bilan vertikal pastga otildi. Yerga tushish paytida uning tezligi qancha bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 7

**83.** To'p 2,4 m balandlikdan 1 m/s tezlik bilan vertical pastga otildi. Qancha vaqtdan so'ng (ms da) u yer sirtiga yetadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 600

84. Jism 80 m balandlikdan erkin tushadi. U tushish vaqtining so'nggi sekundida qanday yo'l o'tadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 35

85. Agar jism tushish vaqtining oxirgi sekundida 45 m yo'l o'tgan bo'lsa, u qanday balandlikdan tushgan?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 125

86. Jism yer sirtidan vertikal yuqoriga otildi. Jismning maksimal ko'tarilish balandligining 8/9 qismini tashkil qiluvchi balandlikdagi tezligi boshlang'ich tezlikdan necha marta kichik?

Javob: 3

87. Jism vertikal yuqoriga otiladi. Kuzatuvchi qayd etdiki, jism 75 m balandlikdagi nuqtada 2 s vaqt intervali bilan ikki marta bo'ldi. Jismning boshlang'ich tezligini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 40

88. Vertikal yuqoriga otilgan tosh bitta balandlikda ikki marta bo'ldi – harakat boshidan 0,8 va 1,5 s vaqt o'tganda. Bu balandlik qanchaga teng?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 6

89. Agar jismning harakatning oxirgi sekundida o'tgan yo'li dastlabki sekundda o'tgan yo'lidan besh marta katta bo'lsa, jism qanday balandlikdan boshlang'ich teziksiz tushgan?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 45

90. Erkin tushayotgan jism o'z harakatining oxirgi 10 sekundida butun yo'lning 3/4 ini o'tadi. Jism boshlang'ich teziksiz tushgan balandlikni aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2000

91. Vertikal trubkadan qum sochilyapti, bunda qum oqimining diametri trubka diametriga teng bo'lib qolmoqda. Qum zarrasining trubka oxiridagi tezligi 1 m/s. Trubka oxiridan 2,4 m masofadagi oqimning ichida qumning o'rtacha zichligi trubka oxirining ichidagisiga qaraganda necha marta kichik bo'ladi? Har bir qum zarrasi  $g = 10 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan erkin tushadi deb hisoblansin.

Javob: 7

#### Ikki jism harakati

92. Bir nuqtadan bir vaqtida bir yo'nalish bo'yicha ikki jism harakat boshladi: biri 5 m/s tezlik bilan tekis, boshqasi boshlang'ich teziksiz 5 m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan tekis tezlanuvchan. Necha sekunddan so'ng ikkinchi jism birinchisini quvib yetadi?

Javob: 5/2

93. Yo'lovchiga vagonning eshigigacha 15 m qolganda poyezd joyidan qo'zg'aldi va 5 m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan harakatlana boshladi. Yo'lovchi 4 m/s tezlik bilan yugurib ketdi. Necha sekunddan so'ng u vagon eshigiga yetishadi?

Javob: 6

94. Doimiy 5 m/s tezlik bilan tushayotgan aerostatdan yerga nisbatan 10 m/s tezlik bilan vertical yuqoriga jism otiladi. Necha sekunddan so'ng jism aerostat bilan tenglashadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

95. Ikkita tosh bir vertikalda bir-biridan 20 m masofada joylashgan. Qandaydir vaqt momentida yuqoridagi tosh 2 m/s tezlik bilan vertical pastga otiladi, pastdagisi esa boshlang'ich teziksiz qo'yib yuboriladi. Necha sekund o'tib toshlar to'qnashishadi?

Javob: 10

96. Yer sirti ustida muallaq turgan vertolyotdan boshlang'ich teziksiz ikki jism tashlab yuborildi. Bunda ikkinchisi birinchisidan 1 sekundga kechiktirildi. Birinchi yukning harakati boshidan 4 s o'tgandagi yuklar orasidagi masofani aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 35

**97.** Jism 4 m/s boshlang'ich tezlik bilan vertikal yuqoriga otildi. U trayektoriyaning yuqori nuqtasiga erishgan paytda u otilgan nuqtadan o'sha boshlang'ich tezlik bilan ikkinchi jism vertical yuqoriga otildi. Jismilar boshlang'ich nuqtadan qanday masofada (cm da) uchrashishadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 60

**98.** Kichkina sharcha 3,2 m balandlikdan boshlang'ich tezliksiz tusha boshlaydi. U bilan bir vaqtida yer sirtidan boshqa sharcha birinchi shar yerga tushganda ega bo'ladijan tezlikdan 1,5 marta kichik bo'lgan boshlang'ich tezlik bilan otildi. Sharlar qanday balandlikda (cm da) to'qnashishadi?

Javob: 140

**99.** Tezyurar lift yerga nisbatan 5 m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan tushmoqda. Qandaydir vaqt momentida lift shiftidan bolt tusha boshlaydi. Liftning balandligi 2,5 m. Boltning tushish vaqtini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 1

**100.** Yo'lovchiga vagonning eshigigacha 25 m qolganda poyezd joyidan qo'zg'aldi va 0,5 m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan harakatlana boshladi. Yo'lovchi doimiy tezhk bilan yugura boshladi. Qanday mimmal tezlikda u o'z vagonini quvib yetadi?

Javob: 5

**101.** Ikki jism bir vaqtida bir chiziq bo'ylab bir-biriga tomon 10 va 20 m/s boshlang'ich tezliklar bilan va mos ravishda boshlang'ich tezliklarga qarama-qarshi yo'nalgan 2 va 1 m/s<sup>2</sup> doimiy tezlanishlar bilan harakatlana boshladi. Jismilar orasidagi boshlang'ich masofaning qanday maksimal qiymatida ujar harakat jarayonida uchrashishadi?

Javob: 150

#### **Harakatning bir necha ketma-ket bosqichlari**

**102.** Agar jism dastlabki 5 s ichida 2 m/s doimiy tezlik bilan, keyin esa 5 s davomida 2 m/s<sup>2</sup> doimiy tezlanish harakatlansa, u to'g'ri chiziq bo'ylab qanday yo'lni o'tadi?

Javob: 45

**103.** Yurguruvchi 4 s ichida 10 m/s tezlikkacha o'z tezligini oshiradi, shundan keyin doimiy tezlik bilan yuguradi. 100 m masofada u qanday natija ko'rsatadi?

Javob: 12

**104.** Avtomobil tinch holatidan tekis tezlanuvchan harakatlanib 10 s da 20 m/s tezlikka erishadi. Keyingi 5 s da u tekis harakatlanadi, so'ngra doimiy tezlanish bilan harakatlanib 5 s davomida to'xtaydi. Avtomobilning butun harakat davomidagi yo'lini toping.

Javob: 250

**105.** Avtomashina ikki svetofor orasidagi masofaning 0,1 qismiga teng bo'lgan birinchi uchastkani tekis tezlanuvchan harakatlanib o'tdi va 20 m/s tezlik oldi. Keyin u shu tezlik bilan tekis yurdi va uzunligi birinchisiga teng bo'lgan oxirgi uchastkada doimiy tezlanish bilan tormozlandi. Avtomashinaning o'rtacha tezligi (km/h da) qanday?

Javob: 60

**106.** Tinch holatidan tekis tezlanib harakatlangan bola chanada uzunligi 50 m bo'lgan teg'dan 10 s da tushdi, so'ngra to'xtaganiga qadar gorizontal uchastkada yana 25 m o'tdi. Harakatning ikkinchi uchastkasida bola tezlanishining kattaligini toping.

Javob: 2

**107.** Yer sirtidan vertikal yuqoriga uchirilgan raketaning dvigatellari 10 s davomida ishlab turdi va raketaga 30 m/s<sup>2</sup> doimiy tezlanish berdi. Dvigatellar o'chirilgach raketa yer sirti ustida qanday maksimal balandlikka (km da) erishadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 6

**108.** Vertikal yuqoriga uchgan raketaning dvigateli 20 s davomida ishlab turdi. Raketa yana biroz vaqt harakatni davom ettrib 1,5 km maksimal uchish balandligiga erishdi. Raketaning dvigatellar ishlab turgan vaqtida tezlanishini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 5

109. 20 s davomida raketa doimiy  $0,8g$  tezlanish bilan ko'tariladi-da, uning dvigatellari o'chiriladi. Shundan so'ng qancha vaqt o'tib raketa yerga tushadi?

Javob: 40

110. Jism boshlang'ich tezhiksiz doimiy tezlanish bilan to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlana boshlaydi. 28 s dan keyin uning tezlanishi yo'nalish ho'yicha qarama-qarshi tomonga o'zgaradi va miqdor jihatidan 4 % ga kamayadi. Shundan so'ng qancha vaqt o'tib jism boshlang'ich nuqtaga qaytib keladi?

Javob: 70

111. Konkichi doimiy  $9$  tezlik bilan  $450$  m o'tadi, keyin to'xtaguniga qadar  $0,5 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan tormozlanadi.  $9$  tezlikning qandaydir qiymatida konkichi harakatining umumiy vaqtini minimal bo'ladi. Shu vaqt qanchaga teng?

Javob: 60

#### Gorizontal otish

112. Samolyot  $8$  km balandlikda  $900 \text{ km/h}$  tezlik bilan gorizontal uchmoqda. Mo'ljalga necha kilometr qolganda uchuvchi bombani tashlashi kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 10

113. Agar qandaydir balandlikdan gorizontal otilgan jismning boshlang'ich tezligi  $2$  marta ortsa, uning uchish uzoqligi necha marta ortadi?

Javob: 2

114. Gorizontal otilgan jismning boshlang'ich balandligini  $4$  marta kamaytirib, boshlang'ich tezligini  $3$  marta oshirilsa, uning uchish uzoqligi necha foizga ortadi?

Javob: 50

115.  $45$  m balandlikdagi minoradan qandaydir tezlik bilan tosh gorizontal otildi. Qancha sekunddan so'ng u yerga tushadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

116.  $4,9 \text{ m/s}$  tezlik bilan gorizontal otilgan jismning uchish uzoqligi u otilgan balandlikka teng. Bu balandlik nimag teng (cm da)?  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 490

117. Jism qandaydir balandlikdan  $40 \text{ m/s}$  tezlik bilan gorizontal otildi. Uning uch sekunddan keyingi tezligini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 50

118.  $15 \text{ m/s}$  tezlik bilan gorizontal otilgan tosh yerga  $25 \text{ m/s}$  tezlik bilan tushdi. Toshning uchishi qancha davom etgan?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

119. Yerdan  $5$  m balandda joylashgan derazadan gorizontal yo'nalishda tosh otildi va u udyan  $8$  m masofaga borib tushdi. Tosh qanday tezlikda otilgan?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 8

120. Tosh gorizontal otilgan. Otishdan  $2$  s o'tib uning tezlik vektori gorizont bilan  $45^\circ$  burchak hosil qildi. Toshning boshlang'ich tezligini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 20

121. Jism gorizontal otilgan. Otishdan  $2$  s o'tib tezlik va tezlanish vektorlarining yo'nalishlari orasidagi burchak  $60^\circ$  ga teng bo'ldi. Jismning shu paytdagi to'liq tezligini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 40

122. Gorizontal yo'nalishda otilgan jismning uchish uzoqligi u tashlangan balandlikning yarmiga teng. Jism yerga tushishida uning tezligi gorizont bilan hosil qilgan burchakning tangensi qanchaga teng?

Javob: 4

123. Tosh  $5,5$  m balandlikdan gorizontal yo'nalishda shunday otildi, u yer sirtiga  $45^\circ$  burchak ostida tushadi. Tosh gorizontal yo'nalishda qancha masofa uchib o'tdi?

**Javob: 11**

124. 500 m balandlikda 180 km/h tezlik bilan uchayotgan samolyotdan yuk tushib ketdi. Qanday balandlikda yukning tezligi gorizontga  $60^\circ$  burchak ostida yo'nalgan bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 125**

125. Koptok 2 m/s tezlik bilan gorizontal otildi. Koptokning gorizontal sirtga ikkita ketma-ket urilishlari orasidagi masofa 4 m ga teng. Koptok qanday balandlikdan otilgan?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ . (urilishlar absolyut elastik).

**Javob: 5**

126. Qiylak burchagi gorizontga  $30^\circ$  bo'lgan tog'dan 15 m/s boshlang'ich tezlik bilan gorizontal yo'nalishda koptok otiladi. Otish nuqtasidan qiya tekislik bo'ylab qanday masofada koptok tushadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 30**

127. Metall sharcha zinapoyaning yuqori zinasi chetiga 1,5 m/s tezlik bilan dumalab keldi. Har bir zinaning balandligi va kengligi 20 cm. Sharcha hisob bo'yicha qaysi zinaga birinchi uriladi? Sharcha ustida bo'lgan (yuqori) zinadan keyingi zinani birinchi deb hisoblangu.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 3**

128. Qo'zg'almas miltiqdan 120 m masofadagi vertikal nishonga gorizontal yo'nalishda ikki marta o'q uzilgan. Birinchi o'qning tezligi 300 m/s, ikkinchisini 400 m/s. Nishondagi teshiklar orasidagi masofani (cm da) aniqlang?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 35**

129. Bir nuqtadan bir vaqtida ikki jism otiladi: biri 6 m/s tezlik bilan gorizontal, boshqasi 8 m/s tezlik bilan vertikal. Jismilar 2 s dan so'ng bir-biridan qanday masofada bo'ladi?

**Javob: 20**

130. Ikki tosh hir gorizontal chiziq ustida, bir-biridan 30 m masofada joylashgan. Bir toshni 9 m/s tezlik bilan vertikal yuqoriga otib yuborishadi, ikkinchisini esa birinchi tosh yo'nalishiga gorizontal ravishda va u bilan bir vaqtida 12 m/s tezlik bilan otishadi. Harakat davomida toshlar orasidagi eng qisqa masofa qanchaga teng?

**Javob: 18**

#### **Burchak ostida otish**

131. Koptok yer sirtidan gorizontga  $30^\circ$  burchak ostida 20 m/s boshlang'ich tezlik bilan otildi. U yerga urilguncha qancha vaqt o'tadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 2**

132. 40 m/s tezlik bilan gorizontga  $60^\circ$  burchak ostida uchirilgan raketaning ko'tarilish balandligini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 60**

133. Qurordan gorizontga burchak ostida uchib chiqqan snaryand 20 s uchdi. U qanday maksimal balandlikka erishgan?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 500**

134. Gorizontga burchak ostida otilgan tosh 20 m maksimal balandikka erishdi. Toshning uchish vaqtini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 4**

135. 40 m/s tezhk bilan gorizontga  $15^\circ$  burchak ostida uchirilgan raketaning uchish uzoqligini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 80**

136. Jism yer sirtidan gorizontga  $30^\circ$  burchak ostida otilgan. To'liq uchish vaqt 2 s ga teng bo'ldi. Jismning boshlang'ich tezligini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 20**

137. Ko'tarilishning eng yuqori nuqtasida jismning tezligi boshlang'ich tezlikdan ikki marta kichik bo'lishi uchun uni gorizontga qanday burchak (graduslarda) ostida otish kerak?

Javob: 60

138. Gorizontga burchak ostida otilgan tosh yerga  $15 \text{ m/s}$  tezlikda tushdi. Agar harakat vaqtida toshning eng katta tezligi eng kichik tezligidan uch marta katta ho'lGANI ma'lum bo'lsa, uning maksimal ko'tarilish balandligi qanday?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 10

139. 2 km balandlikda  $540 \text{ km/h}$  tezlik bilan uchayotgan samolyot aniq zenit quroli ustida bo'lgan paytda, quroldan o'q uzeladi. Snaryad qanday minimal tezlik bilan uchib chiqqanda nishonni shikastlashi mumkin?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 250

140. Gorizontga  $45^\circ$  burchak ostida otilgan tosh harakat boshidan  $0,8 \text{ s}$  o'tgach  $12 \text{ m/s}$  vertikal tashkil etuvchi tezlikka ega bo'lgan holda ko'tarilishni davom ettirdi. Toshning otilish va tushish nuqtalari orasidagi masofa qanday?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 80

141. Jism  $30 \text{ m/s}$  boshlang'ich tezlik bilan gorizontga  $45^\circ$  burchak ostida otildi. Jismning tezligi gorizontga  $30^\circ$  burchak ostida yo'nalgan paytda u qanday balandlikda bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 15

142. Gorizontga  $45^\circ$  burchak ostida otilgan disk  $15 \text{ m}$  maksimal balandlikka erishdi. Diskning uchish uzoqligi qanday?

Javob: 60

143. Tosh gorizontga shunday burchak ostida otildiki, bu burchakning sinusi  $0,8$  ga teng. Uchish uzoqligining maksimal ko'tarilish balandligiga nisbatini toping.

Javob: 3

144. Toshni yer sirtidan birinchi gal gorizontga  $60^\circ$  burchak ostida, ikkinchi gal  $30^\circ$  burchak ostida otishdi. Agar birinchi holda tosh otilish joyidan ikki marta uzoqroqqa borib tushsa, birinchi holdagi ko'tarilish balandligi ikkinchi hoidagidan necha marta katta bo'ladi?

Javob: 6

145. Yer sirtining bitta nuqtasidan ikkita tosh otib yuborildi. Birinchisi yerga  $L$  masofada tushdi, ikkinchisi –  $\beta L$  masofada. Agar ikkinchi tosh gorizontga  $30^\circ$  burchak ostida otilgan, va ularning ko'tarilish balandliklari birday bo'lsa, birinchi tosh gorizontga qanday burchak ostida (graduslarda) otilgan?

Javob: 60

146. Jism gorizontga burchak ostida otildi. Butun harakat vaqtining qanday qismida (soizlarda) jism maksimal ko'tarilish balandligining  $3/4$  qismidan balandda bo'ladi?

Javob: 50

147. Mina vertikal yuqoriga  $3g$  tezlanish bilan uchadigan rakctani sbikastlashi uchun u raketa starti vaqtida (raketa bilan bir vaqtida) minometdan qanday tezlikda uchib chiqishi kerak? Minometdan raketa start oladigan joygacha masofa  $250 \text{ m}$ , mina gorizontga  $45^\circ$  burchak ostida uchib chiqadi.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 100

148. Futbol to'pi  $10 \text{ m/s}$  tezlik bilan gorizontga  $15^\circ$  burchak ostida tepiladi. Tepish nuqtasidan  $3 \text{ m}$  masofada vertikal devor bo'lib, to'p unga elastik uriladi. To'pni tepish nuqtasidan u yerga tushgan nuqttagacha bo'lgan masofani aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 1

149. Shlangdan gorizontga  $15^\circ$  burchak ostida suv oqimi chiqadi. Oqim sblangdan  $20 \text{ m}$  masofada borib tushadi. Shlang uchining yuzasi  $1 \text{ cm}^2$ . Shlangdan 1 minutda qancha massali suv oqib chiqadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 120

150. Shlangdan 10 m/s tezlik bilan gorizontga  $30^\circ$  burchak ostida suv oqimi chiqadi. Agar teshik yuzasi (suv chiqadigan)  $2 \text{ cm}^2$  bo'lsa, havoda bo'ladigan suvning massasini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

151. 15 m balandlikda joylashgan nuqtadan tosh 20 m/s tezlik bilan gorizontga  $30^\circ$  burchak ostida otiladi. Qancha vaqt dan so'ng u yerga tushadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

152. Yerdan 30 m balandlikda joylashgan nuqtadan tosh 20 m/s tezlik bilan gorizontga  $45^\circ$  burchak ostida otiladi. U otish nuqtasidan qanday masofada (gorizontal bo'yicha) tushadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 60

153. 7,5 m balandlikda joylashgan derazadan tosh gorizontga  $45^\circ$  burchak ostida otiladi. U uy erordan 15 m masofada tushadi. Tosh qanday tezlik bilan otilgan?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 10

154. Tog' yonbag'ridagi qandaydir nuqtadan nishablik bo'ylab yuqoriga 21 m/s boshlang'ich tezlik bilan gorizontga  $60^\circ$  burchak ostida jism otiladi. Agar tog'ning qiyalik burchagi  $30^\circ$  bo'lsa, jism otish nuqtasidan qanday masofada tushadi?  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 30

155. Koptok qiyalik burchagi gorizontga  $30^\circ$  bo'lgan tog' ustida 6 m/s boshlang'ich tezlik bilan tog' yonbag'riga tik ravishda otib yuboriladi. Koptok otish nuqtasidan qiya tekislik bo'ylab qanday masofada (cm da) tushadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 480

156. 1,5 m balandlikdan qiya tekislik ustiga vertikal yo'nalishda sharcha tushadi va absolyut elastik ravishda qaytadi. U yana shu tekislikka tushish nuqtasidan qanday masofada uriladi? Tekislikning qiyalik burchagi gorizontga  $30^\circ$ .

Javob: 6

157. Qandaydir nuqtadan ikkita tosh bir vaqtida otiladi: biri shimoliy yo'nalishda 24 m/s tezlik bilan gorizontga  $30^\circ$  burchak ostida, boshqasi janubiy yo'nalishda 32 m/s tezlik bilan gorizontga  $60^\circ$  burchak ostida. 1,5 s dan so'ng toshlar orasidagi masofani aniqlang?

Javob: 60

158. Ikkita tosh bir gorizontai chiziq ustida bir-biridan 42 m masofada joylashgan. Toshlardan biri vertikal yuqoriga 5 m/s tezlik bilan otiladi, ikkinchisi esa u bilan bir vaqtida 8 m/s tezlik bilan birinchi toshga tomon yo'nalish bo'ylab gorizontga  $30^\circ$  burchak ostida otiladi. Harakat davomida toshlar orasidagi eng kichik masofa qanchaga teng?

Javob: 6

#### Aylanma harakat

159. Bir gildirak sekundiga 50 marta aylanib tekis aylanmoqda. Ikkinchisi gildirak tekis aylan turib 30 sekundda 500 marta aylanmoqda. Birinchi gildirakning burchak tezligi ikkinchisinikidan necha marta katta?

Javob: 3

160. Gildirak  $4\pi$  rad/s burchak tezlik bilan tekis aylanib necha sekundda 100 marta to'liq aylanadi?

Javob: 50

161. Ventilyator parragining burchak tezligi  $20\pi$  rad/s. 10 minut ichidagi to'liq aylanishlar sonini toping.

Javob: 6000

162. Disk tekisligi ustida uning markazidan chetiga radius bo'ylab to'g'ri chiziq o'tkazilgan. Disk tekis aylanishni boshladi, bunda to'g'ri chiziq 7 s ichida  $\frac{2}{3}\pi$  radian burchakka burildi. Diskning aylanish davrim toping.

Javob: 21

163. Aylanayotgan g'ildirak chetidagi nuqtaning chiziqli tezligi 50 cm/s, aylanish o'qiga 3 cm yaqinroqda joylashgan nuqtaning tezligi esa 40 cm/s. G'ildirakning radiusini (cm da) aniqlang.

Javob: 15

164. Agar aylanayotgan g'ildirak gardishidagi nuqtaning chiziqli tezligi 0,5 m/s, va aylanish o'qiga 4 cm yaqinroqdagi nuqtaming tezligi 0,3 m/s bo'ssa, u qanday burchak tezlikda aylanmoqda?

Javob: 5

165. Soatning minut strelkasi sekund strelkasidan 20 % ga uzunroq. Sekund strelka oxirining tezligi minut strelka oxirining tezligidan necha marta katta?

Javob: 50

166. Ikki shkv tasmali uzatma orqali bog'langan. Birinchi shkv minutiga 600 marta aylanadi. Ikkinchisi minutiga 3000 marta aylanishi kerak. Agar ikkinchi shkvning diametri 10 cm bo'ssa, birlinchisining diametrini qanday qilib yasash (cm da) kerak?

Javob: 50

167. Yuk barabanining diametri 18 cm bo'lgan chig'ir yordamida 0,9 m/s tezlik bilan tekis ko'tariladi. Chig'ir barabani aylanishining burchak tezligini toping.

Javob: 10

168. 0,2 m radiusli blok orqali oxirlarida bir xil yukchalar bo'lgan cho'zilmas ip o'tkazilgan. Blokning o'qi 1 m/s tezlik bilan ko'tariladi, yuklardan biri esa 2 m/s tezlik bilan tushadi (yerga nishbatan). Blok aylanishining burchak tezligi qancha?

Javob: 15

169. Mijtiqdan chiqadigan o'q 50 ayl/s chastota bilan aylanayotgan, diametri 20 cm bo'lgan yupqa devorli silindriga borib tegadi. Agar o'q silindrning diametri yo'nalishida otilsa, va o'q silindr ichidan uchib chiqqanda kirish teshigi 1 cm ga siljisa, o'qning tezligini toping.  $\pi = 3,14$ .

Javob: 628

170. Yer sirtining 60° kenglikda yotuvchi nuqtasing chiziqli tezligi ekvatorda yotuvchi nuqtaning chiziqli tezligidan necha inarta kichik?

Javob: 2

171. Ayalana bo'ylab 16 rad/s burchak tezlik va 2 m/s chiziqli tezlik bilan harakatlanayotgan nuqtaning markazga intilma tezlanishining miqdorini aniqlang

Javob: 32

172. Agar g'ildirakning aylanish davri 5 marta kamaysa, uning gardishidagi nuqtaning markazga intilma tezlanishi necha marta ortadi?

Javob: 25

#### Kinematik hog'lanişlar

173. Uchlariga ikki sharcha osilgan cho'zilmas ip blok orqali o'tkazilgan. Blok o'qi 4 m/s tezlik bilan vertikal yuqoriga ko'tariladi, va bunda sharchalardan biri o'z joyida ushlab turiladi. Boshqa sharcha qanday tezlikda harakatlanadi?

Javob: 8

174. Uchlariga ikkita yuk osilgan cho'zilmas ip blok orqali o'tkazilgan. Qandaydir vaqt momentida blok o'qi 2 m/s tezlik bilan vertikal yuqoriga ko'tariladi, yuklardan biri esa 3 m/s tezlik bilan tushadi. Shu paytda boshqa yuk qanday tezlik bilan harakatlanadi?

Javob: 7

175. Sol arqon yordamida baland qirg'oqqa tomon tortilmoxda. Arqon gorizont bilan 60° burchak hosil qilganda sol 1,2 m/s tezlik bilan harakatlanishi uchun arqonni qanday tezlikda (cm/s da) tortish kerak?

Javob: 60

176. Uchlariga ikkita bir xil yuk osilgan uzun ip bir xil halandlikda bir-biridan 1,2 m masofada qo'qib qo'yilgan ikkita mix orqali o'tkazilgan. Ipning mixlar orasidagi masofaning o'rtasida joylashgan nuqtasini pastga doimiy 1 m/s tezlik bilan torta boshlashadi. Yuklar 40 cm ga ko'tarilgan paytda, ularning tezligi (cm/s da) qanday bo'ladi?

Javob:80

177. Agar avtomobil g'ildiragining diametri 60 cm ga, va uning aylanish burchak tezligi 60 rad/s ga teng bo'ssa, avtomobil sirpanishsiz qanday tezlikda harakatlanadi?

Javob:18

178. G'ildirak gorizontal yo'lda sirpanishsiz 1 m/s tezlik bilan dumalamoqda. G'ildirakning vertikal diametrining yuqoriga uchida joylashgan nuqtasining tezligini aniqlang.

Javob:2

179. 1 m uzunlikdagi tayoq yerda yotibdi. Tayoqning bir uchini 1,2 m/s tezlik bilan vertikal yuqoriga ko'tara boshlashadi. Tayoqning yuqoridagi uchi 80 cm balandda bo'lgan vaqtida uning pastki uchi yer bo'ylab qanday tezlikda (cm/s da) sirpanayotgan bo'ladi?

Javob:160

180. 60 cm uzunlikdagi tayoqchani devorga tirab qo'yishdi, va u sirpana boshladi. Tayoqchaning pastki uchi va devor orasidagi masofa 48 cm bo'lgan paytda uning (pastki uch) tezligi 18 cm/s ga teng bo'ladi. Shu paytda yuqori uchning tezligi (cm/s da) qanday bo'ladi?

Javob:24

181. Tayoqcha tekislikda harakatlanadi. Qandaydir vaqt momentida tayoqchaming bir uchining tezligi tayoqcha bo'ylab yo'nalgan va 25 cm/s ga teng, ikkinchi uchning tezligi esa tayoqcha yo'nalishiga 60° burchak ostida yo'nalgan. Shu paytda ikkinchi uchning tezligi qanchaga (cm/s da) teng?

Javob:50

182. To'g'ri burchakli teng yonli ABC uchburchak shaklidagi plastinka tekislikda harakatlanadi. Qandaydir vaqt momentida to'g'ri burchakli B uchning tezligi 10 cm/s ga teng va A uch tomonqa yo'nalgan, A uchning tezligi esa AC ga parallel yo'nalgan. Shu paytda C uchning tezligi qanchaga (cm/s da) teng?

Javob:20

183. Teng tomonli ABC uchburchak shaklidagi plastinka tekislikda harakatlanadi. Qandaydir vaqt momentida A nuqtaning tezligi AC ga parallel yo'nalgan, B nuqtaning tezligi esa BC ga parallel yo'nalgan va 15 cm/s ga teng. Shu paytda C uchning tezligi qanchaga (cm/s da) teng?

Javob:30

## 2. DINAMIKA

Nyutonning ikkinchi qonuni

a) parallel kuchlar

184. Doimiy kuch ta'sirida harakatlana boshlagan 6 kg massali jism birinchi sekundda 15 m yo'l o'tdi. Kuchning miqdorini aniqlang.

Javob:180

185. 60 N kuch jismga  $0,8 \text{ m/s}^2$  tezlanish beradi. Qanday kuch shu jisinga  $2 \text{ m/s}^2$  tezlanish beradi?

Javob:150

186. 36 km/h tezlik bilan harakatlanib kelgan 2 t massali avtomobil tormozlash boshidan 25 m yo'l o'tib to'xtadi. Tormozlovchi kuch miqdorini (kN da) aniqlang.

Javob:4

187. 4 t massali yuk avtomobili  $0,3 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatlanadi. Yuk ortilgandan keyin u o'sha tortish kuchida joyidan  $0,2 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan qo'zg'aladi. Avtomobilga necha tonna yuk ortilgan? Harakatga qarshilik hisobga olinmasin.

Javob:2

188. Qandaydir kuch ta'sirida tinch holatidan harakatga kelgan aravacha 40 cm yo'l o'tdi. Aravachaga 2 kg yuk qo'yilganda u o'sha kuch ta'sirida, o'shancha vaqt ichida tinch holatidan boshlab 20 cm yo'l o'tdi. Aravachaning massasi qancha?

Javob:2

189. 2 kg massali jism vertikal yuqoriga og'irlik kuchi tezlanishidan ikki marta katta tezlanish bilan ko'tarilishi uchun unga qanday kuch bilan ta'sir qilish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:60**

190. 10 kg massali jism vertikal pastga  $5 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatlanishi uchun unga qanday kuch bilan ta'sir qilish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:50**

191. Agar yuk osilgan ipning tarangligi harakatsiz yuk hosil qilgan taranglikdan uch marta katta bo'lgan bo'sa, yuk ipda qanday tezlanish bilan ko'tarilmogda?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:20**

192. Trosning chidamliligi 1600 N. Shu tros yordamida qanday maksimal massali yukni  $15 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan ko'tarish mumkin?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:64**

193. 10 N taranglikka dosh hera oladigan ip orqali 0,5 kg massali yukni tinch holatidan vertikal yuqoriga ko'tarishmoqda. Harakatni tekis tezlanuvchan deb hisoblab, ip uzilmasdan turib yukni 0,1 s da ko'tarish mumkin bo'lgan chegaraviy balandlikni (cm da) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:5**

194. Blok orgali o'tkazilgan cho'zilmaydigan ipning bir uchiga 10 kg massali yuk osilgan. Yuk  $1 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan ko'tarilishi uchun ipning boshqa uchini qanday kuch bilan pastga tortish kerak? Blokning va ipning massasini hisobga olmang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:10**

195. 60 kg massali kosmonavt raketaning vertikal ko'tarilishida tayanchga 5400 N kuch bilan bosadi. Raketa tezlanishini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:80**

196. Agar lift pastga yo'nalgan va  $3 \text{ m/s}^2$  ga teng bo'lgan tezlanish bilan tushsa, uning ichida turgan 70 kg massali odamning vazni qancha bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:490**

197. Lift harakat boshida va to'xtashda bir xil miqdordagi tezlanishga ega bo'ladi. Agar lift ichida turgan odamning vazni birinchi va ikkinchi hollarda uch marta farq qilsa, shu tezlanishning miqdori qanday?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:5**

198. 1100 kg umumiyligi massali pastga tekis harakatlanayotgan aerostat yuqoriga shu tezlik modulli bilan tekis ko'tarila boshlashi uchun undan tashlab yuborish kerak bo'lgan yukning massasimi aniqlang. Arximed kuchi  $10 \text{ kN}$ . Havoning aerostat harakatiga qarshilik kuchi tezlikka proporsional.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:200**

199. 5 kg massali jism  $9 \text{ m}$  balandlikdan boshlang'ich tezliksiz tushib yer sirti yaqinida  $12 \text{ m/s}$  tezlik oldi. Havoning o'rtacha qarshilik kuchini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:1**

200. Vertikal yuqoriga  $40 \text{ m/s}$  tezlik bilan otilgan 1 kg massali jism  $2,5 \text{ s}$  dan keyin maksimal ko'tarilish balandligiga erishdi. Havoning qarshilik kuchini doimiy deb hisoblab, uning miqdorini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:6**

201. 0,5 kg massali shar  $10 \text{ m}$  balandlikdan qor ustiga tushadi va unda  $0,8 \text{ m}$  chuqurlikdadgi o'ra bosil qiladi. Havodagi va qordagi harakatni tekis tezlanuvchan, va havoning qarshilik kuchi  $0,6 \text{ N}$  ga teng deb hisoblab, qor ichidagi harakatda qarshilik kuchini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:60**

202.  $1,3 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan tushayotgan lift ichida bikrliqi  $595 \text{ N/m}$  bo'lgan prujinaga yuk osilgan. Agar prujinaning uzayishi  $1 \text{ cm}$  ga teng bo'sa, yukning massasini ( $\text{g da}$ ) toping.  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:700**

**203.** Avtomobil  $3 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatlana boshladi.  $60 \text{ km/h}$  tezlikda uning tezlanishi  $1 \text{ m/s}^2$  ga teng bo'ldi. Agar motorning tortish kuchi doimiy qolsa, va qarshilik kuchi tezlikka proporsional bo'lsa, avtomobil qanday barqaror (установившейся) tezlik ( $\text{km/h}$  da) bilan harakatda bo'ladi?

Javob:90

**204.** Bir xil moddadan tayyorlangan ikkita sharcha havoda tusha boshlaydi. Sharchalar radiuslarining nisbati 4 ga teng. Katta sbarchaning tushishdag'i barqaror tezligi necha marta katta? Qarshilik kuchi sharchaning ko'ndalang kesim yuzasiga va uning tezligining kvadratiga proporsional.

Javob:2

**205.** 1 g massali sharcha uchun havoda (juda yuqorida tushishda) tekis harakatning barqaror tezligi  $100 \text{ m/s}$ . Shu moddadan tayyorlangan, tushishdag'i barqaror tezligi  $200 \text{ m/s}$  bo'lgan boshqa sharchaning massasi qanchaga ( $g$  da) teng? Qarshilik kuchi sharchanning ko'ndalang kesim yuzasiga va uning tezligining kvadratiga proporsional.

Javob:64

**206.** Jismning boshlang'ich tezligi  $10 \text{ m/s}$  ga teng. Jismga faqat muhitning qarshilik kuchi ta'sir qiladi deb hisoblab, u to'xtagunga qadar qancha masofa o'tishini aniqlang. Qarshilik kuchi tezlikka proporsional. Qarshilik koefitsiyenti  $2 \text{ kg/s}$ . Jismning massasi  $4 \text{ kg}$ .

Javob:20

**207.** Erkin uchayotgan jism muhitga tushib qoladi, va bu muhitda unga tezlikka proporsional bo'lgan qarshilik kuchi ta'sir qiladi. Jismning tezligi ikki marta kamaygan paytda u  $60 \text{ m}$  yo'l o'tdi. Shu paytdan boshlab jism to'xtaguniga qadar qancha masofa o'tadi? Og'irlik kuchini hisobga olmang.

Javob:60

**b) parallel bo'lmagan kuchlar**

**208.** Silliq gorizontal stolda joylashgan  $2 \text{ kg}$  massali jismga gorizontga  $30^\circ$  burchak ostida yuqoriga yo'nalgan  $30 \text{ N}$  kuch ta'sir qiladi. Jism stolga qanday kuch bilan bosadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob:5

**209.**  $40 \text{ kg}$  massali jism silliq gorizontal sirt bo'ylab gorizontga  $60^\circ$  burchak ostida yo'nalgan  $40 \text{ N}$  kuch ta'sirida harakatlantirilmoqda. Jismning tezlanishini toping.

Javob:2

**210.** Brusok vertikal devor bo'ylab yuqoriga ko'chirilmoqda. Unga vertikalga qandaydir burchak ostida yo'nalgan kuch qo'yilgan. Agar brusokning devorga normal bosim kuchi unga qo'yilgan kuchdan ikki marta kichik bo'lsa, kuch qanday burchak ostida qo'yilganini (graduslarda) toping.

Javob:30

**211.** Gorizontal yo'nalishda  $10 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatlanayotgan aravacha ichida yuk osilgan ip vertikalidan qanday burchakka (graduslarda) og'adi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob:45

**212.**  $2,25 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatlanayotgan aravachaga yukli ip osilgan. Ip barqaror og'ma vaziyatni egallagandan keyingi uning taranglik kuchini toping. Yukning massasi  $4 \text{ kg}$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob:41

**213.**  $0,5 \text{ kg}$  massali yuk lift shiftiga ikkita ip orqali osib qo'yilgan, va bunda har bir ip vertikal bilan  $60^\circ$  burchak hosil qiladi. Agar lift  $2 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan ko'tarilsa, har bir ipning taranglik kuchi qanday bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob:6

**214.**  $5 \text{ kg}$  massali yuk lift shiftiga birining uzunligi  $30 \text{ cm}$ , ikkinchisini  $40 \text{ cm}$  bo'lgan ikkita ip orqali osib qo'yilgan. Shiftga mahkamlangan iplar orasidagi masofa  $50 \text{ cm}$  ga teng. Lift  $2 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan ko'tariladi. Qisqa ipning taranglik kuchini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob:48

215. Qiyalik burchagi  $30^\circ$  bo'lgan qiya tekislik ustida 5 kg massali brusok yetibdi. Qiya tekislik  $2 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan yuqoriga ko'tarilayotgan lift ichida turibdi. Brusokning tekislikka normal bosim kuchini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .  $\sqrt{3} = 1,7$ .

Javob: 51

216. Jism qiya tekislikdan ishqalanishsiz  $2 \text{ m/s}^2$  tezlanishi bilan sirpanib tushmoqda. Qiya tekislikning balandligi 18 m. Qiyalik uzunligini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 90

217. 18 m uzunlikli muz tog' gorizont bilan  $30^\circ$  burchak hosil qiladi. Bola tog' bo'ylab chanada uchadi. Agar tog'dan tushish 3 s davom etsa, chananing sirpamib tushishidagi ishqalanish kuchi qanchaga teng? Bolaning chana bilan birqalikdag'i massasi 60 kg.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 60

218. Qiya tekislik asosida  $6 \text{ m/s}$  tezlikka ega bo'lgan 1 kg massali jism tekislik bo'ylab to'xtaguniga qadar 1 s davomida ko'tariladi. Agar tekislikning qiyalik burchagi gorizontga  $30^\circ$  bo'lsa, jismga ta'sir qiluvchi ishqalanish kuchmi toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 1

#### Ishqalanish koefitsiyenti

219. YPX xodimi avtomobilning asfalt yo'lidagi tormozlanish izi 40 m ga teng ekanligini aniqladi. Gildivaklarning asfaltga ishqalanish koefitsiyenti 0,5 bo'lsa, avtomobil qanday tezlik bilan ( $\text{km/h da}$ ) harakatlangan?

Javob: 72

220. 1 kg massali jism gorizontal tekislikda joylashgan. Jismga 2 N gorizontal kuch ta'sir qiladi. Ishqalanish koefitsiyenti 0,3 bo'lsa, ishqalanish kuchini aniqlang.

Javob: 2

221. 10 kg massali jism gorizontal tekislikda joylashgan. Jismga gorizontga  $30^\circ$  burchak ostida yo'nalgan 50 N kuch ta'sir qiladi. Ishqalanish koefitsiyenti 0,2 bo'lsa, ishqalanish kuchini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 15

222. 10 kg massali jism gorizontal tekislikda joylashgan. Birinchi marta jismga 5 N gorizontal kuch bilan ta'sir qilishadi, ikkinchi marta esa gorizontga  $30^\circ$  burchak ostida yuqoriga yo'nalgan 50 N kuch bilan ta'sir qilishadi. Agar ishqalanish koefitsiyenti 0,2 bo'lsa, ikkinchi holdagi ishqalanish kuchi birinchisidagidan necha marta katta?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

223. Massasi 8 kg bo'lgan jism o'ziga qo'yilgan kuch ta'sirida stol bo'ylab tekis harakatlanayotgan bo'lsa, shu gorizontal kuchning qiymati qanday? Ishqalanish koefitsiyenti 0,3.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 24

224. 3 kg massali brusok gorizontal prujina yordamida gorizontal joylashgan doska bo'ylab tekis tortilmoqda. Agar prujina 5 cm ga uzaygan bo'lsa, uning bikriliqi qanday? Brusok va doska orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,25.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 150

225. 2 kg massali jism gorizontal kuch ta'sirida gorizontal sirt bo'ylab  $2 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatlanmoqda. Agar jism va tekislik orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,2 bo'lsa, shu kuchning miqdorini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 8

226. 500 N maksimal tortish kuchiga ega bo'lgan itlar galasi qanday maksimal massali chanani (yuki bilan birga) gorizontal yo'lda tekis torta oladi? Ishqalanish koefitsiyenti 0,1.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 500

227. Yuk mashinasi o'zining kuzovidagi mahkamlanmagan yuk siljimasligi uchun qanday eng katta tezlanish bilan harakatlanishi kerak? Yukning kuzov tubiga ishqalanish koefitsiyenti 0,2.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

228. Gorizontal sirtda yotgan jism unga ta'sir qiluvchi og'irlik kuchining yarmiga teng bo'lgan gorizontal kuch ta'siriда harakatga keltiriladi. Kuch qandaydir  $t$  vaqt ta'sir etadi, keyin ta'sirni to'xtatadi. Agar jism harakat boshidan to'xtaguniga qadar o'tgan to'liq yo'l 15 m ga teng bo'lsa,  $t$  vaqtini aniqlang. Ishqalanish koefitsiyenti 0,2.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

229. Sportchi boshlang'ich tezliksiz harakat boshlab, va faqat yo'lning 20 m uzunlikli birinchi qismida tezlashib, 100 m masofani qanday minimal vaqtida o'ta oladi? Oyoq kiyimi va yugurish yo'lakchasi orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,25.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 12

230. Odam 6 kg massali chanani arqon yordamida doimiy tezlikda tortib bormoqda. Bunda arqon gorizont bilan qandaydir burchak hosil qiladi, va shu burchakning tangensi 0,75. Chana va gorizontal sirt orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,3. Arqonning taranglik kuchini aniqlang.  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 18

231. 6 kg massali chanani ip yordamida gorizontga  $30^\circ$  burchak ostida yo'nalgan 20 N kuch bilan tortganda, u qanday tezlanish oladi? Ishqalanish koefitsiyenti 0,1.  $\sqrt{3} = 1,7$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

232. 2,8 kg massali brusok vertical devor bo'ylab yuqoriga 70 N ga teng bo'lgan va vertikalga  $\alpha$  burchak ostida yo'nalgan kuch yordamida ko'chirilmoqda. Agar  $\sin \alpha = 0,6$ , hamda brusok va devor orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,4 ekanligi ma'lum bo'lsa, busokning tezlanishini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 4

#### Ishqalanishi qiya tekislik

233. Jism qiya tekislik bo'ylab tekis sirpanmoqda. Agar jismning tekislikka ishqalanish koefitsiyenti 0,2 bo'lsa, tekislikning gorizontga qiyalik burchagi kotangensi nimaga teng?

Javob: 5

234. Jism birinchi marta qiyalik burchagi  $30^\circ$  bo'lgan qiya tekislik ustida, ikkincha marta qiyalik burchagi  $60^\circ$  bo'lgan qiya tekislik ustida qo'yiladi. Agar ikkala holda ham ishqalanish koefitsiyenti 0,8 bo'lsa, birinchi holdagi ishqalanish kuchi ikkinchi holdagidan necha foizga ko'p?

Javob: 25

235. Jism balandligi 3 m va uzunligi 5 m bo'lgan qiya tekislikdan sirpanib tushadi. Ishqalanish koefitsiyenti 0,5. Jismning tezlanishini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

236. Jismga turki bilan qiya tekislik bo'ylab yuqoriga yo'nalgan tezlik berildi. Agar qiya tekislikning balandligi 4 m, uzunligi 5 m, va ishqalanish koefitsiyenti 0,5 bo'lsa, jism tezlanishining miqdorini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 11

237. Jismga turki bilan qiya tekislik bo'ylab yuqoriga yo'nalgan tezlik berildi. Qiya tekislikning balandligi 3 m, uzunligi 5 m, va ishqalanish koefitsiyenti 0,5. Jismning yuqoriga harakatlanishidagi tezlanish miqdori uning pastga harakatlanishidagi tezlanish miqdoridan necha marta katta?

Javob: 9

238. Balandligi 5 m va qiyalik burchagi gorizontga  $45^\circ$  bo'lgan qiya tekislik uchidan jism sirpanishni boshlaydi. Jismning qiya tekislikka ishqalanish koefitsiyenti 0,19. Jismning tushish oxiridagi tezligini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 9**

239. Jism balandligi 5 m va uzunligi 13 m bo'lgan qiya tekislikdan sirpanib tushadi. Ishqalanish koefitsiyenti 0,4. Jismning qiya tekislik bo'ylab harakat vaqtini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 13**

240. Agar kichik shayba qiyalik burchagi gorizontga  $30^\circ$  bo'lgan qiya tekislikdan pastga tekis harakatlanib tushsa, u xuddi shu moddadan tayyorlangan, balandligi 2,5 m va qiyalik burchagi  $45^\circ$  bo'lgan qiya tekislikdan qancha vaqtda sirpanib tushadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 1**

241. Asosining uzunligi va balandligi 6 m bo'lgan qiya tekislik uchida og'ir jism joylashgan. Agar jism shu tekislikda tinch turadigan chegaraviy burchak balandlik 2,4 m va asos uzunligi oldingidek 6 m bo'lganda ro'y bersa, jism qiya tekislik asosigacha qancha vaqtda sirpanib tushadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 2**

242. Jismga turtki bilan qiya tekishik bo'ylab yuqoriga yo'nalgan 3 m/s tezlik berildi. Agar tekislikning gorizontga qiyalik burchagini sinusi 0,6, va ishqalanish koefitsiyenti 0,25 bo'lsa, jismning yuqoriga to'xtagunicha bo'lgan harakat vaqtini (ms da) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 375**

243. Jism qiya tekislikning uchigacha chiqa olishi uchun unga qiya tekislik bo'ylab yuqoriga yo'nalgan qanday minimal boshlang'ich tezlik berish kerak? Qiya tekislikning balandligi 6 m, uzunligi 10 m, va ishqalanish koefitsiyenti 0,5.  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 14**

244. Uzunligi 26 m va balandligi 10 m bo'lgan qiya tekislik uchida kichik brusok joylashgan. Brusok va tekislik orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,45. Brusok tekislik asosigacha yeta olishi uchun unga qanday minimal tezlik berish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 4**

245. Qiyalik burchagi gorizontga  $45^\circ$  bo'lgan qiya tekislik bo'ylab shayba yuqoriga turtib yuborildi. Qanchadir vaqtidan so'ng u to'xtaydi va pastga sirpana boshlaydi. Shaybaning tekislikka ishqalanish koefitsiyenti 0,8. Shaybaning tushish vaqtini ko'tarilish vaqtidan necha marta katta?

**Javob: 3**

246. Shayba qiyalik burchagi gorizontga  $45^\circ$  bo'lgan qiya tekislik bo'ylab 12 m/s tezlik bilan yuqoriga turtib yuborildi. Qanchadir vaqtidan so'ng u to'xtaydi va pastga sirpana boshlaydi. Shayba boshlang'ich nuqtaga qanday tezlik bilan yetib keladi? Shaybaning tekislikka ishqalanish koefitsiyenti 0,8.

**Javob: 4**

247. 5 kg massali jismni balandligi 3 m va uzunligi 5 m bo'lgan qiya tekislik bo'ylab tekis ko'tarishmoqda. Va bunda unga qiya tekislikka parallel kuch qo'yilgan. Agar ishqalanish koefitsiyenti 0,3 ga teng bo'lsa, shu kuchning miqdorini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 42**

248. Balandligi 3 m va uzunligi 5 m bo'lgan qiya tekislikda 50 kg massali yuk turibdi. Yukni 1  $\text{m/s}^2$  tezlanish bilan sudrab chiqarish uchun unga tekislik bo'ylab yo'nalgan qanday kuch qo'yish kerak? Ishqalanish koefitsiyenti 0,2.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 430**

249. Jismga gorizontal kuch qo'ygan holda qiya tekislik bo'ylab yuqoriga ko'tarishmoqda. Bu kuchning miqdori jismga ta'sir qiluvchi og'irlik kuchidan ikki marta katta. Qiya tekislikning balandligi 3 m va uzunligi 5 m. Agar ishqalanish koefitsiyenti 0,2 ga teng bo'lsa, jismning tezlanishiini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 6**

250. Agar qiya tekislik ustida turgan jismni o'ziga bog'langan ip yordamida gorizontal yo'nalishda jismga ta'sir qiluvchi og'irlik kuchidan ikki marta kichik kuch bilan tortilsa, u qiya

tekislikdan qanday tezlanish bilan tusha boshlaydi? Qiya tekislikning balandligi 3 m, uzunligi 5 m. Ishqalanish koefitsiyenti 0,8.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 6

251. Jismga turki yordamida qiya tekislik yuzasi bo'ylab gorizontall yo'nalgan tezlik berildi. Agar tekislikning qiyalik burchagini sinusi 0,2, va ishqalanish koefitsiyenti  $\sqrt{3}/3$  bo'lsa, boshlang'ich vaqt momentida (turki berilgan paytda) jism tezlanishining miqdorini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 6

#### Ikki jismidan iborat bo'lgan sistema. Bloklar.

252. 4 va 5 kg massali, ip orqali bog'langan ikki yuk ularning biriga qo'yilgan 27 N gorizontal kuch ta'sirida silliq stol ustida harakatlanmoqda. Yuklarning tezlanishini toping.

Javob: 3

253. 0,4 va 0,6 kg massali, ip orqali bog'langan ikki brusok silliq gorizontall sirtda ikkinchi brusokka qo'yilgan 5 N gorizontal kuch ta'sirida harakatlanmoqda. Ipnинг taranglik kuchini toping.

Javob: 2

254. Massalari 0,3 kg va 0,2 kg bo'lgan ikki jism ip orqali bog'langan va silliq gorizontall sirt ustida yotibdi. 6 N yuklanishga dosh bera oladigan ip uзilib ketmasligi uchun birinchi jismni gorizontal yo'nalgan qanday maksimal kuch bilan tortish kerak?

Javob: 15

255. Ip bilan bog'langan ikki yuk silliq gorizontall sirtda harakatlanmoqda. 100 N kuch yuklardan biriga qo'yilganda ipning taranglik kuchi 30 N ga teng bo'lgan. Agar 100 N kuch boshqa yukka qo'yilsa, ipning taranglik kuchi qanday bo'ladi? Kuch gorizontal yo'nalgan.

Javob: 70

256. Yengil ip bilan bog'langan ikki jism silliq gorizontall sirtda birinchi jismga qo'yilgan va gorizontga  $60^\circ$  burchak ostida yo'nalgan 10 N kuch ta'sirida harakatlanmoqda. Agar birinchi jismning massasi ikkinchisining massasidan 1,5 marta katta bo'lsa, ipning taranglik kuchi qanday?

Javob: 2

257. Stolda yotgan ikki jism ip bilan bog'langan. Yengilroq jismga gorizontal kuch qo'yilgan, va buning natijasida jismlar stol bo'ylab tezlanish bilan harakatlanapti. Bunda ipning taranglik kuchi qo'yilgan kuchning  $4/5$  qismimi tashkil etadi. Yengil jismning massasi og'ir jism massasidan necha marta kichik? Jismarning stolga ishqalanish koefitsiyenti bir xil.

Javob: 4

258. Ip bilan bog'langan ikki brusok yuqoridagi 2 kg massali brusokka qo'yilgan, tekislikka parallel yo'nalgan 30 N kuch ta'sirida qiya tekislik bo'ylab yuqoriga ko'tarilmoqda. Brusoklar va tekislik orasidagi ishqalanish koefitsiyenti bir xil. Agar pastdag'i jismning massasi 4 kg bo'lsa, ipning taranglik kuchini toping.

Javob: 20

259. Massalari 6 va 4 kg bo'lgan, ip bilan bog'langan ikki jism gorizontall sirtda yotibdi. Birinchi jismga gorizont bilan  $\alpha$  burchak hosil qiluvchi 50 N kuch qo'yiladi. Agar ishqalanish koefitsiyenti 0,5, va  $tg\alpha = 0,75$  bo'lsa, ipning taranglik kuchini toping.

Javob: 22

260. Massalari 4 va 6 kg bo'lgan, ip bilan bog'langan ikki brusok qiyalik burchagi gorizontga  $60^\circ$  bo'lgan qiya tekislikdan sirpanib tushadi. Pastdag'i brusok va tekislik orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,15, yuqoridagi brusok va tekislik orasida esa 0,4. Ipnинг taranglik kuchini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

261. Alyuminiy (zichligi  $2700 \text{ kg/m}^3$ ) va temirdan (zichligi  $7900 \text{ kg/m}^3$ ) bir xil  $1 \text{ dm}^3$  hajmli ikkita sharcha tayyorlashdi, hamda ularni bir-biriga ip bilan bog'lab dengizga tashlashdi. Sharchalarning suvg'a cho'kishi barqaror bo'lgach (ya'ni, cho'kish doimiy tezlik bilan davom eta

boshlasa), ipning taranglik kuchi qanchaga teng bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ . Sharchaning harakatiga qarshilik kuchi uning radiusi va tezligiga bog'liq.

Javob: 26

262. Ikki qayiq navbatma navbat gorizontal  $F$  kuch yordamida harakatga keltiriladi. Bir qayiqning barqaror tezligi  $1,2 \text{ m/s}$  ga teng bo'ladi, boshqasini  $0,4 \text{ m/s}$  ga. Agar qayiqlar uzun ip yordamida bog'lansa, va ulardan biriga shu  $F$  kuch qo'yilsa, barqaror tezlik qanchaga ( $\text{cm/s da}$ ) teng bo'ladi? Suvning qarshilik kuchi tezlikka proporsional.

Javob: 30

263.  $12 \text{ kg}$  massali taxta silliq gorizontal tekislik ustida turibdi. Taxta ustida  $3 \text{ kg}$  massali brusok yotibdi. Taxta va brusok orasidagi ishqalanish koefitsiyenti  $0,2$ . Brusok taxta ustida sirpana boshlashi uchun taxtaga qanday minimal gorizontal kuch qo'yish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 30

264. Gorizontal polda yotgan  $4 \text{ kg}$  massali taxta ustida  $1 \text{ kg}$  massali brusok turibdi. Taxta va brusok orasidagi ishqalanish koefitsiyenti  $0,2$ , taxta va pol orasida esa  $0,4$ . Brusok taxta ustidan sirpanib chiqib ketishi uchun taxtaga qanday minimal gorizontal kuch qo'yish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 30

265. Silliq gorizontal tekislikda yotgan  $2 \text{ kg}$  massali taxta ustida  $1 \text{ kg}$  massali brusok turibdi. Taxta va brusok orasidagi ishqalanish koefitsiyenti  $0,4$ . Brusokni taxtadan sudrab chiqarish uchun unga qanday gorizontal minimal kuch qo'yish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 6

266.  $8 \text{ kg}$  massali taxta qiyalik burchagi gorizontga  $30^\circ$  bo'lgan qiya tekislik bo'ylab ishqalanishsiz harakatlanishi mumkin. Taxta qiya tekislikdan sirpanib tushib ketmasligi uchun  $80 \text{ kg}$  massali odam uning ustida qanday miqdordagi tezlanish ( $\text{cm/s}^2$  da) bilan yugurishi kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 550

267. Qo'zg'almas o'qqa ega bo'lgan blok orqali o'tkazilgan ipning uchlariga massalari  $300$  va  $200 \text{ g}$  bo'lgan yuklar mahkamlangan. Yuklar qanday tezlanish bilan harakatlanadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

268. Qo'zg'almas o'qqa ega bo'lgan blok orqali o'tkazilgan ipning uchlariga massalari  $2$  va  $8 \text{ kg}$  bo'lgan yuklar mahkamlangan. Ipning taranglik kuchini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 32

269. Qo'zg'almas o'qqa ega bo'lgan blok orqali o'tkazilgan ipning uchlariga har birining massasi  $0,49 \text{ kg}$  bo'lgan jismlar osilgan. Jismlarning har biri  $4 \text{ s da } 1,6 \text{ m yo'l o'tishi}$  uchun ulardan birining ustiga qanday massali ( $\text{g da}$ ) qo'chimcha yuk qo'yish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 20

270. Qo'zg'almas o'qqa ega bo'lgan blok orqali o'tkazilgan ipning uchlariga har birining massasi  $400 \text{ g}$  bo'lgan yuklar mahkamlangan. Yuklardan birining ustiga  $200 \text{ g}$  massali ortiqcha yukcha qo'yildi. Harakat davomida yukchaning yukka ko'rsatadigan bosim kuchini ( $\text{mN da}$ ) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 1600

271. Qo'zg'almas o'qqa ega bo'lgan blok orqali o'tkazilgan ipning uchlariga massalari  $7$  va  $11 \text{ kg}$  bo'lgan yuklar osilgan. Harakat boshlanganidan necha millisekund o'tgach yengil yuk og'ir yuqdan  $20 \text{ cm}$  yuqorida bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 300

272. Blok orqali o'tkazilgan uzun ipning uchlariga ikkita bir xil massali yuk bir xil balandlikda osib qo'yilgan. Yuklarning biridan uning massasining  $1/5$  qismiga teng bo'lgan bo'lakcha ajrab chiqadi, va  $1 \text{ s dan keyin}$  yerga tushadi. Shundan so'ng (ya'ni, bo'lakcha yerga tushgandan keyin) qancha vaqt o'tib boshqa yuk yerga tegadi?

Javob: 2

**273.** Blok tros orqali shiftga osib qo'yilgan. Blok orqali o'tkazilgan ipning uchlariga 2 va 3 kg massali yuklar osiladi. Trosning tarangligini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 48

**274.** Blok tros orqali shiftga osib qo'yilgan. Blok orqali uchlariga yuklar osilgan ip o'tkazilgan. Agar yuklarning harakat vaqtida trosning tarangligi og'irroq yukning og'irlik kuchiga teng bo'lса, yuklarning massalari nisbati qanday?

Javob: 3

**275.** Qo'zg'almas o'qqa ega bo'lgan blok orqali o'tkazilgan ip blokning bir tarafidan kichik tirkish ichidan o'tadi. Ip doimiy tezlanish bilan harakatlanganda tirkish tomonidan unga 3 N ishqlanish kuchi ta'sir qiladi. Ipning uchlariga 200 va 800 g massali yuklar osilgan. Yuklarning tezlanishini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

**276.** 2  $\text{m/s}^2$  tezlanish bilan ko'tarilayotgan lift kabinasining shiftiga dinamometr osib qo'yilgan. Dinamometrga gorizontal o'q atrofida erkin aylanadigan blok osilgan. Blok orqali uchlariga 1 va 3 kg massali yuklar mahkamlangan ip o'tkazilgan. Dinamometrning ko'rsatishini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 36

**277.** Yengil blok orqali o'tkazilgan ipning uchlariga 3 va 5 kg massali yuklar mahkamlangan. Blokning o'qiga vertical yuqoriga yo'nalgan va 120 N ga teng bo'lgan kuch qo'yildi. Blok qanday tezlanish bilan ko'tariladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 6

**278.** Yengil blok orqali o'tkazilgan ipning bir uchiga 2 kg massali jism osildi, ipning boshqa uchi esa qo'zg'almas qilib mahkamlandi. Blok 3  $\text{m/s}^2$  tezlanish bilan ko'tarilishi uchun uning o'qiga qanday kuch qo'yish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 64

**279.** O'rtaidan o'tgan gorizontal o'q atrofida erkin aylanadigan yengil sterjenning uchlariga 1 va 3 kg massali yuklar mahkamlangan. Sterjen gorizontal holatga keltiriladi va qo'yib yuboriladi. U shundan so'ng, darhol o'qqa qanday kuch bilan ta'sir qiladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 30

**280.** Vaznsiz sterjen o'zini 1 : 2 nisbatda bo'ladigan nuqtadan o'tgan gorizontal o'q atrofida erkin aylanadi. Sterjenning uchlariga har biri 0,5 kg dan bo'lgan ikkita bir xil yuk mahkamlangan. Sterjen gorizontal holatga keltiriladi va qo'yib yuboriladi. U shundan so'ng, darhol o'qqa qanday kuch bilan ta'sir qiladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 9

#### **Butun olam tortishish qonuni**

**281.** Agar bir jinsli sharning sirtiga tegib turgan moddiy nuqta shar sirtidan uning ikkilangan diametriga teng masofaga uzoqlashtirilsa, ular orasidagi tortishish kuchi necha marta kamayadi?

Javob: 25

**282.** Bir-biri bilan tegishib turgan ikkita bir xil, bir jinsli sharlar bir-biridan sharlarning diametriga teng masofaga uzoqlashtirilsa, ularning tortishish kuchi necha marta kamayadi?

Javob: 4

**283.** 20 va 30 cm radiusli ikki shar bir-biriga tegib turadi. Agar ularidan birini 100 cm masofaga uzoqlashtirilsa, sharlar orasidagi tortishish kuchi necha marta kamayadi?

Javob: 9

**284.** Neptun sayyorasi va Quyosh orasidagi masofa Yer va Quyosh orasidagi masofadan 30 marta katta. Neptunning massasi esa Yerning massasidan 15 marta katta. Quyoshning Yerga tortilish kuchi Quyoshning Neptunga tortilish kuchidan necha marta katta?

Javob: 60

**285.** Yer sirtidan qanday balandlikda (km da) erkin tushish tezlanishi Yer sirtidagiga qaraganda 16 marta kichik bo'ladi? Yerning radiusi 6400 km.

**Javob:** 19200

286. Raketa Yer sirtidan vertical yuqoriga start oladi, va bunda tortish kuchi shunday o'zgartiriladi, uning tezlanishi doimiy va  $10 \text{ m/s}^2$  ga teng bo'lib qolaveradi. Raketaning tezligi  $8 \text{ km/s}$  ga teng bo'lguniga qadar uning massasi  $10\%$  ga kamaydi. Ana shu paytgacha tortish kuchini necha foizga kamaytirish kerak? Yerning radiusi  $6400 \text{ km}$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 35

287. Agar Marsning radiusi Yer radiusining  $0,5$  qismini, Marsning massasi esa Yer massasining  $0,1$  qismini tashkil etsa, Mars sirtidagi erkin tushish tezlanishi Yerdagi erkin tushish tezlanishining necha foizini tashkil qiladi?

**Javob:** 40

288. Qandaydir sayyoranining radiusi Yer radiusidan  $\sqrt{2}$  marta kichik, sayyora sirtidagi og'irlik kuchining tezlanishi esa Yer sirtidagidan 3 marta kichik. Sayyoranining massasi Yer massasidan necha marta kichik?

**Javob:** 6

289. Qandaydir sayyoranining radiusi Yer radiusidan  $10$  marta katta, sayyora sirtidagi o'rtacha zichligi esa Yerning o'rtacha zichligidan  $2$  marta kichik. Sayyora sirtidagi erkin tushish tezlanishi Yer sirtidagiga qaraganda necha marta katta?

**Javob:** 5

290. Qandaydir sayyoranining massasi Yer massasidan  $16$  marta katta, sayyora muddasining o'rtacha zichligi esa Yerning o'rtacha zichligidan  $2$  marta katta. Sayyora sirtidagi erkin tushish tezlanishi Yer sirtidagiga qaraganda necha marta katta?

**Javob:** 4

291. Jism boshlang'ich teziksiz erkin tushib  $3$  s ichida radiusi Yer radiusidan uchdan bir qisnga kichik, muddasining o'rtacha zichligi esa Yerning o'rtacha zichligidan  $40\%$  ga kichik bo'lgan sayyora sirtida qanday masofa o'tadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 18

(292) Massasi  $M$  va radiusi  $R$  bo'lgan shar hamda  $m$  massali moddiy nuqta bor. Agar sharning ichida  $5R/6$  radiusli sferik teshik hosil qilinsa, ular orasidagi tortishish kuchi necha marta kamayadi? Moddiy nuqta shar va teshikning markazlari orqali o'tkazilgan to'g'ri chiziq ustida shar markazidan  $R$  masofada, teshik markazidan  $5R/6$  masofada yotadi.

**Javob:** 6

### Yo'l doshlar

293. Qandaydir sayyoranining massasi Yer massasidan  $4,5$  marta katta, uning radiusi esa Yer radiusidan  $2$  marta katta. Shu sayyora uchun birinchi kosmik tezlik Yer uchun birinchi kosmik tezlikdan necha foizga ortiq?

**Javob:** 50

294. Yer sirtidan  $3600 \text{ km}$  balandlikda ayiana orbita bo'ylab harakatlanishi uchun sun'iy yo'l dosh qanday tezlikka ega bo'lishi kerak? Yerning radiusi  $6400 \text{ km}$ . Yer sirtida og'irlik kuchining tezlanishi  $10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 6400

295. Yo'l dosh ekvator tekisligida sayyora sirtidan uning radiusiga teng balandlikda ayiana orbita bo'ylab harakatlanadi. Yo'l doshning chiziqli tezligini ( $\text{km/s da}$ ) toping. Sayyoranining radiusi  $7200 \text{ km}$ . Sayyora sirti yaqinidagi erkin tushish tezlanishi  $10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 6

296. Kosmik kema qandaydir sayyor yaqinida  $13000 \text{ km}$  radiusli orbita bo'ylab  $10 \text{ km/s}$  tezlik bilan harakatlandi. Agar shu sayyoranining radiusi  $10000 \text{ km}$  bo'ssa, uning sirti yaqinida og'irlik kuchining tezlanishi qanday?

**Javob:** 13

297. Yer sirtidan  $21600 \text{ km}$  masofada harakatlanadigan yo'l doshning aylanish davri uning sirtidan  $600 \text{ km}$  masofada harakatlanadigan yo'l doshning aylanish davridan necha marta katta. Yerning radiusi  $6400 \text{ km}$ .

Javob: 8

298. Qandaydir sayyoraning Quyosh atrofida aylana orbita bo'ylab aylanish davri 27 yilga teng. Shu sayyoradan Quyoshgacha bo'lgan masofa Yerdan Quyoshgacha bo'lgan masofadan necha marta katta?

Javob: 9

299. Yer sun'iy yo'ldoshining aylanish davri 27 marta oshirilsa, uning aylanma orbitasining radiusi necha marta ortadi?

Javob: 9

300. Qandaydir sayyorada aloqa yo'ldoshi uchirilgan, ya'ni hamma vaqt sayyora ustidagi bir nuqtada bo'ladijan yo'ldosh. Agar sayyora atrofida kichik balandlikda aylanadigan boshqa bir yo'ldosh sayyoraviy bir sutkada 8 marta aylanishi ma'lum bo'lsa, aloqa yo'ldoshining sayyora sirtidan balandligi uning radiusidan necha marta katta?

Javob: 3

#### Aylana bo'ylab harakat dinamikasi

##### a) bit'a proyeksiya

301. Rezina shnurning bir uchiga 50 g massali sharcha bog'lab qo'yildi, uning boshqa uchi esa silliq gorizontal tekislikka mahkamlandi va sharcha sirt bo'ylab 20 rad/s burchak tezlik bilan aylanma harakatga keltirildi. Agar shnurning bikrligi 100 N/m, boshlang'ich uzunligi esa 40 cm bo'lsa, shnurning cho'zilishini (cm da) toping.

Javob: 10

302. 0,5 kg massali kichik yuk vertikal o'qqa mahkamlangan gorizontal sterjen bo'ylab ishqalanishsiz ko'cha oladi. Yuk o'q bilan prujina orqali bog'langan. Sterjen vertikal o'q atrofida 3 rad/s burchak tezlik bilan aylanganida prujina 2 marta uzaysa, prujinaning bikrligi qanday?

Javob: 9

303. Vaznsiz sterjen gorizontal tekislikda 30 rad/s burchak tezlik bilan aylanadi. Aylanish o'qidan 0,4 va 0,3 m masofalarda mos ravishda 0,2 va 0,1 kg massali yuklar mahkamlangan. Agar aylanish o'qi yuklar orasida bo'lsa, unga qanday gorizontal kuch ta'sir qiladi?

Javob: 45

304. Shtanga (uzun metall sterjen) uchiga o'rnatilgan kabina ichida odam bor. Shtanga kabina bilan birligida vertikal tekislikda 0,7 rad/s burchak tezlik bilan aylanadi. Odam trayektoriyaning yuqori nuqtasida vaznsizlik holatini o'tashi uchun shtanganing uzunligi qanday bo'lishi kerak?  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 20

305. 2000 kg massali avtomobil egrilik radiusi 100 m bo'lgan va 18000 N dan ortiq bo'limgan yuqlanishga bardosh bera oladigan qavariq ko'priidan muvaffaqiyatli o'tishi uchun u qanday minimal qiymatgacha tezligini oshirishi kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 10

306. Massasi 2 t bo'lgan avtomobil egrilik radiusi 300 m bo'lgan qavariq ko'pri ustida 72 km/h tezlik bilan harakatlanmoqda. Mashina ko'pri markazidan o'tayotib uni qanday kuch bilan ( $\text{kN da}$ ) bosadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 12

307. 65 kg massali chang'ichi yo'lning egrilik radiusi 20 m bo'lgan botiq qismi bo'ylab harakatlanmoqda. Agar chang'ichining tezligi 2 m/s bo'lsa, yo'lning shu qismining eng pastki nuqtasida chang'ilarning yo'lga beradigan bosim kuchini aniqlang.  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 650

308. Agar 90 km/h tezlik bilan harakatlanayotgan avtomobilning bosimi aylana yoyi ko'rinishidagi mostning eng yuqori nuqtasida ikki marta kamaygani ma'lum bo'lsa (yo'lning gorizontal qismidagi bosim bilan solishtirganda), shu egri mostning radiusini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 125

**309.** Massasi 1000 kg bo'lgan avtomobil egrilik radiusi 250 m bo'lgan qavariq ko'priklar ustida 72 km/h tezlik bilan harakatlanmoqda. Ko'priknинг egrilik markazidan unga tomon o'tkazilgan chiziq vertikal bilan  $30^\circ$  burchak hosil qiluvchi nuqtada avtomobil ko'prikkal qanday kuch bilan (kN da) bosadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .  $\sqrt{3} = 1,72$ .

**Javob:** 7

**310.** Agar egrilik radiusi 63 m bo'lgan qavariq ko'priklar bo'yish lab harakatlanayotgan avtomobilning ko'priknинг yuqori nuqtasidagi bosim kuchi ko'priknинг egrilik markazidan unga tomon o'tkazilgan chiziq vertikal bilan  $30^\circ$  burchak hosil qiluvchi nuqtadagi bosim kuchidan ikki marta katta bo'lsa, avtomobil qanday tezlik bilan harakatlanmoqda?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .  $\sqrt{3} \approx 1,7$ .

**Javob:** 21

**311.** 50 cm uzunlikli vaznsiz sterjenga 400 g massali sharcha mahkamlangan, va u vertikal tekislikda tekis aylanadi. Agar sterjen 24 N maksimal yuklanishiga dosh bera olsa, aylanishning qanday minimal burchak tezligida uning uzilishi lo'y beradi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 10

**312.** Ipnинг uchiga bog'langan 250 g massali sharcha vertikal tekislikda tekis aylanadi. Ipnинг taranglik kuchi trayektoriyaning pastki nuqtasida yuqori nuqtasidagiga qaraganda qanchaga ortiq?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 5

**313.** 0,1 kg massali jism 1 m uzunlikdagi ipda vertikal tekislikda tekis aylanadi. Aylanish o'qi poldan 2 m balandda joylashgan. Pastki nuqtadan o'tish jarayonida ip uzilib ketadi, va jism polga ip uzilgan nuqtadan 4 m masofaga (horizontal bo'yicha) horib tushadi. Ipnинг uzilish momentidagi taranglik kuchini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 9

**314.** Massasi 1 kg va uzunligi 20 cm bo'lgan matematik mayatnik vertikal tekislikda tebranishlар bajarmoqda. Mayatnik ipi vertikal bilan  $60^\circ$  burchak hosil qilgan paytda, mayatnik yukining tezligi  $1 \text{ m/s}$  ga teng. Shu paytda ipning taranglik kuchi qanday?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 10

**315.** 2 kg massali jism 1 m uzunlikdagi ipda vertikal tekislikda tekis aylanadi. Jism ip osilgan nuqtadan  $0,5$  m pastda joylashgan nuqtadan o'tayotgan paytda ip uziladi. Shundan so'ng jism ip osilgan nuqtadan 1 m balandlikka ko'tariladi. Ip uzilishdan oldin uning tarangligi qanday bo'lgan?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 250

**316.** Samolyot "o'lik sirtmoq" bajarmoqda (ya'ni, halqasimon sirtmoq bo'yicha harakatlanmoqda). Agar uchuvchining massasi 70 kg, samolyotning tezligi  $100 \text{ m/s}$ , va aylana (sirtmoq) radiusi 200 m bo'lsa, uchuvchining trayektoriyaning quyi nuqtasida o'rindiqqa beradigan bosim kuchini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 4200

**317.** Samolyot "o'lik sirtmoq" bajarmoqda. Trayektoriyaning quyi nuqtasida uchuvchining o'rindiqqa beradigan bosim kuchi og'irlik kuchidan 5 marta katta. Yuqori nuqtada uchuvchi vaznsizlik holatida bo'ladi. Samolyotning quyi nuqtadagi tezligi yuqori nuqtadagidan necha marta katta?

**Javob:** 2

**318.** Qandaydir jismning og'irligi Yerning qutbida uning ekvatorida og'irligidan  $313,6 \text{ mN}$  ga ko'p. Shu jismning massasi qanchaga teng? Yerning o'z o'qi atrofida aylanish burchak tezligi  $7 \cdot 10^{-2} \text{ rad/s}$ . Yerning radiusi 6400 km. Yerni ideal shar deb hisoblang.

**Javob:** 10

**319.** Jismoni qandaydir sayyoranining qutbidan ekvatoriga ko'chirishda uning vazni 20 % ga kamayadi. Sayyoranining aylanish burchak tezligi  $0,001 \text{ rad/s}$ , uning radiusi 3000 km. Shu sayyoradagi erkin tushish tezlanishi qanchaga teng? Sayyorani ideal shar deb hisoblang.

**Javob:** 15

**320.** 2500 kg massali poyga avtomobili ekvator bo'ylab shosshedan 360 km/h tezlik bilan harakatlanadi. Avtomobilning g'arbdan sharqqa va sharqdan g'arbga tomon harakatlarida yo'lga beradigan bosim kuchlari qanchaga farq qiladi? Yerning aylanish burchak tezligi  $7,3 \cdot 10^{-5}$  rad/s.

Javob: 73

**321.** Uzunligi 1 m va massasi 200 g bo'lgan yupqa zanjirni aylana halqa qilib bog'landi, silliq gorizontal sirtga qo'yildi va vertikal o'q atrofida shunday aylantirildiki, zanjirning har bir elementining tezligi 5 m/s ga teng bo'ldi. Zanjirning tarangligini toping.

Javob: 5

**322.** Uzunligi 0,8 m va massasi 300 g bo'lgan rezina shnur aylana halqa shakliga ega. Uni silliq gorizontal sirtga qo'yildi va vertikal o'q atrofida shunday aylantirildiki, zanjirning har bir elementining tezligi 3 m/s ga teng bo'ldi. Agar shnurning bikrligi 30 N/m bo'lsa, uning uzayishini (cm da) toping.

Javob: 10

**b) ikkita proyeksiya**

**323.** Gorizontal aylanayotgan platforma ustida aylanish o'qidan 10 m masofada yuk yotibdi. Yuk va platforma orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,01. Platforma aylanishining qanday burchak tezligida yuk sirpanishni boshlaydi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 1

**324.** Agar avtomobil shinalarini va yo'l orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,1 bo'lsa, u egrilik radiusi 400 m bo'lgan yo'lning qayrilish qismida qanday maksimal tezlik bilan harakatlanishi mumkin?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 20

**325.** Mototsiklchi 10 m radiusli vertikal silindrning ichki sirti bo'ylab harakatlanganda, hamma vaqt bir gorizontal tekislikda qolishi uchun uning tezligi kamida qanday bo'lishi kerak? Mototsikl shinalarini va silindr yuzasi orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,25.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 20

**326.** 540 km/h tezlik bilan uchayotgan samolyot qayrilishida tangensi 0,3 bo'lgan burchakka og'adi. Qayrilishning radiusi qanchaga teng?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 7500

**327.** Yengil ip bilan shiftga osilgan sharcha gorizontal tekislikda yotuvchi aylana bo'ylab harakatlanadi. Osish nuqtasi va aylana markazi orasidagi masofa 2,5 m. Sharchaning aylanish burchak tezligi qancha?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

**328.** Sharcha radiusi 28 cm bo'lgan silliq sferaning ichki sirti bo'ylab harakatlanganda, u hamma vaqt sferoning pastki nuqtasidan 20 cm balanddagagi gorizontal tekislikda qolishi uchun sharchaning tezligi qanday bo'lishi kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

**329.** Rezina shnurga mahkamlangan 100 g massali toshcha gorizontal tekislikda aylana bo'ylab 10 rad/s burchak tezlik bilan shunday aylanadiki, shnur vertikal bilan  $60^\circ$  burchak hosil qiladi. Agar shnurning qattiqligi 40 N/m bo'lsa, uning cho'zilmagan holdagi uzunligini (cm da) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 15

**330.** Yo'lning 100 m radiusli tuyulishi shunday profil langangi (qiyalab tekislangan), yo'lning ko'tarmasi tuyulish tomonga tangensi 0,4 bo'lgan burchak ostida o'ggan. Shu tuyulishdan o'tishning optimal (eng qulay, eng maqbul) tezligi (km/h da) qanday?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 72

**331.** Qiyalik burchagi gorizontga  $45^\circ$  bo'lgan qiya treknинг egrilik radiusi 30 m bo'lgan tuyulishida mototsiklchining mumkin bo'lgan maksimal harakat tezligi qanday? Ishqalanish koefitsiyenti 0,5.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 30

**332\***. Mototsiklchi qiya trekda qayrilishm bajaradi. Agar ishqalanish koefitsiyenti 0,75, trekning qiyalik burchagi esa gorizontga  $45^\circ$  bo'lsa, harakatning mumkin bo'lgan maksimal tezligi minimalidan necha marta ortiq?

Javob: 7

**333\***. Radiusi 2,75 m bo'lgan sferaning ichkarisida kichik shayba bor. Shayba sfera markazidan 165 cm pastda sirpanmasdan turishi uchun, sferani vertikal o'q atrofida qanday maksimal burchak tezlikkacha aylantirish mumkin? Ishqalanish koefitsiyenti 0,5.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 5

**334\***. Radiusi 12,5 cm bo'lgan sferaning ichkarisida kichik shayba bor. Shayba sfera markazidan 7,5 cm pastda sirpanmasdan turishi uchun, sferani vertikal o'q atrofida qanday minimal burchak tezlikkacha aylantirish mumkin? Ishqalanish koefitsiyenti 0,5.  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 7

**335**. Velosipedda 48 m radiusli yarimsfera shakliga ega bo'lgan do'nglik ustida hamma vaqt 38,4 m balandlikda (egrilik markazidan hisoblaganda) qolgan holda qanday maksimal tezlik bilan harakatlanish mumkin? Gildiraklarning yerga ishqalanish koefitsiyenti 0,8.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

**336**. Sirk attraksionida mototsiklchi 8,5 m radiusli sferaning ichki sirti bo'ylab hamma vaqt stera markazidan 5,1 m balandda qolgan holda harakatlanadi. Bu qanday minimal tezlikda bo'lishi mumkin? Gildiraklar va sfera sirti orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,92.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 26

**337** Uzunligi 1 m va massasi 157 g bo'lgan zanjirni halqa shakliga keltirib, vertikal o'qqa ega bo'lgan silliq konusga yuqorida "kiydirildi". Konus uchining yarim ochilish burchagi  $45^\circ$  (ya'ni, konus uchidagi burchakning yarmi). Konusni zanjirning har bir elementi  $2 \text{ m/s}$  tezlikka ega bo'ladiigan qilib aylantirilsa, zanjirning tarangligi ( $\text{mN}$  da) qanday bo'ladi?  $\pi = 3,14$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$  deb qabul qilinsin.

Javob: 878

**338**) 157 g massali yopiq zanjir 5 cm radiusli qattiq vertikal silindrغا tarang holda "kiydirib qo'yilgan". Zanjirning tarangligi  $3 \text{ N}$  ga teng. Zanjir silindr dan sirpanib tusha boshlashi uchun silindrni qanday burchak tezlikkacha aylantirish kerak? Zanjirning silindrغا ishqalanish koefitsiyenti 0,1,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .  $\pi = 3,14$  deb qabul qilinsin.

Javob: 20

### **3. IMPULSNING SAQLANISH QONUNI**

#### **Impulsning aniqlanishi**

**339**. 1 va 2 kg massali sharchalar mos ravishda  $4 \text{ m/s}$  va  $6 \text{ m/s}$  tezliklar bilan bir-biriga parallel ravishda bir yo'nalish bo'ylab harakatlanadi. Bu ikki sharchaning natijaviy impulsini qanchaga teng?

Javob: 16

**340**) 2 kg massali bir xil ikkita sharcha bir-biriga qarama-qarshi harakatlanadi. Bir sharchanining tezligi  $4 \text{ m/s}$ , ikkinchisini  $7 \text{ m/s}$ . Ikkala sharchanining natijaviy impulsining qiymatini toping.

Javob: 8

**341**. 3 kg massali bir xil sharchalar  $3 \text{ m/s}$  va  $4 \text{ m/s}$  tezliklar bilan o'zaro perpendikulyar yo'nalishda barakatlanadi. Bu sistemaning to'liq impulsini qiymati qanchaga teng?

Javob: 15

**342**. 2 kg massali sharcha  $4 \text{ m/s}$  tezlik bilan, 1 kg massali sharcha esa  $3 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanadi. Agar sharchalarning tezliklari bir-biriga msbatan  $120^\circ$  burchak ostida yo'nalgan bo'lsa, bu sistemasining to'liq impulsini qiymatini toping.

Javob: 7

**343**. Massasi  $0,1 \text{ kg}$  bo'lgan sharcha gorizontal maydonchaga tushdi, uning tushish paytidagi tezligi  $10 \text{ m/s}$ . Absolyut noelastik urilishdagi sharcha impulsining o'zgarishini toping. Javobda olingan qiyamatning modulini ko'psating.

Javob: 1

344. 10 g massali o'q devorni teshib o'tdi, bunda uning tezligi 800 m/s dan 400 m/s gacha kamaydi. O'q impulsining o'zgarishini toping. Javobda olingen qiyamatning modulini ko'psating.

Javob: 4

345. 0,2 kg massali sharcha tushish paytida 15 m/s tezlikka ega bo'lgan holda gorizontal maydonchaga erkin tushdi. Absolyut elastik urilishdagi sharcha impulsining o'zgarishini toping. Javobda olingen qiyamatning modulini ko'psating.

Javob: 6

346. 2 kg massali jism boshlang'ich tezliksiz 5 m balandlikdan gorizontal tekislikka erkin tushdi va unga urilgach, 5 m/s tezlik bilan sakrab ketdi. Zarb vaqtida jism impulsi o'zgarishining absolyut qiyamatini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 30

347. Massasi 1 kg bo'lgan jism 1 m radiusli aylana bo'ylab 2 rad/s burchak tezlik bilan tekis aylanadi. Aylana markazidan jismga o'tkazilgan radius-vektorning  $180^\circ$  ga burilgandagi jism impulsining o'zgarish modulini toping.

Javob: 4

348. Massasi 2 kg bo'lgan jism aylana bo'ylab harakatlandi, va bunda u qaysidir nuqtada 4 m/s tezlikka ega bo'lди. Aylananing to'rtadan birini o'tib, jism 3 m/s tezlikka erishdi. Jism impulsi o'zgarishining modulini aniqlang.

Javob: 10

349. 200 g massali koptok 20 m/s tezlik bilan uchgan. Devorga urilgandan so'ng u 15 m/s tezlik bilan avvalgi yo'nalishiga to'g'ri burchak ostida sakrab ketdi. Koptokning devorga urilishdagi impulsi o'zgarishining modulini toping.

Javob: 5

350. 200 g massali koptok 25 m/s tezlik bilan uchgan. Devorga urilgandan so'ng u 15 m/s tezlik bilan avvalgi yo'nalishiga  $120^\circ$  burchak ostida sakrab ketdi. Koptokning devorga urilishdagi impulsi o'zgarishining modulimi toping.

Javob: 7

#### **Impulsning o'zgarishi va o'rtacha kuch**

351. Quroldan 600 m/s tezlik bilan snaryad uchib chiqadi. Agar porox gazlarining o'rtacha bosim kuchi 2700 kN ga teng bo'lsa va snaryad stvol ichida 0,002 s harakatlansa, snaryadning massasini aniqlang.

Javob: 9

352. 2 m/s tezlik bilan uchayotgan 100 g massali to'p uchish paytida ushiab olindi. Agar to'p 0,02 s ichida to'xtagan bo'lsa, to'pning qolga urilishidagi o'rtacha kuch qanday bo'ladi?

Javob: 10

353. 1000 kg massali bosqon 1,8 m balandlikdan sandonga tushadi. Zarbning davomiyligi 0,1 s. Urish noelastik. Sandon va bosqounning o'zaro ta'sir kuchining (kN da) o'rtacha qiyamatini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 70

354. 5 m/s tezlik bilan tushayotgan 20 g massali metall sharcha po'lat plitaga elastik uriladi va undan modul bo'yicha xuddi shu tezlik bilan qarama-qarshi yo'nalishda sakrab ketadi. Agar sharcha va plitaning urilishdagi o'zaro ta'sirlashuvi 0,01 s davom etgan bo'lsa, shu o'zaro ta'sir kuchining o'rtacha qiyamatini toping. Urilish vaqtida og'irlik kuchining ta'siri inobatga olinmasin.

Javob: 20

355. 0,1 kg massali sharcha 0,2 m balandlikdan gorizontal tekislikka tushadi va urilishdan so'ng qaytib 0,2 m balandlikka ko'tariladi. Agar zarbning davomiyligi 0,04 s bo'lsa, sharchanining tekislikka urilish vaqtida unga beradigan o'rtacha bosim kuchini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 10

356. Po'lat sharcha 45 sm balandlikdan stolning gorizontal sirtiga tushadi va unga urilib 20 sm balandlikka ko'tariladi. Sharchanining massasi 20 g. Agar sharchanining stol bilan to'qnashuvi

$10^{-4}$  s davom etsa, urilish paytida sharcha stolga qanday o'rtacha kuchi bilan ta'sir qiladi? Urilish vaqtida og'irlik kuchining ta'siri inobatga olinmasin.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 1000

357. 300 g massali koptok 20 m/s tezlik bilan uchgan. Devorga urligandan so'ng u oldingi harakat yo'nahshiga to'g'ri burchak ostida 15 m/s tezlik bilan sakrab ketadi. Agar to'qnashishning davomiyligi 0,05 s bo'lsa, urilish vaqtida koptok va devorning o'zaro ta'sirlashuvining o'rtacha kuchi qanday bo'ladi?

Javob: 150

358. 0,5 kg massali koptok vertikalga  $60^\circ$  burchak ostida yo'nalgan 10 m/s tezlik bilan polga urilib sakrab ketadi. Agar urilish 0,1 s davom etsa, koptokning pol bilan o'zaro ta'sirlashuvining o'rtacha kuchini toping (to'qnashish paytida). Urilish absolyut elastik deb hisoblang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 55

359. 20 m/s tezlik bilan gorizontal uchayotgan 40 g massali po'lat sharcha qiyalik burchagi gorizontga  $30^\circ$  bo'lgan qiya tekislikka uriladi. Urilishni absolyut elastik deb hisoblab, sharchaning qiya tekisi bilan o'zaro ta'sirlashuvining (to'qnashish paytida) o'rtacha kuchini toping. Urilishning davomiyligi 0,01 s. Urilish vaqtida og'irlik kuchining ta'siri inobatga olinmasin.

Javob: 80

360. Avtomat o'qining uchib chiqish paytidagi tezligi 300 m/s, massasi esa 10 g bo'lsa, o'q uzish paytida avtomatning yelkaga beradigan o'rtacha bosim kuchi qanday bo'ladi? Avtomat minutiga 300 ta o'q otadi.

Javob: 15

361. Yer sirtidan balandda harakatsiz turgan 2 t massali raketa reaktiv gaz oqimini pastga tomon 1250 m/s tezlik bilan chiqarib tashlaydi. 1 s ichida qanday massali gaz chiqarib tashlanadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 16

362. Agar 1 t massali raketa sekundiga 10 kg qizdirilgan gazlarni 1500 m/s tezlik (o'ziga nisbatan) bilan vertikal pastga chiqarib tashlasa, u yer sirtidan qanday tezlanish bilan ko'tariladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 5

363. 3 t massali raketa yer sirtidan 1600 km balandlikda bo'lganda, uning tezlanishi  $5,6 \text{ m/s}^2$  ga teng va vertikal yugoriga yo'nalgan bo'ladi. Raketedan 1 s da qanday massali gaz chiqarib tashlanadi? Gazlarning chiqish tezligi 1800 m/s (raketaga nisbatan). Yerning radiusi 6400 km.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 20

364. Checksiz koinotda 6 km/s tezlik bilan uchayotgan 5 t massali raketa burilish uchun yon reaktiv dvigatelin yoqadi. Reaktiv oqimdag'i gazlarning tezligi 2 km/s, yoqilg'i sarfi 10 kg/s. Qanday radiusli (km da) aylana bo'ylab burilish sodir bo'ladi?

Javob: 9000

365. 4 t massali raketa radiusi Yerning radiusidan ikki marta katta bo'lgan aylanma orbitaga chiqarildi. Manyovr qilish paytida raketa qanchadir vaqt xuddi o'sha orbita bo'ylab, lekin ikkilangan tezlik bilan harakatlandi. Shunday harakatni saqlab qolish uchun reaktiv dvigatel sekundiga qancha gaz massasini chiqarib tashlashi kerak? Oqimdag'i gazlarning tezligi 1500 m/s (raketaga nisbatan).  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 20

366. Kosmik kema atmosferasiz planetaga qo'nish paytida avval uning atrofida (kichik balandlikda) o'chirilgan dvigateli bilan aylanadi. Keyin u tezligini 20% ga kamaytiradi va aylanib uchishning bu yangi rejimida reaktiv yoqilg'i sarfi 3 kg/s ni tashkil etadi. Aylanib uchish tezligi yana ikki marta kamaytirilganda yoqilg'i sarfi qanday bo'ladi? Gazlar chiqindisining tezligi doimiy (raketaga nisbatan).

Javob: 7

**367.** Suv oqimi o'ziga perpendikulyar joylashgan vertikal devorga uriladi. Urilishdan so'ng suv devor bo'ylab pastga oqib tushadi (erkin holatda). Agar oqimning kesim yuzasi  $5 \text{ cm}^2$ , uning tezligi esa  $8 \text{ m/s}$  bo'lsa, oqim devorga qanday kuch bilan ta'sir qilishini toping.

Javob: 32

**368.** Sakrashga tayyorlanayotgan ilon boshini  $10 \text{ m/s}$  tezlik bilan ko'taradi. Ilonning  $2 \text{ kg}$  massasi uning  $80 \text{ cm}$  li uzunligi bo'ylab tekis taqsimlangan deb hisoblab, shu jarayonda ilonning yerga beradigan bosim kuchi necha millinyutonga oshishini toping.

Javob: 25

**369.**  $200 \text{ g}$  massali yupqa, yumshoq zanjirchaning bir uchidan shunday ushlab turilibdiki, uning ikkinchi uchi stolga tegib turadi. Zanjircha qo'yib yuboriladi va u stolga tushadi. Zanjirchaning havoda joylashgan barcha elementlari erkin tushadi deb hisoblab, uning yarmi havoda bo'lgan paytda stolga beriladigan bosim kuchini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

#### **Impulsning saqlanish qonuni**

**370.** Massasi  $1,8 \cdot 10^5 \text{ kg}$  bo'lgan,  $0,5 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanayotgan elektrovoz  $4,5 \cdot 10^4 \text{ kg}$  massali harakatsiz vagon bilan to'qnashadi, so'ngra esa ular birqalikda harakatlanadi. Ularning birqalidagi harakat tezligini ( $\text{cm/s da}$ ) toping.

Javob: 40

**371.**  $5 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanayotgan  $200 \text{ g}$  massali shar xuddi shu yo'nalishda  $4 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanayotgan  $300 \text{ g}$  massali shar bilan absolyut noelastik to'qnashadi. Sharlarning to'qnashuvdan keyingi tezligini ( $\text{cm/s da}$ ) toping.

Javob: 440

**372.** Ikki jismning har biri  $3 \text{ m/s}$  tezlik bilan bir-biriga qarab harakatlanib, o'zaro to'qnashgandan keyin  $1,5 \text{ m/s}$  tezlik bilan birga harakatlana boshladi. Ular massasining nisbatini toping.

Javob: 3

**373.**  $3 \text{ t}$  li zambarakdan  $15 \text{ kg}$  massali snaryad  $650 \text{ m/s}$  tezlik bilan gorizontal yo'nalishda uchib chiqadi. Orqaga tisarilganda zambarak qanday tezlik (absolyut qiymat bo'yicha) oladi. Javobni  $\text{cm/s da}$  bering.

Javob: 325

**374.** Konkichi yukli chanani  $5 \text{ m/s}$  tezlik bilan muz ustida uchiriyapti. Keyin esa uni oldinga qarab itardi va qo'yib yubordi. Agar chananing tezligi  $8 \text{ m/s}$  gacha oshgan bo'lsa, itarishdan keyin konkichi qanday tezlik bilan ( $\text{cm/s da}$ ) uchadi? Chananing massasi  $90 \text{ kg}$ , odamning massasi  $60 \text{ kg}$ . Javobda tezlik modulini ko'rsating.

Javob: 50

**375.**  $1 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanayotgan  $200 \text{ kg}$  massali qayiqning quyruq qismidan qayiq harakatiga qarama-qarshi tomonga qarab bola gorizontal yo'nalishda sakradi. Bolaning massasi  $50 \text{ kg}$ , uning sakrashidan so'ng qayiqning tezligi  $3 \text{ m/s}$  gacha oshgan bo'lsa, bola (yerga nishbatan) qanday tezlik bilan sakragan?

Javob: 7

**376.**  $56 \text{ m/s}$  tezlik bilan uchayotgan snaryad portlab, ikki bo'lakka bo'lindi.  $m_1 = m/3$  massali snaryad parchasi, bu yerda  $m$  – snaryad massasi,  $112 \text{ m/s}$  tezlik bilan xuddi o'sha yo'nalishda uchishda davom etadi. Ikkinci snaryad parchasining tezlik qiymati qanchaga teng?

Javob: 28

**377.**  $5 \text{ kg}$  massali miltiqdan o'q uzladi. Merganning yelkasiga tiralmagan miltiqning orqaga tisarilish tezligi mergan miltiqni yelkasiga qattiq tirab turgan holatdagi orqaga tisarilish tezligidan necha marta ortiq bo'ladi? Merganning massasi  $75 \text{ kg}$ .

Javob: 16

**378.**  $120 \text{ kg}$  massali aravacha  $80 \text{ kg}$  massali odam bilan birqalikda  $0,3 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanadi. Odam aravacha bo'ylab o'zgarmas tezlik bilan aravachaning harakat yo'nalishida yura boshlaydi. Odamning tezligi ( $\text{cm/s da}$ ) aravachaga nisbatan qanday bo'lganda u to'xtaydi?

Javob: 75

**379.** Odam aravachaga qarama-qarshi yo'nalishda yuguryapti. Odamning tezligi 2 m/s, aravachaning tezligi 1 m/s. Odam aravachaga sakrab chiqadi va uning ustida qoladi. Agar odamning massasi aravachaning massasidan 2 marta katta bo'lsa, shundan so'ng arvachaning tezligi qanday bo'ladi?

**Javob:** 1

**380.** Aravacha doimiy tezlik bilan harakatlanadi. Tezligi undan 2 marta katta bo'lgan kishi aravachaga yetib olib, unga sakrab chiqadi va uning ustida qoladi, buning natijasida aravachaning tezligi 20% ga ortadi. Aravachaning massasi odamning massasidan necha marta katta?

**Javob:** 4

**381.** 500 m/s tezlik bilan gorizontal uchayotgan 4 g massali polat o'q massasi 1 kg bo'lgan harakatsiz turgan polat brusokning yon qirrasining markaziga borib tegadi. To'qnashuvdan so'ng o'q 400 m/s tezlik bilan qarama-qarshi tomonga uchib ketadi. Brusokning to'qnashuvdan keyingi tezligi (cm/s da) qanchaga teng?

**Javob:** 360

**382.** 64 km/h tezlik bilan ketayotgan poyezddan sostavning beshdan bir qismi ajraladi. Bir muddat vaqtadan so'ng ajralgan vagonlarning tezligi 2 marta kamaydi. Uzilish paytida tortish kuchi o'zgarmagan, deb hisoblab, poyezdning bosh qismining shu paytdagi tezligini (km/h da) toping. Qarshilik kuchi og'irlikka proporsional.

**Javob:** 72

**383.** Har birining massasi 100 kg dan bo'lgan uchta qayiq bir xil tezlik bilan birin-ketin suzib bormoqda. O'rtdagi qayiqdan oldindagi va orqadagi qayiqlarga har birining massasi 10 kg dan bo'lgan yuklarni bir vaqtida, qayiqqa nisbatan 2,2 m/s tezlik bilan gorizontal tashlashadi. Oldindagi va orqadagi qayiqlarga yuklar kelib tushgandan keyin ularning nisbiy tezligining (cm/s da) qiymatini toping.

**Javob:** 40

**384.** Ikki bola konkida bir-biriga qarab yuzma-yuz turgan holda argonning ikki uchidan ushlab turishibdi. Bir bolaning massasi 30 kg, boshqasini 40 kg. Bolalardan biri argonni shunday o'ray boshlaydiki, uming uzunligi har sekundda 35 cm ga qisqaradi. Nisbatan yengilroq bo'lgan bola qanday tezlik (cm/s da) bilan harakatlana boshlaydi? Argonning massasi va ishqalanish kuchi inobatga olinmasin.

**Javob:** 20

**385.** 80 kg massali harakatsiz turgan aravachaning qarama-qarshi uchlarida birining massasi 50 kg, boshqasining massasi 60 kg bo'lgan ikki kishi turibdi. Ular bir vaqtida, yerga nisbatan mos ravishda 2 m/s va 1 m/s tezliklar bilan aravachadan pastga sakrashadi. Aravacha bundan keyin qanday tezlik (cm/s da) bilan harakatlanadi? Kishilarning aravachadan uzilgan paytdagi tezliklarini gorizontal yo'nalgan deb hisoblang.

**Javob:** 50

**386.** 190 g massali uncha katta bo'lмаган jism 90 sm radiusli silliq yarim sferaning uchida turibdi. Jismga gorizontal uchayotgan 10 g massali o'q kelib tegadi va unga tiqilib qoladi. O'qning qanday minimal tezligida jism shundan so'ng darhol yarim sferaming yuzasidan uzildi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 60

**387.** Qandaydir tezlik bilan uchayotgan snaryad ikki bo'lakka bo'linib ketadi. Katta bo'lakning tezligi qiymat bo'yicha snaryadning boshlang'ich tezligiga teng va unga perpendikulyar yo'nalgan. Boshqa bo'lakning tezligi qiymat bo'yicha dastlabki tezlikdan 5 marta katta. Bo'laklarning massalar nisbatini toping.

**Javob:** 3

**388.** 20 m/s tezhk bilan gorizontal uchayotgan granata portlab, ikki bo'lakka bo'lindi. Katta bo'lakning tezligi 30 m/s ga teng va gorizontga nisbatan  $60^\circ$  burchak ostida yo'nalgan. Kichik bo'lakning tezligi 60 m/s. Bo'laklarning massalar nisbatini toping.

**Javob:** 2

### **Impuls proyeksiyasining saqlanishi**

389. 5 kg massali qum solingen yashik  $6 \text{ m/s}$  tezlik bilan absolyut silliq gorizontal sirt bo'ylab harakatlanadi. Qumga qandaydir balandlikdan boshlang'ich tezliksiz qo'yib yuborilgan 1 kg massali toshcha kelib tushadi. Yashikka toshcha kelib tushganidan keyin uning tezligi qanday bo'ladi?

Javob: 5

390. Gorizontal yo'lda  $0,2 \text{ m/s}$  tezlik bilan ketayotgan  $800 \text{ kg}$  massali vagonchaga yuqorida  $200 \text{ kg}$  shag'al to'kishdi. Bunda vagonchaning tezligi ( $\text{cm/s da}$ ) qanchaga kamaydi?

Javob: 4

391. Rolikli konkida turgan sportchi  $4 \text{ kg}$  massali yadroni gorizontga nisbatan  $60^\circ$  burchak ostida  $8 \text{ m/s}$  tezlik bilan uloqtirdi. Agar sportchining massasi  $80 \text{ kg}$  bo'lsa, uning uloqtirishdan keyingi boshlang'ich tezligi ( $\text{cm/s da}$ ) qanday bo'ladi?

Javob: 20

392.  $0,8 \text{ m/s}$  tezlik bilan rels ustida harakatlanayotgan vagonchaning zinapoyasiga relsga perpendikulyar yo'nalishda odam sakrab chiqadi. Agar vagonchaning massasi  $100 \text{ kg}$ , odamning massasi esa  $60 \text{ kg}$  bo'lsa, vagonchaning oxirgi tezligini ( $\text{cm/s da}$ ) toping.

Javob: 50

393. Vertikalga nisbatan  $30^\circ$  burchak ostida  $600 \text{ m/s}$  tezlik bilan uchayotgan  $50 \text{ kg}$  massali snaryad qum yuklangan platformaga kelib tushdi va unga tiqilib qoldi. Platformaning snaryad kelib tushgandan keyingi tezligini toping. Platformaning massasi  $950 \text{ kg}$ . Platforma va rels orasidagi ishqalanish hisogha olinmasin.

Javob: 15

394. Massasi  $2 \text{ kg}$  bo'lgan yuk harakatsiz turgan  $18 \text{ kg}$  massali platformaga qiya taxtadan ishqalanishsiz sirpanib tushadi. Platformaga yuk kelib tushgach u qanday tezlik ( $\text{cm/s da}$ ) bilan harakatlana boshlaydi. Taxtaning gorizontga qiyalik burchagi  $60^\circ$ , yukning dastlabki holatdagi balandligi platforma sathidan  $1,8 \text{ m}$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 30

395. Silliq qiya tekislikdan sirpanib tushayotgan  $9 \text{ kg}$  massali qum solingen yashikka gorizontal uchayotgan  $3 \text{ kg}$  massali yadro kelib tushadi va unda tiqilib qoladi. Agar yadro tushishidan oldin yashikning tezligi (only tezligi)  $6 \text{ m/s}$  ga tenglasbgan, va yadroning tezligi  $12 \text{ m/s}$  bo'lsa, yashikning unga yadro kelib tushgandan keyingi tezligini (only tezligini) toping. Tekislikning qiyalik burchagi gorizontga  $60^\circ$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

396. Silliq qiya tekislikdan sirpanib tushayotgan  $12 \text{ kg}$  massali qum solingen yashikka massasi  $4 \text{ kg}$  bo'lgan yuk  $3,2 \text{ m}$  balandlikdan tushadi va unda tiqilib qoladi. Agar yuk tushishidan oldin yashikning tezligi (only tezligi)  $8 \text{ m/s}$  ga tenglashgan bo'lsa, yashikning unga yuk kelib tushgandan keyingi tezligini (o'sha ondag'i) toping. Tekislikning qiyalik burchagi gorizontga  $30^\circ$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 7

397\*. Silliq gorizontal yuzada yotgan, uzunligi  $50 \text{ cm}$  va massasi  $900 \text{ g}$  bo'lgan taxtaning bir uchida  $100 \text{ g}$  massali qurbaqa o'tiribdi. Qurbaqa taxta bo'ylab  $15^\circ$  burchak ostida sakraydi. Qurbaqa taxtaning ikkinchi uchiga kelib qo'nishi uchun uning boshlang'ich tezligi qanday bo'lishi kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

### **Kompleks masalalar. Massalar markazi**

398. Konkida turgan  $60 \text{ kg}$  massali kishi  $2 \text{ kg}$  massali yukni  $3 \text{ m/s}$  tezlik bilan old tomoniga gorizontal tashlab yuboradi, o'zi esa orqaga sirpanib ketdi. Agar konkilarning muzga ishqalanish koefitsiyenti  $0,01$  bo'lsa, tashlashdan qancha sekund o'tib, kishi to'xtaydi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 1

**399.** Yaqqa plastinka ustida 200 g massali shar turibdi. Sharga pastdan vertikal yuqoriga qarab 450 m/s tezlikdagi, 10 g massali o'q uzeladi. O'q plastina va sharni teshib o'tadi va buning natijasida shar 20 m balandlikka ko'tariladi. O'q qanday balandlikka ko'tariladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 125

**400.** Zambarakdan vertikal yuqoriga qarab to'p otildi. Snaryad stvoldan 40 m/s tezlik bilan uchib chiqdi va yuqori nuqtada portlab, ikkita bir xil bo'lakka bo'lindi. Birinchi bo'lak 50 m/s tezlik bilan otlish joyiga kelib tushdi. Portlashdan keyin ikkinchi snaryad bo'lagining havoda bo'lgan vaqtini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 8

**401.** Aravacha silliq reislarda turibdi. Odam uning bir tomonidan ikkinchi tomoniga reislarga parallel holatda yurib o'tadi. Bunda aravacha yerga nisbatan qanday masofaga siljiydi? Odamning massasi 60 kg, aravachaning massasi 120 kg, uning uzunligi 6 m.

**Javob:** 2

**402.** 5 m uzunlikdagi aravacha silliq reislarda turibdi. Ikki bola aravachaning qarama-qarshi uchlari turishbidi. Aravachaning massasi 75 kg, bolalarning massalari 45 kg va 30 kg. Bolalar o'rinalarini almashtirishadi. Bu holda aravacha necha santimetrga siljiydi?

**Javob:** 50

**403.** Kishi muallaq turgan 400 kg massali aerostatdan arzonli narvon yordamida pastga tushmoqchi bo'ldi. Odam oxirgi zinaga oyoq qo'yganda oyog'i yerga tegishi uchun, u aerostatga qanday minimal uzunlikdagi arzonli narvonni bog'lashi kerak. Odamning massasi 80 kg. Boshlang'ich vaqt momentida yerdan aerostatgacha bo'lgan masofa 10 m.

**Javob:** 12

**404.** 80 cm uzunlikdagi yupqa tayozchani stol ustiga vertikal holatda tikka qo'yishdi va qo'yib yuborishdi. Tayozcha stol yuzasi bilan 60° burchak hosil qilgan paytda uning pastki uchi necha santimetrga siljiydi? Ishqalanish inobatga olinmasin.

**Javob:** 20

**405.** Qirrasida turgan kubni turg'un bo'lмаган muvozanat holatida silliq sirtda ushlab turishbidi. Kubni qo'yib yuborishadi va u yoqlaridan biriga yon tomoni bilan tusbadi. Agar kubning tomoni 32 cm bo'lsa, u turgan qirra (kub uning ustida turgan qirra) shu paytga kelib necha santimetrga siljiydi?

**Javob:** 16

**406.** 80 cm uzunlikdagi va 200 g massali ip silliq gorizontal yuzaga qo'yildi va uchlardan biri atrofida 10 rad/s burchak tezlik bilan aylantirildi. Ipning o'rtaSIDagi taranglik kuchi qanchaga teng?

**Javob:** 6

**407.** Yupqa zanjircha silliq gorizontal yuzaga qo'yildi va uchlardan biri atrofida aylantirildi. Agar zanjirchaning o'rtaSIDa taranglik kuchi 12 N bo'lsa, zanjircha aylanish o'qiga qanday kuch bilan ta'sir qiladi?

**Javob:** 16

**408.** Tomoni 75 cm bo'lgan kvadrat shaklidagi 500 g massali yupqa plastinka kvadrat tomonlaridan biri bilan mos keluvchi vertikal o'q atrofida 8 rad/s burchak tezlik bilan aylantirib yuborildi. Plastinka aylanish o'qiga qanday kuch bilan ta'sir qiladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 13

**409.** Uzunligi 1 m va massasi 0,5 kg bo'lgan yupqa bir jinsli sterjen uning uchlardan biri orqali o'tuvchi gorizontal o'q atrofida vertikal tekislikda aylanadi. Pastki holatda sterjen ikkimchi uchining tezligi 4 m/s ga teng. Sterjen shu paytda aylanish o'qiga qanday kuch bilan ta'sir qiladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 9

**410.** Uzunligi 1 m bo'lgan ip bilan ulangan, har birining massasi 250 g bo'lgan ikkita sharcha silliq gorizontal sirtda harakatlanadi. Qandaydir vaqt momentida sharchalardan biri

harakatsiz, boshqasining tezligi esa  $4 \text{ m/s}$  ga teng va u ipga perpendikulyar yo'nalgan. Ipning taranglik kuchi qanchaga teng?

Javob: 2

411. 1 m uzunlikdagi ip bilan ulangan massalari 1 kg va 4 kg bo'lgan ikkita sharcha silliq yuza bo'ylab shunday harakatlanadiki, bunda ip aylanishining burchak tezligi  $5 \text{ rad/s}$  ga teng. Ipning taranglik kuchini toping.

Javob: 20

#### 4. ISH VA ENERGIYA

Ish

412. Minorali kran uzunligi 5 m va kesimi  $0,01 \text{ m}^2$  bo'lgan po'lat balkani gorizontal holatida 15 m balandlikka tekis ko'taradi. Kran bajaradigan ishni toping. Ba'ka materialining zinchligi  $7800 \text{ kg/m}^3$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 58500

413. 2 kg massali jismni  $3 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan 1 m balandlikka ko'tarishda kishi qanday isb bajaradi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 26

414. Yukni doimiy tezlanish bilan vertikal yuqoriga ko'tara boshlashadi. Harakatning birinchi sekundida bajarilgan ish keyingi, ikkinchi sekundida bajarilgan ishdan necha marta kichik?

Javob: 3

415. 1 kg massali yukni ip orqali vertikal yuqoriga o'zgarmas tezlanish bilan ko'tarishadi. 2 s ichida arqonning taranglik kuchi bilan  $48 \text{ J}$  ish bajarildi. Yukning tezlanishini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

416. 20 N kuch 2 kg massali yukni  $5 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan qiya tekislik bo'ylab 2,5 m balandlikka ko'tarib qanday ish bajaradi? Kuch qiya tekislikka parallel ta'sir qiladi. Ishqalanish inobatga olinmasin.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 100

417. 20 kg massali jismni qiya tekislik bo'ylab 6 m balandlikka ko'tarishadi, bunda u tekislik bo'ylab 10 m o'tadi. Agar tortish kuchi tekislikka parallel, va ishqalanish koeffitsiyenti 0,2 bo'lsa, ishqalanish kuchining ishini (modulini) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 320

418. Massasi 0,5 kg bo'lgan jism 7 m balandlikdagi qiya tekislik uchidan uning asosigacha sirpanib tushadi. Tekislikning qiyalik burchagi gorizontga  $45^\circ$ , va ishqalanish koeffitsiyenti 0,2. Ishqalanish kuchining ishini (modulini) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 7

419. 200 kg massali vagonchani qiyalik burchagi gorizontga  $30^\circ$  bo'lgan tog' bo'ylab reslar orqali ko'tarib chiqishadi. Agar vagoncha  $0,2 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan harakatlangani ma'lum bo'lsa, tortish kuchi  $50 \text{ m}$  yo'lida qanday ish (kJ da) bajaradi? Ishqalanish koeffitsiyenti 0,2,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .  
 $\sqrt{3} = 1,7$ .

Javob: 69

420. Sol 200 N kuch bilan tortildi. Bunda bajarilgan ish  $1000 \text{ J}$  ga teng. Agar kuch yo'nalishi va ko'chish yo'nalishi orasidagi burchak  $60^\circ$  ni tashkil etsa, sol qanday masofaga ko'chgan?

Javob: 10

421. 10 kg massali jism qiya tekislik bo'ylab 6 m balandlikdan tushadi. Og'irlilik kuchining bajargan ishini toping.  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 588

422. 2 kg massali jism gorizontga 45° burchak ostida yo'nalgan arqon ta'sirida gorizontal tekislik bo'ylab tekis harakatlanadi. Jism va tekislik orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,2. Ipnинг taranglik kuchi 2,4 m yo'lda qanday ish bajaradi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 8

423. 10 kg massali yashik gorizontal sirt ustida vertikal devordan qandaydir masofada turibdi. Va u shu devor bilan bikrligi 200 N/m bo'lgan prujina yordamida ulangan. Yashik va tekislik orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,2. Yashikka gorizontal kuch qo'yan holda uni asta-sekin devordan 20 cm ga uzoqlashtiriladi. Bunda qanday ish bajariladi? Boshlang'ich holatda prujina deformatsiyalanmagan.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 8

424. Kvadrat plastina silhq gorizontal sirt bo'ylab o'zining tomonlaridan biriga parallel ravishda sirpanadi va platinaga ishqalanish koefitsiyenti 0,2 bo'lgan g'adir·budir yuzadan silliq yuzani ajratadigan chegaraga yaqinlashadi. Chegara chizigi plastina tezligiga perpendikular joylashgan. Plastina chegarani to'liq kesib o'tgunicha ishqalanish kuchining bajargan ishini (modulim) toping. Plastinaning tomoni 1 m, massasi esa 10 kg.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 10

#### O'zgarmas quvvat. FIK

425. II-62 samolyoti har birining tortish kuchi 100 kN bo'lgan to'rt dvigatelga ega. Samolyotning 240 m/s tezligida dvigatellarning umumiyl foydali quvvati (kW da) qanday?

Javob: 96000

426. Massasi 2000 kg bo'lgan avtomobil gorizontal yo'lda 72 km/h tezlik bilan harakatlanadi. Harakatga qarshilik kuchi avtomobil og'irligining 1/20 ini tashkil qiladi. Avtomobilning foydali quvvatini (kW da) aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 20

427. Qayiq eshkakchi bilan birga 0,6 m/s tezlikda harakatlanadi. Agar eshkakchi tomonidan erishiladigan quvvat 18 W ga teng bo'lsa, suvning qarshilik kuchini aniqlang.

Javob: 30

428. Qyaligi yo'lning har 10 metrida 1 m ni tashkil qiluvchi yo'l bo'ylab 9 km/h tezlik bilan ko'tarilayotgan gusenitsali traktor qanday foydali quvvatga (kW da) erishadi? Traktoring massasi 6 t.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 15

429. 36 km/h tezlik bilan harakatlanishda elektrovoz 60 kW quvvat sarflaydi. Agar elektrovozning FIK 80% ga teng bo'lsa, uning tortish kuchini aniqlang.

Javob: 4800

430. Quvvat sarfi 10 kW ho'lgan nasos yordamida 500 m chuqurlikdagi quduqdan neft tortib chiqariladi. Agar nasos ishining bir minutida yer sirtiga 96 kg neft yetkazib berilsa, nasosning FIK (foizlarda) qanday?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 80

431. Suv nasosi bir minutda 300 kg suvni 80 m balandlikka tekis yetkazib beradi. Agar nasosning FIK 80% ga teng bo'lsa, nasosni harakatga keltiruvchi motorning quvvatini (kW da) aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 5

432. Ko'tarma kran quvvati 10 kW bo'lgan dvigatel yordamida harakatga keltiriladi. Agar dvigateling FIK 80% bo'lsa, 2 t massali yukni 50 m balandlikka tekis ko'tarish uchun necha sekund talab qilinadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 125

433. Yuk sostavi yo'lning tekis qismida 60 km/h tezlik bilan harakatlanadi, va bunda elektrovoz 100 kW foydali quvvatga erishadi. Erishiladigan quvvat 120 kW ga teng bo'lishi uchun har 200 m da 1 m ko'tarilgan qiyalik bo'ylab qanday tezlik (km/h da) bilan ko'tarilish kerak bo'ladi? Qarshilik kuchi sostav og'irlik kuchining 0,01 qismiga teng (har ikki yo'lda ham).

**Javob: 48**

434. Shosse uchastkasining qiyaligi har 20 m yo'lda 1 m ga teng. Qiyalikdan dvigateli o'chirilgan holatda tushayotib, avtomobil 60 km/h tezlik bilan tekis harakatlanadi. Xuddi shu tezlik bilan shu qiyalikka ko'tarilish uchun shu avtomobilning dvigatelini qanday foydali quvvatga (kW da) erishishi zarur bo'ladi? Avtomobilning massasi 1.500 kg.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 25**

435. Teploxod barjani – shatakkal olib yuriladigan yuk kemasini 9 km/h tezlik bilan tortib bormoqda. Bunda buksir kanatining – shatak arqonining tarangligi 120 kN ni, dvigatelinin quvvati esa 400 kW ni tashkil etmoqdi. Agar teploxod dvigateling xuddi shu quvvatida barjasiz suzsa, uning tezligi (km/h da) qanday bo'ladi? Suvning qarshilik kuchi harakat tezligiga to'g'ri proporsional.

**Javob: 18**

#### **O'zgaruvchan quvvat. O'rtacha quvvat**

436. Agar tramvay harakat boshlanganidan keyin 5-chi sekundning oxirida 18 m/s tezlikka erishgan bo'lsa, uning shu paytdagi quvvatini (kW da) aniqlang. Tramvayning massasi 10 t. Harakatiga qarshilik inobatga olinmasin.

**Javob: 50**

437. 1 t massali avtomobil joyidan qo'zg'aladi va tekis tezlanuvchan harakatlanib, 5 s ichida 50 m yo'lni bosib o'tadi. Avtomobil o'z harakatining beshinchisi sekundi oxirida qanday quvvatga (kW da) erishadi? Avtomobilning harakatiga qarshilik hisobga olinmasin.

**Javob: 80**

438. 6 kg massali jismning boshlang'ich tezliksiz erkin tushish jarayonida dastlabki sekund ichida og'irlilik kuchi erishadigan o'rtacha quvvatni toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 300**

439. 3 kg massali jismga 36 N kuch qo'ygan holda, uni yerdan vertikal yuqoriga ko'tarishadi. Harakat boshlanganidan 2 s o'tgach shu kuch qanday quvvatga erishadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 144**

440. 3 kg massali jismga 42 N kuch qo'ygan holda, uni yerdan vertikal yuqoriga ko'tarishadi. Jism 2 m balandlikda bo'lgan paytda shu kuch qanday quvvatga erishadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 168**

441. Ko'tarma kran 1 t massali yukni 1 m/s<sup>2</sup> tezlanish bilan 10 s ichida qandaydir balandlikka ko'taradi. Kanatlarning taranglik kuchi yordamida erishiladigan o'rtacha quvvatni (kW da) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 55**

442. Agar samolyotning yugurish yo'li uzunligi 300 m, havoga ko'tarilishdagi tezligi 30 m/s, harakatga qarshilik kuchi esa 300 N bo'lsa, u yugurish yo'lini bosib o'tishda qanday o'rtacha foydali quvvatga (kW da) erishadi?

**Javob: 27**

443. Bir xil massali ikkita avtomobil o'rnidan b ir vaqtida qo'zg'aladi va tekis tezlanuvchan harakatlanadi. Agar bir xil vaqt ichida birinchi avtomobil ikkinchisiga qaraganda ikki marta katta tezlikka erishsa, birinchi avtomobilning o'rtacha quvvati ikkinchisiniidan necha marta katta? Avtomobilarning harakatiga qarshilik kuchlari inobatga olinmasin.

**Javob: 4**

#### **Kinetik energiya. Ish va kinetik energiyaning o'zgarishi**

444. Jism qandaydir balandlikdan 10 m/s tezlik bilan gorizontal otildi. Necha sekunddan keyin jismning kinetik energiyasi ikki marta ortadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 1**

445. Qandaydir balandlikdan 20 m/s tezlik bilan tosh gorizontal otildi. Otishdan 4 s o'tib toshning kinetik energiyasi 3000 J ga teng bo'ldi. Toshning massasi qanday?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 3**

446. 3 kg massali jism yer sirtidan gorizontga  $60^{\circ}$  burchak ostida  $8 \text{ m/s}$  tezlik bilan otildi. Jismning ko'tarilishning eng yuqori nuqtasidagi kinetik energiyasini toping.

Javob: 24

447. Toshning maksimal ko'tarilish nuqtasidagi kinetik energiyasi otilish nuqtasidagi kinetik energiyasining 25 % ni tashkil qilishi uchun toshni gorizontga qanday burchak ostida otish kerak? Javobni graduslarda bering.

Javob: 60

448. Avtomobil tekis tezlanuvchan harakat boshladi. Harakatning dastlabki  $10 \text{ s}$  da uning kinetik energiyasining o'zgarishi keyingi  $10 \text{ s}$  dagi o'zgarishidan necha marta kichik?

Javob: 3

449. 0,8 kg massali basketbol to'pi  $10 \text{ m/s}$  tezlik bilan uchadi. O'yinchi to'pni tutib oladi va  $0,1 \text{ s}$  ichida uni to'xtatadi. O'yinchi qanday o'rtacha quvvatga erishadi? (Quvvatning absolyut qiymatini ko'rsating).

Javob: 400

450. 4 kg massali erkin tushayotgan jismning tezligi qandaydir masofada  $2 \text{ m/s}$  dan  $8 \text{ m/s}$  gacha oshdi. Shu yo'ldagi og'irlik kuchining ishini toping.

Javob: 120

451. 200 g massali tosh gorizontal yuzadan gorizontga burchak ostida otildi va shu yuzaga  $40 \text{ m}$  masofada  $4 \text{ s}$  dan so'ng kelib tushdi. Shu otishga sərflangan ish qanchaga teng?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 50

452.  $800 \text{ m/s}$  tezlik bilan gorizontal uchayotgan  $5 \text{ g}$  massali o'q taxtani teshib o'tadi va undan  $400 \text{ m/s}$  tezlikda uchib chiqadi. Taxtaning qarshilik kuchi tomonidan o'q ustida bajarilgan ishning absolyut qiymatini toping.

Javob: 1200

453. Qandaydir tezlik bilan uchayotgan o'q qum joylangan qopga tegadi va uning ichida  $15 \text{ cm}$  chuqurlikkacha kirib ketadi. Agar shuncha massali o'qning harakat tezligi ikki marta katta bo'lsa, o'q qumga qanday chuqurlikkacha ( $\text{cm da}$ ) kirib ketadi? Qum ichida o'qning harakatiga qarshilik kuchi uning tezligiga bog'liq emas deb hisoblang.

Javob: 60

454.  $9_0$  tezlik bilan uchayotgan o'q bir biridan katta bo'lмаган masofada joylashgan bir xildagi bir qancha taxtani teshib o'tadi. Agar birinchi taxtadan o'tgandan keyin o'qning tezligi  $9_1 = 0,9_0$  ga teng bo'lsa, o'q nechanchi taxtada tiqilib qoladi? Taxtaning o'q harakatiga qarshilik kuchi uning tezligiga bog'liq emas deb hisoblang. Og'irlik kuchi inobatga olinmasin.

Javob: 6

455. Oyda yoldoshni aylanma orbitaga chiqarishda bajariladigan ish Yerda xuddi shunaqa yo'ldoshni aylanma orbitaga chiqarishda bajariladigan ishdan necha marta kichik? Oy massasini Yernikidan  $80$  marta kichik, Oy radiusini esa Yernikidan  $4$  marta kichik deb hisoblang.

Javob: 20

456. Yer sirti ustida reaktiv oqimni pastga chiqarib tashlayotgan  $1 \text{ t}$  massali raketa muallaq turibdi. Agar yoqilg'i sarfi  $20 \text{ kg/s}$  ga teng bo'lsa, bunda raketaning dvigatellari qanday quvvatga ( $\text{kW da}$ ) erishadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2500

457. Agar  $2 \text{ t}$  massali raketa Yer yuzasidan  $4 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan ko'tarilsa, uning dvigatellari qanday quvvatga ( $\text{kW da}$ ) erishadi? Reaktiv oqimdag'i gazlar chiqindisining tezligi  $1200 \text{ m/s}$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 16800

458. Agar brandspoyt (yong'inga qarshi suv nasosi) teshigining yuzasi  $10 \text{ cm}^2$ , suv oqimining tezligi esa  $10 \text{ m/s}$  bo'lsa, nasosning foydali quvvati qanchaga teng?

Javob: 500

**459.** Ventilyator aylanishining tezligi ikki marta oshgan paytda uning foydali quvvati necha marta oshadi?

Javob: 8

**460.** Brandspoytdan chiqayotgan suv undan 5 ni masofaga borib tushishi uchun suvni gorizontga qanday burchak ostida (graduslarda) yo'naltirish kerak? Teshik yuzasi  $10 \text{ cm}^2$ , motoring quvvati 1 kW, va uning FIK 50 %. Teshikning yerdan balandligini nolga teng deb hisoblang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 15

**461.** Kichkina shayba silliq gorizontal yuza bo'ylab harakatlanib, 75 cm uzunlikdagi g'adir-budur yuza sohasiga tushib qoladi. Shaybaning yuzaga ishqalanish koefitsiyenti 0,4 dan 0,8 gacha chiziqli ortadi. Shaybaning minimal tezligi qanday bo'lganda u shu sohani yengib o'tadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

**462.** 8 cm uzunlikdagi bir jinsli sterjen silliq gorizontal yuza bo'ylab o'z uzunligiga parallel ravishda sirpanadi va silliq yuzani g'adir-budir yuzadan (storjenning bu yuzaga ishqalanish koefitsiyenti 0,2 ga teng) ajratadigan chegaraga yaqinlashadi. Chegara chizig'i sterjen tezligiga perpendikulyar joylashgan. Agar sterjen chegaranining yarmini kesib o'tgan paytda to'xtab qolgan bo'lsa, uning boshlang'ich tezligini ( $\text{cm/s da}$ ) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 20

**463.** 2 m uzunlikdagi bir jinsli sterjen o'z uzunligi bo'ylab harakatlanib g'adir-budir gorizontal yuzadan silliq gorizontal yuzaga o'ta boshlaydi. Sterjenning chegarani kesib o'tish boshidagi tezligi  $1,6 \text{ m/s}$  ga teng. Agar g'adir-budir yuzaga ishqalanish koefitsiyenti 0,2 ga teng bo'lsa, sterjen shu paytdan to'xtagunga qadar qancha masofani ( $\text{cm da}$ ) bosib o'tadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 80

**464.** 2 m uzunlikdagi bir jinsli sterjen o'z uzunligi bo'ylab harakatlanib silliq gorizontal yuzadan notejis yuzaga o'ta boshlaydi. Bunda uning tezligi sirtlar chegarasiga tik yo'nalgan va uning notejis yuzaga ishqalanish koefitsiyenti 0,2. Agar sterjenning boshlang'ich tezligi  $3 \text{ m/s}$  bo'lgan bo'lsa, u shu paytdan to'xtagunga qadar qancha masofani ( $\text{cm da}$ ) bosib o'tadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 325

#### Potensial energiya. Ish va potensial energiyaning o'zgarishi.

**465.** 30 m balandlikdagi minoradan tosh gorizontal otidi. Harakat boshlanganidan 2 s o'tgandagi toshning potensial energiyasini toping. Toshning massasi 0,2 kg. Yer yuzasidagi potensial energiyasi nolga teng.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 20

**466.** 2 kg massali jism yer sirtidan  $6 \text{ m/s}$  tezlik bilan gorizontga  $30^\circ$  burchak ostida otildi. Jism ko'tarilishning eng baland nuqtasiga erishganda uning potensial energiyasi qanchaga ortadi?

Javob: 9

**467.** Har birining massasi 80 kg va qahinligi  $0,2 \text{ m}$  bo'lgan uchta bir jinsli to'g'ri burchakli plita biri boshqasining yonida yer yuzasida gorizontal yotibdi. Plitalarni bir-birining ustiga terib qo'yish uchun qanday minimal ish bajarish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 480

**468.** Uzunligi  $1,5 \text{ m}$  va massasi  $10 \text{ kg}$  bo'lgan yupqa lom gorizontal yuzada yotibdi. Uni yerga vertikal holatda qo'yish uchun qanday minimal ish bajarish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 75

**469.** Agar  $200 \text{ kg}$  massali brusokni gorizontal holatdan vertikal holatga o'tkazilsa, uning potensial energiyasi qanchaga o'zgaradi? Brusok  $1 \text{ m}$  uzunlikka va tomoni  $20 \text{ cm}$  bo'lgan kvadrat kesimiga ega.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 800

**470.** Gorizontal tekislikda uzunligi 2 m va massasi 5 kg bo'lgan yupqa zanjir yotibdi. Zanjirni bir uchidan ushlab, uning pastki uchi tekislikdan o'zining uzunligiga teng bo'lgan balandlikka ko'tarishda bajariladigan minimal ish qanchaga teng?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 150

**471.** Yuzasi  $10 \text{ m}^2$  va chuqurligi 2 m bo'lgan basseynni yarmigacha to'ldirib turgan suvni yer yuzasiga chiqarib tashlash uchun qanday minimal ish (kJ da) bajarish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 150

**472.** Yuzasi  $15 \text{ m}^2$  bo'lgan chuqur basseynni 1 m chuqurlikkacha suv bilan to'ldirilgan va teng yarmidan vertikal to'siq bilan to'silgan. To'siqni asta-skinlik bilan shunday ko'chiriladi, bunda to'siq basseynni 1 : 3 nisbatda bo'ladi. Shunda qanday ish (kJ da) bajariladi? Suv to'siq orasidan oqib o'tmaydi.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 25

**473.** 10 kN/m bikrlikli siqilgan prujina 50 J ga teng potensial energiya zahirasiga ega. Pруjina necha santimetrga siqilgan?

Javob: 10

**474.** Agar 30 N kuch ta'siri ostida prujina 1 cm ga siqlsa, uni 20 cm ga siqish uchun bajarilishi kerak bo'lgan ishni toping.

Javob: 60

**475.** Prujinaga 100 g massali yuk osilgan. Prujinaning potensial energiyasi 9 marta ortishi uchun birinchi yukka qo'shimcha ravishda qanday massali (g da) yukni mahkamlash kerak?

Javob: 200

**476.** Prujinaga 200 N kuch qo'yib, uni 1 cm ga cho'zishdi. Prujinani yana 2 cm ga cho'zish uchun qanday ish bajarish kerak?

Javob: 8

**477.** Prujinani 2 cm ga siqib 12 J ish bajarildi. Uni yana 3 cm ga siqish uchun qanday ish bajarish kerak?

Javob: 63

**478.** Bikrliklari 3 kN/m va 2 kN/m bo'lgan ikkita prujina ketma-ket ulandi va uchlaridan tortib 10 cm ga cho'zildi. Bunda qanday ish bajarildi?

Javob: 6

**479.** Bikrliklari 1 kN/m va 2 kN/m bo'lgan ikkita prujina parallel ulandi va uchlaridan 300 N kuch bilan tortib cho'zildi. Bunda qanday ish bajarildi?

Javob: 15

**480.** 10 kg massali yupqa plastinka gorizontal stol ustida yotibdi. Plastinkaning markazida 100 N/m bikrlikdagi yengil prujina mahkamlangan. Plastinkani prujina yordamida stol yuzasidan 1 m balandlikka ko'tarish uchun qanday ish bajarish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 150

**481.** 60 N/m bikrlikdagi prujinada yuk osilib turibdi. Prujinani yana 2 cm ga cho'zish uchun qanday ish (mJ da) bajarish kerak?

Javob: 12

**482.** 100 g massali jism prujinani 2 cm ga cho'zgan holda unga osilib turibdi. Prujinani yana 1 cm ga cho'zish uchun qanday ish (mJ da) bajarish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 40

#### **Механик energiyaning saqlanish qonuni**

**483.** Tosh yer yuzasidan 10 m/s tezlik bilan vertikal yuqoriga otildi. Qanday balandlikda toshning kinetik energiyasi 5 marta kamayadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 4

**484.** Jism yer yuzasidan 20 m/s tezlik bilan vertikal yuqoriga otildi. Qanday balandlikda shu jismning kinetik energiyasi potensial energiyaga teng bo'ladi? Yer yuzasidagi potensial energiyani nolga teng deb qabul qiling.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 10

**485.** 0,5 kg massali jism yer yuzasidan 10 m balandlikdan 10 m/s tezlik bilan otildi. Jismning yerga tushish paytdagi kinetik energiyasi qanday bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 75

**486.** Jism yer yuzasidan 10 m balandlikdan gorizontga burchak ostida 20 m/s tezlik bilan otildi, 25 m balandlikda uning tezligi qanchaga teng bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 10

**487.** Jism 30 m balandlikdan 10 m/s tezlik bilan vertikal pastga otildi. Yer sirtidan qanday balandlikda jismning kinetik energiyasi ikki marta oshadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 25

**488.** Agar trayektoriyaning eng yuqori nuqtasida jismning kinetik energiyasi potensial energiyaga teng bo'lsa, u yer yuzasidan gorizontga qanday burchak ostida otilgan? Yer yuzasidagi potensial energiyani nolga teng deb qabul qiling.

**Javob:** 45

**489.** Kichkina jism silliq gorizontal tekislik bo'ylab 4 m/s tezlik bilan sirpanadi va tepalikka ko'tariladi. Jism tekislik eاثtidan qanday balandlikka (cm da) ko'tariladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 80

**490.** 5 m uzunlikdag'i ipga shar osilgan. Shar ip osilgan nuqta joylashgan balandlikkacha og'ishi uchun unga qanday gorizontal tezlik berish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 10

**491.** 0,4 m uzunlikdag'i vaznsiz qattiq sterjenga osilgan sharcha vertikal tekislikda to'liq aylanishi uchun unga qanday gorizontal minimal tezlik berish kerak bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 4

**492.** 80 cm uzunlikdag'i yengil sterjen ikki uchiga mahkamlangan 1 kg va 3 kg li yuklar bilan o'zining o'rtaidan o'tgan gorizontal o'q atrofida erkin aylana oladi. Sterjen gorizontal vaziyatga keltirilib qo'yib yuboriladi. Sterjen vertikal holatni egallagan paytda yuklarning tezligini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 2

**493.** 150 cm uzunlikdag'i yengil sterjen ikki uchiga mustahkamlangan bir xildagi yuklar bilan gorizontal o'q atrofida erkin aylana oladi. O'q sterjenni 1 : 2 nisbatda bo'ladigan nuqta orqali o'tadi. Sterjen to'liq aylanish qilishi uchun, u muvozanat vaziyatida turgan vaqtida unga qanday minimal burchak tezligi berish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 4

**494.** 100 g massali kichik yuk silliq gorizontal stol ustida yotgan 300 g massali va 72 cm uzunlikdag'i ipga mahkamlangan. Stolda uncha katta bo'lmagan, chetlari silliq bo'lgan teshik tayyorlangan. Yukning og'irligi ta'sunda ip shu teshikka boshlang'ich teziksiz sirpanib tusha boshlaydi. Ipnинг bo'sh uchi stoldan sirpanib tushayotgan vaqtida uning tezligi qanday bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 3

**495.** 2 t massali vagon 2 m/s tezlik bilan harakatlanib, vertikal devorga borib uriladi, va natijada har birining bikrligi 100 kN/m bo'lgan ikkita buferli prujina siqiladi. Prujinalarning maksimal deformatsiyasini (cm da) toping.

**Javob:** 20

**496.** Rogatka yasash uchun bikrli 400 N/m bo'lgan rezinali shnurdan foydalaniidi. 10 g massali toshni shnurning o'rtafiga joylashtirib, 40 N kuch bilan tortib shu rogatkadan otildi. Tosh qanday tezlik bilan uchib ketadi?

**Javob:** 10

**497.** 200 N/m bikrlikdag'i deformatsiyalanmagan prujinaning pastki uchiga 1 kg massali yuk mahkamlandi va turtmasdan qo'yib yuborildi. Prujinaning maksimal deformatsiyasini (cm da) aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 10

**498.** 400 N/m bikrlikdagi deformatsiyalanmagan prujinaning pastki uchiga 250 g massali yuk mahkamlandi va turkisiz qo'yib yuborildi. Yukning maksimal tezligini (cm/s da) aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 25

**499.** Agar 1000 N/m bikrlikdagi vaznsiz vertikal prujinaning polga beradigan maksimal bosim kuchi 400 N bo'lsa, 10 kg massali yuk uning ustiga qanday balandlikdan (cm da) tushgan? Prujinaning yuksiz holatdagi uzunligi 1 m.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ . Balandlik pol sathidan hisoblansin.

**Javob:** 140

**500.** 1,6 kg massali yuk 250 N/m bikrlikdagi prujina orqali shiftga osilgan. Yukka tez turki yordamida vertikal pastga yo'nalgan 1 m/s boshlang'ich tezlik berishadi. Yuk qanday maksimal masofaga (cm da) pastlaydi?

**Javob:** 8

**501.** 1,6 kg massali yuk bikrliji 250 N/m bo'lgan elastik rezinali shnur orqali shiftga osilgan. Yukka vertikal yuqoriga yo'nalgan 1 m/s boshlang'ich tezlik beriladi. Yuk qanday maksimal balandlikka (mm da, boshlang'ich nuqtadan hisoblaganda) ko'tariladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 82

**502.** 5 kg massali yuk bikrliji 500 N/m bo'lgan elastik rezinali shnur orqali shiftga osilgan. Yukka ikki bor vertikal yuqoriga yo'nalgan boshlang'ich tezlik beriladi. Birinchi holda bu tezlik 0,5 m/s ga, ikkinchisida 2 m/s ga teng. Ikkinchi holda yuk ko'tarilishining maksimal balandligi (boshlang'ich nuqtadan hisoblaganda) birinchi holdagiga qaraganda qancha marta katta bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 5

**503.** 5 kg massali yuk bikrliji 500 N/m bo'lgan elastik rezinali shnur orqali shiftga osilgan. Yukka ikki marta 2 m/s boshlang'ich tezlik beriladi: birinchi marta vertikal yuqoriga yo'nalgan; ikkinchi marta vertikal pastga. Birinchi to'xtashgacha yuk bosib o'tgan masofa dastlabki holda ikkinchi holdagiga qaraganda necha foizga ko'p?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 25

#### **Energiyaning saqlanish qonuni + aylana bo'ylab harakat dinamikasi**

**504.** Yengil sterjen bir uchi bilan shiftga mahkamlangan va vertikal tekislikda tebrana oladi. Sterjenning ikkinchi uchiga 0,1 kg massali kichkina yuk osilgan. Sterjen gorizontallagi vaziyatgacha og'dirildi va qo'yib yuborildi. Trayektoriyaning eng quyi nuqtasida yuk sterjenga qanday kuch bilan ta'sir qiladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 3

**505.** Bir uchiga 0,3 kg massali yuk osilgan yengil sterjen boshqa uchi orqali o'tadigan gorizontallagi og'irosi erkin aylana oladi. Dastlab yuk yuqori holatda (sterjen vertikal) ushlab turiladi, keyin esa qo'yib yuboriladi. Yuk pastki holatdan o'tayotgan paytda sterjenning tarangligi qanchaga teng bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 5

**506.** 2 m uzunlikdagi cho'zilmas ipga osilgan og'ir sharchadan iborat bo'lgan mayatnik vertikal tekislikda tebranish qiladi. Sharcha pastki nuqtadan o'tayotganda ipning tarangligi sharchanining ikkilangan og'irlilik kuchiga teng bo'ladi. Sharchanining chetki vaziyati pastkisidan necha santimetrga balandroq?

**Javob:** 100

**507.** 5 kg massali og'ir sharcha ipga osilgan. Ip 100 N taranglikka bardosh beradi. Sharcha muvozanat vaziyatidan o'ta turib ipni uzishi uchun uni muvozanat vaziyatidan qanday minimal burchakka (graduslarda) og'dirish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 60

**508.** Boshqa uchj mahkamlangan ipning bir uchiga 0,2 kg massali kichkina sharcha osib qo'yilgan. Ip gorizontall holatga keltiriladi va boshlang'ich teziksiz qo'yib yuboriladi. Ip vertikal bilan  $60^{\circ}$  burchak hosil qilgan paytda uning tarangligi qanchaga teng bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

**509.** Mayin ipga  $2\sqrt{3}$  kg massali sharcha osilgan. Ip gorizontall holatga keltiriladi va qo'yib yuboriladi. Sharchaning tezlanish vektori gorizontall yo'nalgan paytda ipning tarangligi qanchaga teng bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 60

**510.** 50 cm uzunlikdagi ipga osilgan og'ir sharcha vertikal tekislikda tebranadi. Sharchaning chetki holati pastkisidan 20 cm ga baland. Harakat jarayonida ipning maksimal taranglik kuchi minimalidan necha marta katta bo'ladi?

Javob: 3

**511.** Cho'zilmas yengil ipga og'ir sharcha osilgan. Ip muvozanat vaziyatidan qanday burchakka (graduslarda) og'dirliganda keyingi harakat jarayonida ipning maksimal taranglik kuchi minimalidan 4 marta katta bo'ladi?

Javob: 60

**512.** 2 m uzunlikdagi cho'zilmas yengil ipga osilib turgan sharcha vertikal tekislikda to'liq aylanish qilishi uchununga qanday minimal gorizontall tezlik berish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 10

**513.** Uchiga 1,3 kg massali yuk osilgan, boshqa bir uchi esa mahkanlangan cho'zilmas ip vertikal tekislikda erkin aylanadi. Ipning maksimal taranglik kuchi minimalidan qanchaga kattaligini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 78

**514.** 1 m uzunlikdagi yengil ipning uchiga sharcha mahkamlangan. Sharcha vertikal tekislikda, ipning boshqa uchi orqali o'tadigan o'q atrofida erkin aylanadi. Trayektoriyaning yuqori nuqtasida sharcha  $5 \text{ m/s}$  tezlikka ega. Ipning taranglik kuchi pastki nuqtada yuqoridagidan necha marta katta bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 5

**515.** 0,5 m uzunlikdagi ipga bog'langan  $0,5 \text{ kg}$  massali tosh vertikal tekislikda erkin aylanadi. Aylananing pastki nuqtasida ipning tarangligi  $45 \text{ N}$ . Toshning tezligi vertikal yuqoriga yo'nalgan paytda ip uzilib ketsa, aylananing pastki nuqtasidan hisoblaganda tosh qanday balandlikka ko'tariladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

**516.** Ikki uchiga har birining massasi  $0,5 \text{ kg}$  bo'lgan ikkita yuk mahkamlangan vaznsiz sterjen gorizontall o'q atrofida erkin aylana oladi. O'q sterjenni  $1 : 3$  nishbatda bo'ladi. Sterjen gorizontall holatga keltiriladi va qo'yib yuhoriladi. Vertikal holatda u o'qqa qanday kuch bilan ta'sir qiladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 14

**517.** Bir uchiga  $3 \text{ kg}$ , o'rtafiga esa  $4 \text{ kg}$  massali yuklar mahkamlangan vaznsiz sterjen bo'sh uchi orqali o'tgan gorizontall o'q atrofida erkin aylana oladi. Sterjen yuqori holatga keltiriladi va qo'yib yuboriladi. Pastki holatdan o'tayotgan paytda u o'qqa qanday kuch bilan ta'sir qiladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 320

**518.**  $0,75 \text{ m}$  radiusli harakatsiz yarim sferaning uchidan kichik jism ishqalanishsiz sirpanib tushadi. Qanday balandlikda ( $\text{cm da}$ ) jism yarim sferaning sirtidan uzeladi? Balandlik yarim sfera asosidan hisoblanadi.

Javob: 50

**519.** Kichik jism "sirtmoqsimon halqa"ga silliq ulanib ketuvchi qiya tekislikdan,  $6 \text{ m}$  balandlikdan sirpanib tushadi. Halqa radiusi  $3 \text{ m}$ . Qanday balandlikda jism halqa yuzasidan uzeladi? Balandlik halqaning pastki nuqtasidan hisoblanadi. Ishqalanish inobatga olinmasin.

**Javob:** 5

520. Kichik jism 2 m radiusli "sirtmoqsimon halqa"ga siliq tarzda ulanib ketuvchi qiya tekislikdan sirpanib tushadi. Butun halqadan muvaffaqiyatli o'tish uchun jism qanday minimal balandlikdan sirpanib tushishi kerak? Balandlik halqaning pastki nuqtasidan hisoblanadi. Ishqalanish inobatga olinmasin.

**Javob:** 5

521. Butun halqani o'tishni ta'minlaydigan minimal balandlikdan tushayotgan aravacha vertikal tekislikda 2 m radiusli "sirtmoqsimon halqa" chizadi. Halqaning pastki nuqtasidan qanday balandlikda aravachaning relsiga bosim kuchi aravachaning og'irlik kuchidan  $\frac{3}{2}$  marta katta bo'ladi? Ishqalanish hisobga olinmasin.

**Javob:** 3

522. Uchiga sharcha bog'langan, 0,63 m uzunlikdag'i ip vertikaldan  $90^{\circ}$  ga og'dirildi va qo'yib yuborildi. Ip mixga urilganda, uzilib ketishi uchun mixni ip osilgan nuqta ostida vertikal bo'y lab qanday eng kichik masofada (cm da) o'rnatish kerak? Tinch holatda ip sharchanining sakkiz baravardagi og'irligiga bardosh beradi.

**Javob:** 45

523. Uzunligi 75 cm bo'lgan, bir uchiga sharcha bog'langan ip vertikaldan  $90^{\circ}$  ga og'dirildi va qo'yib yuborildi. Keyingi harakat paytida ip doim tarang turishi uchun mixni ip osilgan nuqta ostida vertikal bo'y lab qanday eng kichik masofada (cm da) o'rnatish kerak?

**Javob:** 45

524. Uzunligi 54 cm bo'lgan, bir uchiga sharcha bog'langan ip vertikaldan  $90^{\circ}$  ga og'dirildi va qo'yib yuborildi. Ip vertikal holatdan o'tayotib, o'zi osilgan nuqtadan 27 cm pastda qoqilgan mixga ilinadi. Shundan so'ng sharcha qanday maksimal balandlikka (cm da, pastki nuqtadan hisoblaganda) ko'tariladi?

**Javob:**

#### **Energiya va impulsning saqlanishi. Elastik urilish**

525. 6 m/s tezlikka ega 2 kg massali shar massasi 1 kg bo'lgan harakatsiz turgan shar bilan to'qnashadi. Urilishni markaziy va absolyut elastik hisoblab, ikkinchi sharning to'qnashuvdan keyingi tezligini toping.

**Javob:** 8

526. O'zaro absolyut elastik to'qnashuvchi ikki sharlardan massasi kattaroq'i tmch turibdi. Markaziy urilish natijasida kichkina shar kinetik energiyasining  $\frac{3}{4}$  ini yo'qtdi. Bir sharning massasi boshqasiniidan necha marta katta?

**Javob:** 3

527. Dastlab tinch turgan, kattaroq massadagi sharga boshqasi kelib uriladi. Markaziy elastik urilishdan so'ng sharlar shunday harakatlanadiki, bunda kichkina sharning tezlik qiymati katta sharning tezlik qiymatidan 2,5 marta katta bo'ladi. Sharlar massalarining nisbatini toping.

**Javob:** 6

528. Olchami bir xil bo'lgan ikkita shar bir-biriga tekkan holda mayin iplarda osilib turibdi. Birinchi shar muvozanat vaziyatidan chiqariladi va qo'yib yuborildi. Elastik urilishdan so'ng sharlar bir xil balandlikka ko'tariladi. Agar ikkinchi sharning massasi 0,6 kg bo'lsa, birinchi sharning massasini (g da) topung.

**Javob:** 200

529. Bir xil olchamdag'i ikkita shar bir-biriga tekkan holda 0,5 m uzunlikdag'i bir xil iplarga osilib turibdi. Sharlar massasi 2 : 3 nisbatda. Yengilroq shar muvozanat holatidan  $90^{\circ}$  ga og'dirildi va qo'yib yuborildi. Absolyut elastik urilishdan keyin ikkinchi shar necha santimetrga ko'tariladi?

**Javob:** 32

530. Siliq gorizontal stolda bir-biriga tegmagan holda birin-ketin joylashgan bir xil radiusdagi uchta birinchisi 2m, ikkinchisi m va uchinchisi  $m/2$  massali sharlar turibdi. Birinchi sharga uchala sharning markazlaridan o'tuvchi to'g'ri chiziq bo'y lab yo'nalgan 9 m/s tezlik

berildi. Birinchi shar ikkinchisiga, ikkinchisi esa uchinchisiga borib uriladi. Uchinchi sharning ikkinchi shar bilan urilgandan keyingi tezligini toping. Barcha to'qnashuvlar – absolyut elastik.

Javob: 16

531. Alfa-zarracha harakatsiz turgan geliy yadrosi bilan absolyut elastik to'qnashganidan so'ng dastlabki yo'naliishiga qandaydir burchak ostida uchib ketadi. To'qnashuvdan keyin zarrachalar o'zaro qanday burchak ostida (graduslarda) harakatlanishini aniqlang.

Javob: 90

532. Alfa-zarracha harakatsiz turgan geliy yadrosi bilan absolyut elastik to'qnashganidan so'ng dastlabki yo'naliishiga  $30^\circ$  burchak ostida uchib ketadi. Zarrachalarning to'qnashuvdan keyingi kinetik energiyalarining nisbatini aniqlang.

Javob: 3

533.  $\vartheta$  tezlik bilan harakatlanayotgan 3 kg massali shar tinch turgan sharga absolyut elastik urilganidan keyin dastlabki harakat yo'naliishiga nisbatan  $90^\circ$  burchak ostida  $\vartheta/2$  tezlik bilan harakatlanadi. Ikkinci sharning massasini aniqlang. Sharlarning yuzalari silliq.

Javob: 5

534. 100 g massali shar tinch turgan 300 g massali sharga 120 cm/s tezlik bilan borib uriladi. Agar birinchi sharning tezlik yo'naliishi urilish paytida sharlar markazlarini tutashtiruvchi chiziq bilan  $60^\circ$  burchak tashkil etsa, ikkinchi sharning urilishdan keyingi tezligini (cm/s da) toping. Sharlarning yuzalari silliq, va urilish – absolyut elastik.

Javob: 30

535. 70 g massali birinchi shar tinch turibdi. Xuddi shu o'lchamdag'i, lekin massasi 150 g bo'lgan ikkinchi shar esa 44 cm/s tezlik bilan unga shunday uriladiki, bunda uning markazining tezligi birinchi shar yuzasiga o'tkazilgan urinma chizig'i ustida yotadi. Absolyut elastik urilishdan keyin ikkinchi sharning tezligini (cm/s da) toping. Sharlarning yuzalari silliq.

Javob: 26

536. Har birining massasi 2 kg dan bo'lgan ikkita shar silliq gorizontal sirtda bir-biriga tekton holda tinch turibdi. Uchinchi shar bu sharlarning urinish nuqtasi orqali o'tuvchi to'g'ri chiziq bo'ylab va ularning markazlarini tutashtiruvchi chiziqqa perpendikulyar harakatlanib ularga borib uriladi. Agar uchinchi shar harakatsiz sharlar bilan absolyut elastik to'qnashuvdan keyin to'xtab qolgan bolsa, uning massasi qanchaga teng? Barcha sharlar silliq va bir xil radiusga ega.

Javob: 3

537. Yengil sharcha erkin tusha boshlaydi va 1,25 m masofa o'tgach 2,5 m/s tezlik bilan yuqoriga qarab harakatlanayotgan o'g'ir plita bilan absolyut elastik to'qnashadi. Urilishdan so'ng sharcha qanday balandlikka ko'tariladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 5

538. Stol tennisi o'yinining plastmassali sharchusini 80 cm balandlikdan tushirib yuboriladi. Sharcha trayektoriyasining pastki nuqtasida pastdan yuqoriga qarab raketka bilan uriladi, shundan so'ng sharcha dastlabki balandligidan 4 marta katta bo'lgan balandlikka sakraydi. Rakcketkaning zarba paytidagi tezligini aniqlang. Zarbani absolyut elastik deb hisoblang, havoning qarshiligini inobatga olmang. Rakcketkaning massasi sharcha massasidan ancha katta.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

539. Gorizontal uchayotgan sharcha pona yuzasiga elastik uriladi va vertikal yuqoriga sakraydi. Agar urilishdan keyin ponaning tezligi  $2 \text{ m/s}$  ga teng bo'lsa, sharcha zarba nuqtasidan qanday balandlikka ko'tariladi? Ishqalanish inobatga olinmasin. Ponaning massasi sharcha massasidan 10 marta katta.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 18

540. Ikki jism orasida siqilgan vaznsiz prujinada 100 J energiya zahirasi to'plangan. Bir jismning massasi 0,9 kg, boshqasini 0,1 kg. Prujina bo'shatilgandan keyin katta massali jismning kinetik energiyasini aniqlang.

Javob: 10

541. Silliq pona silliq stol ustida turibdi. Ponaga 2 m/s tezlik bilan chiga boshlaydigan kichkina brusok stol yuzasidan qancha balandlikka (cm da) ko'tariladi? Ponanining massasi 8 kg, brusokning massasi 2 kg. Brusok ponaga urilishsiz, silliq tarzda chiqadi deb hisoblang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 16

542. Silliq gorizontall stolda turgan 2 kg massali silliq pona ustiga 1 kg massali jism qo'yiladi va qo'yib yuboriladi. Agar jismning boshlang'ich balandligi 120 cm ga teng bolsa, u pona ustidan tekislikka tushgandan so'ng ponanining tezligi qanchaga teng bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ . Ponanining pastki qismi gorizontal sirt bilan silliq ulangan deb hisoblang.

Javob: 2

543. 0,3 m/s va 0,2 m/s tezliklar bilan bir-biriga qarab harakatlanayotgan, massalari mos ravishda 20 t va 60 t bo'lgan ikki vagonning to'qnashuvini paytda buferli prujinalarning har biri necha millimetrga siqiladi? To'qnashuv paytda har bir vagonda bikrligi 60 kN/m bo'lgan ikkita prushina ishlaydi. Issiqlik ajralishi inobatga olinmasin.

Javob: 125

544. Silliq polda yotgan 0,9 kg va 1,6 kg massali ikkita brusok vaznsiz prujina yordamida ulangan. Brusoklarni shunday ushlab turishadiki, bunda prujina 10 cm ga siqilgan. Dastlab birinchi brusok qo'yib yuboriladi, prujina deformatsiyalanmagan paytda esa ikkinchisi ham qo'yib yuboriladi. Keyingi harakat jarayonida prujinaning maksimal deformatsiyasini (cm da) toping.

Javob: 8

545. Bikrligi 500 N/m bo'lgan, deformatsiyalanmagan prujina yordamida ulangan 300 g va 600 g massali ikkita brusok silliq gorizontal tekislikda yotibdi. Birinchi brusokka prujina o'qi bo'ylab 12 m/s tezlik bilan gorizontal uchayotgan 100 g massali sharcha kelib tegadi. Keyingi harakat jarayonida prujinaning maksimal deformatsiyasini (cm da) toping. Sharchanining brusokka urilishi absolyut elastik.

Javob: 12

546. Deformatsiyalanmagan prujina yordamida ulangan 100 g va 400 g massali ikkita brusok silliq gorizontal tekislikda yotadi. Birinchi brusokka ikkinchi brusokka qarab 10 m/s tezlik beriladi. Keyingi harakat jarayonida ikkinchi brusokning maksimal tezligini toping.

Javob: 4

547. 900 N/m bikirlikdagi prujina yordamida ulangan 0,5 kg va 1 kg massali ikkita brusok silliq polda yotadi. Dastlab birinchi brusok devorga tiralib turadi, prujina deformatsiyalanmagan va devorga perpendikulyar yo'nalgan. Ikkinchi brusok birinchisi tomona 10 cm ga ko'chiriladi va qo'yib yuboriladi. Keyingi harakat jarayonida birinchi brusokning maksimal tezligini toping.

Javob: 4

548. Deformatsiyalanmagan prujina yordamida ulangan 300 g va 60 g massadagi ikkita brusok silliq gorizontal tekislikda yotadi. Birinchi brusokka prujina o'qi bo'ylab 9 m/s tezlik bilan gorizontal uchayotgan 100 g massali sharcha kelib tegadi. Birinchi brusokning keyingi harakat davomidagi minimal tezligini toping. Sharchanining brusokka urilishi absolyut elastik.

Javob: 3

549. Brusok silliq gorizontal tekislikda turibdi. Brusokka shtativ mahkamlangan. Shtativga uchida 0,1 kg massali sharcha bo'lgan ip osilgan. Brusokning shtativ bilan birligida massasi yukning massasiga teng. Dastlab ip yoki bilan gorizontal holatda ushlab turiladi, keyin qo'yib yuboriladi. Yuk pastki nuqtadan o'tayotganda ipning taranglik kuchini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 5

550. Namoyish qurilmasi silliq ravishda R radiusli "sirtmoqsimon halqa"ga ularib ketadigan qiya tekislikdan iborat. Qurilma gorizontal tekislikda turgan aravacha ustiga o'rnatilgan. 0,2 kg massali yuk 3R balandlikdan (halqaning quyi nuqtasidan hisoblaganda) tushadi. Halqanining yuqori nuqtasida yukning sirtga bosim kuchi qanchaga teng? Ishqalamish hisobga olinmasin.

Qurilmaning aravacha bilan birligida massasi yukning massasidan 4 marta katta.  
 $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

**Mexanik energiyaning ichki energiyaga o'tishi. Ishqalanish kuchlarining ishi**

551. 100 g massali shar 2 m balandlikdan po'lat plita ustiga erkin tushadi va 1 m balandlikkacha sakraydi. Urilish paytida issiqlik ko'rinishida yo'qotilgan energiyani aniqlang. Havoning qarshiligi inobatga olinmasin.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 1

552. Agar 500 g massali to'p polga urilib sakragandan so'ng 50 cm balandlikka ko'tarilsa. va urilish paytida 2 J energiya ajralsa, to'p boshlang'ich teziksiz qanday balandlikdan (cm da) tushgan. Havoning qarshiligi inobatga olinmasin.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 90

553. 0,1 kg massali to'p poldan 2 m balandlikdan boshlang'ich teziksiz qo'yib yuborildi. Agar to'pnинг polga birinchi va ikkinchi urilishlari orasidagi vaqt 1,2 s bo'lsa, to'pnинг polga birinchi urilishida ajraladigan issiqlik miqdori (mJ da) qanchaga teng? Havo qarshiligi hisobga olinmasin.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 200

554. 20 m/s tezlik bilan vertikal yuqoriga otilgan 400 g massali to'p yerga 15 m/s tezlik bilan tushdi. Havoning qarshilik kuchini yengishga sarflanadigan ishni aniqlang.

Javob: 35

555. 500 g massali to'p yer sirtidan 15 m balandlikdan 10 m/s tezlik bilan vertikal pastga otildi. To'p yerga 16 m/s tezlik bilan tushdi. To'p harakati paytida havoning qarshlik kuchi bajaradigan ishning absolyut qiymatini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 36

556. Agar toshning tezligi yerga tushish paytida 18 m/s, havoning qarshilik kuchini yengishga sarflanadigan ish esa 38 J bo'lsa, tosh boshlang'ich teziksiz qanday balandlikdan tushadi? Toshning massasi 1 kg.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 20

557. Koptok 1,8 m balandlikdan vertikal pastga 8 m/s boshlang'ich tezlik bilan tashlanadi. Yerga ikki marta urilgandan so'ng to'p dastlabki balandlikkacha ko'tarildi. Har bir zarba paytida necha foiz energiya yo'qotiladi? Havoning qarsiligi inobatga olinmasin.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 40

558. Avtomobil 72 km/h o'zgarmas tezlik bilan harakatlandi. Tog' etagida motor o'chirildi. Avtomobil tog' bo'ylab 5 m balandlikka ko'tarildi va to'xtab qoldi. Avtomobilning dastlabki kinetik energiyasining qanday qismi (foizlarda) ishqalanish kuchlariga qarshi ish bajarishga sarflanadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 75

559. Gorizont bilan  $30^\circ$  burchak hosil qiluvchi qiya taxta bo'ylab 2 kg massali jism sirpana boshlaydi. Agar jismning 1,8 m yo'l kesmasi oxiridagi tezligi 3 m/s ga teng bo'lsa, shu yo'l kesmasida ishqalanish hisobiga qancha issiqlik ajralgan?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 9

560. 4,2 kg massali jism gorizontal yo'nalgan kuch ta'sirida gorizontal tekislik bo'ylab sirpanadi. Jismning tekislikka ishqalanish koefitsiyenti 0,1. 25 m yo'lda issiqlik ko'rinishida ajraladigan energiyani aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 105

561. 4,2 kg massali jism gorizontal kuch ta'sirida  $2 \text{ m/s}^2$  o'zgarmas tezlanish bilan gorizontal sirt bo'ylab sirpanadi. Jism va yuza orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,1. 5 s vaqt ichida issiqlik ajralishining o'rtacha quvvatini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 21

**562.** Qiyalik burchagi gorizontga  $45^\circ$  bo'lgan taxta bo'ylab 5 kg massali brusok ip yordamida 1 m balandlikka tortib chiqariladi. Ip taxtaga parallel joylashgan. Brusokning taxtaga ishqalanish koefitsiyenti 0,3. Taxta va brusokni qizdirishiga ketadigan energiyani toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 15

**563.** Chana tog'dan tushib, gorizontal yuza bo'ylab 1 m yo'lni o'tadi va to'xtaydi. Agar chana va yo'l orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,2 bo'lsa, chananing tog' etagidagi tezligini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

**564.** Agar 0,5 kg massali jism qiya tekislik bo'ylab 1 m balandlikka ko'tarilgan bo'lsa, tekislik asosi yaqinida u qancha kinetik energiyaga ega bo'lgan? Jism va tekislik orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,2. Tekislikning gorizontga qiyalik burchagi  $45^\circ$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 6

**565.** Balandligi 2 m va asosining uzunligi 5 m bo'lgan tepalikdan sirpanib tushgan chana qandaydir gorizontal yo'lni bosib o'tgach, to'xtaydi. Agar butun yo'l davomida ishqalanish koefitsiyenti 0,05 bo'lsa, bu gorizontal yo'l qanchaga teng?

Javob: 35

**566.** Goizont bilan  $45^\circ$  burchak hosil qilgan qiya tekislikdan, 1 m balandlikdan kichik shayba sirpanib tushadi. Shayba tushish oxirida qiya tekislikning asosi yaqinida devorga absolyut elastik uriladi va qiya tekislik bo'ylab yuqoriga ko'tariladi. Agar shaybaning tekislikka ishqalanish koefitsiyenti 0,25 bo'lsa, urilishdan so'ng shayba qanday balandhkka (cm da) ko'tariladi?

Javob: 60

**567.** Gorizontga qiyalik burchagini sinusi  $0,28$  bo'lgan qiya tekislikda  $2,1$  m balandlikda kichik shayba turibdi. Shaybaning tekislikka ishqalanish koefitsiyenti 0,5. Shayba qiya tekislik asosi yonida joylashgan tayanchga absolyut elastik urilgach, avvalgi nuqtaga qaytib chiqishi uchun unga shu tekislik bo'ylab pastga yo'nalgan qanday tezlik berish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 12

**568.** Chana 15 m balandlikdan qiyalik burchagi gorizontga  $45^\circ$  bo'lgan tog' bo'ylab sirpanib tushadi. Gorizontal yo'l bo'ylab 24 m masofani o'tgach, u qiyalik burchagi xuddi shunday bo'lgan boshqa toqqa ko'tariladi. Agar ishqalanish koefitsiyenti butun yo'l davomida 0,2 bo'lsa, chananing ikkinchi tog'da qanday balandlikka ko'tarilishini aniqlang.

Javob: 6

**569.** Gorizontal tekislikda yotgan 5 kg massali jism vertikal devor bilan deformatsiyalanmagan prujina yordamida ulangan. Prujinaning o'qi gorizontal, uning bikirligi  $100 \text{ N/m}$ , jism va tekislik orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,1. Jismga prujina o'qi bo'ylab yo'nalgan 1 m/s tezlik beriladi. Prujinaning maksimal deformatsiyasini (cm da) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 10

**570.** Gorizontal tekislikda yotgan 3 kg massali jism vertikal devor bilan deformatsiyalanmagan prujina yordamida ulangan. Prujinaning o'qi gorizontal, uning bikirligi  $54 \text{ N/m}$ , jism va tekislik orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,3. Jismga prujina o'qi bo'ylab yo'nalgan qanday minimal tezlik berilganda, u boshlang'ich nuqtasiga qaytib keladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

**571.** Gorizont bilan burchak ( $\sin \alpha = 0,6$ ) hosil qiladigan qiya tekislikda 0,5 kg massali brusok turibdi. Brusok qiya tekislikning uchi bilan  $64 \text{ N/m}$  bikirlikdagi deformatsiyalanmagan prujina yordamida ulangan. Brusokka tekislik bo'ylab yuqoriga yo'nalgan qanday tezlik (cm/s da) berilganda, u qaytib kelib, boshlang'ich nuqtasida to'xtab qoladi? Brusokning tekislikka ishqalanish koefitsiyenti 0,8.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 40**

572. Bikirligi  $15 \text{ N/m}$  bo'lgan deformatsiyalanmagan prujina yordamida ulangan  $5 \text{ kg}$  massali ikkita bir xil jism gorizontal polda yotibdi. Jismlardan biriga prujina o'qi bo'ylab yo'nalgan qanday minimal tezlik berilganda, u ikkinchi jismni joyidan siljita oladi? Har bir jism uchun ishqalanish koefitsiyenti  $0,1$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 1**

573.  $200 \text{ N/m}$  bikirlikdagi prujina yordamida ulangan massalari  $3 \text{ kg}$  va  $2 \text{ kg}$  bo'lgan ikkita brusok polda yotibdi. Brusoklar shunday ushlab turilibди, bunda prujina siqilgan holatda turibdi. Avval birinchi brusok qo'yib yuboriladi, prujina deformatsiyalanmagan paytda esa ikkinchisi ham qo'yib yuboriladi. Ikkinchi brusok joyidan siljishi uchun boshlang'ich deformatsiya kamida necha santimetrga teng bo'lishi kerak? Birinchi brusokning polga ishqalanish koefitsiyenti  $0,2$ , ikkinchisiniki esa -  $0,3$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 9**

#### **Menxanik energiyaning tashqi kuchlar ta'sirida o'zgarishi**

574. Deformatsiyalanmagan prujina yordamida vertikal devorga ulangan brusok silliq polda yotadi. Prujinaning o'qi gorizontal, uning bikirligi  $50 \text{ N/m}$ . Brusokka prujina o'qi bo'ylab yo'nalgan  $4 \text{ N}$  o'zgarmas kuch ta'sir eta boshlaydi. Prujinaning maksimal deformatsiyasini ( $\text{cm da}$ ) toping.

**Javob: 16**

575. Deformatsiyalanmagan prujina yordamida vertikal devorga ulangan  $100 \text{ g}$  massali brusok silliq polda yotadi. Prujinaning o'qi gorizontal, uning bikirligi  $250 \text{ N/m}$ . Brusokka prujina o'qi bo'ylab yo'nalgan  $4 \text{ N}$  o'zgarmas kuch ta'sir eta boshlaydi. Brusokning maksimal tezligini ( $\text{cm/s da}$ ) toping.

**Javob: 80**

576. Deformatsiyalanmagan prujina yordamida vertikal devorga ulangan  $250 \text{ g}$  massali brusok polda yotadi. Prujinaning o'qi gorizontal, uning bikirligi  $100 \text{ N/m}$ , ishqalanish koefitsiyenti  $0,4$ . Brusokka prujina o'qi bo'ylab yo'nalgan  $3 \text{ N}$  o'zgarmas kuch ta'sir eta boshlaydi. Prujinaning maksimal deformatsiyasini ( $\text{cm da}$ ) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 4**

577. Deformatsiyalanmagan prujina yordamida vertikal devorga ulangan  $250 \text{ g}$  massali brusok polda yotadi. Prujinaning o'qi gorizontal, uning bikirligi  $100 \text{ N/m}$ , ishqalanish koefitsiyenti  $0,4$ . Brusokka prujina o'qi bo'ylab yo'nalgan  $3 \text{ N}$  o'zgarmas kuch ta'sir eta boshlaydi. Prujinaning maksimal tezligini ( $\text{cm/s da}$ ) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 40**

578. Shiftga  $100 \text{ N/m}$  bikirlikdagi prujina yordamida yuk osilgan. Yukka vertikal pastga yo'nalgan  $6 \text{ N}$  o'zgarmas kuch ta'sir eta boshlaydi. Yukning maksimal ko'chishini ( $\text{cm da}$ ) toping.

**Javob: 12**

579. Shiftga  $50 \text{ N/m}$  bikirlikdagi prujina yordamida  $0,5 \text{ kg}$  massadagi yuk osilgan. Yukka vertikal pastga yo'nalgan  $10 \text{ N}$  o'zgarmas kuch ta'sir eta boshlaydi. Yukning maksimal tezligini toping.

**Javob: 2**

580.  $100 \text{ N/m}$  bikirlikdagi prujina yordamida qiya tekislikning uchi bilan ulangan brusok shu silliq qiya tekislikda yotadi. Brusokka tekislik bo'ylab pastga yo'nalgan  $12 \text{ N}$  o'zgarmas kuch ta'sir eta boshlaydi. Brusokning maksimal ko'chishini ( $\text{cm da}$ ) toping.

**Javob: 24**

581. Gorizont bilan burchak hosil qiluvchi ( $\sin \alpha = 0,6$ ) qiya tekislikda  $1 \text{ kg}$  massali brusok yotadi. Brusok qiya tekislikning uchi bilan  $64 \text{ N/m}$  bikirlikdagi deformatsiyalanmagan prujina yordamida ulangan. Brusokning tekislikka ishqalanish koefitsiyenti  $0,8$ . Brusokka tekislik bo'ylab yuqoriga yo'nalgan  $14 \text{ N}$  o'zgarmas kuch ta'sir eta boshlaydi. Brusok to'xtaguncha qanday masofani ( $\text{cm da}$ ) bosib o'tadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 5**

**582.** Gorizont bilan burchak ( $\sin \alpha = 0,6$ ) hosil qiluvchi qiya tekislikda 1 kg massali brusok yotadi. Brusok **qiya tekislikning uchi bilan**  $16 \text{ N/m}$  bikirlikdagi deformatsiyalanmagan prujina yordamida ulangan. Brusokning tekislikka ishqalanish koefitsiyenti 0,8. Brusokka tekislik bo'ylab pastga yo'nalgan  $2 \text{ N}$  o'zgarmas kuch ta'sir eta boshlaydi. Brusokning maksimal tezligini ( $\text{cm/s da}$ ) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 40

**583.** Deformatsiyalanmagan prujina yordamida ulangan, massalari 1 kg va 4 kg bo'lgan ikkita brusok gorizontal tekislikda yotadi. Ikkinchisi brusok o'rnidan qo'zg'alishi uchun birinchi brusokka qanday eng kichik gorizontal o'zgarmas kuch qo'yish kerak? Brusoklarning tekislikka ishqalanish koefitsiyenti 0,2.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 6

**584.** Deformatsiyalanmagan prujina yordamida ulangan, massalari 3 kg va 8 kg bo'lgan ikkita brusok gorizontal tekislikda yotadi. Ikkinchisi brusok o'rnidan qo'zg'alishi uchun birinchi brusokka qanday eng kichik gorizontal o'zgarmas kuch qo'yish kerak? Brusoklarning tekislikka ishqalanish koefitsiyentlari mos ravishda 0,2 va 0,15.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 12

**585.** 2 kg massali yuk  $250 \text{ N/m}$  bikirlikdagi elastik rezinali shnur yordamida shiftga osilgan. Yukka vertikal yuqoriga yo'nalgan  $5 \text{ N}$  o'zgarmas kuch ta'sir eta boshlaydi. Yuk qanday maksimal balandlikka ( $\text{cm da}$ , boshlang'ich nuqtadan hisoblaganda) ko'tariladi?

**Javob:** 4

**586.** 2 kg massali yuk  $250 \text{ N/m}$  bikirlikdagi elastik rezinali shnur yordamida shiftga osilgan. Yukka vertikal yuqoriga yo'nalgan  $12 \text{ N}$  o'zgarmas kuch ta'sir eta boshlaydi. Yuk qanday maksimal balandlikka ( $\text{cm da}$ , boshlang'ich nuqtadan hisoblaganda) ko'tariladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 10

**587.** 2 kg massali yuk elastik rezinali shnur yordamida shiftga osilgan. Yukka vertikal yuqoriga yo'nalgan o'zgarmas kuch bilan ikki bor birinchi holda  $15 \text{ N}$ , ikkinchi holda esa  $5 \text{ N}$  bilan ta'sir qilindi. Birinchi holda yukning maksimal ko'tarilish balandligi (boshlang'ich nuqtadan hisoblaganda) ikkinchi holdagiga nisbatan necha marta katta?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 4

**588.** 2 kg massali yuk elastik rezinali shnur yordamida shiftga osilgan. Yukka ikki bor, birinchi holda vertikal yuqoriga yo'nalgan, ikkinchi bor esa vertikal pastga yo'nalgan  $15 \text{ N}$  o'zgarmas kuch bilan ta'sir qilindi. Yukning to'xtaguncha bosib o'tgan masofasi ikkinchi holda birinchi holdagidan necha foiz kam?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 25

**589.** Qiya ko'prik bo'ylab yo'nalgan ip bilan 50 kg massali yashik sekin yuqoriga tortib chiqarildi. Bunga  $10,5 \text{ kJ}$  ish sarflandi. Ko'prikning yuqori nuqtasida ip uziladi va yashik pastga sirpanadi. Ko'prikning pastki nuqtasida uning tezligi  $10 \text{ m/s}$  ni tashkil etadi. Ko'prikning balandligini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 13

**590.** Kesim yuzasi  $0,4 \text{ m}^2$  va chuqurligi  $3 \text{ m}$  bo'lgan silindr shaklidagi quduq uchdan ikki qismigacha suv bilan to'dirilgan. Nasos suvni tortadi va uni ko'ndalang kesim yuzasi  $0,8 \text{ cm}^2$  bo'lgan quvur orqali yer yuzasiga uzatadi. Nasos quduqdagi suvning hammasini  $1000 \text{ s}$  ichida tortib olsa, u qanday ish ( $\text{kJ da}$ ) bajaradi? Ishqalanishga sarflangan energiya hisobga olinmasin  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 56

#### **Mekanik energiyaning o'zgarishi va impulsning saqlanish qonuni**

**591.**  $5 \text{ m/s}$  tezlikka ega bo'lgan  $4 \text{ kg}$  massali shar xuddi shuncha massali tinch turgan shar bilan to'qnashadi. Absolyut noclastik to'qnashuvdan so'ng sharlar bir xil tezlik bilan harakatlanadi. To'qnashuv paytida qancha issiqlik ajralgan?

**Javob:** 25

**592.** 1 kg va 2 kg massali sharlar bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda mos ravishda 1 m/s va 2 m/s tezliklar bilan harakatlanadi. Bu sharlarning absolyut noelastik urilishida qancha issiqlik ajralashini toping.

Javob: 3

**593.** Harakatlanayotgan jism tinch turган jism bilan to'qnashadi, buning natijasida ular dastlab harakatlanayotgan jismning tezligidan 4 marta kichik bo'lgan tezlik bilan birga harakatlanishadi. Harakatlanayotgan jism kinetik energiyasining qanday qismi (foizlarda) issiqlikka aylangan?

Javob: 75

**594.** Gorizontal uchayotgan o'q massasi uning massasidan 6 marta katta bo'lgan, penoplastdan tayyorlangan, tinch turган sharga borib tegadi va uni diametri bo'yicha teshib o'tadi. Shar ichidan uchib chiqqach, o'qning tezligi dastlabkisidan 2 marta kamaydi. Bunda o'q dastlabki energiyasining necha foizi issiqlikka aylangan?

Javob: 70

**595.** 50 kg massali aravacha 2 m/s tezlik bilan silliq gorizontal yuza bo'ylab harakatlanmoqda. 50 kg massali yuk aravacha ustiga 20 cm balandlikdan tushadi va unda qoladi. Ajralgan issiqlik miqdorini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 150

**596.** 100 m/s bilan uchayotgan 20 g massali o'q unga tomon 10 m/s tezlik bilan uchayotgan yog'och sharda tiqilib qoladi. Sharning massasini o'q massasidan ancha katta deb hisoblab, urilish paytida ajraladigan issiqlik miqdorini toping.

Javob: 121

**597.** 72 km/h tezlik bilan ketayotgan poyezd derazasidan boshini chiqargan kishi poyezd harakat yo'naliши bo'ylab oldinga tomon 100 g massali toshni otadi. Agar toshning boshlang'ich tezligi gorizontal yo'nalan va yerga nisbatan 30 m/s ga teng bo'lsa, kishi tosh ustida qanday ish bajargan?

Javob: 6

**598.** 90 g massali brusok silliq gorizontal yuzada turibdi va deformatsiyalanmagan prujina yordamida vertikal devor bilan ulangan. Prujinaning o'qi gorizontal, uming bikirligi 4 kN/m. Tezligi prujina o'qiga parallel bo'lgan va 100 m/s ga teng bo'lgan 10 g massali o'q brusokda tiqilib qoladi. Prujinaning maksimal deformatsiyasi (cm da) qanchaga teng?

Javob: 5

**599.** 490 g massali brusok silliq polda turibdi va deformatsiyalanmagan prujina yordamida vertikal devor bilan ulangan. Prujinaning o'qi gorizontal, uning bikirligi 180 N/m. Tezligi prujina o'qiga parallel bo'lgan 10 g massali o'q brusokda tiqilib qoladi. Buning natijasida prujina 10 cm ga siqiladi. O'qning boshlang'ich tezligi qanchaga teng? Brusok va pol orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,2.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 100

**600.** Yengil sterjenga osilgan 700 g massali sharga gorizontal holda uchayotgan 10 g massali o'q tegadi. O'q sharda tiqilib qoladi, so'ngra esa shar o'zining dastlabki vaziyatidan 20 cm balandlikka ko'tariladi. O'qning tezligini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 142

**601.** 40 cm uzunlikdagи yengil sterjenga osilgan 440 g massali sharga gorizontal holda uchayotgan 10 g massali o'q tegib, unda tiqilib qoladi. O'qning qanday minimal tezligida shar shundan keyin vertikal tekislikda to'liq aylanish qiladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 180

**602.** 50 cm uzunlikdagи ipga osilgan 250 g massali sharga gorizontal holda uchayotgan 10 g massali o'q tegib, unda tiqilib qoladi. O'qning qanday minimal tezligida shar shundan keyin vertikal tekislikda to'liq aylanish qiladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 130

**603.** 1 m radiusli silliq yarim sfera uchida 0,99 kg massali jism turibdi. 200 m/s tezlik bilan gorizonttal uchayotgan 0,01 kg massali o'q jismiga kelib tegadi va uning ichida qoladi. Jismning to'qnashuv vaqtidagi siljishini hisobga olmagan holda u yarim sfera yuzasidan uziladigan balandlikni (cm da) aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 80

**604.** 3 kg massali disk o'zining markaziga mahkamlangan 200 N/m bikirlikdagi elastik shnurga osilib turibdi. Diskka 80 cm balandlikdan shnur bo'ylab 1 kg massali (markazida teshigi bo'lgan) shayba tushadi. Shaybaning diskka urilishi absolyut noelastik. Shaybalni diskning diskka urilishdan keyingi maksimal tezligini (cm/s da) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 20

**605.** 3 kg massali disk o'zining markaziga mahkamlangan 200 N/m bikirlikdagi elastik shnurga osilib turibdi. Diskka 35 cm balandlikdan shnur bo'ylab 1 kg massali (markazida teshigi bo'lgan) shayba tushadi. Shaybaning diskka urilishi absolyut noelastik. Shaybalni diskning diskka urilishdan keyingi maksimal tezligini (cm/s da) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 75

**606.** Uzunliklari bir xil bo'lgan uzun iplarga ikkita shar osilgan. Sharlar bir-biriga tegib turadi. Kichik massali shar 50 cm balandlikkacha chetga tortiladi va qo'yib yuboriladi. Absolyut noelastik urilishdan so'ng sharlar necha cm ga ko'tariladi? Sharlar massalavining nisbati 1,5 ga teng.

**Javob:** 8

**607.** Silliq polda yotgan 10 g massali brusokka 60 m/s tezlik bilan uchayotgan 2 g massali o'q kelib tegadi. Agar o'qning brusok ichidagi harakatiga qarshilik kuchi 250 N bo'lsa, o'q brusokning ichiga necha mm chuqurlikkacha kirib ketadi?

**Javob:** 12

**608.** 1 kg massali taxta silliq gorizonttal yuza bo'ylab 3 m/s tezlik bilan tekis harakatlantmoqda. Taxtaga yugoridan ehtiyyotkorlik bilan 0,5 kg massali g'isht qo'yiladi. Sirpanish davomida g'isht taxtaga nisbatan qanday masofa bosib o'tadi? G'isht va taxta orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti 0,1.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 3

**609.** Bir uchida kichik brusok joylashgan 2,5 m uzunlikdagi taxta silliq gorizonttal yuzada turibdi. Brusok taxtaning boshqa bir uchiga yetib horishi uchun unga qanday minimal tezlik berish kerak? Taxtaning massasi brusok massasidan 4 marta katta, ular orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti 0,4.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 5

**610.** Bir uchida vertikal tayanch (to'siq) joylashgan 1 m uzunlikdagi taxta silliq gorizonttal yuzada turibdi. Taxtaning boshqa bir uchida yotgan kichik brusok tayanchga absolyut elastik urilgandan so'ng ortga qaytib, taxtadan tushib ketishi uchun unga qanday minimal tezlik berish kerak? Taxtaning massasi brusok massasidan 8 marta katta, ular orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti 0,2.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 3

**611.** Ustida 490 g massali brusok bo'lgan 1,5 kg massali taxta silliq polda turibdi. 100 m/s tezlik bilan taxta bo'ylab gorizonttal uchayotgan 10 g massali o'q brusokka kelib tegadi va uning ichida tigilib qoladi. Agar taxta va brusok orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti 0,5 bo'lsa, brusok taxta bo'ylab necha cm ga siljyidi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 30

**612.** 200 m/s tezlik bilan uchgan 8 kg massali snaryad portlab, ikki snaryad parchasiga bo'linadi. 6 kg massali snaryad parchasi snaryadning uchish yo'nalishida 400 m/s tezlikka ega bo'ldi. Portlash paytida ajralgan energiyani (kJ da) aniqlang.

**Javob:** 480

**613.** 990 kg massali zambarakdan 10 kg massali snaryad gorizontal ravishda uchib chiqadi. Porox gazlarning portlashida ajraladigan energiyaning qanday qismi (foizlarda) zambarakning orqaga tisarilishiga sarflanadi?

Javob: 1

**614.** Massasi 60 kg bo'lgan odam muz ustida 40 kg massali chana yonida turibdi. Odam chanaga 3 m/s tezlik berib, uni itarib yuboradi, o'zi esa qarama-qarshi tomonga sirpanib ketadi. Bunda odam qanday ish bajaradi?

Javob: 300

**615.** Konkichi yukli chanani muz ustida 4 m/s tezlik bilan itarib boradi. Keyin uni oldinga tutrib, qo'yib yubordi. Agar chananining tezligi 8 m/s gacha oshgan bo'lsa, konkichi qanday ish bajargan? Chananning massasi 70 kg, odamning massasi 80 kg.

Javob: 1050

**616.** 480 g massali sharga uning markazi orqali o'tadigan chiziq bo'ylab 100 m/s tezlik bilan uchayotgan 20 g massali o'q tegadi. O'qning harakatiga qarshilik kuchini shar moddasi ichida o'zgarmas va 1650 N deb hisoblab, o'qning oxirgi tezligini toping. Sharning diametri 5 cm.

Javob: 40

**617.** 480 g massali sharga uning markazi orqali o'tadigan chiziq bo'ylab 100 m/s tezlik bilan uchayotgan 20 g massali o'q tegadi. Uriishdan so'ng o'q orqaga uchib ketadi, va urilish paytida 90 J energiya issiqqlikka aylanadi. Sharning oxirgi tezligini toping.

Javob: 5

**618.** Sportchi qo'llaridagi yadro bilan rolikli konkida uchadi, va yo'l-yo'lakay yadroni itarib yuboradi va itarish natijadasida darhol to'xtab qoladi. Agar sportchimingga massasi 70 kg, yadroning massasi 10 kg, yadroning tezligi esa 8 m/s ga teng va gorizontga  $30^{\circ}$  burchak ostida yo'naligan bo'lsa, sportchi qanday ish bajargan?

Javob: 290

**619.** Harakatlanayotgan snaryad portlab, tezliklari orasidagi burchak  $60^{\circ}$  ni tashkil qiladigan ikki snaryad parchasiga bo'lindi. Snaryad parchasining biri 20 kg massaga va 100 m/s tezlikka, boshqasi esa 80 kg massa va 25 m/s tezlikka ega. Snaryad portlashi paytida ajralgan energiya (kJ da) qanchaga teng?

Javob: 65

**620.** 20 m/s tezlik bilan gorizontal uchayotgan 1,2 kg massali granata portlab, ikki bo'lakka bo'lindi. 800 g massali bo'lakning tezligi 30 m/s ga teng va gorizontga  $60^{\circ}$  burchak ostida yo'naligan. Granata portlashi paytida qanday energiya ajralgan?

Javob: 840

## 5. STATIKA

Teng ta'sir qiluvchi kuchlar. Qu'zg'almas jism uchun Nyutonning qonuni

**621.** 5 N kuchni qarama-qarshi tomonlarga ta'sir qiladigan (avvalgi to'g'ri chiziq bo'yicha) ikkita kuch bilan almashtirish kerak. Bu kuchlardan kichigi 11 N. Ikkinchchi kuch qanday kattalikda bo'lishi kerak?

Javob: 16

**622.** Ozaro ulangan ikkita dinamometrغا og'irligi 8 N bo'lgan yuk osilgan. Har bir dinamometrning og'irligi 2 N. Yuqorida dinamometr necha nyutonni ko'rsatadi?

Javob: 10

**623.** 1000 N og'irlikdagi yuk polda yotibdi, kishi uni vertikal yuqoriga yo'nalgan 200 N kuch bilan ko'tarishga harakat qilyapti. Yuk polga qanday kuch bilan bosadi?

Javob: 800

**624.** Og'irligi 700 N bo'lgan odam 400 N og'irlikdagi yukni tekis ko'taradi. Odam polga qanday kuch bilan bosadi?

Javob: 1100

**625.** Bikirliklari 2 N/m va 3 N/m bo'lgan ikki prujina parallel ulangan. Ikki prujinadan hosil bo'lgan sistemaning bikirligi qanchaga teng?

Javob: 5

**626.** Bikirliklari  $5 \text{ N/m}$  va  $20 \text{ N/m}$  bo'lgan ikki prujina ketma-ket ulangan. Ikki prujinadan hosil bo'lgan sistemaning bikirligi qanchaga teng?

Javob: 4

**627.** Jismga bir-biriga to'g'ri burchak ostida yo'nalgan  $3 \text{ N}$  va  $4 \text{ N}$  ga teng bo'lgan ikkita kuch ta'sir qiladi. Jismga uchinchi kuch ta'sir qilganda barcha kuchlarning teng ta'sir etuvchisi nolga teng bo'lishi uchun, uchinchi kuchning miqdori qanday bo'lishi kerak?

Javob: 5

**628.**  $80 \text{ kg}$  massali parashyutchiga sakrash boshida vertikal tashkil etuvchisi  $400 \text{ N}$ , horizontal tashkil etuvchisi esa  $300 \text{ N}$  bo'lgan havoning qarshilik kuchi ta'sir etadi. Barcha kuchlarning teng ta'sir etuvchisini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 500

**629.** Samolyotga vertikal yo'nalishda  $550 \text{ kN}$  og'irlik kuchi va  $555 \text{ kN}$  ko'tarish kuchi; horizontal yo'nalishda esa  $162 \text{ kN}$  tortish kuchi va  $150 \text{ kN}$  havoning qarshilik kuchi ta'sir etadi. Barcha kuchlar teng ta'sir etuvchisining miqdorini ( $\text{kN}$  da) toping.

Javob: 18

**630.** Agar birinchi va ikkinchi kuch hamda ikkinchi va uchinchi kuch orasidagi burchaklar  $60^\circ$  dan bo'lsa, har biri  $200 \text{ N}$  dan bo'lgan shu uchta kuchning teng ta'sir etuvchisini toping.

Javob: 400

**631.** Bir-biriga  $60^\circ$  burchak ostida yo'nalgan,  $3 \text{ N}$  va  $5 \text{ N}$  ga teng bo'lgan ikkita kuchning teng ta'sir etuvchisini toping.

Javob: 7

**632.** O'zaro  $120^\circ$  burchak ostida yo'nalgan,  $3 \text{ N}$  va  $8 \text{ N}$  ga teng bo'lgan ikkita kuchning teng ta'sir etuvchisini toping.

Javob: 7

**633.** Samolyot ikkita planyorni shatakda o'zgarmas tezlik bilan tortmoqda. Samolyot va planyorlar bir horizontal tekislikda parvoz qilmoqda, hamda uchish yo'nalishi va shatak troslari orasidagi burchaklar bir xil va  $60^\circ$  ga teng. Har bir shatak trosining taranglik kuchi  $500 \text{ N}$ , samolyot harakatiga havoning qarshilik kuchi  $400 \text{ N}$ . Dvigatelning tortish kuchini toping.

Javob: 900

**634.**  $20 \text{ kg}$  massali tonar ko'chada, oralaridagi burchagi  $120^\circ$  bo'lgan ikkita bir xil troslarga osilgan. Har bir trosning taranglik kuchini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 200

**635.** Ortasida  $20 \text{ kg}$  massali yoritgich mahkamlangan  $20 \text{ m}$  uzunlikdagi sim ikki bino orasida tarang tortilgan. Agar sim uning ikki uchi mahkamlangan horizontal sathdan  $50 \text{ cm}$  ga osilib tursa, simning tarangligi qanday bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ . Simning massasini hisobga olmang.

Javob: 2000

**636.**  $6 \text{ kg}$  massali va  $80 \text{ cm}$  uzunlikdagi bir jinsli sterjen har birining uzunligi  $50 \text{ cm}$  bo'lgan ikkita ipga osilgan. Iqlar sterjenning uchlariga bog'langan va shiftga bir nuqtada mahkamlangan. Bunda har bir ipning tarangligi qanday bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 50

**637.**  $10 \text{ kg}$  massali jism qiyalik burchagi  $30^\circ$  bo'lgan qiya tekislikda muvozanatda qolishi uchun unga sirt bo'ylab yo'nalgan qanday kuch qo'yish kerak? Ishqalanish hisobga olinmasin.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 50

**638.**  $10 \text{ kg}$  massali jism qiyalik burchagi  $45^\circ$  bo'lgan qiya tekislikda muvozanatda qolishi uchun unga qanday horizontal kuch qo'yish kerak? Ishqalanish hisobga olinmasin.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 100

**639.** Balandligi  $0,7 \text{ m}$  va uzunligi  $2,5 \text{ m}$  bo'lgan qiya tekislikda  $5 \text{ kg}$  massali jism turibdi. Jismning tekislikka normal bosim kuchi qanday?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 48

**640.** 0,4 kg massali shar silliq vertikal devorga ip yordamida osildan. Agar ip vertikal bilan  $60^\circ$  burchak tashkil etsa, uning taranglik kuchini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 8

**641.** 30 kg massali yuk ikki ip yordamida shunday osib qo'yilganki, bunda birinchi ip vertikal bilan  $45^\circ$  burchak hosil qiladi. boshqasi esa gorizontal holatda. Ikkinci ipning taranglik kuchini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 300

**642.** Simga osilgan 24 kg massali yuk, unga gorizontal yo'nalishda qo'yilgan kuch ta'sirida vertikaldan  $60^\circ$  burchakka og'adi. Agar yuk harakatsiz bo'lsa, simning taranglik kuchini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 480

**643.** Stol ustida yotgan 500 g massali taxtaga gorizontal yo'nalgan 5 N kuch ta'sir qiladi. Taxta tinch holda qolishi uchun uning ustiga qanday eng kichik massali yuk qo'yish kerak? Taxta va stol orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,2.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 2

**644.** Brusokni vertikal devorga siqib muvozanatda ushlab turish uchun gorizontal yo'nalgan 500 N minimal kuch talab etiladi. Agar brusok va devor orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,1 bo'lsa, brusokning massasi qanchaga teng?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 5

**645.** Uzunligi 13 m va balandligi 5 m bo'lgan qiya tekislikda 26 kg massali yuk yotibdi. Ishqalanish koefitsiyenti 0,5. Yukni pastga siljitim uchun, unga tekislik bo'ylab pastga yo'nalgan qanday minimal kuch qo'yish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 20

**646.** Uzunligi 1 m va balandligi 0,8 m bo'lgan qiya tekislikda 2 kg massali yuk yotibdi. Ishqalanish koefitsiyenti 0,5. Yuk pastga sirpanib ketmasligi uchun, unga tekislikka perpendikulyar yo'nalgan qanday minimal kuch qo'yish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 20

**647.** Balandligi 40 cm va asosining uzunligi 100 cm bo'lgan qiya tekislikda 6 kg massali yuk yotibdi. Agar ishqalanish koefitsiyenti 0,5 ga teng bo'lsa, jismni qiya tekislikdan tortib tushirish uchun, unga gorizontal yo'nalgan qanday minimal kuch qo'yish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 5

**648.** Qiya tekislikda joylashgan 2,6 kg massali brusokni pastga sirpanib ketishdan saqlab qolish uchun, unga gorizontal yo'nalgan qanday minimal kuch qo'yish kerak? Qiya tekislik uzunligi 50 cm, balandligi 30 cm, ishqalanish koefitsiyenti 0,4.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 7

**649.** Gorizontal tekislikda 10 kg massali yuk turibdi. Unga 12 N gorizontal kuch qo'yilgan. Yukni joyidan qo'zg'atish uchun, unga yana qanday minimal gorizontal kuchni perpendikulyar yo'nalishda (avvalgi kuchga) qo'yish kerak? Ishqalanish koefitsiyenti 0,2.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 16

**650.** Balandligi 3 m va uzunligi 9 m bo'lgan qiya tekislikda 6 kg massali jism yotibdi. Jismni joyidan qo'zg'atish uchun, unga tekislik bo'ylab yo'nalgan qanday minimal gorizontal kuch qo'yish kerak? Ishqalanish koefitsiyenti 0,5.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 20

**Momentlar qoidasi**

**a) Parallel kuchlar**

**651.** Dastgoh valining yuzasiga urinma bo'ylab momenti  $6,25 \text{ N} \cdot \text{m}$  ga teng bo'lgan kuch ta'sir qiladi. Agar valining diametri 25 cm bo'lsa, bu kuch qanchaga teng?

**Javob:** 50

**652.** Dastasining uzunligi 40 cm bo'lgan gayka kaliti yordamida gayka buriladi. Kaht dastasining uchiga 80 N kuch qo'yilgan va dastaga perpendikulyar yo'naligan. Agar kuch dasta uchiga emas, balki o'rtafiga qo'yilsa, shu kuchning momenti qanday bo'ladi?

Javob: 16

**653.** Odam quduq valiga bog'langan arqonni val o'qiga perpendikulyar va radiusni davom ettirishdan hosil bo'lgan chiziqa  $30^{\circ}$  burchak ostida yo'nalgan 100 N kuch bilan tortadi. Agar valning diametri 28 cm bo'lsa, odam val o'qiga nisbatan qanday kattalikdag'i kuch momenti hosil qiladi?

Javob: 7

**654.** 12 N og'irligida quvur yerda yotibdi. Uning bir uchidan ko'tarish qo'yish uchun qanday kuchi qo'yish kerak?

Javob: 6

**655.** 1 m uzunlikdag'i va 200 kg massali bir jinsli bo'lмаган то'г'ри balka tarang tortilgan vertikal troslarda ikki uchidan osib qo'yilgan. Balka gorizontal vaziyatda turibdi. Agar balkaning og'irlik markazi uning chap uchidan 0,3 m masofada joylashgan bo'lsa, o'ngdagi trosning tarangligini toping.

Javob: 600

**656.** Ikki kishi ustida yuki bor taxtani yelkalariga qo'yib olib borishadi. Ulardan biriga yuk og'irhining 2/5 qismiga teng yuklanish to'g'ri keladi. Agar yuk taxtaning o'rtafigidan 10 cm masofada joylashgan bo'lsa, uning uzunligi (cm da) qancha?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ . Taxtaning massasini hisobga olmang.

Javob: 100

**657.** Ikki kishi metal quvurni yelkalariga qo'yib olib borishadi. Birinchi kishi quvurni uning uchidan 1 m masofada, ikkinchisi esa quvurning qarama-qarshi uchidan ushlab ketmoqda. Agar quvurning uzunligi 2,5 m bo'lsa, birinchi kishiga to'g'ri keladigan yuklanish ikkinchisiniidan necha marta katta?

Javob: 5

**658.** Uzunligi 10 m va og'irligi 9000 N bo'lgan rels ikki vertikal tros yordamida gorizontal holatda tekis ko'tariladi. Troslardan biri relsning bir uchiga, ikkinchisi esa uning boshqa uchidan 1 m masofada mahkamlangan. Ikkinchini trosning tarangligini aniqlang.

Javob: 5000

**659.** 1 m uzunlikdag'i va 12 kg massali bir jinsli sterjen bir uchidan 20 cm masofada osib qo'yilgan. Agar sterjenning qisqa uchidan ushlab, uni gorizontal vaziyatda ushlab turilsa, sterjen qo'liga qanday kuch bilan bosadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 180

**660.** Bir uchiga 1,2 kg massali yuk osilgan bir jinsli sterjen muvozanatda turishi uchun tayanch uning o'sha uchidan o'z uzunligining 1/5 qismiga teng masofada qo'yilgan. Sterjenning massasi (g da) qanchaga teng?

Javob: 800

**661.** Stol ustida 75 cm uzunlikdag'i bir jinsli chizg'ich uning (stolning) chetiga perpendikulyar holda yotibdi. Chizg'ichning bir qismi stoldan chiqib turibdi. Uning shu qismining uchiga massasi chizg'ich massasidan 2 marta katta bo'lgan yuk osilgan. Agar butun sistema muvozanatda bo'lsa, chizg'ichning o'rtafigi stol chetidan qanday masofada (cm da) joylashgan? Chizg'ich faqat stol chetiga suyanib turibdi.

Javob: 25

**662.** To'g'ri burchakli gorizontal platforma ustida 200 kg massali bir jinsli balka uning chetiga perpendikulyar holda yotibdi. Balkaning to'rtadan bir qismi platforma chetidan chiqib turadi. Balkaning chiqib turgan uchiga vertikal pastga yo'nalgan kuch qo'yiladi. Shu kuchning qanday eng kichik qiymatida balkaning qarama-qarshi uchi ko'tarila boshlaydi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2000

663. Ikkita yuk yelkalari 50 cm va 70 cm bo'lgan richagning uchlarida muvozanatlashtirilgan. Agar richagning tayanchga bosim kuchi 72 N bo'sa, katta yukning og'irligini toping. Richagning og'irligi inobatga olinmasin.

Javob: 42

664. Jismni yelkalari teng bo'limgan richagli tarozida o'lchashda uning bir palladagi og'irligi 36 N ga, boshqasida esa 49 N ga teng bo'ldi. Jismning haqiqiy og'irligini aniqlang.

Javob: 42

665. Jismni yelkalari teng bo'limgan richagli tarozida o'lchashda uning bir palladagi og'irligi 16 N ga, boshqasida esa 25 N ga teng bo'ldi. Jismning massasini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

666. Richagli tarozining bir pallasida 1,2 N, boshqasida esa 1,1 N og'irlikdagi yuk bor. Tarozi muvozanatda bo'lishi uchun 0,4 N vazndagi qadoqtoshni tarozi shayinining markazidan qanday masofada (mm da) ilish kerak? Shayimning uzunligi 0,2 m.

Javob: 25

667. 0,9 m uzunlikdagi va 2 kg massali gorizontal sterjenning uchlariga ikkita yuk osilgan: chapda – 1 kg massali, o'ngda – 3 kg massali. Sterjen muvozanatda qolishi uchun katta massadan qanday masofada (cm da)unga tirkak qo'yish kerak?

Javob: 30

668. Massalari 30 kg va 40 kg bo'lgan ikkita bola 4 m uzunlikdagi va 30 kg massali bir jinsi taxtada "tebranib turishibdi". Agar bolalar taxtaning uchlarida o'tirishgan bo'lsa, uning tayanch nuqtasi o'rtdan qanday masofada (cm da) bo'lishi kerak?

Javob: 20

669. 200 g massali sterjen o'rtaidan to'g'ri burchak ostida bukildi va uchlaridan biriga bog'langan ip bilan osib qo'yildi. Sterjen pastki yarmining o'rtasi aynan osish nuqtasi ostida joylashishi uchun, uning shu yarmining uchiga qanday massali (g da) kichkina yuk ilish kerak?

Javob: 50

670. 300 g massali sterjen to'g'ri burchak ostida bukildi (bukish nuqtasi uni 1 : 2 nisbatda bo'ladi) va bukiyan nuqtaga bog'langan ip bilan osib qo'yildi. Sterjenning uchlari bir sathda bo'lishi uchun, qisqa tomonning uchiga qanday massali (g da) kichkina yuk mahkamlash kerak?

Javob: 350

671. 100 g massali sterjen o'rtaidan  $120^\circ$  burchak ostida bukildi va bukish nuqtasiga bog'langan ip bilan osib qo'yildi. Burchakning bir tomoni gorizontal vaziyatni egallashi uchun, uning boshqa tomoni uchiga qanday massali (g da) kichkina yuk mahkamlash kerak?

Javob: 25

672. Tomoni  $2\sqrt{3}$  m bo'lgan teng tomonli uchburchak shaklidagi 70 kg massali bir jinsi plastinani uch kishi ko'tarib bormoqda. Bir kishi plastina asosining o'rtaсини, boshqa ikkitasi esa qarama-qarshi uchni ushlab ketyapti. Plastina ustiga 100 kg massali yuk shu uchdan qanday masofada (cm da) qo'yilganda, barcha ko'tarib boruvchilarga teng yuklanish (nagruzka) tushadi? Plastina gorizontal holatda.

Javob: 30

#### b) parallel bo'limgan kuchlar

673. Ishchi 16 kg massali taxtaning bir uchidan shunday ushlab turibdi, bunda taxta boshqasi uchi bilan yerga tiraladi va gorizont bilan  $60^\circ$  burchak hosil qiladi. Ishchi taxtan qanday kuch bilan ushlab turibdi? Kuch taxtaga perpendikulyar yo'nalgan.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 40

674. Radiusi 5 cm va massasi 6 kg bo'lgan shar silliq vertikal devorga 8 cm uzunlikdagi ip yordamida osib qo'yilgan. Sharning devorga bosim kuchini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 25

675. 1,5 m uzunlikdagi va 2 kg massali tayoq stol chetiga shunday suyantirib qo'yildiki, bunda tayoqning yuqori uchidan stolga urinish nuqtasigacha bo'lgan masofa 50 cm ga teng

bo'ldi. Stolning balandligi 0,8 m ga teng. Tayoq va stol orasidagi ishqalanishni hisobga olmagan holda, ularning o'zaro ta'sir kuchini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 9

676. 30 kg massali narvon silliq devorga  $45^\circ$  burchak ostida tirab qo'yilgan. Narvonning devorga bosim kuchini toping. Narvonning og'irlik markazi uning o'rtasida joylashgan.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 150

677. Devorga 1,5 kg massali narvon tirab qo'yilgan. Narvonning og'irlik markazi uning yuqori uchidan o'z uzunligining  $1/3$  qismiga teng bo'lgan masofada joylashgan. Narvonning yuqori uchi devorga bosim bermasligi uchun uning o'rtasiga qanday gorizontall kuch qo'yish kerak? Narvon va devor orasidagi burchak  $45^\circ$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 20

678. Ichki radiusi 6 cm bo'lgan silliq, baland silindrik stakan ichiga 13 cm uzunlikdagi va 250 g massali tayoqcha joylashtiriladi. Tayoqchaning yuqori uchi stakan devoriga qanday kuch bilan ta'sir etadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

679. 3 kg massali shar qiyalik burchagi gorizontga  $60^\circ$  bo'lgan qiya tekislikda joylashgan. Sharning muvozanatiga tekislikka ishqalanish hamda bir uchi bilan sharning yuqori qismiga, boshqa bir uchi bilan qiya tekislik uchiga mahkamlangan ipning tarangligi hisobiga crishiladi. Agar ip gorizontal holatda bo'lsa, uning taranglik kuchini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .  $\sqrt{3} = 1,7$ .

Javob: 17

680. Radiusi 0,5 m va massasi 10 kg bo'lgan g'ildirak 0,1 m balandlikdagi zina oldida turibdi. G'ildirakni zina ustiga ko'tarish uchun uning o'qiga qanday eng kichik gorizontal kuch qo'yish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 75

681. Agar narvonning polga ishqalanish koeffitsiyenti 0,5 bo'lsa, u silliq vertikal devorga tirab qo'yilganda, vertikalga nisbatan qanday eng katta burchak ostida (graduslarda) turishi mumkin? Narvonning og'irlik markazi uning o'rtasida joylashgan.

Javob: 45

682. 4 m uzunlikdagi narvon silliq devorga gorizontga  $60^\circ$  burchak ostida tirab qo'yilgan. Narvon va pol orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti 0,25. Narvon sirpana boshlagunga qadar kishi narvon bo'ylab qanday masofaga (cm da) ko'tarila oladi? Narvon massasi inobatga olinmasin.  $\sqrt{3} = 1,7$ .

Javob: 170

683\*. Bir jinsli taxta devorga tirab qo'yilgan. Agar ishqalanish koeffitsiyenti taxta va pol orasida 0,4, taxta va devor orasida esa 0,5 bo'lsa, taxta bilan gorizontal pol orasidagi burchakning qanday eng kichik qiymatida (graduslarda) taxta o'z muvozanatini saqlab qoladi?

Javob: 45

684. Gorizontal tekislikda joylashgan 50 kg massali kubni pastki qirrasi orqali ag'darib tashlash uchuń, uning yuqori qirrasiga qanday minimal gorizontal kuch qo'yish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 250

685. Qiya tekislik gorizont bilan tangensi 0,6 ga teng bo'lgan burchak tashkil qiladi. Tekislik ustida 1,5 m radiusli bir jinsli silindr turibdi. Silindrning qanday maksimal balandligida (cm da) u ag'darilib ketmaydi?

Javob: 5

686. Yuk mashinasining kuzovida assosining radiusi 10 cm, balandligi esa 50 cm bo'lgan silindr turibdi. Silindr ag'darilib ketmasligi uchun mashina qanday maksimal tezlanish bilan tormozlanishi mumkin?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 4

**687.** 10 kg massali yig'ma (ikki tomonga ochiladigan) narvonning pastki uchlari arzon yordamida ulangan. Narvonning har bir tomoni pol bilan  $45^{\circ}$  burchak tashkil qiladi. Polni absolyut silliq hisoblab, arqonning tarangligini toping.

Javob: 25

**688.** Yig'ma narvonning pastki uchlari arzon yordamida ulangan. 80 kg massali kishi narvon bo'ylab uning yarim balandligigacha ko'tarilgan paytda arqonning taranglik kuchi qanday boladi? Narvonning massasi hamda polga ishqalanish inobatga olinmasin. Narvonning har bir tomoni pol bilan  $45^{\circ}$  burchak tashkil qiladi.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 200

**689.** Har birining radiusi 10 cm va massasi 600 g bo'lgan ikkita bir xil sharni ikki tomoni vertikal ochiq bo'lgan, gorizontal tekislikda turgan 15 cm radiusli yupqa silindr ichiga qo'yishdi. Ishqalanishni hisobga olmagan holda, silindrning qanday minimal massasida (g da) sharlar uni ag'darib yubormasligini toping.

Javob: 400

#### Og'irlilik markazi

**690.** Har birining radiusi 30 cm dan bo'lgan ikkita shar bir-biriga tegib turadi. Agar bir sharning massasi boshqasimidan ikki marta katta bo'lsa, sistemaning og'irlilik markazi urinish nuqtasidan qanday masofada (cm da) joylashgan?

Javob: 10

**691.** 0,8 m uzunlikdagi sterjen va 0,2 radiusli shar o'zaro biriktirilgan, bunda sterjening o'qi va shar markazi bir to'g'i chiziqda yotadi. Agar sterjen va sharning massalari bir xil bo'lsa, sistemaning og'irlilik markazi sterjen o'rtaidan qanday masofada (cm da) joylashgan?

Javob: 30

**692.** Radiuslari 1 cm va 6 cm bo'lgan ikkita shar 10 cm uzunlikdagi bir jinsli sterjen yordamida ulangan. Birinchi sharning massasi 60 g, ikkinchi sharniki - 72 g, sterjening massasi 12 g. Sistemaning og'irlilik markazidan kichik sharning markazigacha bo'lgan masofani (cm da) toping.

Javob: 9

**693.** Ikkita bir jinsli silindr o'zaro shunday ulanganki, bunda ularning o'qlari bir to'g'i chiziqda yotadi. Silindrlardan birimning massasi 3 kg, uzunligi 1 m. Boshqasimning massasi 1 kg, uzunligi esa 0,6 m. Sistemaning og'irlilik markazi katta silindrning markazidan qanday masofada (cm da) joylashgan?

Javob: 20

**694.** Massalari  $m_1 = 1 \text{ kg}$ ,  $m_2 = 5 \text{ kg}$ ,  $m_3 = 7 \text{ kg}$  va  $m_4 = 3 \text{ kg}$  bo'lgan to'rtta bir jinsli shar vaznsiz sterjenda shunday ketma-ket (nomerlar tartibida) mahkamlanganki, bunda ularning markazlari sterjen o'qida, bir-biridan 0,2 m masofada joylashgan. Sistemaning og'irlilik markazi uchinchiligi sharning markazidan qanday masofada (cm da) joylashgan?

Javob: 5

**695.** Bir jinsli yupqa plastina asosi 16 cm va yon tomoni 10 cm bo'lgan teng yonli uchburchak shakliga ega. Plastinaning og'irlilik markazi asosdan qanday masofada (cm da) joylashgan?

Javob: 2

**696.** Bir jinsli yupqa plastina tomonlari 15, 20 va 25 cm bo'lgan uchburchak shakliga ega. Plastinaning og'irlilik markazi katta tomonidan qanday masofada (cm da) joylashgan?

Javob: 4

**697.** Bir jinsli yupqa plastina tomonlari 13, 14 va 15 cm bo'lgan uchburchak shakliga ega. Plastinaning og'irlilik markazi ikkinchi tomonidan qanday masofada (cm da) joylashgan?

Javob: 4

**698.** ABC uchburchakning uchlari mos ravishda 4, 6 va 10 g li massalar joylashgan. Uchburchak tomonlari: AB = 50 cm, BC = 40 cm va CA = 30 cm ga teng. Sistemaning og'irlilik markazi BC tomonidan qanday masofada (cm da) joylashgan?

Javob: 6

**699.** Tomoni 1 m bo'lgan teng tomonli uchburchak shaklidagi simli ramkaning ikki tomoni alyuminiy simdan, uchinchisi esa xuddi shu diametrli mis simdan tayyorlangan. Sistemaning og'irlik markazi mis simning o'rtaidan qanday masofada (cm da) joylashgan? Misning zichligi alyuminiyning zichligidan 3 marta katta.  $\sqrt{3} = 1,7$ .

Javob: 17

**700.** ABC uchburchakning uchlarida mos ravishda 4, 6 va 10 g li massalar joylashgan. Uchburchak tomonlari: AB = 50 cm, BC = 40 cm va CA = 30 cm ga teng. Sistemaning og'irlik markazi AB tomonidan qanday masofada (cm da) joylashgan?

Javob: 12

**701.** To'g'ri burchakli ABC uchburchakning uchlariga mos ravishda 9, 2 va 4 g li massalar joylashtirilgan. Uchburchakning katetlari: AC = 4 cm va BC = 9 cm ga teng. Sistemaning og'irlik markazi A uchdan qanday masofada (cm da) joylashgan?

Javob: 2

**702.** Radiusi R bo'lgan bir jinsli diskda R/3 radiusli teshik o'yilgan. Teshik markazi disk markazidan 24 cm masofada joylashgan. Shu jismning massalar markazi disk markazidan qanday masofada (cm da) joylashgan?

Javob: 3

**703.** Radiusi 28 cm bo'lgan bir jinsli shar ichida sharning yuzasiga urinadigan, radiusi ikki marta kichik sharsimon kovak bor. Sistemaning og'irlik markazi ketta sharning markazidan qanday masofada (cm da) joylashgan?

Javob: 2

## 6. GIDROSTATIKA

### Paskal qonuni. Suyuqlik ustunining bosimi<sup>1</sup>

**704.** Yuzasi 200  $\text{cm}^2$  bo'lgan suyuqlik solingen silindrik idish 1 kg massali porshen bilan zinch yopilgan. Porshening suyuqlikka beradigan qo'shimcha bosimini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 5

**705.** Suyuqlik solingen silindrik idish 1 kg massali porshen bilan zinch yopilgan. Porshening yuzasi 200  $\text{cm}^2$ . Porshenga uning tekisligiga  $30^\circ$  burchak ostida yo'naligan 200 N kuch ta'sir etadi. Porshenga suyuqlik tomonidan qanday bosim ta'sir etadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ . Atmosferik bosim inobatga olinmasin.

Javob: 5500

**706.** Suv ustunining bosimi  $10^5 \text{ Pa}$ . Suv ustunining balandligini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 10

**707.** Simobli barometrdagi simob ustunining balandligi 75 cm. Suv ustunining qanday balandligi (cm da) xuddi shunday bosim hosil qiladi? Simobning zichligi  $13600 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 1020

**708.** Agar idishdagagi suyuqlik ustunining balandligi 2 m, uning zichligi esa  $800 \text{ kg/m}^3$  bo'lsa. idish tubidagi bosim atmosferik bosimidan necha kPa ga farq qiladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 16

**709.** Neft solinadigan bak tagidagi teshik silindrik probka bilan bekitilgan. Probkaning tashqariga itarib chiqarish uchun 16 N kuch qu'yish kerak. Agar probkaning yuzasi  $10 \text{ cm}^2$  bo'lsa, bu bakka qanday balandlikkacha neft quyish mumkin? Neftning zichligi  $800 \text{ kg/m}^3$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

**710.** Quvur ichidagi suv ustunining bosimi bino poydevori yaqinida 490 kPa ga teng. Binoning 15 m balandlikdagi (bino asosidan) to'rtinchi qavatida suv krandan qanday bosimda

<sup>1</sup> Angloshulmovchilik yuzaga kelmasligi uchun shuni qayd qilamizki "suyuqlikning bosimi" iborasi, xuddi oddiy "bosim" kabi, to'hu bo'simini bildiradi (tashqilani ham hisobga olgan holda). Suyuqlikning ma'lum bir nqtasida, tashqi bosim yo'qligida vujudga keladigan bosimini bildirish uchun "suyuqlik ustunining bosimi" iborasi ishlatalmoqda.

(kPa) chiqadi? (Gap suv ustunining bosimi to'g'risida boryapti, ya'ni atmosfera ustidagi ortiqcha bosim).  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 343

711. Suv minorasi rezervuaridagi suv sathi havzaning sirtidan 30 m balandlikda joylashgan, 20 m balandlikda joylashgan quvur ichidagi suvning ortiqcha (atmosferik bosim ustidagi, aniqrog'i gidrostatik) bosimini (kPa da) aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 100

712. Qanday chuqurlikda suvning bosimi 100 kPa ga teng bo'lgan atmosferik bosimdan 3 marta katta bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 20

713. 70 m chuqurlikdagi suv bosimi 10 m chuqurlikdagi bosimdan qanchaga katta bo'ladi? Atmosferik bosim 100 kPa ga teng,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 4

714. Tubining yuzasi  $0,01 \text{ m}^2$  bo'lgan silindrik idishga suyuqlik quyilgan. Agar suyuqlik sirtida 300 g massali jism suzib yursa, idish tubidagi suyuqlik bosimi qanchaga o'zgaradi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 300

715. Qirrasi 10 cm bo'lgan kub shaklidagi idish suv bilan to'ldirilgan. Suvning idish yon devoriga beradigan bosim kuchini aniqlang. Atmosferik bosimni hisobga olmang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 5

716. To'g'ri burchakli parallelepiped shaklidagi akvarium suv bilan to'ldirilgan. Agar akvarium devorining uzunligi 0,8 m, balandligi esa 0,5 m bo'lsa, uning devoriga suv qanday kuch bilan ta'sir qiladi? Atmosferik bosim hisobga olinmasin.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 1000

717. Ichida kovagi bor bo'lgan kub suyuqlik bilan to'ldirilgan. Suvning idish tubiga beradigan bosim kuchi yon devorga beradigan bosim kuchiga qaraganda necha marta katta? Atmosferik bosim hisobga olinmasin.

Javob: 2

718. Sisterna yonboshiga yotgan 1 m diametrli silindr shakliga ega. Sisternaning ustki qismida joylashgan tuynuk orqali uni yuqorisigacha suv bilan to'ldirishdi. Sisternaning vertikal devoriga suv qanday kuch bilan ta'sir qiladi?  $\pi = 3,14$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3925

719. Silindrik idishga massalari teng bo'lgan suv va simob quyilgan. Suyuqliklar ustunining umumiy balandligi 146 cm. Shu ustunning idish tubiga bosimini aniqlang. Simobning zichligi  $13600 \text{ kg/m}^3$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 27200

720. Ichki devorlariga porshen zich tegib turadigan vertikal quvur pastki uchi bilan suvg'a tushirildi. Dastlab porshen eng quyi vaziyatda, suv sathida joylashgan edi, keyin esa uni astasekin 20 m balandlikka ko'tarishdi. Ishqalanishni hisobga olmagan holda bunda bajarilgan ishni ( $\text{kJ da}$ ) toping. Porshenning yuzasi  $100 \text{ cm}^2$ . Atmosferik bosim 100 kPa.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 15

#### Gidravlik press. Tutash idishlar

721. Gidravlik pressning kichik porsheniga  $10 \text{ N}$  kuch qo'yilgan. Shu kuch ta'sirida u bir yurishda  $25 \text{ cm}$  ga pastga tushadi, buning natijasida katta porshen  $5 \text{ mm}$  ga ko'tariladi. Bunda katta porshenga qanday bosim kuchi uzatiladi?

Javob: 500

722. 2000 kg massali yukni gidravlik press yordamida ko'tarishda  $40 \text{ J}$  ish bajarildi. Bunda kichik porshen har yurishda  $10 \text{ cm}$  ga ko'chib,  $10$  ta yurish qildi. Katta porshenning yuzasi kichik porshen yuzasidan necha marta katta? Og'irlilik kuchining tezlanishi  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 500

723. Tutash idishlarga simob quyilgan. Idishlardan biriga ustunining balandligi 27,2 cm bo'lgan kerosin quyildi. Shu idishdagi simobning sathi hoshqasini kiga qaraganda necha millimetrga past bo'ladi? Simobning zichligi  $13600 \text{ kg/m}^3$ , kerosinning zichhg'i  $800 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 16

724. Suvli idish ichiga  $2 \text{ cm}^2$  kesimdag'i trubka kiritildi. Trubkaga  $72 \text{ g}$  massali moy quyildi. Moyning zichligi  $900 \text{ kg/m}^3$ . Moy va suvning yuqori satlari orasidagi farqni ( $\text{cm da}$ ) toping.

Javob: 4

725. Tutash idishlarga simob quyilgan. Idishlardan biriga ustunining balandligi  $4 \text{ cm}$  bo'lgan suv quyildi. Agar zichligi suvning zichligidan  $1,25$  marta kichik bo'lgan suyuqlik hoshqa idishga quyilsa, simob satli ikki idishda ham bir xil bo'lishi uchun shu suyuqlikning ustuni qanday balandlikda ( $\text{cm da}$ ) bo'lishi kerak?

Javob: 5

726. Simob solingen tutasligan idishlardan biriga  $30 \text{ cm}$  balandlikdagi moy ustuni, hoshqasiga  $20,2 \text{ cm}$  balandlikdagi suv ustuni quyildi. Idishlardagi simob sathining farqini ( $\text{mm da}$ ) aniqlang. Simobning zichligi  $13600 \text{ kg/m}^3$ , moyniki esa  $900 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 5

727. Bir xil kesimdag'i tutash idishlarga suv quyilgan. Idishlarning biriga suvning ustiga ustun balandligi  $40 \text{ cm}$  bo'lgan moy quyildi. Boshqa idishdagi suvning sathi necba santimetrga o'zgaradi? Moyniki zichligi  $800 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 16

728. Tutash idishlarda simob bor. Bir idishning kesim yuzasi hoshqasini kidan  $2$  marta katta. Ingichka idishga  $1,02 \text{ m}$  balandlikdagi suv ustuni quyiladi. Keng idishdagi simob necha millimetrga ko'tariladi? Simobning zichligi  $13600 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 25

729. Tutash idishlarda simob bor. Bir idishning kesim yuzasi hoshqasining kesim yuzasidan ikki marta katta. Keng idishga suv quyib, uni oxirigacha to'dirishadi. Boshqa idishdagi simobning sathi necha santimetrga ko'tariladi? Dastlab simobning sathi idishning yuqorisidan  $39,8 \text{ cm}$  pastda bo'lgan. Simobning zichligi suvning zichligidan  $13,6$  marta katta.

Javob: 2

730. Har birining kesimi  $20 \text{ cm}^2$  bo'lgan tutash idishlarda yengil porshenlar yordamida yopilgan suv hor. Porshenlardan birining ustiga  $160 \text{ g}$  massali yuk qo'yiladi. Boshqa idishdagi suvning sathi necha santimetrga ko'tariladi?

Javob: 4

731. Kesimi  $20 \text{ cm}^2$  bo'lgan tutash idishlarda simob bor. Idishlardan biriga  $2 \text{ kg}$  massali suv quyiladi va uning ichiga  $0,72 \text{ kg}$  massali brusok tushiriladi. Boshqa idishdagi simob necha millimetrga ko'tariladi? Simobning zichligi  $13600 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 10

#### Arximed qonuni

a) *To'liq botish. Jismning suyuqlik ichidagi og'irligi*

732. Suvda to'liq cho'kkani,  $0,5 \text{ m}^3$  hajmli toshga ta'sir etadigan itarib chiquvchi kuchni ( $\text{kN da}$ ) aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 5

733. Havoda  $50 \text{ dm}^3$  hajmh jismga ta'sir qiladigan arximed kuchi ( $\text{mN da}$ ) qanchaga teng? Havoning zichligi  $1,29 \text{ kg/m}^3$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 645

734. Havodagi og'irligi  $350 \text{ N}$  bo'lgan toshni suv ostida ushlab turish uchun qanday kuch qo'yish kerak? Tosh moddasining zichligi  $2500 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 210

735. Massasi  $2 \text{ kg}$  va hajmi  $0,001 \text{ m}^3$  bo'lgan jism ko'l ichida  $5 \text{ m}$  chuqurlikda joylashgan. Uni suv sirtidan  $5 \text{ m}$  balandlikkacha sekinlik bilan ko'tarish uchun qanday ish bajarish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 150

736. Alyuminiy bo'lagining havodagi og'irligi 270 N, glitserindagi og'irligi esa 144 N. Agar alyuminiyning zichligi  $2700 \text{ kg/m}^3$  bo'sa, glitserning zichligini aniqlang.

Javob: 1260

737. Jismning suvdagi og'irligi havodagi og'irligidan 2 marta kichik. Jism moddasining zichligi ( $\text{g/cm}^3$  da) qanday?

Javob: 2

738. Agar qandaydir bir jismning zichligi  $800 \text{ kg/m}^3$  bo'lgan suyuqlikdagi og'irligi havodagi og'irligiga qaraganda 3 marta kichik bo'sa, jismning zichligi shu suyuqlik zichligidan qanchaga katta?

Javob: 400

739. Bir jismning zichligi suvning zichligidan 1,25 marta katta. Shu jismning suvdagi og'irligi havodagi og'irligidan necha marta kichik bo'ladi?

Javob: 5

740. Metall bo'lagining suvdagi og'irligi 6800 N, benzindagi og'irligi esa 7100 N. Benzinning zichligini aniqlang. Metallning zichligi  $7800 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 700

741. Jism havoda 3 N, suvda 1,8 N va nomalum zichlikdagi suyuqlikda esa 2,04 N og'irlikka ega. Shu nomalum suyuqlikning zichligi qanday?

Javob: 800

742. Probka bo'lagi havoda 1 N og'irlikka, metall bo'lagi esa 10 N og'irlikka ega. Agar bu bo'laklarni ip bilan bog'lab kerosinga to'liq botirilsa, ularning umumiy og'irligi 5 N bo'ladi. Probnaning zichligini toping. Kerosinning zichligi  $800 \text{ kg/m}^3$ , metallning zichligi  $4000 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 200

743. Kvars ichiga joylangan sof oltin u bilan birlgilikda (kvarts bilan) dinamometr prujinasini  $2,26 \text{ N}$  kuch bilan cho'zadi. Oltin suvgaga botirilganda unga  $0,2 \text{ N}$  itarib chiquvchi kuch ta'sir qiladi. Oltinning massasini ( $\text{g da}$ ) toping. Oltinning zichligi  $19,3 \text{ g/cm}^3$ , kvarsning zichligi  $3,3 \text{ g/cm}^3$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 193

744. Arximed masalasini yeching – oltin va kumush qotishmasidan tayyorlangan toj tarkibidagi oltinning massasini ( $\text{g da}$ ) toping. Tojning havodagi og'irligi  $25,4 \text{ N}$ , suvdagisi esa  $23,4 \text{ N}$ . Oltinning zichligi  $19,3 \text{ g/cm}^3$ , kumushniki –  $10,5 \text{ g/cm}^3$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 965

745.  $1 \text{ cm}^3$  bajmli shisha sharcha suvda tekis tushib bormoqda. Sharchaming  $10 \text{ m}$  ga ko'chishida  $0,17 \text{ J}$  issiqlik ajraladi. Shishaning zichligini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2700

746. Sharcha o'z materialining zichligidan 4 marta katta zichlikdagi suyuqlikda o'zgarmas tezlik bilan qalqib chiqmoqda. Suyuqlikning sharcha harakatiga qarshilik kuchi sharchaga ta'sir etuvchi og'irlik kuchidan necha marta katta?

Javob: 3

747.  $0,18 \text{ kg}$  massali sharcha zichligi  $800 \text{ kg/m}^3$  bo'lgan suyuqlikda barqaror  $9$  tezlik bilan tushmoqda. Sharchaning hajmi  $100 \text{ cm}^3$ . Sharcha  $29$  tezlik bilan yuqoriga ko'tarilishi uchun unga qanday kuch bilan ta'sir qilish kerak? Qarshilik kuchi tezlikka proporsional.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

b) *To'liq bo'lmagan botish*

748. Suvli idish ichida shar shunday yotibdiki, bunda uning yarmi suvda joylashgan va u idish tubiga tegib turadi. Agar sharning havodagi og'irligi  $8 \text{ N}$  bo'sa, u idish tubiga qanday kuch bilan bosadi? Shar moddasining zichligi  $800 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 3

749.  $60 \text{ g}$  massali bir jinsli sharcha bo'sh stakanning ostida yotibdi. Stakanga suyuqlik shunday quyladiki, bunda sharcha hajmining suyuqlikka botgan qismi uning umumiy hajmidan

6 marta kichik bo'lib qoladi. Suyuqlikning zichligi sharcha materialining zichligidan 3 marta katta. Sharchanining stakan tubiga bosim kuchini ( $mN$  da) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 300

750. Uzunligi 2 m va ko'ndalang kesim yuzasi  $100 \text{ cm}^2$  bo'lgan alyuminiyli silindr suv havzasidan o'zgarmas tezlik bilan asta-sekin tortib chiqariladi. Havzadan silindr uzunligining 0,25 ga teng qismi chiqqan paytda arzon uzelib ketdi. Arzonning maksimal tarangligini aniqlang. Alyuminiyning zichligi  $2700 \text{ kg/m}^3$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 390

751. Ipnинг bir uchi tubga, ikkinchisi esa probkali po'kakka mahkamlangan. Bunda po'kakning butun hajmining 75% i suvga botgan. Agar po'kakning massasi 2 kg ga teng bo'lsa, ipning taranglik kuchini aniqlang. Po'kakning zichligi  $300 \text{ kg/m}^3$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 30

752. Ichida suvi bor silindrik idishda muz parchasi ip bilan idish tubiga tortilgan holda suzib yuribdi. Muz parchasi erigach, suv sathi 1 cm ga pasaydi. Ipnинг taranglik kuchi qanday bo'lgan? Idish tubining yuzasi  $100 \text{ cm}^2$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 1

753. Yuzi  $300 \text{ cm}^2$  bo'lgan suvli silindrik idishning tubida  $3000 \text{ kg/m}^3$  zichlikdagi materialdan tayyorlangan, asosining yuzi  $100 \text{ cm}^2$  va balandligi 40 cm bo'lgan silindr turibdi. Agar suv qatlaming boshlang'ich qalinligi 30 cm bo'lsa, silindrni suvdan chiqarib olish uchun qanday ish bajarish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ . Silindr vertikal holatda ko'tariladi.

Javob: 21

754. Yuzi  $400 \text{ cm}^2$  bo'lgan suvli silindrik idishning tubida  $2500 \text{ kg/m}^3$  zichlikdagi materialdan tayyorlangan, asosining yuzi  $100 \text{ cm}^2$  va balandligi 40 cm bo'lgan silindr turibdi. Agar suv qatlaming boshlang'ich qalinligi 60 cm bo'lsa, silindrni suvdan chiqarib olish uchun qanday ish bajarish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ . Silindr vertikal holatda ko'tariladi.

Javob: 36

755. Yupqa bir jinsli tayoqcha yuqori uchidan sharnirli mahkamlangan. Tayoqchaning pastki qismi suvga botirilgan. Tayoqcha suv yuzasiga nisbatan qiya joylashib, uning yarmi suv ichida bo'lgan vaqtida muvozanat vaziyati ro'y beradi. Tayoqcha yasalgan materialning zichligi qanday?

Javob: 750

756. Balandligi 8 cm va radiusi 3 cm bo'lgan silliq stakan ichiga 12 cm uzunlikdagi va  $100 \text{ g}$  massali bir jinsli tayoqcha qo'yildi. Stakan zichligi tayoqcha materialining zichligidan ikki marta kichik bo'lgan suyuqlik bilan yuqorisigacha to'ldirildi. Tayoqcha stakanning chetini qanday kuch ( $mN$  da) bilan bosadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 235

757. 4 cm radiusli silliq baland stakan ichiga uzunligi 10 cm va massasi  $60 \text{ g}$  bo'lgan tayoqcha qo'yildi, so'ngra stakanga 3 cm balandlikkacha zichligi tayoqcha materialining zichligidan bir yarim marta katta bo'lgan suyuqlik quyildi. Tayoqchaning yuqori uchi stakanning devoriga qanday kuch bilan ( $mN$  da) bosadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 250

#### Jismarning suzishi

758. Yaxlit jism suvda suzmoqda, bunda jism hajmining  $3/4$  qismi suvga botgan. Jismning hajmi  $0,1 \text{ m}^3$ . Jismiga ta'sir etuvchi og'irlilik kuchini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 750

759. Yog'och bo'lagi hajmining  $3/4$  qismi suvga botgan holda suvda suzmoqda. Yog'och qanday zichlikka ega?

Javob: 750

760. Hajmi  $0,0002 \text{ m}^3$  bo'lgan bir jinsli jism zichligi jism materiali zichligidan 4 marta katta bo'lgan suyuqlikda suzmoqda. Jismning qanday hajmi ( $\text{cm}^3$  da) suyuqlik sirtidan chiqib turadi?

Javob: 150

761. Zichligi  $800 \text{ kg/m}^3$  bo'lgan jism zichligi  $1000 \text{ kg/m}^3$  bo'lgan suyuqlikda suzadi. Jism hajmining qanday qismi (foizlarda) suyuqlikka botgan?

Javob: 80

762. Suvda suzuvchi suv ichida chalqancha holda harakatsiz yotibdi. Bunda uning yuzining oz qismidan tashqari, butun tanasi suvga botgan. Suzuvchning massasi  $75 \text{ kg}$ . Uning tanasining hajmini ( $\text{dm}^3$  da) toping.

Javob: 75

763. Kemaga ta'sir qiluvchi og'irlik kuchi  $10 \text{ kN}$  ga teng. Bu kema qanday hajmdagi suvni siqib chiqaradi?

Javob: 100

764. Tubining yuzasi  $38 \text{ cm}^2$  va balandligi  $6 \text{ cm}$  bo'lgan to'g'ri burchakli tunuka quticha suvda sbunday suzmoqdaki, bunda uning suv yuzidagi qismining balandligi  $4 \text{ cm}$  ga teng. Qutichaning massasini ( $\text{g da}$ ) aniqlang.

Javob: 76

765. Ayshergning qanday qismi (foizlarda) suv ostida bo'ladi? Muzning zichligi  $900 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 90

766. Suvda suzayotgan muz parchasining suvdan chiqib turgan qismining hajmi  $2 \text{ m}^3$  bo'lsa, uning massasini ( $\text{t da}$ ) aniqlang. Muzning zichligi  $900 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 18

767. Suv sirtidan  $4 \text{ cm}$  ga chiqib turgan bir tekis qalinlikdagi muz parchasi suvda suzmoqda. Agar muz parchasi asosining yuzasi  $45 \text{ m}^2$  bo'lsa, uning massasi qanday? Muz zichligi  $900 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 16200

768.  $25 \text{ cm}$  qalinlikdagi yassi bir jinsli muz parchasi  $75 \text{ kg}$  massali kishini suvda saqlay olishi uchun uning yuzasi kamida qanday bo'lishi kerak? Muz zichligi  $900 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 3

769. Yassi bir jinsli muz parchasi suvga to'liq hotib ketishi uchun uning ustiga qo'yiladigan yukning minimal massasini aniqlang. Muz parchasining yuzasi  $1 \text{ m}^2$ , qalinligi  $20 \text{ cm}$ , zichligi  $900 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 20

770. Uzunligi  $3,5 \text{ m}$  va ko'ndalang kesimi  $0,04 \text{ m}^2$  bo'lgan to'sin suvda suzmoqda. Agar uning ustiga odam chiqib olsa, to'sin cho'kib ketmasligi uchun odamning massasi ko'pi bilan qanday ho'lishi mumkin? Yod'ochning zichligi  $500 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 70

771. Yuzasi  $1 \text{ m}^2$  va qalinligi  $0,4 \text{ m}$  bo'lgan muz parchasi suvda suzmoqda. Muzni suvga to'liq botirish uchun qanday minimal ish bajarish kerak? Muzning zichligi  $900 \text{ kg/m}^3$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 8

772. Ichida suvi bor va yuzasi  $150 \text{ cm}^2$  bo'lgan baland silindrik idish ichida balandligi  $30 \text{ cm}$  va asosining yuzasi  $50 \text{ cm}^2$  bo'lgan silindr vertikal holda suzmoqda. Agar silindr  $400 \text{ kg/m}^3$  zichlikdagi materialdan yasalgan bo'lsa, uni suvga to'liq botirish uchun qanday ish ( $\text{mJ da}$ ) bajarish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 540

773. Ichida suvi bor va yuzasi  $300 \text{ cm}^2$  bo'lgan silindrik idish ichida balandligi  $20 \text{ cm}$  va asosining yuzasi  $100 \text{ cm}^2$  bo'lgan silindr vertikal holda suzmoqda. Agar silindr  $300 \text{ kg/m}^3$  zichlikdagi materialdan yasalgan bo'lsa, uni suvdan to'liq chiqarib olish uchun qanday ish ( $\text{mJ da}$ ) bajarish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 120

774. Ichida suvi bor va yuzasi  $300 \text{ cm}^2$  bo'lgan baland silindrik idish ichida balandligi  $20 \text{ cm}$  va asosining yuzasi  $100 \text{ cm}^2$  bo'lgan,  $400 \text{ kg/m}^3$  zichlikdagi materialdan yasalgan silindr vertikal holda suzmoqda. Agar suv sathining boshlang'ich balandligi  $20 \text{ cm}$  bo'lsa, silindrni idish tubiga tekkizish uchun qanday ish (mJ da) bajarish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 960

775. Ichida suvi bor va yuzasi  $200 \text{ cm}^2$  bo'lgan chugur silindrik idish ichida balandligi  $20 \text{ cm}$  va asosining yuzasi  $100 \text{ cm}^2$  bo'lgan,  $500 \text{ kg/m}^3$  zichlikdagi materialdan yasalgan silindr vertikal holda suzmoqda. Agar dastlab suvning sathi idishning yuqori chetidan  $2 \text{ cm}$  pastda bo'lsa, silindrni suvga to'liq botirish uchun qanday ish (mJ da) bajarish kerak?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 460

776. Tubining yuzasi  $100 \text{ cm}^2$  bo'lgan silindrik idishga suv solingan. Agar suv sirtida  $300 \text{ g}$  massali muz bo'lagi suzib yursa, idish tubiga beriladigan bosim qanchaga o'zgaradi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 300

777. Kesimining yuzasi  $0,01 \text{ m}^2$  bo'lgan silindrik idishga suv quyilgan. Agar idishga  $0,1 \text{ kg}$  massali yog'och brusok solinsa, suv sathi necha santimetrga ko'tariladi?

Javob: 1

778. Tubining yuzasi  $200 \text{ cm}^2$  bo'lgan silindrik idish ichiga suzadigan jism tushirildi. Suv sathi  $15 \text{ cm}$  ga ko'tarildi. Jismning massasi qanday?

Javob: 3

779. Silindrik idishdagi suv sirtiga ruxdan yasalgan quticha qo'yib yuborildi, natijada esa suv sathi  $14 \text{ mm}$  ga ko'tarildi. Agar quticha ichiga suv kirib, u cho'kib ketsa, suv sathi necha millimetrga pasayadi? Ruxning zichligi  $7000 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 12

780. Kesim yuzi  $100 \text{ cm}^2$  bo'lgan silindrik idishdagi suvda ichida  $35 \text{ g}$  massali rux muzlab golgan muz bo'lagi suzmoqda. Muz erigach, suv sathi necha millimetrga pasayadi? Ruxning zichligi  $7000 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 3

781. Konus suyuqlikda shunday suzmoqdaki, bunda uning o'qi vertikal holatda va uchi yuqoriga qaragan. Konus materialining zichligi suyuqlik zichligining  $7/8$  qismini tashkil etadi. Konusning suv ostidagi qismining balandligi uning jami balandligidan necha marta kichik?

Javob: 2

782. Paroxod bandargohga kirib, yukning bir qismini tushirdi. Bunda uning botishi (botish chuqurligi)  $0,6 \text{ m}$  ga kamaydi. Agar paroxodning vaterliniya chizig'idagi kesim yuzasi  $5400 \text{ m}^2$  bo'lsa, u bandargohda qancha yuk (t da) qoldirgan?

Javob: 3240

783. Ichi bo'sh silindr kerosinda suzmoqda. Silindr suvda o'sha botish chuqurligi bilan suzishi uchun uning ichiga  $100 \text{ kg}$  massali yukni joylash kerak bo'ladi. Silindrning massasini aniqlang. Kerosinning zichligi  $800 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 400

784. Kovak shar o'z hajmining  $1/5$  qismi bilan botgan holda suvda suzmoqda. Agar sharning hajmi  $1 \text{ dm}^3$ , shar materialining zichligi  $2500 \text{ kg/m}^3$  bo'lsa, kovakning hajmini ( $\text{cm}^3$  da) toping.

Javob: 920

785. Kovak shar yarmigacha botgan holda suyuqlikda suzmoqda. Sharning ichki kovagi uning hajmidan qanday ulushni (toizlarda) tashkil etadi? Suyuqlikning zichligi shar moddasi zichligidan 2 marta kichik.

Javob: 75

786. Kub birinchi suyuqlikda suzganda  $40 \text{ mm}$  ga, ikkinchi suyuqlikda suzganda esa  $60 \text{ mm}$  ga botadi. Zichligi avvalgi ikki suyuqlik zichliklarining o'rta arifmetik qiymatiga teng bo'lgan uchinchi suyuqlikda kub necha millimetrga botadi?

Javob: 48

**787.** Simob va uning ustidan suv quyilgan silindr ichida metall brusok suzmoqda. Bunda brusok simobda o'z balandligining  $1/4$  qismicha, suvda esa  $1/2$  qismicha botgan. Metallning zichligini aniqlang. Simobning zichligi  $13600 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 3900

**788.** Jism ikki suyuqlik chegarasida suzmoqda. Bir suyuqlik zichligi jism zichligidan  $2,5$  marta katta, bosqasining zichligi esa jism zichligidan  $2$  marta kichik. Zichligi kattaroq bo'lgan suyuqlikda jism hajmining qanday qismi (foizlarda) botgan?

Javob: 25

**789.** Yaxlit silindr suvh idishda vertikal holatda suzmoqda. Idishga zichligi kichik bo'lgan (suvdan),  $20 \text{ cm}$  qalnlikdag'i suyuqlik sbunday quyiladi. u silindr yuqorisigacha yetib bormaydi. Bunda silindrning suvga botgan qismining balandligi  $15 \text{ cm}$  ga kamayadi. Quyilgan suyuqlikning zichligi qanchaga teng?

Javob: 750

**790.**  $810 \text{ kg/m}^3$  zichlikdag'i suyuqlikka cho'kkani  $1 \text{ kg}$  massali bir jinsli jism tubni  $1 \text{ N}$  kuch bilan bosmoqda. Agar jism suv sirtida suzib yursa, uning qanday qismi (foizlarda) suvga botadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 90

**791.** Bir xil  $100 \text{ cm}^3$  hajmi ikkita shar ip yordamida bog'langan va suyuqlikka botirilgan. Yuqoridagi sharcha yarmigacha suyuqlikka botgan holda suzadi. Agar ipning taranglik kuchi  $0,1 \text{ N}$ , pastdag'i sharning yuqoridagidan  $3$  marta massiv o'kanligi ma'lum bo'sa, suyuqlik zichligini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 800

#### **Tezlanish bilan harakatlanyotgan idish ichidagi suyuqlik**

**792.** Idish tubida probka bilan yopilgan teshik bor. Agar idishga  $12 \text{ cm}$  balandlikdag'i simob qatlami quyilsa, probka chiqib ketadi. Probka chiqib ketmasligi uchun  $7,5 \text{ cm}$  balandlikdag'i simob solingen idishni qanday minimal tezlanish bilan ko'tarish mumkin?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 6

**793.** Suyuqlik solingen ochiq idish  $2 \text{ m/s}^2$  tezlamish bilan tushayotgan lift ichida turibdi. Suyuqlikning qaysidir nuqtasidagi bosim tinch turgan idishning shu nuqtasidagi bosimdan necha foizga kicib? Atmosferik bosim hisobga olinmasin.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 20

**794.** Platformada turgan, tomoni  $2 \text{ m}$  bo'lgan kub shaklidagi sisterna suyuqlik bilan deyarli oxirigacha to'ldirildi va yopib qo'yildi. Platforma  $2 \text{ m/s}^2$  gorizonttal tezlamish bilan harakatlana boshladi. Suvning sisterna orqa devoriga bosim kuchini ( $\text{kN da}$ ) toping. Atmosferik bosim hisobga olinmasin.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 56

**795.** Platformada turgan silindrik sisterna suyuqlik bilan deyarli oxirigacha to'ldirildi va yopib qo'yildi. Platforma  $2 \text{ m/s}^2$  gorizonttal tezlanish bilan harakatlana boshladi. Sisternaning orqa devoriga bosim kuchi oldingi devorga qaraganda necha marta katta? Sisternaming diametri  $2 \text{ m}$ , uzunligi  $10 \text{ m}$ . Atmosferik bosim hisobga olinmasin.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

**796.** Platformada turgan, tomoni  $2 \text{ m}$  bo'lgan kub shaklidagi ochiq sisterna suyuqlik bilan yarmigacha to'ldirildi. Platforma  $2 \text{ m/s}^2$  gorizonttal tezlanish bilan harakatlana boshladi. Suyuqlik va platforma bir butun kabi harakatlana boshlaganda, platformaning orqa devoriga suyuqlik sathi qanchaga ( $\text{cm da}$ ) ko'tarilgan?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 20

**797.** Platformada turgan kub shaklidagi ochiq sisterna suyuqlik bilan to'rtadan bir qismigacha to'ldirildi. Platforma  $3 \text{ m/s}^2$  gorizonttal tezlanish bilan harakatlana boshladi. Suyuqlik va platforma bir butun kabi harakatlana boshlaganda, platforma orqa devoriga bosim kuchi old devoriga qaraganda necha marta katta bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 16

798. Zichligi  $500 \text{ kg/m}^3$  bo'lgan jism g/2 tezlanish bilan vertikal yuqoriga ko'tarilayotgan idishdagi suv sirtida suzmoqda. Jism hajmining qanday qismi (foizlarda) suvgaga botgan?

Javob: 50

799. Massasi 2 kg bo'lgan bir jinsli shar  $2 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan vertikal yuqoriga ko'tarilayotgan suvli idish tubida yotibdi. Shar idish tubiga qanday kuch bilan bosadi? Sharcha materialining zichligi  $4000 \text{ kg/m}^3$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 18

800. Suvli sisterna  $2 \text{ m/s}^2$  gorizontall tezlanish bilan harakatlanmoqda. Silindr tubida, orqa vertikal devorga tekkan holda 4,5 kg massali shar yotibdi. Agar sharning zichligi  $3000 \text{ kg/m}^3$  bo'lsa, u devorni qanday kuch bilan bosmoqda?

Javob: 6

801.  $2,25 \text{ m/s}^2$  gorizontall tezlanish bilan harakatlanayotgan suv bilan to'dirilgan sisternaning shiftiga 5 kg massali shar ip yordamida osilgan. Ip turg'un qiya vaziyatni egallagandan keyin, uning tarangligini toping. Shar materialining zichligi  $5000 \text{ kg/m}^3$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 41

802. Suvli sisterna  $2,25 \text{ m/s}^2$  gorizontall tezlanish bilan harakatlanmoqda. Sisternaning poliga bir uchida suvda to'liq botgan 1 kg massali sharcha joylashgan ipning ikkinchi uchi mahkamlab qo'yilgan. Shar materialining zichligi  $200 \text{ kg/m}^3$ . Ip turg'un qiya vaziyatni egallagandan keyin, uning taranglik kuchini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 41

## 7. MOLEKULYAR FIZIKA GAZ QONUNLARI

### Molekulular fizika

803.  $1,204 \cdot 10^{24}$  ta molekuladan tashkil topgan jismning modda miqdori qanday? Avagadro soni  $6,02 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}$ .

Javob: 2

804.  $3 \cdot 10^{23}$  ta azot molekulasi qanday massaga (g da) ega? Azotning molyar massasi 28 g/mol. Avagadro soni  $6 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}$ .

Javob: 14

805. 50 mol kislороднинг massasi (g da) qanday? Kislороднинг molyar massasi 32 g/mol.

Javob: 1600

806. 3 g vodoroddagi molekulalar soni 9 g suvdagiga qaraganda necha marta ko'p? Vodorodning molyar massasi 2 g/mol, suvniki esa 18 g/mol.

Javob: 3

807. Atmosferali havo faqat kislород va azotdan tashkil topgan hamda havoning molyar massasi 29,12 g/mol deb hisoblab, aralashmadagi kislород molekulalarining foizli ulushini aniqlang. Kislороднинг molyar massasi 32 g/mol, azotniki 28 g/mol.

Javob: 28

808.  $3 \cdot 10^{-5} \text{ m}^3$  hajmli simobi lampa ballonida  $10^{12}$  molekula bo'lsa, undagi simob bug'lari 300 K temperaturada qanday bosim (mkPa da) hosil qiladi? Bolsman doimiysi  $1,38 \cdot 10^{-21} \text{ J/K}$ .

Javob: 138

809.  $5 \cdot 10^{24}$  ta gaz molekulasi 300 K temperatura va 414 Pa bosimda qanday hajmini egallaydi? Bolsman doimiysi  $1,38 \cdot 10^{-21} \text{ J/K}$ .

Javob: 50

810. Agar idishdagi havo  $0,83 \text{ mkPa}$  bosimgacha so'rib olingan bo'lsa,  $27^\circ \text{C}$  temperaturada idishning  $1 \text{ mm}^3$  hajmida necha ming havo molekulasi bo'ladi? Universal gaz doimiysi  $8,3 \text{ J/(mol} \cdot \text{K)}$ . Avagadro soni  $6 \cdot 10^{23} \text{ mol}^{-1}$ .

Javob: 200 000

811.  $0.01 \text{ m}^3$  hajmli ballonda  $27^\circ \text{C}$  temperaturali gaz bor. Gaz chiqib ketishi oqibatida ballondagi bosim  $4140 \text{ Pa}$  ga kamaydi. Agar temperatura o'zgarmagan bo'ssa, ballondan qancha molekula chiqib ketgan? Bolsman doimisi  $1,38 \cdot 10^{-3} \text{ J/K}$ . Javobda natijani  $10^{-3}$  ga ko'paytirgan holda bering.

Javob: 100

812. Xonada elektrokamin yoqilganidan so'ng o'zgarmas bosim holatida havo temperaturasi  $18^\circ \text{C}$  dan  $27^\circ \text{C}$  gacha ko'tarildi. Xona ichidagi havo molekulalarining soni necha foizga kamaygan?

Javob: 3

813. 2 mol ideal gazning  $27^\circ \text{C}$  temperaturadagi to'liq ilgarilanma harakat kinetik energiyasi qanday bo'ladi? Universal gaz doimisi  $8,31 \text{ J/(mol K)}$ .

Javob: 7479

814. 5 l sig'imi ballonda  $800 \text{ kPa}$  bosim ostida bo'lgan gaz molekulalarining to'liq ilgarilanma harakat kinetik energiyasi (kJ da) qanday bo'ladi?

Javob: 6

815. Agar gaz  $-73^\circ \text{C}$  gacha sovutilganda uning molekulalarining o'rtacha kvadratik tezligi 2 marta kamaygan bo'ssa, gaz qanday temperatura ostida ( $^\circ\text{C}$  da) bo'lgan?

Javob: 527

816. Gazning bosimi  $30 \text{ kPa}$ , uning zichligi  $1 \text{ kg/m}^3$ . Gaz molekulalarining o'rtacha kvadratik tezligi qanchaga teng?

Javob: 300

817.  $400 \text{ kPa}$  bosim ostidagi gazning zichligi  $1,6 \text{ kg/m}^3$ .  $2 \text{ kg}$  massali boshqa gaz  $200 \text{ kPa}$  bosim ostida  $10 \text{ m}^3$  hajmi egallaydi. Ikkinchi gaz molekulalarining o'rtacha kvadratik tezligi birinchinikiga qaraganda necha marta katta?

Javob: 2

818. Gaz molekulalarining o'rtacha kvadratik tezligi  $1000 \text{ m/s}$  ga teng. Gazning bosimi va hajmi  $1,2$  marta oshirilgandan so'ng o'rtacha kvadratik tezlik qanchaga teng bo'ladi?

Javob: 1200

819. Gaz temperaturasini  $100 \text{ K}$  ga oshirganda uning molckulalarining o'rtacha kvadratik tezligi  $300 \text{ m/s}$  dan  $500 \text{ m/s}$  gacha oshdi. O'rtacha kvadratik tezlik  $700 \text{ m/s}$  gacha ortishi uchun temperaturani yana necha gradusga ko'tarish kerak?

Javob: 150

**Ideal gaz holatining o'zgarishi**

a) izobar jarayon

820. Qo'zg'aluvchan porshenli silindr ichida joylashgan gaz  $300 \text{ K}$  temperaturada  $250 \text{ cm}^3$  hajmi egallaydi. Agar temperatura  $270 \text{ K}$  gacha pasaysa, gaz qanday hajmni ( $\text{cm}^3$ ) egallaydi?

Javob: 225

821. Gazning hajmi uning  $0^\circ \text{C}$  dagi hajmidan ikki marta katta bo'lishi uchun uni o'zgarmas bosimda necha gradusga qizdirish kerak?

Javob: 273

822. Agar havo  $3 \text{ K}$  ga qizdirilganda uning hajmi  $1\%$  ga ortgan bo'lsa, havoning boshlang'ich temperatusi (K da) qanday bo'lgan? Jarayon izobar.

Javob: 300

823. Gaz  $27^\circ \text{C}$  dan  $39^\circ \text{C}$  gacha qizdirildi. Agar gazning bosimi o'zgarmagan bo'ssa, uning hajmi necha foizga ortgan?

Javob: 4

824. Massasi  $0,012 \text{ kg}$  va temperaturasi  $177^\circ \text{C}$  bo'lgan gaz  $0,004 \text{ m}^3$  hajmda turibdi. Agar gazning bosimi o'zgarmas saqlansa, qanday temperaturada (K da) uning zichligi  $6 \text{ kg/m}^3$  bo'ladi?

Javob: 225

825. Gaz doimiy hajmida  $127^\circ \text{C}$  dan  $27^\circ \text{C}$  gacha sovutildi. Shundan so'ng gazning hajmi izotermik jarayonda necha foizga kamaytirilganda uning bosimi avvalgisiga teng bo'ladi?

Javob: 25

**b) izoxor jarayon**

826. Gaz temperaturasi 286 K dan 326 K gacha o'zgarganda bosim 20 kPa ga ortdi. Gazning dastlabki bosimini toping. Jarayon izoxor.

Javob: 143

827. Havo harorati ertalab  $7^{\circ}$  C bo'lganda rezinali qayiqqa puflab dam berildi. Agar qayiq kunduzi quyosh nurlari ostida  $21^{\circ}$  C gacha qizigan bo'lsa, undagi havo bosimi necha foizga ortgan? Qayiqning hajmi o'zgarmagan.

Javob: 5

828. Gaz o'zgarmas hajmda 1 K ga qizdirilganda bosim 0,2 % ga ortdi. Gaz qanday boshlang'ich temperaturada ( $^{\circ}$ C da) bo'lgan?

Javob: 227

829. Ochiq idishdagi havo sekinlik bilan 400 K gacha qizdirildi, so'ngra idish germetik bekitilib, 280 K gacha sovutildi. Bunda idishdagi bosim necha foizga o'zgargan?

Javob: 30

830. Silindr ichida, porshen ostida gaz bor. Gazning absolyut temperaturasi 2 marta oshirilganda porshen o'zgarmas holatda qolishi uchun uning ustiga 10 kg yuk qo'yish lozim. Porshenning yuzasi  $10 \text{ cm}^2$ . Gazning boshlang'ich bosimini (kPa da) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 100

831. Vertikal silindr ichidagi 5 kg massali porshen ostida gaz bor. Gazning absolyut temperaturasi ikki marta oshiriiganda porshen o'zgarmas holatda qolishi uchun uning ustiga qanday massali yuk qo'yish kerak? Atmosferik bosim 100 kPa, porshenning yuzasi  $0,001 \text{ m}^2$ .

Javob: 15

832. Zich berkitilgan shisha idishning ichidagi havo bosimi  $7^{\circ}$  C temperaturada 150 kPa ga teng. Agar idishni qizdirmay turib, tiginni tortib olish uchun 45 N minimal kuch taliab etilsa, u shisha og'zidan otlib chiqishi uchun idishni qanday temperaturagacha ( $^{\circ}$  C da) qizdirish kerak boladi? Tiqinining ko'ndalang kesimi yuzasi  $4 \text{ cm}^2$ .

Javob: 217

833. Gaz dastlab 400 K dan 600 K gacha izoxor ravishda, keyin esa T temperaturagacha izobar ravishda qizdiriladi. Shundan so'ng bosim gazning hajmiga to'g'ri proporsional ravishda kamayadigan jarayonda gaz boshlang'ich holatga keltiriladi. T temperaturani (K da) toping.

Javob: 900

**d) izotermik jarayon**

834. Gaz  $5 \cdot 10^6$  Pa bosimda  $2 \cdot 10^{-2} \text{ m}^3$  hajmi egallaydi. Xuddi shu temperaturada, lekin 1 m<sup>3</sup> hajmda gaz qanday bosim ostida bo'ladi? Javobni atmosferada ifodalang ( $1 \text{ atm} = 10^5 \text{ Pa}$ ).

Javob: 1

835. 10 l sig'imiли ballonni 30 l sig'imiли, 100 kPa bosim ostida havosi bo'lgan ballon bilan tutashtirilganda 200 kPa umumiy bosim yuzaga kelishi uchun uni qanday bosimgacha havo bilan to'ldirish kerak? Temperatura o'zgarmas.

Javob: 500

836. Ikki idish kranli, yupqa trubka bilan ulangan.  $15 \text{ dm}^3$  hajmli birinchi idishda 2 atm bosim ostida gaz bor, ikkinchisida esa 10 atm bosim ostida xuddi shunday gaz bor. Agar kran ochilsa, ikkala idishda ham 4 atm bosim yuzaga keladi. Ikkinci idishning hajmini ( $\text{dm}^3$  da) toping. Temperatura o'zgarmas.

Javob: 5

837. Agar 3 l sig'imiли futbol to'piga dam solishda porshenli nasos 40 marta bosib-tortilgan bo'lsa, to'pga qanday bosimgacha (kPa da) dam berilgan? Har bir dam solishda nasos atmosferadan  $150 \text{ cm}^3$  havoni so'rib oladi. Atmosferik bosim 100 kPa. Dam urish paytigacha to'p ichida bo'lgan havo miqdori inobatga olinmasin. Temperatura o'zgarmas.

Javob: 200

**838.** Idishdagı havo bosimi  $10^3$  Pa ga teng edi. Havo so'ruvchi nasos porshenining uch yurishidan so'ng havo bosimi 800 Pa gacha tushdi. Nasos silindrining hajmi idish hajmidan necha marta kattaligini aniqlang. Temperatura o'zgarmas.

Javob: 4

**839.** Porshenli nasos silindrining hajmi havosi tortib olinayotgan idishning hajmiga teng. Nasos porshenining 5 yurishidan keyin idishdagı bosim qanchaga teng bo'ladi? Idishning boshlang'ich bosimi  $10^3$  Pa ga teng bo'lgan. Temperatura o'zgarmas.

Javob: 3125

**840.** Silindrning porsheni ostidagi gaz  $10^3$  Pa bosimda  $240 \text{ cm}^3$  hajmi egallaydi. Gaz hajmini kamaytirib, porshenni  $2 \text{ cm}$  ga siljitsish uchun unga o'z tekishligiga perpendikulyar ravishda qanday kuch qo'yish kerak? Porshenning yuzasi  $24 \text{ cm}^2$ .

Javob: 60

**841.** Baland silindr ichida, ishqalanishsiz ko'cha oladigan og'ir porshen ostida gaz joylashgan. Porshenning yuzasi  $30 \text{ cm}^2$ . Silindrni ochiq tomoni bilan pastga qaratib qo'yilganda, gazning hajmi 3 marta ortdi. Porshenning massasi qanchaga teng? Atmosferik bosim  $100 \text{ kPa}$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 15

**842.** Vertikal silindr ichida, massasi  $20,2 \text{ kg}$  va kesimi  $20 \text{ cm}^2$  bo'lgan porshen ostida havo bor. Silindr  $5 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan vertikal yuqoriga ko'chira boshlangandan so'ng havo ustunning balandligi  $20\%$  ga kamaydi. Temperaturani o'zgarmas hisoblab, atmosferik bosimni ( $\text{kPa}$  da) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 101

**843.** Og'zi probka bilan berkitilgan idishda  $0,5 \cdot 10^5 \text{ Pa}$  bosim ostida havo joylashgan. Agar idish suv ichiga ochiq tomoni bilan  $10 \text{ m}$  chuqurlikka tushirilsa va probka ochilsa, idishga qanday hajmda suv ( $/ \text{ da}$ ) kiradi? Idishning hajmi  $4 /$ , atmosferik bosim  $10^5 \text{ Pa}$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ . Suv qatlami ichida va uning sirtida temperatura bir xil.

Javob: 3

**844.** Suv havzasining tubidan ko'tarilayotgan havo pufakchasingin hajmi qanday chuqurlikda suv sirtdagidan 3 marta kichik bo'ladi? Atmosferik bosim  $100 \text{ kPa}$ . Suv qatlami ichida va uning sirtida temperatura bir xil.

Javob: 20

**845.** Havo pufakchasi  $35 \text{ m}$  chuqurlikdagı suv havzası tubidan ko'tarilmoxda.  $5 \text{ m}$  chuqurlikda pufakchaning hajmi havza tubidagiga qaraganda necha marta katta bo'ladi? Atmosferik bosim  $100 \text{ kPa}$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ . Suv qatlami ichida va uning sirtida temperatura bir xil.

Javob: 3

**846.** Suv havzası tubidan ko'tarilayotgan havo pufakchasinig radiusi qanday chuqurlikda sirtdagiga qaraganda 2 marta kichik bo'ladi? Atmosferik bosim  $100 \text{ kPa}$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ . Suv qatlami ichida va uning sirtida temperatura bir xil.

Javob: 70

**847.** Gorizontal holatdagı probirkä ichida  $150 \text{ mm}$  uzunlikdagı simob ustuni bilan atmosferadan ajratilgan  $240 \text{ cm}^3$  havo bor. Agar probirkani ochiq tomoni bilan yuqoriga qaratib qo'yilsa, havoning hajmi  $200 \text{ cm}^3$  bo'lib qoladi. Atmosferik bosimni ( $\text{kPa}$  da) toping. Simobning zichligi  $13600 \text{ kg/m}^3$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 102

**848.** Uzunligi  $1 \text{ m}$ , ikkala tonioni ham ochiq bo'lgan vertikal holatdagı silindrlik trubka yarmigacha simobga botirildi. So'ogra uning yuqori uchi mahkam berkitilib, simobdan chiqarib olinadi. Trubkada  $25 \text{ cm}$  uzunlikdagı simob ustuni qoladi. Shu berilganlar bo'yicha atmosferik bosimni ( $\text{kPa}$  da) aniqlang. Simobning zichligi  $13600 \text{ kg/m}^3$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 102

849. Bir uchi mahkam yopilgan, 42 cm uzunlikdagi trubka ochiq tomoni bilan simobga tushiriladi. Trubkaning yuqori uchi simob sathi bilan tenglashgan paytda trubka ichidagi havo ustuni necha cm bo'ladi? Atmosferik bosim 750 mm sim. ust.

Javob: 30

850. Bir uchi yopiq bo'lgan trubka ichidagi havo ustuni 19 cm uzunlikdagi simob ustuni bilan qamab qo'yilgan. Agar trubka ochiq tomoni bilan pastga qaratilsa, havo ustunining uzunligi 10 cm, agar ochiq tomoni bilan yuqoriga qaratilsa, 6 cm bo'ladi. Atmosferik bosimni (mm sim. ust. da) toping.

Javob: 760

851. Bir uchi ochiq bo'lgan, uzun gorizontal trubka ichida 16 cm uzunlikli havo ustuni 20 cm uzunlikdagi simob ustuni bilan qamab qo'yilgan. Trubka o'zining yopiq uchi orqali o'tuvchi vertikal o'q atrofida aylantirila boshlanadi. Burchak tezlik qanday bo'lganda simob ustuni 4 cm ga silijydi? Atmosferik bosim 750 mm sim. ust.,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 5

852. Massasi 50 g bo'lgan yupqa devorli stakan suv yuziga to'ntarib qo'yiladi va shunday hotiriladiki, bunda stakan doim vertikal holda qoladi. Stakanning balandligi 10 cm, tubining yuzasi  $20 \text{ cm}^2$ . Stakan qanday minimal chuqurlikka tushirilganda cho'kib ketadi? Atmosferik bosim 100 kPa,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ . Chuqurlik suv sirtidan stakan ichidagi suv sathigacha (izlanayotgan chuqurlikda) hisoblanadi. Temperatura sirtda va chuqurlikda bir xil. Stakandagi havo massasi iuobatga olinmasin.

Javob: 30

#### Birlashgan gaz qonunu

853. Gazning hajmi 2 marta kamaytirilganda bosim 120 kPa ga o'zgardi, absolut temperatura esa 10% ga oshdi. Gazning dastlabki bosimi (kPa da) qanday bo'lgan?

Javob: 100

854. Gazning hajmi 7 marta oshirilganda bosim 10 marta kamayishi uchun uning absolut temperaturasini necha foizga kamaytirish kerak?

Javob: 30

855. Ikki idish kranli, yupqa trubka bilan ulangan. 3 / hajmli birinchi idish 10 kPa bosim ostida turgan gaz bilan to'ldirilgan, 6 / hajmli boshqa idishda bosim hisobga olmas darajada kam. Birinchi idishdagi gazning temperaturasi  $27^\circ \text{C}$ . Agar kranni ochib, gazning temperaturasini  $177^\circ \text{C}$  gacha ko'tarilsa, idishlarda qanday bosim (kPa) qaror topadi?

Javob: 5

856. Normal sharoitda ( $T_0 = 273 \text{ K}$ ) porshenli nasos har yurishda atmosferadan  $10 \text{ dm}^3$  havoni so'rib oladi va uni  $10 \text{ m}^3$  hajmli rezervuarga uzatadi. Rezervuardagi temperatura doimiy va  $364 \text{ K}$  ga teng. Rezervuardagi bosimni normaldan ( $p_0 = 1 \text{ atm}$ )  $10 \text{ atm}$  gacha ko'tarish uchun nasos porsheni nechta yurish qilishi kerak?

Javob: 6750

857. Silindr porshenining ostidagi havo dastlab izotermik ravishda bosim 2 marta oshguncha siqildi, keyin esa o'zgarmas bosimda qizdirildi. Natijada havoning hajmi dastlabkisiga qaraganda 3 marta ortdi. Agar havoning boshlang'ich temperaturasi  $300 \text{ K}$  bo'lgan bo'lsa, u qanday temperaturagacha (K da) qizdirilgan?

Javob: 1800

858.  $127^\circ \text{C}$  temperatura va  $200 \text{ kPa}$  bosimda  $3 /$  hajmni egallagan gaz izotermik siqiladi, keyin  $-73^\circ \text{C}$  temperaturagacha izobar sovutiladi, undan so'ng hajm  $1 /$  gacha izotermik o'zgartiriladi. Gazning oxirgi bosimini (kPa da) toping.

Javob: 300

859. Silindr ichidagi porshen ostida joylashgan gaz o'zgarmas bosimda shunday qizdirildiki, bunda uning hajmi 1,5 marta ortdi. Keyin porshen mahkamlanib, uning bosimi 2 marta ortguncha qizdirildi. Gazning oxirgi absolut temperaturasining boshlang'ich absolut temperaturasiga nisbatli qanday?

Javob: 3

860. Ichida  $300\text{ K}$  temperaturada kislorod bo'lgan ikkita bir xil idish o'rtaida simob ustuni joylashgan yupqa, gorizontal trubka bilan ulangan. Idishlarning hajmi  $4 \cdot 10^{-5}\text{ m}^3$ . Bir idish  $3\text{ K}$  ga qizdirilib, boshqasi esa  $3\text{ K}$  ga sovutilgandan so'ng simob ustuni  $1\text{ cm}$  ga siljidi. Trubkaning kesim yuzasi ( $\text{mm}^2$  da) qanday?

Javob: 40

861. Issiqlikni o'tkazmaydigan porshen ichida  $7^\circ\text{ C}$  temperaturali gaz bo'lgan gorizontal idishni teng ikki qismiga bo'ladi. Har bir qismning uzunligi  $30\text{ cm}$ . Idishning bir qismi qizdirilganda porshen  $2\text{ cm}$  ga siljidi. Gaz necha gradusga qizdirilgan? Idishning boshqa qismidagi gazning temperaturasi o'zgarmagan.

Javob: 40

862. Issiqlikni o'tkazmaydigan porshen ichida  $5^\circ\text{ C}$  temperaturali gaz bo'lgan gorizontal idishni teng ikki qismiga bo'ladi. Har bir qismning uzunligi  $144\text{ cm}$ . Idishning bir qismi  $18^\circ\text{ C}$  ga, boshqasi esa  $2^\circ\text{ C}$  ga qizdirildi. Porshen qancha masofaga ( $\text{mm}$  da) siljiydi?

Javob: 4

863.  $40\text{ l}$  hajmli balloon ichida  $18\text{ MPa}$  ostida  $27^\circ\text{ C}$  temperaturali siqilgan havo bor. Shu ballonning havosi yordamida suv osti kemasining sisternasidan qanday hajmli ( $\text{l}$  da) suvni siqib chiqarish mumkin? Kema  $7^\circ\text{ C}$  temperaturadagi  $20\text{ m}$  chuqurlikda joylashgan. Atmosferik bosim  $0,1\text{ MPa}$ ,  $g = 10\text{ m/s}^2$ .

Javob: 2200

864. Havo bilan to'dirilgan yupqa rezinali shar suv ichiga  $65,2\text{ m}$  chuqurlikka tushirilganda uning radiusi necha marta kamayadi? Suv sirtidagi bosim  $100\text{ kPa}$ . Sirtdagagi suvning temperaturasi  $27^\circ\text{ C}$ , chuqurlikdagisi  $9^\circ\text{ C}$ .

Javob: 2

865. Bir xil kesimdag'i tutash idishlarda simob bor. Idishlardan biri yopiladi va uning ichidagi havo temperaturasi  $300\text{ K}$  dan  $400\text{ K}$  gacha oshiriladi. Agar yopiq idish ichidagi havo ustunning boshlang'ich balandligi  $10\text{ cm}$  bo'lgan bo'lsa, simob sathlari orasida yuzaga keladigan farqni ( $\text{cm da}$ ) toping. Atmosferik bosim  $750\text{ mm sim. ust}$ .

Javob: 5

#### Mendeleyev – Klapeyron tenglamasi

866.  $0,06\text{ m}^3$  sig'imiли ballon ichida  $27^\circ\text{ C}$  temperaturada  $8,3 \cdot 10^5\text{ Pa}$  bosim ostida joylashgan vodorodning massasini ( $\text{g da}$ ) aniqlang. Vodorodning molyar massasi  $2\text{ kg/kmol}$ , universal gaz doimiysi  $8300\text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ .

Javob: 40

867. Sig'imi  $83\text{ l}$  bo'lgan ballonda  $2,2\text{ kg}$  karbonat angidrid gazи bor. Ballon  $4 \cdot 10^6\text{ Pa}$  dan ortiq bo'lмаган bosimga bardosh beradi. Qanday temperaturada ( $\text{K da}$ ) ballon portlab ketishi mumkin? Karbonat angidrid gazining molyar massasi  $44\text{ kg/kmol}$ , universal gaz doimiysi  $8300\text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ .

Javob: 800

868. Ichida vodorod bo'lgan ballon  $1172\text{ K}$  temperaturada portlagan bo'lsa va u o'n marta mustahkamlik zahirasi bilan  $293\text{ K}$  temperaturali  $7\text{ kg}$  massali azotni saqlashga mo'ljallangan bo'lsa, ballonda qanday massali ( $\text{g da}$ ) vodorod bo'lgan? Vodorodning molyar massasi  $2\text{ kg/kmol}$ , azotniki esa  $28\text{ kg/kmol}$ .

Javob: 1250

869.  $0,02\text{ kg}$  miqdordagi gaz  $10^6\text{ Pa}$  bosim va  $47^\circ\text{ C}$  temperaturada  $1660\text{ cm}^3$  hajmini egallaydi. Shu berilganlar bo'yicha gazning molyar massasini ( $\text{kg/kmol da}$ ) aniqlang. Universal gaz doimiysi  $8300\text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ .

Javob: 32

870.  $27^{\circ}\text{C}$  temperaturali ballon ichida joylashgan 0,007 kg massali gaz 50 kPa bosim hosil qiladi. Agar 4 g massali vodorod (molyar massasi 2 kg/kmol) xuddi shunday ballonda  $60^{\circ}\text{C}$  da 444 kPa bosim hosil qilishi ma'lum bolsa, noma'lum gazning molyar massasini (kg/kmol) toping.

Javob: 28

871. Bir xildagi ballonlarda bir xil temperaturada teng massali vodorod va kislorod bor. Agar kislorodning molyar massasi 32 kg/kmol, vodorodniki esa 2 kg/kmol bo'lsa, vodorodning ballon devoriga beradigan bosimi kislorodnikiga qaraganda necha marta katta bo'ladi?

Javob: 16

872. 85 cm uzunlikdagi idish ishqalanishsiz harakatlana oladigan yupqa to'siq bilan ikki qismga bo'lingan. Idishning chap qismida vodorod, o'ng qismida esa xuddi shunday massali kislorod joylashgan. Idishning chap qismi uzunligini (cm da) toping. Vodorodning molyar massasi 2 kg/kmol, kislorodniki – 32 kg/kmol. Gazlarning temperaturalari bir xil.

Javob: 80

873. Ikkita ballon kranli yupqa trubka yordamida bir biri bilan ulangan. Bir ballonda 400 kPa bosim ostida 2 g massali gaz, boshqasida esa 200 kPa bosim ostida 4 g massali xuddi shunday gaz bor. Agar kran ochib yuborilsa, ballonlarda qanday bosim (kPa da) yuzaga keladi? Gaz temperaturalari ballonlarda bir xil.

Javob: 240

874. Silindr ichida, vaznsiz porshen ostida hajmi  $0.02 \text{ m}^3$ , temperaturasi esa  $250\text{ K}$  bo'lgan 1 mol gaz joylashgan. Porshennenin yuzasiga perpendikulyar yo'nalishda qanday kuch bilan ta'sir qilganda, u qo'zg'almaydi? Atmosferik bosim 100 kPa, porshennenin yuzasi  $0,02 \text{ m}^2$ , universal gaz doimiysi  $8300 \text{ J}/(\text{kmol} \cdot \text{K})$ .

Javob: 75

875. Gaz quvuri orqali  $0.83 \text{ MPa}$  bosim va  $27^{\circ}\text{C}$  temperaturalagi karbonat angidrid gazi o'tmoqda. Agar 2,5 min ichida qovurning  $5 \text{ cm}^2$  yuzali ko'ndalang kesimi orqali 2,2 kg gaz oqib o'tsa, quvurdagi gaz oqimining tezligi qanday? Karbonat angidrid gazming molyar massasi 44 kg/kmol, universal gaz doimiysi  $8300 \text{ J}/(\text{kmol} \cdot \text{K})$ .

Javob: 2

876. Aerostatning sferik qobig'i har bir metr kvadratining massasi 900 g bo'lgan materialdan tayyorlangan. Shar  $27^{\circ}\text{C}$  temperatura va 100 kPa bosimdagи vodorod bilan to'dirilgan. Atrofdagi havoning temperaturasi va bosimi vodorodniki bilan bir xil. Shar o'zinini ko'tara olishi uchun uning radiusi (cm da) kamida qanday bo'lishi kerak? Universal gaz doimiysi  $8300 \text{ J}/(\text{kmol} \cdot \text{K})$ . Havoning molyar massasi 29 kg/kmol, vodorodniki 2 kg/kmol.

Javob: 249

877. 198 g massali rezina shar azot bilan to'dirilgan va suv ichida, temperaturasi  $7^{\circ}\text{C}$  bo'lgan 73 m chuqurlikda tinch turibdi. Shardagi azot massasini (g da) toping. Atmosferik bosim 100 kPa. Azotning molyar massasi 28 kg/kmol, universal gaz doimiysi  $8300 \text{ J}/(\text{kmol} \cdot \text{K})$ .

Javob: 2

878. Vertikal silindr ishqalanishsiz ko'cha oladigan og'ir porshen yordamida ikki bo'lakka bo'linadi. Porshen ostida uning ustidagi qaraganda uch marta ortiq gaz joylashgan.  $300\text{ K}$  temperaturalagi porshen idishni teng ikkiga bo'ladi.  $800\text{ K}$  temperaturalagi porshen ostidagi gazning hajmi porshen ustidagidan necha marta katta bo'ladi?

Javob: 2

879. 1,5 mol vodorod va 2,5 mol kislorod aralashmasining zichligi  $27^{\circ}\text{C}$  temperatura va 240 kPa bosim ostida qanchaga teng? Vodorodning molyar massasi 2 kg/kmol, kislorodniki 32 kg/kmol, universal gaz doimiysi  $8300 \text{ J}/(\text{kmol} \cdot \text{K})$ .

Javob: 2

#### Modda miqdorining o'zgarishi

880. Agar ochiq idishdagi havoni  $0^{\circ}\text{C}$  dan  $100^{\circ}\text{C}$  gacha qizdirilsa, uning massasi necha grammga kamayadi? Havoning boshlang'ich massasi 373 g.

Javob: 100

881. Agar hajmi  $249 \text{ m}^3$  bo'lgan zalning temperatusi yozda  $27^\circ \text{ C}$  ga, qishda esa  $17^\circ \text{ C}$  ga teng bo'lsa, shu zalni qishda va yozda to'ldiradigan havoning massasi qanchaga farq qiladi? Bosim qishin-yozin  $10^3 \text{ Pa}$ . Universal gaz doimiysi  $8300 \text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ , havoning molyar massasi  $29 \text{ kg/kmol}$ .

Javob: 10

882. Idishda  $60 \text{ atm}$  bosim ostidagi gaz bor. Agar idishdan undagi gaz massasining  $7/12$  qismi chiqarib yuborilsa, qanday bosim (atm da) vujudga keladi? Temperaturani o'zgarmas deb hisoblang.

Javob: 25

883. Ballonda  $27^\circ \text{ C}$  temperatura va  $200 \text{ kPa}$  bosimda gaz bor. Agar ballondan gazning  $80\%$  i chiqarib yuborilsa va uni  $12^\circ \text{ C}$  gacha sovutilsa, bosim (kPa da) qanday bo'ladi?

Javob: 38

884. Bailonda qandaydir gaz bor edi. Gazning bir qismini chiqarib yuborgandan keyin ballondagi gazning temperaturasi 3 marta, bosim esa 4 marta kamaydi. Gazning qanday qismi (foizlarda) chiqarib yuborilgan?

Javob: 25

885. Ballonda  $27^\circ \text{ C}$  temperatura va  $2 \cdot 10^5 \text{ Pa}$  bosimda  $2 \text{ kg}$  massali gaz bor. Gazning bir qismini chiqarib yuborib, qolgan qismini  $627^\circ \text{ C}$  gacha qizdirilganda bosim  $3 \cdot 10^5 \text{ Pa}$  gacha oshdi. Agar balloonning hajmi  $1 \text{ m}^3$  bo'lsa, qolgan gaz qismining zichligi qanday bo'ladi?

Javob: 1

886. Ikkita bir xil idish yupqa trubka yordamida ulangan. Sistema gaz bilan to'ldirilgan va  $24^\circ \text{ C}$  temperaturada turibdi. Idishlardan birining temperaturasi  $33^\circ \text{ C}$  ga oshirildi. Sistemaning bosimi o'zgarmasligi uchun ikkinchi idishning temperaturasini necha gradusga kamaytirish kerak?

Javob: 27

887. Ikkita bir xil idish hajmi inobatga olinmasa bo'ladigan trubka yordamida ulangan. Sistema gaz bilan to'ldirilgan va  $300 \text{ K}$  temperaturada turibdi. Idishlardan biri qizdirilib, boshqasi esa oldingi temperaturada qoldirilganda sistemadagi bosim 1,5 marta oshdi. Idishlardan biri necha gradusga qizdirilgan?

Javob: 600

888. Yupqa trubka vositasida ulangan uchta bir xil idish  $40 \text{ K}$  temperaturali gazsimon geliy bilan to'ldirilgan. Keyin idishlardan biri  $100 \text{ K}$  gacha, boshqasi  $400 \text{ K}$  gacha qizdirildi, uchinchi idishning temperaturasi esa o'zgarmay qoldi. Sistemadagi bosim necha marta ortgan?

Javob: 2

889. Idishda  $727^\circ \text{ C}$  temperaturada O<sub>3</sub> ozon bor. Biroz vaqt dan so'ng gazning temperaturasi  $127^\circ \text{ C}$  gacha pasaydi, ozonning barchasi esa O<sub>3</sub> kislorodga aylandi. Idishdagi bosim necha foizga kamaygan?

Javob: 40

890. Yopiq idishda qamalgan azot temperaturasining  $7^\circ \text{ C}$  dan  $1407^\circ \text{ C}$  gacha ko'tarilishida azot molekulalarining uchdan bir qismi atomlarga bo'linib ketdi. Bunda gazning bosimi necha marta ortgan?

Javob: 8

891. Vodorod temperurasining  $300 \text{ K}$  dan  $1350 \text{ K}$  gacha ko'tarilishida barcha molekulalar atomlarga bo'linib ketdi. Bunda gaz zarrachalarining o'rtacha kvadratik tezligi necha martaga ortgan?

Javob: 3

## 8. TERMODINAMIKA

Issiqlik miqdorini hisoblash. Isitkichning foydali ish koefitsiyenti (FIK)

a) Isitish va sovutish

892. Qanday massali simobning issiqlik sig'imi 13 kg spirtning issiqlik sig'imiغا teng? Spirtning solishtirma issiqlik sig'imi  $2440 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ , simobning solishtirma issiqlik sig'imi  $130 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ .

Javob: 244

893. Ikkita bir xil jismning bir-biriga ishqalanishida ularning temperaturasi bir minutda  $30^\circ \text{C}$  ga ko'tarildi. Bu jismarning o'zaro ishqalanishida hosil bo'ladigan o'rtacha qvvat qanday? Har bir jismning issiqlik sig'imi  $800 \text{ J/K}$ .

Javob: 800

894. 600 W qvvatlari elektroplitkada 3 l suvni qaynagunga qadar 40 minut isitiladi. Suvning boshlang'ich temperaturasi  $20^\circ \text{C}$ . Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ . Qurilmaning FIK ni (foizlarda) aniqlang.

Javob: 70

895. Qo'l parmasi (Drel) yordamida metallni parmalashda  $0,05 \text{ kg}$  massali parma 200 s to'xtovsiz ishlash davomida  $20^\circ \text{C}$  ga isidi. Drel parmalash jarayonida elektr tarmog'idan iste'mol qiladigan o'rtacha qvvat  $10 \text{ W}$  ga teng. Agar parma materialning solishtirma issiqlik sig'imi  $160 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$  bo'ssa, sarflangan energiyaning necha foizi parmaning qizishiga ketgan?

Javob: 23

896. 400 W qvvatlari elektromotor 50 s to'xtovsiz ishlash davomida  $10 \text{ K}$  ga qiziydi. Motoring FIK (foizlarda) qanchaga teng? Motoring issiqlik sig'imi  $500 \text{ J/K}$ .

Javob: 75

897. Moyga botirilgan transformator ortiqcha zo'rirqish oqibatida qiziy boshlaydi. Agar transformator 60 kW to'liq qvvat bilan 4 minut ishlaganda  $60 \text{ kg}$  massali moy  $30^\circ \text{C}$  ga qizisa, transformatorning FIK (foizlarda) qanday? Moyning solishtirma issiqlik sig'imi  $2000 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ .

Javob: 75

898. Generator o'ta yuqori chastotali impulslar tarqatmoqda. Har bir impulsning energiyasi 6 J. Impulsarning takrorlanish chastotasi  $700 \text{ Hz}$ . Generatorning FIK 60%. Generatorning sovutish sistemasini orqali o'tkaziluvchi suv  $10 \text{ K}$  dan ko'p qizimasligi uchun soatiga necha litr suv o'tkazish kerak? Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ .

Javob: 240

b) fazaviy o'zgarishlar

899.  $0^\circ \text{C}$  haroratda olingen qancha muzni  $0,66 \text{ MJ}$  energiya yordamida eritish mumkin? Muzning solishtirma erish issiqligi  $330 \text{ kJ/kg}$ .

Javob: 2

900. Erish haroratidagi  $100 \text{ kg}$  po'latning qotish jarayonida  $21 \text{ MJ}$  issiqlik ajraldi. Po'latning solishtirma erish issiqligi ( $\text{kJ/kg}$  da) qanday?

Javob: 210

901.  $-10^\circ \text{C}$  harorathli  $2 \text{ kg}$  muzni to'liq eritish uchun unga qanday miqdordagi issiqlik ( $\text{kJ}$  da) berish kerak? Muzning solishtirma issiqlik sig'imi  $2100 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ , muzning solishtirma erish issiqligi  $330 \text{ kJ/kg}$ .

Javob: 702

902.  $-50^\circ \text{C}$  harorathli muz parchasini  $50^\circ \text{C}$  temperaturali suvgaga aylantirish uchun  $645 \text{ kJ}$  energiya talab qilinadi. Muzning massasi qancha? Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ , muzning solishtirma issiqlik sig'imi  $2100 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ , muzning solishtirma erish issiqligi  $330 \text{ kJ/kg}$ .

Javob: 1

903.  $0,1 \text{ kg}$  qaynayotgan suv bug'ga aylanishi uchun qanday miqdordagi issiqlik ( $\text{kJ}$  da) kerak? Suv bug'lanishining solishtirma issiqligi  $2,26 \text{ MJ/kg}$ .

Javob: 226

904.  $0,2 \text{ kg}$  suv bug'ining  $100^\circ \text{C}$  haroratda kondensatsiyalanishida qancha issiqlik ( $\text{kJ}$  da) ajraladi? Suv bug'lanishining solishtirma issiqligi  $2,3 \text{ MJ/kg}$ .

Javob: 460

905.  $0^{\circ}$  C da olingen 1 kg suvni  $100^{\circ}$  C gacha qizdirish va to'liq bug'ga aylantirish uchun unga qanday issiqlik miqdori (kJ da) berish kerak? Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ , suv bug'lanishining solishtirma issiqligi  $2,3 \text{ MJ}/\text{kg}$ .

Javob: 2720

906.  $20^{\circ}$  C da olingen suvni qizdirish va bug'ga aylantirish uchun  $2595 \text{ kJ}$  energiya sarflandi. Suvning massasini aniqlang. Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ , suv bug'lanishining solishtirma issiqligi  $2,26 \text{ MJ}/\text{kg}$ .

Javob: 1

907. Bir tonna po'latni eritish uchun  $100 \text{ kW}$  quvvatli elektr pechidan foydalanilmoqda. Agar po'latni erish boshlangunga qadar  $1500 \text{ K}$  ga qizdirish kerak bolsa, eritish necha minut davom etadi? Po'latning solishtirma issiqlik sig'imi  $460 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ , po'latning solishtirma erish issiqligi  $210 \text{ kJ}/\text{kg}$ .

Javob: 150

908. Qandaydir massali suvni  $0^{\circ}$  C dan  $100^{\circ}$  C gacha qizdirish uchun  $8400 \text{ J}$  issiqlik talab etiladi. Shu suvni to'liq bug'lanterish uchun yana qancha issiqlik (kJ da) talab qilinadi? Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ , suv bug'lanishining solishtirma issiqligi  $2,3 \text{ MJ}/\text{kg}$ .

Javob: 46

909. Suvni muzlatgichda  $33^{\circ}$  C dan  $0^{\circ}$  C gacha sovutish uchun 21 minut vaqt sarflandi. Endi shu suvni muzga aylantirish uchun qancha vaqt (minutda) talab etiladi? Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ , muzning solishtirma erish issiqligi  $330 \text{ kJ}/\text{kg}$ .

Javob: 50

910. Idishdag'i suv elektroplitkada 20 minut davomida  $20^{\circ}$  C dan qaynaguncha isitiladi. Suvning 42 % ini bug'ga aylantirish uchun yana qancha vaqt (minutda) kerak bo'ladi? Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ , suv bug'lanishining solishtirma issiqligi  $2,2 \text{ MJ}/\text{kg}$ .

Javob: 55

911. Gaz gorelkasida solishtirma yonish issiqligi  $36 \text{ MJ}/\text{m}^3$  bo'lgan gazdan foydalanilsa, hamda choynakdag'i  $3 \text{ l}$  suvni  $10^{\circ}$  C dan qaynash haroratigacha istish uchun  $60 \text{ l}$  gaz sarflangan bolsa, gaz gorelkasining FIK ni (foizlarda) aniqlang. Choynakning issiqlik sig'imi  $600 \text{ J}/\text{K}$ . Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ .

Javob: 55

912. Bug' mashinasining ishlashi uchun 1 soatda  $210 \text{ kg}$  ko'mir sarflanadi. Mashinanining sovushi kirishdag'i harorati  $17^{\circ}$  C, chiqishdagisi esa  $27^{\circ}$  C bo'lgan suv yordamida amalga oshiriladi. Umumiy issiqlik miqdorining 24 % i suvni isitishga ketayotgan bo'lsa, 1 s dagi suv sarfini (kg da) aniqlang. Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ , ko'mirning solishtirma yonish issiqligi  $30 \text{ MJ}/\text{kg}$ .

Javob: 10

913. 54 km/h tezlikda  $69 \text{ kW}$  quvvatga erishadigan va FIK 40 % bo'lgan avtomobilning dvigateli uchun  $10 \text{ kg}$  benzin necha kilometr yo'liga yetadi? Benzinning solishtirma yonish issiqligi  $4,6 \text{ MJ}/\text{kg}$ .

Javob: 40

#### **Mexanik va ichki energiyaning o'zaro aylanishlari**

914.  $50 \text{ m/s}$  tezlikka ega bo'lgan o'q devorga noelastik urilish natijasida  $10^{\circ}$  C ga qizidi. Urilishda ajralgan barcha energiyani o'q olgan deb hisoblab, o'q materialining solishtirma issiqlik sig'imi toping.

Javob: 125

915. Ikkita bir xil o'q devorga kelib uriladi. Birinchi o'q  $0,5 \text{ K}$  ga, ikkinchisi esa  $8 \text{ K}$  ga qiziydi. Agar o'qlarning barcha energiyasi ularning qizishiga sarflansa, ikkinchi o'qning tezligi birinchisiniidan necha marta katta?

Javob: 4

**916.** 100 J kinetik energiyaga ega bo'lgan o'q devorga urildi va 0,5 K ga qizidi. Agar o'qning issiqlik sig'imi 20 J/K ga teng bo'lsa, o'q energiyasining qanday qismi (foizlarda) uni qizdirish uchun sarflangan?

**Javob:** 10

**917.** Agar sharshara suvining harorati uning asosi yaqnida cho'qqisidagiga qaraganda  $0,05^{\circ}$  C ga katta bo'lsa, sharsharaning balandhg'i qanchaga teng? Butun mexanik energiya suvni qizdirishga ketadi deb hisoblang. Suvning solishturma issiqlik sig'imi  $4200 \text{ J/(kg} \cdot \text{K)}$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 21

**918.** Agar bir stakan suv  $100^{\circ}$  C dan  $20^{\circ}$  C gacha sovuganda ajraladigan energiyani to'liq ishga aylantirishga erishilganda, 100 kg massali yukm qanday balandlikka ko'tarish mumkin bo'lar edi? Stakandagi suvning massasi 420 g, suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200 \text{ J/(kg} \cdot \text{K)}$ , stakanning issiqlik sig'imi hisobga olmang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 84

**919.** 2000 kg massali bosqon 1 m balandlikdan 2 kg massali metall g'o'laning ustiga tushadi. Zarba natijasida g'o'laning harorati  $25^{\circ}$  C ga ortadi. To'liq ajraladigan energiyaming 50 % i g'o'lani qizdirishga ketadi deb hisoblab, g'o'la materialining solishtirma issiqlik sig'imi toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 200

**920.** Plastilin shar gorizontga nisbatan  $45^{\circ}$  burchak ostida  $10 \text{ m/s}$  tezlik bilan otiladi. Otish nuqtasidan 8 m masofada (gorizontal bo'yicha) vertikal devor joylashgan. Agar shar devorga yopishib qolsa, u necha gradusga ( $\text{mK da}$ ) qiziydi? Sharning to'liq kinetik energiyasi uni qizdirishga ketgan deb hisoblang. Plastilining solishtirma issiqlik sig'imi  $250 \text{ J/(kg} \cdot \text{K)}$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 136

**921.**  $500 \text{ m/s}$  tezlik bilan uchayotgan qo'rg'oshin o'q devorni teshib o'tadi. Agar o'qning tezligi  $300 \text{ m/s}$  gacha kamaygan bo'lsa, uning necha gradusga qiziganini aniqlang. Ajralgan issiqlikning 50 % i o'jni qizdirishga ketgan deb hisoblang. Qo'rg'oshinning solishtirma issiqlik sig'imi  $160 \text{ J/(kg} \cdot \text{K)}$ .

**Javob:** 250

**922.**  $500 \text{ m/s}$  tezlik bilan uchayotgan o'q yerdan 20 cm balandlikda taxtani teshib o'tadi. Bunda o'qning temperaturasi  $200^{\circ}$  C ga ortdi. Urilishda ajralgan issiqlikning hammasi o'jni qizdirishga ketgan deb hisoblab, o'q urilgan joydan qanday masofada (gorizontal bo'ylab) yerga tushganligini aniqlang. O'q materialining solishtirma issiqlik sig'imi  $400 \text{ J/(kg} \cdot \text{K)}$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 60

**923.** Jism uzunligi 260 m va qiyalik burchagi  $60^{\circ}$  bo'lgan qiya tekislikdan sirpanib tushadi. Tekislikka ishqalanish koefitsiyenti 0,2. Agar ajralgan issiqlikning 50 % i jismni qizdirishga ketsa, uning temperaturasi necha gradusga ko'tarilishini aniqlang. Jism materialining solishtirma issiqlik sig'imi  $130 \text{ J/(kg} \cdot \text{K)}$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 1

**924.** Sohshtirma issiqlik sig'imi  $450 \text{ J/(kg} \cdot \text{K)}$  bo'lgan moddadan tayyorlangan ikkita bir xil sharcha  $40 \text{ m/s}$  va  $20 \text{ m/s}$  tezliklar bilan bir-biriga tomon harakatlanmoqda. Noelastik to'qnashuv natijasida ular necha gradusga qizishini aniqlang.

**Javob:** 1

**925.**  $400 \text{ m/s}$  tezlik bilan gorizontal uchayotgan 10 g massali o'q ipga osilgan 990 g massali yog'och brusokka uriladi va uning ichida tiqilib qoladi. Agar ajralgan issiqlikning 50 % i o'jni qizdirishga ketsa, u necha gradusga qiziydi?

**Javob:** 198

**926.** O'q devorga urilganda erib ketishi uchun qanday tezlik bilan uchishi kerak? O'q materialining solishtirma issiqlik sig'imi  $130 \text{ J/(kg} \cdot \text{K)}$ , solishtirma erish issiqligi  $22,25 \text{ kJ/kg}$ ,

erish harorati  $327^{\circ}$  C. O'qning urilishgacha bo'lgan harorati  $152^{\circ}$  C. Urilishda ajralgan issiqlikning hammasi o'qni qizishiga ketgan deb hisoblang.

Javob: 300

927. Qalay sharcha qanday balandlikdan (km da) tushganda tekislikka urilib to'liq erib ketadi? Sharcha energiyasining 50 % i uning qizishi va erishi uchun ketadi deb hisoblang. Sharchaming boshlang'ich harorati  $32^{\circ}$  C. Qalayning erish temperaturasi  $232^{\circ}$  C, uning solishtirma issiqlik sig'imi  $200 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ , solishtirma erish issiqligi  $58 \text{ kJ/kg}$ .  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 20

928. 300 m balandlikdan vertikal pastga qarab miltiqdan otilgan qo'rg'oshin o'q noelastik jismga urilganda erib ketishi uchun qanday tezlik bilan uchib chiqishi kerak? Urilishda ajralgan issiqlik o'q va jism orasida teng taqsimlanadi deb hisoblang. O'qning boshlang'ich harorati  $177^{\circ}$  C. Qo'rg'oshinni erish harorati  $327^{\circ}$  C, solishtirma issiqlik sig'imi  $130 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ , solishtirma erish issiqligi  $22 \text{ kJ/kg}$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 400

929. Miltiqdan otilganda 45 g massali o'q  $600 \text{ m/s}$  tezlik bilan uchib chiqadi. 9 g massali porox zaryadining yonishida ajralgan energiyaning necha foizini o'qning kinetik energiyasi tashkil qiladi? Poroxning solishtirma yonish issiqligi  $3 \text{ MJ/kg}$ .

Javob: 30

930. FIK 20 % bo'lgan reaktiv samolyotning dvigateli  $1800 \text{ km/h}$  tezlik bilan uchishda  $86 \text{ kN}$  tortish kuchiga erishadi. Parvozning 1 soatidagi kerosin sarfini (t da) aniqlang. Kerosinning yonish issiqligi  $43 \text{ MJ/kg}$ .

Javob: 18

931. Uzoqqa to'p (snaryad) otuvchi zambarakning zaryadi  $150 \text{ kg}$  poroxdan iborat. Snaryadning massasi  $420 \text{ kg}$ . Agar zambarakning FIK 25 % bo'lsa, snaryadning mumkin bo'lgan eng katta uchish uzoqligi (km da) qanday? Poroxning solishtirma yonish issiqligi  $4,2 \text{ MJ/kg}$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ . Havoning qarshiligini hisobga olmang.

Javob: 75

#### Issiqlik balansi tenglamasi

##### a) Isitish va sovutish

932. Kalorimetrdra  $50^{\circ}$  C haroratlari  $2 \text{ kg}$  suv va  $30^{\circ}$  C haroratlari  $3 \text{ kg}$  suv aralashtiriladi. Aralashma haroratini ( $^{\circ}\text{C}$  da) toping. Kalorimetning issiqlik sig'imi hisobga olinmasin.

Javob: 38

933. Vannaga  $10^{\circ}$  C haroratlari  $210 \text{ kg}$  suv quyildi.  $37^{\circ}$  C da issiqlik muvozanati yuzaga kelishi uchun vannaga  $100^{\circ}$  C haroratlari qancha suv solish kerak?

Javob: 90

934.  $50^{\circ}$  C va  $10^{\circ}$  C haroratlari suvlarni aralashtirganda, aralashmaning harorati  $20^{\circ}$  C ga teng bo'lishi uchun sovuqroq suv issiqliq suvdan necha marta ko'p bo'lishi kerak?

Javob: 3

935.  $200 \text{ J}$  sig'imi vanna tayyorlash uchun  $10^{\circ}$  C li sovuq suvni  $60^{\circ}$  C li issiqlik suv bilan aralashtirildi. Vannada  $40^{\circ}$  C harorat o'rnatish uchun necha litr sovuq suv olish kerak?

Javob: 80

936.  $50^{\circ}$  C haroratlari qaynoq jism  $10^{\circ}$  C haroratlari sovuq jism bilan tekkizildi (kontakt). Issiqlik muvozanatiga erishilganda  $20^{\circ}$  C harorat o'rnatilgan. Sovuq jismning issiqlik sig'imi qaynoq jismning issiqlik sig'imidani necha marta katta?

Javob: 3

937.  $100^{\circ}$  C gacha qizdirilgan mis jism massasi o'z massasicha bo'lgan suvgaga tushirildi.  $30^{\circ}$  C haroratda issiqlik muvozanati vujudga kelgan bo'lsa, suvning boshlang'ich haroratini ( $^{\circ}\text{C}$  da) aniqlang. Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ , misning solishtirma issiqlik sig'imi  $360 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ .

Javob: 24

938. Agar 0,6 kg massali qalay 300 K haroratdagı 3 kg massali suvga tushirilganda, suv 2 K ga qızıǵan bolsa, qalayning boshlang'ich haroratını (kelvinda) aniqlang. Qalayning solishtırma issıqlık sig'imi 250 J/(kg · K), suvnıki 4200 J/(kg · K).

Javob: 470

939. 60° C haroratlı 0,1 kg suv idishga solindi, natijada suvning harorati 55° C gacha pasayıdi. Idishning issıqlık sig'imi 70 J/K ga, suvning solishtırma issıqlık sig'imi esa 4200 J/(kg · K) ga teng deb hisoblab, idishning boshlang'ich haroratını ("C da) toping.

Javob: 25

940. 20 g massali suvning haroratını olchash uchun unga termometr tushirildi, va u 32,4° C ni ko'rsatdi. Agar termometrning issıqlık sig'imi 2,1 J/K bolsa, va u suvga solishdan oldin xona harorati 8,4° C ni ko'rsatib turgan bolsa, suvning haqiqiy harorati ("C da) qanday? Suvning solishtırma issıqlık sig'imi 4200 J/(kg · K)

Javob: 33

941. 22° C haroratni ko'rsatib turgan termometr suvga tushirilgandan so'ng 70° C haroratni ko'rsatdi. Termometr tushirilgunga qadar suvning haroçati ("C da) qanchaga teng bo'lgan? Suvning massasi 40 g, suvning solishtırma issıqlık sig'imi 4200 J/(kg · K), termometrning issıqlık sig'imi 7 J/K.

Javob: 72

942. 100° C gacha qizdirilgan jism 10° C haroratlari suvga tushirilgandan so'ng 40° C harorat o'rnatildi. Agar birinchi jismni suvdan chiqarmay turib, yana 100° C gacha qizdirilgan oldingiday jism suvga tushirilsa, suvning harorati ("C da) qanday bo'ladi?

Javob: 55

943. 110° C gacha qizdirilgan jism suvli idishga tushirildi va buning natijasida suvning harorati 20° C dan 30° C gacha ko'tarildi. Agar suvga birinchi jism bilan bir vaqtida 120° C gacha qizdirilgan, xuddi o'shanday boshqa jism ham tushirilganda edi, suvning harorati necha °C bo'lar edi?

Javob: 39

944. Massalari 1, 10 va 5 kg va solishtırma issıqlık sig'ipları mos ravishda 2, 4 va 2 kJ/(kg · K) bo'lgan, kimyoviy ta'sirlashmaydigan, muzlamaydigan uchta suyuqlik kalorimetrdə aralashtiladi. Aralashgunga qadar birinchi va ikkinchi suyuqliklarning haroratlari 6° C va -40° C bo'lgan. Aralashmaning harorati -19° C ga teng bo'ldi. Uchinchi suyuqlikning aralashgungacha bo'lgan haroratini ("C da) toping.

Javob: 60

#### b) Fazaviy o'tishlar

945. 20° C haroratdagı 9 kg suvi bo'lgan idishga 100° C haroratlari, suvga aylanadigan 1 kg bug' kiritiladi. Suvning oxirgi haroratini ("C da) toping. Idishning issıqlık sig'imi va issıqlık yo'qotilishi hisobga olinmasin. Suvning solishtırma issıqlık sig'imi 4200 J/(kg · K), suv bug'lanishining solishtırma issıqligi 2,1 MJ/kg.

Javob: 78

946. 50° C haroratlari suv orqali 100° C haroratlari bug' o'tkazilib, suv qaynash haroratigacha qizdiriladi. Bunda suvning massasi necha foizga ko'payadi? Suvning solishtırma issıqlık sig'imi 4200 J/(kg · K), suv bug'lamshining solishtırma issıqligi 2,1 MJ/kg.

Javob: 10

947. Ikki idishning har birida haroratlari teng bo'lgan 4,18 kg massali suv bor. Birinchi idishga 100° C haroratdagı 0,42 kg suv quyiladi, ikkinchisiga esa 100° C haroratdagı xuddi shuncha suv bug'i kiritiladi. Har bir idishda issıqlık muvozanati o'rnatilgach, bir idishdagı harorat ikkinchisidagiqa qaraganda necha gradusga ko'p bo'ladi? Suvning solishtırma issıqlık sig'imi 4200 J/(kg · K), suv bug'lanishining solishtırma issıqligi 2,3 MJ/kg.

Javob: 50

948.  $20^{\circ}\text{C}$  haroratli  $4,6\text{ kg}$  suvi bo'lgan idishga  $500^{\circ}\text{C}$  gacha qizdirilgan  $10\text{ kg}$  massali po'lat parchasi tashlanadi. Suv  $100^{\circ}\text{C}$  gacha isiydi va uning bir qismi bug'ga aylanadi. Bug'ga aylangan massani ( $\text{g da}$ ) toping. Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200\text{ J}/(\text{kg}\cdot\text{K})$ , suv bug'lanishining solishtirma issiqligi  $2,3\text{ MJ/kg}$ , po'latning solishtirma issiqlik sig'imi  $460\text{ J}/(\text{kg}\cdot\text{K})$ .

Javob: 128

949. Qisman erigan, ya'nı  $0^{\circ}\text{C}$  haroratli qandaydir miqdordagi suvi bo'lgan  $250\text{ g}$  massali qor parchasi  $20^{\circ}\text{C}$  haroratdagi bir litr suvgaga tashlandi. Idishdagi suvning harorati issiqlik muvozanatida  $5^{\circ}\text{C}$  ga teng bo'ldi. Qor parchasidagi suvning miqdorini ( $\text{g da}$ ) aniqlang. Muz erishining solishtirma issiqligi  $330\text{ kJ/kg}$ , suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200\text{ J}/(\text{kg}\cdot\text{K})$ .

Javob: 75

950.  $85\text{ l}$  sig'imi vannani  $80^{\circ}\text{C}$  haroratli suv va  $-20^{\circ}\text{C}$  haroratli muzdan foydalangan holda  $30^{\circ}\text{C}$  haroratga ega bo'lgan suv bilan to'ldirish lozim. Vannaga solish kerak bo'lgan muzning massasini aniqlang. Muz erishining solishtirma issiqligi  $336\text{ kJ/kg}$ , muzning solishtirma issiqlik sig'imi  $2100\text{ J}/(\text{kg}\cdot\text{K})$ , suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200\text{ J}/(\text{kg}\cdot\text{K})$ .

Javob: 25

951.  $100^{\circ}\text{C}$  haroratli  $1\text{ kg}$  bug'ni kondensatsiyalash va hosil bo'lgan suvni  $0^{\circ}\text{C}$  gacha sovutishda ajraladigan issiqlik miqdori harorati  $0^{\circ}\text{C}$  bo'lgan qandaydir massali muzni eritish uchun saflanadi. Erigan muzning massasini aniqlang. Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200\text{ J}/(\text{kg}\cdot\text{K})$ , suv bug'lanishining solishtirma issiqligi  $2,22\text{ MJ/kg}$ , muz erishining solishtirma issiqligi  $330\text{ kJ/kg}$ .

Javob: 8

952.  $2,51\text{ kg}$  muz va  $7,53\text{ kg}$  suvdan iborat bo'lgan  $0^{\circ}\text{C}$  haroratli aralashmani  $100^{\circ}\text{C}$  haroratli bug'ni o'tkazish yordamida  $50^{\circ}\text{C}$  gacha qizdirish kerak. Buning uchun zarur bo'lgan bug' miqdorini ( $\text{g da}$ ) aniqlang. Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200\text{ J}/(\text{kg}\cdot\text{K})$ , suv bug'lanishining solishtirma issiqligi  $2,3\text{ MJ/kg}$ , muz erishining solishtirma issiqligi  $330\text{ kJ/kg}$ .

Javob: 1170

953. Idishda bir xil miqdordagi suv va muz bo'lagi muvozanatda turibdi.  $100^{\circ}\text{C}$  haroratli bug' idish orqali o'tkaziladi. Agar qo'yib yuborilgan bug'ning massasi suvning boshlang'ich massasiga teng bo'sea, idishdagi suvning harorati qanday bo'lishini toping. Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200\text{ J}/(\text{kg}\cdot\text{K})$ , suv bug'lanishining solishtirma issiqligi  $2,3\text{ MJ/kg}$ , muz erishining solishtirma issiqligi  $330\text{ kJ/kg}$ .

Javob: 100

954.  $0^{\circ}\text{C}$  haroratdagi ozroq suvi bo'lgan idishdan havo so'rib olinadi. Bunda  $6,6\text{ g}$  suv bug'lanadi, qolgan qism esa muzlaydi. Hosil bo'lgan muzning massasini ( $\text{g da}$ ) toping.  $0^{\circ}\text{C}$  da suv bug'lanishining solishtirma issiqligi  $2,5\text{ MJ/kg}$  ga teng, muzning erish solishtirma issiqligi  $330\text{ kJ/kg}$ .

Javob: 50

#### Ideal gazning ishi

955. O'zgarmas  $3\text{ kPa}$  bosimda gazning hajmi  $7\text{ l}$  dan  $12\text{ l}$  gacha ortdi. Gaz qanday ish bajargan?

Javob: 15

956. Qo'zg'aluvchan porshenli silindrda gaz  $100\text{ kPa}$  o'zgarmas bosimda kengayib,  $100\text{ kJ}$  ish bajaradi. Bunda gazning hajmi qanday miqdorda o'zgardi?

Javob: 1

957.  $300\text{ kPa}$  bosimdagidagi izobar jarayonda ideal gazning absolyut harorati  $3$  marta ortdi. Agar gaz kengayishda  $18\text{ kJ}$  ish bajargan bo'sea, uning boshlang'ich hajmini ( $\text{l da}$ ) aniqlang.

Javob: 30

958. Haroratning izobar ravishda  $10\text{ K}$  ga ortishida ikki mol gaz qanday ish bajaradi? Universal gaz doimisi  $8300\text{ J}/(\text{kmol}\cdot\text{K})$ .

Javob: 166

959. 2 kg havo izobar qizdirilganda 166 kJ ish bajardi. Havo necha gradusga qizdirilgan? Havonning molar massasi 29 kg/kmol, universal gaz doimisi  $8300 \text{ J}/(\text{kmol} \cdot \text{K})$ .

Javob: 290

960. Teng massali vodorod va kislorod izobar ravishda bir xil gradusga qizdiriladi. Vodorodning molar massasi 2 kg/kmol, kislorodniki 32 kg/kmol. Vodorod bajargan ish kislorod bajargan ishdan necha marta katta?

Javob: 16

961. 0,1 MPa bosimda 6 l hajmi egallagaydigan gaz silindrning porsheni ostida 300 K haroratda turibdi. Gazni siqishda 50 J ga teng ish bajarilishi uchun uni o'zgarmas bosimda necha gradusga sovutish kerak?

Javob: 25

962. Gaz asosining yuzasi  $100 \text{ cm}^2$  bo'lgan silindrda, 300 K haroratda turibdi. Silindr asosidan 30 cm balandlikda 60 kg massali porshen joylashgan. Agar gazning harorati sekinlik bilan  $50^\circ \text{ C}$  ga oshirilsa, kengayishda gaz qanday ish bajaradi? Atmosferik bosim 100 kPa,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 80

963. Silindrdagi porshen ostida porshennenin og'irlik kuchi va atmosferik bosim kuchi yordamida  $0,5 \text{ m}^3$  hajmda saqlab turilgan gaz joylashgan. Agar gaz qizdirilganda uning hajmi 2 marta oshsa, u qanday ish (kJ da) bajaradi? Atmosferik bosim 100 kPa, porshennenin massasi 10 kg, yuzasi esa  $10 \text{ cm}^2$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 100

964. Bir mol gaz izoxor ravishda bosimi 5 marta kamayguncha sovutildi. So'ngra 400 K boshlang'ich haroratgacha izobar qizdirildi. Gaz qanday ish bajargan? Universal gaz doimisi  $8300 \text{ J}/(\text{kmol} \cdot \text{K})$ .

Javob: 2656

965. Besh mol gaz o'zgarmas hajmda bosimi 3 marta ortguncha qizdiriladi. So'ngra haroratni 100 K ga teng bolgan avvalgi miqdorgacha yetkazib, o'zgarmas bosimda siqladi. Gazni siqishda uning ustida qanday ish bajarilgan? Universal gaz doimisi  $8300 \text{ J}/(\text{kmol} \cdot \text{K})$ .

Javob: 8300

966. Bir mol ideal gaz izoxor ravishda bosimi 1,5 marta kamayguncha sovutildi, so'ngra avvalgi haroratgacha izobar qizdirildi. Bunda gaz  $8300 \text{ J}$  ish bajardi. Gazning boshlang'ich haroratini (kelvinda) toping. Universal gaz doimisi  $8300 \text{ J}/(\text{kmol} \cdot \text{K})$ .

Javob: 3000

967. 4 mol miqdordagi ideal gaz shunday kengaytiriladiki, bunda uning bosimi hajmga to'g'ri proporsional o'zgaradi. Gazning harorati  $10 \text{ K}$  ga oshirilganda uning bajargan ishi qanchaga teng bo'ladi? Universal gaz doimisi  $8300 \text{ J}/(\text{kmol} \cdot \text{K})$ .

Javob: 166

968. 10 kg massali ideal gazning harorati  $T = \alpha V^3$  ( $\alpha = 2 \text{ K/m}^6$ ) qonun bo'yicha o'zgaradi. Hajm  $2 \text{ l}$  dan  $4 \text{ l}$  gacha oshganda gaz qanday ish (mJ da) bajaradi? Gazning molar massasi  $12 \text{ kg/kmol}$ , universal gaz doimisi  $8300 \text{ J}/(\text{kmol} \cdot \text{K})$ .

Javob: 83

969. 2 mol miqdordagi ideal gaz  $400 \text{ K}$  haroratda turibdi. Gazning hajmi ikki martaga shunday orttiriladiki, bosim hajmga chiziqli bog'liq bo'ladi (ya'ni, chiziqli o'zgaradi). Agar gazning oxirgi harorati boshlang'ich haroratiga teng bo'lsa, shu jarayonda gazning ishini toping. Universal gaz doimisi  $8300 \text{ J}/(\text{kmol} \cdot \text{K})$ .

Javob: 4980

970. 2 mol miqdordagi ideal gaz  $300 \text{ K}$  haroratda turibdi. Gazning hajmi  $1,5$  martaga shunday orttiriladiki, bunda bosim hajmga chiziqli bog'liq bo'ladi va  $40\%$  ga ortadi. Shu jarayonda gazning ishini toping. Universal gaz doimisi  $8,3 \text{ J}/(\text{mol} \cdot \text{K})$ .

**Javob:** 2988

971. 2 mol miqdordagi ideal gaz 300 K haroratda turibdi. Gazning hajmi 2 martaga shunday orttiriladi, bunda bosim hajmga chiziqli hog'liq bo'ladi, keyin esa gaz dastlabki hajmgacha izobar siqiladi. Agar oxirgi bosim boshlang'ich bosimdan 20 % ga kam bo'lsa, shu ikki jarayonda gaz qanday ish bajargan? Universal gaz doimiysi  $8300 \text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ .

**Javob:** 498

**Termodinamikaning birinchi qonuni. Ideal gazning ichki energiyasi**

972. Gaz qizdirilganda uning ichki energiyasi 300 J dan 700 J gacha ortdi. Agar gazni qizdirish uchun 1000 J issiqlik sarflangan bo'lsa, gaz qanday ish bajargan?

**Javob:** 600

973. Gaz izoxor qizdirilganda uning ichki energiyasi 200 J dan 300 J gacha ortdi. Gazni qizdirish uchun qanday miqdordagi issiqlik sarflangan?

**Javob:** 100

974. Izobar kengayishda gaz 100 J ish bajardi, va bunda uning ichki energiyasi 150 J ga ortdi. So'ngra gazga izoxor jarayonda birinchi jarayonda berilgani kabi issiqlik miqdori berildi. Gazning ichki energiyasi bu ikki jarayon natijasida qanchaga ortgan?

**Javob:** 400

975. Izotermik jarayonda gaz 1000 J ish bajardi. Agar shu gazga birinchi jarayondagiga qaraganda ikki baravar ko'p issiqlik miqdori berib, jarayonni izoxor tarzda o'tkazilsa, gazning ichki energiyasi qanchaga ortadi?

**Javob:** 2000

976. Gaz izotermik jarayonda 200 J issiqlik oldi. Shundan so'ng adiabatik jarajonda gaz birinchi jarayondagiga qaraganda ikki marta ko'p ish bajardi. Shu ikki jarayonda gazning ichki energiyasi qanchaga kamaygan?

**Javob:** 400

977. Izobar qizdirishda gazga 16 J issiqlik berildi, natijada gazning ichki energiyasi 8 J ga, hajmi esa  $0,002 \text{ m}^3$  ga ortdi. Gazning bosimini ( $\text{kPa da}$ ) toping.

**Javob:** 4

978. Ideal gazni  $0,1 \text{ MPa}$  o'zgarmas bosimda qizdirishda 700 J issiqlik sarflandi. Natijada gazning hajmi  $0,001 \text{ m}^3$  dan  $0,002 \text{ m}^3$  gacha ortdi, ichki energiyasi esa 800 J ga teng bo'ldi. Gazning dastlabki ichki energiyasi qancha bo'lgan?

**Javob:** 200

979. Agar  $0,5 \text{ mol}$  gazga  $290 \text{ J}$  issiqlik miqdori berilib, haroratini izobar ravishda  $27^\circ \text{C}$  dan  $47^\circ \text{C}$  gacha oshirilsa, uning ichki energiyasi qanchaga o'zgaradi? Universal gaz doimiysi  $8300 \text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ .

**Javob:** 207

980. Bir mol ideal gazning ichki energiyasi o'zgarmas bosimda  $747 \text{ J}$  ga oshsa, uning harorati necha gradusga ortadi? O'zgarmas bosimda bir mol miqdorning issiqlik sig'imi universal gaz doimiyisidan  $20,75 \text{ J/(mol} \cdot \text{K)}$  ga katta.

**Javob:** 36

981. Bir mol ideal gaz o'zgarmas bosimda isitiladi. so'ngra o'zgarmas hajmda dastlabki haroratga teng bo'lgan  $300 \text{ K}$  haroratlari holatga o'tkaziladi. Bunda gazga hammasi bo'lib  $12,45 \text{ kJ}$  issiqli herildi. Gaz egallagan hajm necha marta o'zgargan? Universal gaz doimiysi  $8300 \text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ .

**Javob:** 6

982. Molar massasi  $28 \text{ g/mol}$  bo'lgan ma'lum miqdordagi ideal gazni o'zgarmas bosimda  $14 \text{ K}$  ga qizdirish uchun  $29 \text{ J}$  issiqlik sarf etildi. Shu gazni o'zgarmas hajmda dastlabki haroratigacha sovutish uchun undan  $20,7 \text{ J}$  issiqliknini olinishi kerak. Gazning massasini ( $\text{g da}$ ) toping. Universal gaz doimiysi  $8300 \text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ .

**Javob:** 2

983. Ma'lum massali ideal gaz o'zgarmas bosimda 5 kJ issiqlik olib,  $15^{\circ}\text{C}$  dan  $65^{\circ}\text{C}$  gacha qiziydi. Shu gazni o'zgarmas hajmda, o'sha boshlang'ich va oxirgi haroratlar farqida qizdirish uchun 3,5 kJ issiqlik sarflanadi. Shu gaz massasining  $15^{\circ}\text{C}$  harorat va 20 kPa bosimdagи hajmini (*J da*) aniqlang.

Javob: 432

**Bir atomli ideal gaz**

984. 2 mol miqdordagi bir atomli ideal gazning haroratini 10 K ga oshirish uchun unga o'zgarmas hajmda qanday miqdorda issiqlik berish kerak? Universal gaz doimiysi 8300 J/(kmol · K).

Javob: 249

985. 2 kg geliyning adiabatik kengayishida gaz 49,8 kJ ish bajardi. Bunda uning harorati necha gradusga kamaydi? Geliyning molyar massasi 4 g/mol, universal gaz doimiysi 8300 J/(kmol · K).

Javob: 8

986. 4 mol miqdordagi bir atomli ideal gazning haroratini 6 K ga oshirish uchun unga o'zgarmas bosimda qancha issiqlik miqdori berish kerak? Universal gaz doimiysi 8300 J/(kmol · K).

Javob: 498

987. Geliyning izobar kengayishida gaz 300 J issiqlik olgan. Agar gazning bosimi 20 kPa bo'lsa, uning hajmi o'zgarishini (*J da*) toping.

Javob: 6

988. Agar bir atomli gazni izoxorik qizdirishda uning bosimi 30 kPa ga oshgan, hajmi esa 5 *J* ga teng bo'lsa, gaz ichki energiyasining o'zgarishini toping.

Javob: 225

989. Izobar kengayishda bir atomli ideal gaz 100 J issiqlik oldi. Bunda u qanday ish bajargan?

Javob: 40

990. Ma'lum miqdordagi bir atomli ideal gaz izobar qizdirilganda 10 J issiqlik oladi. Bu gaz boshlang'ich haroratgacha adiabatik soviganda qanday ish bajaradi?

Javob: 6

991. Bir atomli ideal gaz izobar siqilganda uning ustida 80 J ish bajarildi. Bunda gazning ichki energiyasi qanchaga kamaygan?

Javob: 120

992. Bir atomli ideal gaz izobar qizdirilganda olgan issiqlikning qanday qismi (tozlarda) uning ichki energiyasini oshirishga sarflanadi?

Javob: 60

993. Ma'lum miqdordagi bir atomli ideal gazga 150 J issiqlik berib izoxor ravishda qizdirildi. So'ngra u dastlabki haroratgacha izobar sovutildi. Izobar sovutishda gazdan qancha issiqlik olingan?

Javob: 250

994. 1 mol miqdordagi bir atomli ideal gaz dastlab izoxor, so'ngra izobar ravishda qizdirildi. Natijada gazning bosimi ham, hajmi ham ikki marta ortdi. Agar gazning boshlang'ich harorati 100 K bolgan bo'lsa, shu ikki jarayonda gaz qanday miqdorda issiqlik olgan? Universal gaz doimiysi 8300 J/(kmol · K).

Javob: 5395

995. 1 mol miqdordagi bir atomli ideal gaz dastlab izobar, so'ngra izoxor ravishda qizdirildi. Natijada gazning bosimi ham, hajmi ham ikki marta ortdi. Agar gazning boshlang'ich harorati 100 K bolgan bo'lsa, shu ikki jarayonda gaz qanday miqdorda issiqlik olgan? Universal gaz doimiysi 8300 J/(kmol · K).

Javob: 4565

**996.** Bir mol miqdordagi bir atomli ideal gazning bosimi hajmga to'g'ri proporsional holda ortmoqda. Gaz qanday miqdorda issiqlik olganda uning harorati 20 K ga ortadi? Universal gaz doimisi  $8300 \text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ .

Javob: 332

**997.** 2 mol miqdordagi bir atomli ideal gaz 300 K haroratda turibdi. Gazning hajmi 1,5 martaga shunday oshiriladiki, bunda bosim hajmga chiziqli bog'liq bo'lib 20 % ga ortadi. Gaz qanday miqdorda issiqlik olgan? Universal gaz doimisi  $8300 \text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ .

Javob: 8715

**998.** 1 mol miqdordagi bir atomli ideal gaz 200 K haroratda turibdi. Gazning hajmi 1,5 martaga shunday oshiriladiki, bunda bosim hajmga chiziqli bog'liq bo'lib 2 marta ortadi, so'ngra gaz boshlang'ich bosimgacha izoxor ravishda sovutiladi. Gaz ikki jarayonda qanday miqdorda issiqlik olgan? Universal gaz doimisi  $8300 \text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ .

Javob: 2490

**999.** 2 mol miqdordagi bir atomli ideal gaz 250 K haroratda turibdi. Gazning hajmi 2 martaga shunday oshiriladiki, bunda bosim hajmga chiziqli bog'lanadi, keyin esa gaz avvalgi hajmigacha izobar holda siqladi. Agar oxirgi bosim boshlang'ich bosimidan 40 % ga ko'p bo'lsa, ikkala jarayonda gaz qanday miqdorda issiqlik olgan? Universal gaz doimisi  $8300 \text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ .

Javob: 1660

**1000.** 2 mol miqdordagi bir atomli ideal gaz 350 K haroratda turibdi. Gazning hajmi izobar ravishda 2 marta oshirilib, so'ngra dastlabki qiymatiga shunday yetkaziladiki, bunda bosim hajmga chiziqli bog'liq bo'ladi. Agar oxirgi bosim boshlang'ichidan 10 % ga ko'p bo'lsa, ikkala jarayonda gaz qanday miqdorda issiqlik olgan? Universal gaz doimisi  $8300 \text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ .

Javob: 581

**1001.** Kranli yupqa trubka yordamida ulangan, teploizolyatsiyalangan ikki idishda mos ravishda 300 K va 400 K haroratda 2 mol va 3 mol miqdorda geliy bor. Kran ochilib, issiqlik muvozanati yuzaga kelganidan keyin harorat (kelvinda) qanday bo'ladi?

Javob: 360

**1002.** Bir xil hajmli, teploizolyatsiyalangan ikki idish kranli yupqa trubka yordamida ulangan. Bir idishda 200 K haroratda, boshqasuda esa 400 K haroratda va birinchidagi qaraganda 3 marta katta bosim ostida turgan geliy bor. Kran ochilib, issiqlik muvozanati yuzaga kelganidan so'ng gazning harorati (kelvinda) qanday bo'ladi?

Javob: 320

**1003.** Kranli mayin trubka yordamida ulangan, 2 / va 5 / hajmli teploizolyatsiyalangan ikki idishda mos ravishda 30 kPa va 16 kPa bosim ostida turgan, turli xil haroratlari geliy bor. Kran ochilib, issiqlik muvozanati yuzaga kelgach bosim (kPa da) qanday bo'ladi?

Javob: 20

**1004.** 4 / hajmli, gorizontal holatdagi, teploizolyatsiyalangan silindr issiqlik o'tkazmaydigan porshen yordamida ikki qismiga bo'lingan. Porshenning har ikki tomonida 50 kPa bosim ostidagi bir atomli ideal gaz joylashgan. Gaz qismlaridan biriga 30 J issiqlik beriladi. Idishdag'i hosim (kPa da) qanday bo'ladi?

Javob: 55

**1005.** Teploizolyatsiyalangan baland silindrning porsheni ostida geliy bor. Porshenga turki bilan 2 m/s tezlik beriladi. Sistema muvozanat holatiga kelgandan so'ng porshen dastlabki vaziyatidan qancha balandda (cm da) bo'ladi? Porshen ustida gaz yo'q.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 8

**1006.** Teploizolyatsiyalangan vertikal silindrning porsheni ostida ma'lum miqdordagi geliy 240 K haroratda turibdi. Porshen massasining yarmiga teng bo'lgan yuk porshen ustida yetibdi. Yuk bir zumda olib tashlanadi va sistemaning muvozanatiga kelishi kutiladi. Gazning harorati (kelvinda) qanchaga teng bo'ladi? Porshenning ustida gaz yo'q.

Javob: 208

**1007.** Teploizolyatsiyalangan vertikal silindrning porsheni ostida ma'lum miqdordagi gelij 200 K haroratda turibdi. Massasi porshen massasining yarmiga teng bo'lgan yuk avval porshennenning tepasida uning sirtiga tekkizib ushlab turiladi, keyin esa qo'yib yuboriladi. Muvozanat yuzaga kelgandan so'ng gazning harorati (K da) qanday bo'ladi? Porshennenning ustida gaz yo'q.

Javob: 240

**1008.** Teploizolyatsiyalangan vertikal silindrning porsheni ostida ma'lum miqdorda gelij bor. Porshennenning ustida porshen massasiga teng massali yuk turibdi. Yuk bir zumda olib tashlanadi va sistemaning muvozanatga kelishi kutiladi. Porshennenning balandligi (asosdan) necha foizga ortadi? Porshen ustida gaz yo'q.

Javob: 60

**1009.** Teploizolyatsiyalangan vertikal silindrning vaznsiz porsheni ostida bir atomli ideal gaz 300 K haroratda turibdi. Dastlab porshen mahkamlangan va deformatsiyalangan prujina yordamida silindrning tubi bilan ulangan. Porshen bo'shatilib, sistema muvozanatga kelgandan so'ng gaz hajmi boshlang'ich hajmdan 1,5 marta katta bo'ldi. Gazning oxirgi haroratini (Kelvin shkalasi bo'yicha) toping. Porshennenning ustida gaz yo'q.

Javob: 270

**1010.** Teploizolyatsiyalangan vertikal silindrning vaznsiz porsheni ostida bir atomli ideal gaz bor. Dastlab porshen mahkamlangan va deformatsiyalangan prujina yordamida silindrning tubi bilan ulangan. Porshen bo'shatilib, sistema muvozanatga kelgandan so'ng gazning hajmi 4 marta ortdi. Bosim necha marta kamaygan? Porshen ustida gaz yo'q.

Javob: 5

#### **Sikllar. Issiqlik mashinalari**

**1011.** Gaz yopiq sikel bajarib, isitgichdan 420 J issiqlik oldi. Agar siklning FIK 10% bo'lsa, gaz qanday ish bajargan?

Javob: 42

**1012.** Issiqlik mashinasasi 200 J ish bajaradi, bundasovutgichga 300 J energiya uzatiladi. Issiqlik mashinasining FIK ni (foizlarda) aniqlang.

Javob: 40

**1013.** Issiqlik mashinasining FIK 50%. Agar bir sikel mobaynidasovutgichga 700 J issiqlik uzatilsa, mashina qanday ish bajaradi?

Javob: 700

**1014.** Karno sikli bo'yicha ishlaydigan ideal issiqlik mashinasining FIK 25% ga teng. Agarsovutgichning harorati  $27^{\circ}$  C bo'lsa, isitgichning harorati ("C da) qanday?

Javob: 127

**1015.** Ideal issiqlik mashinasasi isitgichdan olingan issiqlikning 80% inisovutgichga uzatadi. Agarsovutgichning harorati 248 K bo'lsa, isitgichning haroratini (K da) toping.

Javob: 310

**1016.** Karno sikli bo'yicha ishlaydigan ideal issiqlik mashinasining FIK 80% ga teng. Isitgichning absolyut haroratisovutgichning absolyut haroratidan necha marta katta?

Javob: 5

**1017.** Ideal gaz Karno sikli bo'yicha ishlaydi. Isitgichning absolyut harorati 400 K,sovutgichniki 300 K. Agar isitgichning absolyut harorati 200 K ga oshirilsa, siklning FIK necha marta ortadi?

Javob: 2

**1018.** Ideal gaz Karno siklini bajaradi. Isitgichning absolyut haroratisovutgichning absolyut haroratidan 4 marta katta. Sovutgichga beriladigan issiqlik ulushini (foizlarda) aniqlang.

Javob: 25

**1019.** Karno sikli bo'yicha ishlaydigan ideal issiqlik mashinasasi bir sikel davomida 100 J ish bajaradi. Isitgichning harorati  $100^{\circ}$  C,sovutgichning harorati  $0^{\circ}$  C. Bir sikel mobaynidasovutgichga beriladigan issiqlik miqdorini aniqlang.

Javob: 273

**1020.** Karko sikli bo'yicha ishlaydigan ideal issiqlik mashinasining ishchi jismi  $273^{\circ} \text{C}$  harorati isitgichdan  $80 \text{ kJ}$  issiqlik miqdori oladi. Sovutgich vazifasini  $0^{\circ} \text{C}$  harorati atrofdagi havo bajaradi. Bu mashina bir sikel davomida  $400 \text{ kg}$  massali yukni qanday maksimal balandlikka ko'tara oladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 10

**1021.** Ideal issiqlik mashinasining ishlashi natijasida olingan butun mehanik ishning  $80\%$  i  $1000 \text{ kN}$  og'irlikdagi yukni  $6 \text{ m}$  balandlikka ko'tarishga ketdi. Bu mashinaning isitgichi va sovutgichi haroratlari orasidagi farq  $125 \text{ K}$  ga, isitgichdan olingan issiqlik miqdorining uning absolyut haroratiga nisbati esa  $300 \text{ J/K}$  ga teng. Yukni ko'tarishda nechta sikel bajarilgan?

Javob: 200

**1022.** Ikki mol gaz  $400 \text{ K}$  dan  $800 \text{ K}$  gacha izobar holda qizdiriladi, keyin  $500 \text{ K}$  gacha izoxor ravishda sovutiladi. So'ngra gazning hajmi dastlabki qiymatga erishgunga qadar gaz izobar ravishda sovutiladi. Va nihoyat, gaz  $400 \text{ K}$  gacha izoxor holda qizdiriladi. Bu siklda gazning bajargan ishini toping. Universal gaz doimiysi  $8300 \text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ .

Javob: 2490

**1023.** Bir atomli ideal gaz ikkita izoxor va ikkita izobar jarayonlardan iborat yopiq sikel bajaradi. Izoxor qizdirishda bosim 2 marta ortadi, izobar qizdirishda esa hajm  $70\%$  ga ortadi. Siklning FIK ni (foizlarda) toping.

Javob: 14

**1024.** Bir atomli ideal gaz quyidagi siklni bajaradi: bosim  $40\%$  ga ortadigan izoxor qizdirilish; keyin izobar kengayishi; va nihoyat, bosim hajmga to'g'ri proporsional holda o'zgaradigan jarayonda dastlabki holatga qaytish. Siklning FIK ni (foizlarda) toping.

Javob: 4

**1025.** Bir atomli ideal gaz quyidagi siklni bajaradi: bosim 4 marta kamayadigan izoxor sovutlish; keyin izobar sifilish; va nihoyat, bosim hajmga to'g'ri proporsional holda o'zgaradigan jarayonda dastlabki holatga qaytish. Siklning FIK ni (foizlarda) toping.

Javob: 15

**1026.** Bir atomli ideal gaz quyidagi siklni bajaradi: bosim 4 marta oshadigan izoxor qizdirilish; hajm  $30\%$  ga ortadigan izobar qizdirilish; va bosim hajmga chiziqli bog'langan jarayonda dastlabki holatga qaytish. Siklning FIK ni (foizlarda) toping.

Javob: 6

**1027.** Bir atomli ideal gazning bosimi izoxor ravishda 4 marta oshiriladi, keyin gazning hajmi  $2,5$  martaga shunday orttiriladi, bunda bosim hajmga chiziqli bog'liq boladi va 2 marta ortadi, so'ngra bosim hajmga chiziqli bog'langan jarayonda gaz dastlabki holatiga qaytariladi. Shunday siklning FIK ni (foizlarda) toping.

Javob: 6

**1028.** Teskari Karko sikli bo'yicha ishlaydigan ideal sovutgich mashina  $0^{\circ} \text{C}$  haroratda eriydigan muzdan sovutgich sifatida,  $100^{\circ} \text{C}$  da qaynaydigan suvdan isitgich sifatida foydalanadi. Tarmoqdan  $25 \text{ kJ}$  energiya olinganda qanday massali muz (g da) hosil boladi? Muz erishining solishtirma issiqligi  $325 \text{ kJ/kg}$ .

Javob: 210

**1029.** Teskari Karko sikli bo'yicha ishlaydigan ideal sovutgich mashmadan  $0^{\circ} \text{C}$  dagi suvni muzlatish uchun foydalanildi. Issiqlik harorati  $27^{\circ} \text{C}$  bo'lgan atrofdagi havoga beriladi. Agar sovutgich mashina tarmoqdan  $25 \text{ W}$  quvvat isto'mol qilsa,  $420 \text{ g}$  suvni muzga aylantirish uchun necha minut sarflanadi? Muz erishining solishtirma issiqligi  $325 \text{ kJ/kg}$ .

Javob: 9

#### Bug'larning xossalari. Namlik

**1030.**  $10 \text{ l}$  hajmli bir idishda nisbiy namligi  $40\%$  bo'lgan havo,  $30 \text{ l}$  hajmli boshqa bir idishda esa o'sha haroratda, lekin nisbiy namlik  $60\%$  bo'lgan havo bor. Idishlar kranli yupqa trubka yordamida ulangan. Kran ochilgandan so'ng nisbiy hamlik (foizlarda) qanday bo'ladi?

Javob: 55

**1031.** Hajmi  $50 \text{ m}^3$  bo'lgan xonada  $20^\circ \text{C}$  haroratda namlikni 20% ga oshirish uchun ( $\varphi_2 - \varphi_1 = 0,2$ ) 180 g suvni bug'lantirish kerak bo'ldi. To'yigan suv bug'larining  $20^\circ \text{C}$  haroratdagi zichligini ( $\text{g/m}^3$  da) toping.

Javob: 18

**1032.**  $49,8 \text{ m}^3$  hajmli xona ichida  $27^\circ \text{C}$  haroratda nisbiy namlikni 25% dan 50% gacha ko'tarish uchun qo'shimcha ravishda qanday massali suvni (g da) bug'lantirish kerak? To'yigan suv bug'larining bosimi  $27^\circ \text{C}$  haroratda 3,6 kPa ga teng, suvning molyar massasi 18 g/mol, universal gaz doimisi  $8300 \text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ .

Javob: 324

**1033.** Hajmi  $33,2 \text{ m}^3$  bo'lgan yopiq issiqxonada kunduzi  $27^\circ \text{C}$  haroratda nisbiy namlik 75% ga teng bo'lgan. Tunda harorat  $15^\circ \text{C}$  gacha pasayganda issiqxonada qanday massali shudring (g da) tushadi? To'yigan suv bug'larining bosimi  $27^\circ \text{C}$  haroratda 3,6 kPa ga,  $15^\circ \text{C}$  haroratda 1,7 kPa ga teng. Suvning molyar massasi 18 g/mol, universal gaz doimisi  $8300 \text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ .

Javob: 223

**1034.** Hajmi  $33,2 \text{ m}^3$  bo'lgan yopiq issiqxonada tunda  $15^\circ \text{C}$  haroratda nisbiy namlik 92% ga teng bo'lgan. Kunduzi harorat  $27^\circ \text{C}$  gacha ko'tarilganda nisbiy namlik 75% dan kamaymasligi uchun issiqxonada qo'shimcha ravishda qanday massali suvni (g da) bug'lantirish kerak? To'yigan suv bug'larining bosimi  $15^\circ \text{C}$  haroratda 1,7 kPa ga,  $27^\circ \text{C}$  haroratda 3,6 kPa ga teng. Suvning molyar massasi 18 g/mol, universal gaz doimisi  $8300 \text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ .

Javob: 257

**1035.** Idishda  $100^\circ \text{C}$  haroratda nisbiy namligi 40% bo'lgan nam havo 1 atm bosim ostida turibdi. Idishning hajmi izotermik ravishda 5 marta kamaytirildi. Oxirgi bosim (atm da) qanchaga teng bo'ladi? Kondensatsiyalanadigan suvning hajmi inobatga olinmasin.

Javob: 4

**1036.** Idishda  $100^\circ \text{C}$  harorat ya 1 atm bosim ostida nam havo turibdi. Hajim izotermik ravishda 4 marta kamaytirilganidan so'ng bosun 3,8 marta ortdi. Boshlang'ich holatda nisbiy namlik (foizlarda) qanchaga teng bo'lgan? Kondensatsiyalanadigan suvning hajmi inobatga olinmasin.

Javob: 30

**1037.** Idishda  $100^\circ \text{C}$  haroratda nisbiy namligi 90% bo'lgan nam havo 1 atm bosim ostida turibdi. Idishning hajmi izotermik ravishda 2 marta kamaytirildi. Xuddi shunday yakuniy bosimga ega bo'lish uchun buning or'niiga absolyut haroratni necha foizga oshirish kerak? Kondensatsiyalanadigan suvning hajmi inobatga olinmasin.

Javob: 20

**1038.**  $10 \text{ l}$  hajmli idishda 1 atm bosim ostida, nisbiy namligi 40% bo'lgan nam havo turibdi. Agar idishga qo'shimcha ravishda 4 g suv kiritilsa, bosim necha foizga ortadi? Idishda  $100^\circ \text{C}$  harorat saqlab turiladi. Suvning molyar massasi 18 g/mol. Universal gaz doimisi  $8,31 \text{ J/(mol} \cdot \text{K)}$ .

Javob: 60

**1039.**  $10 \text{ l}$  hajmli idishda 1 atm bosim ostida, nisbiy namligi 60% bo'lgan nam havo turibdi. Agar idishga qo'shimcha ravishda 10 g suv kiritilsa va uning hajmi ikki marta oshirilsa, bosim necha foizga ortadi? Idishda  $100^\circ \text{C}$  harorat saqlab turiladi. Universal gaz doimisi  $8,31 \text{ J/(mol} \cdot \text{K)}$ .

Javob: 20

**1040.** Elektr plitkada qaynayotgan suvi bo'lgan choynak turibdi. Teshigining yuzasi  $3,73 \text{ cm}^2$  bo'lgan choynakning jo'mragidan  $0,83 \text{ m/s}$  tezlik bilan bug' chiqyapti. Suvning bug'ga aylanishining solishtirma issiqligi  $100^\circ \text{C}$  da  $2,2 \text{ MJ/kg}$  ga teng. Hosil bo'layotgan hamma bug' choynakning jo'mragi orqali chiqadi deb hisoblab, plitkaning foydali quvvatini toping. Atmosferik bosim  $100 \text{ kPa}$ , suvning molyar massasi 18 g/mol, universal gaz doimisi  $8300 \text{ J/(kmol} \cdot \text{K)}$ .

**Javob:** 396

### **Sirt taranglik**

1041. Glitserin yuza qatlamining 5 mm uzunlikdagi chegarasiga 0,1 mN sirt taranglik kuchi ta'sir qiladi. Glitserining sirt taranglik koefitsiyentini ( $\text{mN/m da}$ ) toping.

**Javob:** 20

1042. Simobning erkin yuzasini  $5 \text{ cm}^2$  ga kattalashtirish uchun qanday ish ( $\text{mkJ da}$ ) bajarish kerak? Simobning sirt taranglik koefitsiyenti  $0,56 \text{ N/m}$ .

**Javob:** 280

1043. Agar kapillyar nay ichida spirt  $4,6 \text{ cm}$  balandlikka ko'tarilgan bo'lsa, uning ichki diametrini ( $\text{mm da}$ ) aniqlang. Spirt nay devorlarini to'liq ho'llaydi. Spirtning sirt taranglik koefitsiyenti  $23 \text{ mN/m}$ , zichligi  $800 \text{ kg/m}^3$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 250

1044. Bir xil kapillyar naylarda suv  $144 \text{ mm}$  ga, spirt esa  $55 \text{ mm}$  ga ko'tarildi. Ho'llash to'liq bo'lgan deb hisoblab, shu berilganlar bo'yicha spirtning zichligini toping. Suvning sirt taranglik koefitsiyenti  $72 \text{ mN/m}$ , spirtniki  $22 \text{ mN/m}$ .

**Javob:** 800

1045. Suv kapillyar nay ichida  $27,2 \text{ mm}$  ga ko'tarildi. Xuddi shu nayda simob necha millimetrga tushadi? Suvning sirt taranglik koefitsiyenti  $0,07 \text{ N/m}$ , simobniki  $0,56 \text{ N/m}$ . Simobning zichligi  $13600 \text{ kg/m}^3$ . Suv nayni to'liq ho'llaydi, simob esa to'liq ho'llamaydi.

**Javob:** 16

1046. Suv Yerda kapillyar nay ichida  $12 \text{ mm}$  ga ko'tarildi. Suv xuddi shunday kapillyar nay ichida erkin tushish tezlanishi 6 marta kichik bo'lgan Oyda qanday balandlikka ( $\text{mm da}$ ) ko'tariladi?

**Javob:** 72

1047. Qandaydir sayyorada suv kapillyar nay bo'ylab  $8 \text{ mm}$  ga, Yerda esa xuddi o'sha nay bo'ylab  $12 \text{ mm}$  ga ko'tariladi. Bu sayyoradagi erkin tushish tezlanishi qanchaga teng?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 15

1048. Suv kapillyar nayda  $18 \text{ mm}$  ga ko'tarildi. Agar idish  $2 \text{ m/s}^2$  tezlanish bilan ko'tarilsa, bu naydagisi suvning kapillyar ustunining balandligi ( $\text{mm da}$ ) qanchaga teng bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 15

1049. Tutash idishlar  $0,6 \text{ mm}$  va  $0,1 \text{ mm}$  diametrali kapillyar naylardan iborat. Bu naylardagi suv sathlarining farqini ( $\text{cm da}$ ) toping. Suvning sirt taranglik koefitsiyenti  $72 \text{ mN/m}$ .  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob:** 24

1050. Simobli idishga tushirilgan kapillyar nay ichidagi sath idishdagiga qaraganda  $15 \text{ mm}$  ga pastroq. Idishga simobning ustidan suv quyiladi, buning natijasida simoblarning sathlari tenglashadi. Suv qatlamining balandligini ( $\text{mm da}$ ) toping. Simobning zichligi suvning zichlididan  $13,6$  marta katta.

**Javob:** 204

### **9. ELEKTROSTATIKA**

#### **Kulon qonuni. Superpozitsiya prinsipi**

1051. Ikkita nuqtaviy zaryad  $8 \text{ mN}$  kuch bilan o'zaro ta'sirlashadi. Agar zaryadlar orasidagi masofani o'zgartirmay, har bir zaryadning miqdori 2 marta orttirilsa, ular orasidagi o'zaro ta'sir kuchi ( $\text{mN da}$ ) qanday bo'ladi?

**Javob:** 32

1052. Zaryadlardan bir 4 marta orttirilganda o'zaro ta'sir kuchi avvalgidek qolishi uchun nuqtaviy zaryadlar orasidagi masofani necha marta oshirish kerak?

**Javob:** 2

**1053.** Ikki nuqtaviy zaryad vakuumda bir-biridan 0,03 m masofada joylashgan. Agar ularni suyuq dielektrik ichiga joylashtirib, oralaridagi masofa 3 cm ga oshirilsa, zaryadlarning o'zaro ta'sir kuchi 8 marta kamayadi. Dielektrikning dielektrik singdiruvchanligini toping.

Javob: 2

**1054.** 1 mkC nuqtaviy zaryad 10 cm uzoqda joylashgan ikkinchi zaryad bilan kerosin ichida ( $\epsilon = 2$ ) 1,8 N kuch bilan o'zaro ta'sirlashadi. Ikkinchi zaryadning miqdori (mkC da) qanday? Kulon qonunidagi koefitsiyent –  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 4

**1055.** Ikkita nuqtaviy zaryad dielektrik ichida 5 cm masofada qanday kuch bilan ta'sirlashsa, vakuumda 10 cm masofada shunday kuch bilan o'zaro ta'sirlashadi. Dielektrikning dielektrik singdiruvchanligini aniqlang.

Javob: 4

**1056.** Ikkita nuqtaviy zaryad vakuumda 5 cm masofada 120 mkN kuch bilan, suyuq dielektrikda esa 10 cm masofada 15 mkN kuch bilan o'zaro ta'sirlashadi. Dielektrikning dielektrik singdiruvchanligini toping.

Javob: 2

**1057.** Ikkita bir xildagi kichkina metall sharcha bir-biridan 1 m masofada joylashgan. Bir sharchanining zaryadi boshqasining zaryadidan 4 marta katta. Sharchalar bir-biriga tekkizilib, qandaydir masofaga ajratib qo'yildi. Agar sharchalarning o'zaro ta'sir kuchi avvalgiday qolgan bo'lsa, shu masofani (cm da) toping.

Javob: 125

**1058.** O'lcham bo'yicha bir xil bo'lgan ikki metall sharcha 7 mkC va -3 mkC zaryadga ega. Sharchalar bir-biriga tekkizilib, qandaydir masofaga ajratib qo'yilganda ularning ta'sirlashish kuchi 40 N ga teng bo'lib qoldi. Shu masofani (cm da) aniqlang. Kulon qonunidagi koefitsiyent –  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 3

**1059.** Ikkita bir xil, 50 nC va 10 nC zaryadlarga ega bo'lgan, o'tkazuvchan sharchalar bir-biridan qandaydir masofada joylashgan. Ular bir-biriga tekkiziladi va avvalgi masofaga ajratib qo'yiladi. Natijada o'zaro ta'sir kuchi necha foizga ortadi?

Javob: 80

**1060.** 90 g massali sharcha zaryad o'tkazmaydigan ipga osilgan va 10 nC zaryadga ega. Sharchanining ostida undan 10 cm masofada boshqa ishorali nuqtaviy zaryad joylashtirilgach, 10 m/s速度的 tarangligi ikki marta ortdi. Shu zaryadning miqdorini (nC da) toping.  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 100

**1061.** Ikkita bir xil sharcha bir nuqtada mahkamlangan bir xil uzunlikdagi o'tkazmas iplarga osilgan. Sharchalar bir nomli zaryadlar bilan zaryadlangan va bir-birini itarib, qandaydir burchakka ajralishdi. Agar sharchalar zichligi  $800 \text{ kg/m}^3$  va dielektrik singdiruvchanligi 9 bo'lgan suyuqlikka tushirilganda, iplar orasidagi burchak o'zgarmasa, sharchalar materialining zichligini toping.

Javob: 900

**1062.** O'lchami va massasi bir xil bo'lgan, bir xil zaryadlangan bir nechta sharcha bitta nuqtada mahkamlangan, uzunliklari teng bo'lgan iplarga osilgan. Sharchalar suyuq dielektrikka tushirilganda, iplarning vertikaldan og'ishi havoda ham, dielektrikda ham bir xil bo'lishi qayd etildi. Agar dielektrikning zichligi sharchalar materialining zichligidan 1,25 marta kichik bo'lsa, dielektrikning dielektrik singdiruvchanligini toping.

Javob: 5

**1063.** Har birining massasi 80 g dan bo'lgan ikkita bir xildagi kichkina sharcha 30 cm uzunlikdagi iplar orqali bir nuqtaga osib qo'yilgan. Iplar o'zaro to'g'ri burchak hosil qilishi uchun har bir sharchaga qanday zaryad (mkC da) berish kerak?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 4

**1064.** Har birining massasi 6 g dan bo'lgan ikkita bir xildagi kichkina sharcha 13 cm uzunlikdagi iplar orqali bir nuqtaga osib qo'yilgan. Sharchalar bir-biridan 24 cm masofaga uzoqlashishi uchun ularning har biriga qanday zaryad ( $nC$  da) berish kerak?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 960

**1065.** 5 nC nuqtaviy zaryad atrofida manfiy zaryadlangan kichik sharcha 5 rad/s burchak tezlik bilan 3 cm radiusli aylana bo'ylab aylanmoqda. Sharcha zaryadining massasiga nisbatini ( $\text{mkC/kg da}$ ) toping.  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F. Oq'irlilik kuchini hisobga olmang.

Javob: 15

**1066.** O'tkazmas ipga osilgan zaryadlangan kichik sharcha gorizontal tekislikda 3 rad/s burchak tezlik bilan aylanmoqda. Bunda u chizadigan aylana markazida sharcha zaryadiga teng bo'lgan zaryad joylashgan. Agar aylanayotgan sharcha qarama-qarshi ishorali zaryad bilan (lekin xuddi shunday absolut miqdordagi) zaryadlansa, unda xuddi oldingi aylanish radiusida burchak tezlik 4 rad/s bo'ladi. Sharcha osilgan nuqtadan uning aylanish tekisligigacha bo'lgan masofani ( $\text{cm da}$ ) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 80

**1067.** Ikkita bir xil musbat zaryad bir-biridan qandaydir masofada turibdi. Agar zaryadlarni tutashtiruvchi to'g'ri chiziq o'rtaida xuddi shunday ishorali, lekin zaryad miqdori bo'yicha ikki baravar katta bo'lgan uchinchi zaryad joylashtirilsa, zaryadlarning biriga ta'sir etadigan kuch necha marta ortadi?

Javob: 9

**1068.** Ikkita bir xil musbat zaryad bir-biridan qandaydir masofada joylashgan. Agar zaryadlarni tutashtiruvchi to'g'ri chiziq o'rtaida xuddi shunday miqdordagi, lekin ishorasi bo'yicha qarama-qarshi bo'lgan uchinchi nuqtaviy zaryad joylashtirilsa, zaryadlardan biriga ta'sir etuvchi kuch miqdori necha marta ortadi?

Javob: 3

**1069.** q, q va  $2q$  nuqtaviy zaryadlar bir to'g'ri chiziqda ketma-ket, bir biridan bir xil masofada joylashgan. O'rtradagi zaryadga  $8 \text{ N}$  kuch ta'sir qiladi.  $2q$  zaryadga qanday kuch ta'sir etadi?

Javob: 20

**1070.** Ikkita bir xil zaryad o'rtaiga uchinchi zaryadni joylashtirilganda, zaryadlar sistemasi muvozanatga keldi. Bu zaryadning miqdori chetki har bir zaryad miqdoridan necha marta kichik?

Javob: 4

**1071.** Har biri manfiy  $100 \text{ nC}$  zaryad va  $0,3 \text{ g}$  massaga ega bo'lgan ikkita nuqtaviy zaryad  $100 \text{ nC}$  musbat zaryad atrofida  $10 \text{ cm}$  radiusli aylana bo'ylab harekatlanadi. Bunda manfiy zaryadlar bir diametrning oxirida joylashib qolmoqda. Zaryadlar aylanishining burchak tezligini toping.  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ m/F}$ . Oq'irlilik kuchini hisobga olmang.

Javob: 15

**1072.** Har biri  $8 \text{ nC}$  dan bo'lgan ikkita nuqtaviy zaryad  $3 \text{ cm}$  masofada joylashgan. Ularning har biridan  $3 \text{ cm}$  masofada joylashgan  $1 \text{ nC}$  nuqtaviy zaryadga ular qanday kuch ( $\text{mkN da}$ ) bilan ta'sir etadi?  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ m/F}$ ,  $\sqrt{3} = 1,7$ .

Javob: 136

**1073.** Har biri  $10 \text{ nC}$  dan bo'lgan to'rtta bir xil nuqtaviy zaryadlar  $3 \text{ cm}$  tomonli kvadratning uchiarida joylashgan. Uchta zaryad tomonidan to'rtinchi zaryadga ta'sir qiladigan kuchni ( $\text{mN da}$ ) toping.  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ m/F}$ ,  $\sqrt{2} = 1,4$ .

Javob: 190

**1074.** Bir xildagi  $1 \text{ mkC}$  zaryadlar kvadratning ikki qarama-qarshi uchida joylashgan. Agar kvadratning boshqa ikki uchida  $1 \text{ mkC}$  va  $-1 \text{ mkC}$  zaryadlar joylashtirilsa, oldingi ikki zaryadning biriga ta'sir etuvchi kuch necha marta ortadi?

Javob: 3

### **Maydon kuchlanganligi**

#### **a) Kuch va kuchlanganlik orasidagi bog'liqlik**

1075. Zaryadlangan zarracha vakuumining qandaydir\_nuqtasida  $60 \text{ V/m}$  kuchlanganlik hosil qiladi. Agar butun sistema diolektrik singdiruvchanligi  $2$  bo'lgan kerosin ichiga joylashtirilsa, shu\_nuqtaga o'rnatilgan  $5 \text{ nC}$  zaryadga qanday kuch ( $\text{nN da}$ ) ta'sir qiladi?

Javob: 150

1076. Kuchlanganlik vektori vertikal yuqoriga yo'nalgan bir jinsli elektr maydonda massasi  $0,03 \text{ mkg}$  bo'lgan  $3 \text{ pC}$  zaryadli chang zarrachasi muvozanat holatida turibdi. Maydon kuchlanganligini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 100

1077. Miqdori  $20 \text{ kV/m}$  bo'lgan kuchlanganlik vektori vertikal pastga yo'nalgan bir jinsli elektr maydonda  $0,1 \text{ kg}$  massali va  $0,2 \text{ mC}$  zaryadli sharcha ipak ipga osilgan. Ipning taranglik kuchini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 5

1078. Agar ipga osilgan  $0,1 \text{ kg}$  massadagi  $10 \text{ mkC}$  zaryadli sharcha  $200 \text{ kV/m}$  kuchlanganlikka ega bo'lgan bir jinsli elektr maydonda joylashtirilsa, ipning taranglik kuchi necha marta ortadi? Kuchlanganlik vektori vertikal pastga yo'nalgan.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

1079. Massasi  $4,5 \text{ g}$  bo'lgan  $0,1 \text{ mkC}$  zaryadli sharcha  $800 \text{ kg/m}^3$  zichlikdagi moy ichiga joylashtirilgan. Sharcha materialining zichligi  $1500 \text{ kg/m}^3$ . Sharcha joylashtiriladigan elektr maydonning kuchlanganligi qanday ( $\text{kV/m da}$ ) bo'lganda, u muvozanatda bo'lishini aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 210

1080. Ipak ipga osilgan kichik sharcha  $49 \text{ nC}$  zaryadga ega.  $100 \text{ kV/m}$  kuchlanganlikli gorizontal elektr maydonda ip tangensi  $0,125 \text{ bo'lgan burchakka og'di}$ . Sharchanining massasini ( $\text{g da}$ ) toping.  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 4

1081. Kuchlanganligi  $1000 \text{ V/m}$  bo'lgan bir jinsli elektr maydon ta'siri ostida massasi  $0,1 \text{ g}$  bo'lgan  $4 \text{ mkC}$  zaryadli zarracha erishadigan tezlanishning miqdorini toping. Og'irlik kuchini hisobga olmang.

Javob: 40

1082. Kuchlanganligi  $20 \text{ kV/m}$  bo'lgan bir jinsli elektr maydonida massasi  $0,01 \text{ kg}$  bo'lgan  $1 \text{ mkC}$  zaryadli sharcha qanday tezlanish bilan tushishini aniqlang. Kuchlanganlik vektori vertikal yuqoriga yo'nalgan. Ishqalanishni hisobga olmang.

Javob: 8

1083. Jismga  $70 \text{ nC}$  zaryad berilganda u yer sirti yaqinida tushishning  $10 \text{ sekundi ichida}$  zaryadsiz bo'lgan paytidagidan  $5 \text{ cm}$  ga ko'proq yo'lni bosib o'tdi. Agar elektr maydon kuchlanganligi  $100 \text{ V/m}$  bo'lsa, jisminning massasi ( $\text{g da}$ ) qanchaga teng?

Javob: 7

1084.  $1 \text{ mg}$  massali chang zarrachasi havoda  $0,2 \text{ m/s}$  o'zgarmas tezlik bilan tushadi. Agar zarracha kuchlanganligi  $10 \text{ kV/m}$  bo'lgan elektr maydonda joylashtirilib, unga  $1,2 \text{ nC}$  zaryad berilsa, u qanday barqaror tezlik ( $\text{cm/s da}$ ) bilan ko'tariladi? Havoning qarshilik kuchi tezlikka to'g'ri proporsional.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 4

1085.  $5 \text{ mg}$  massali zaryadlanmagan chang zarrachasi havoda  $15 \text{ cm/s}$  o'zgarmas tezlik bilan tushadi. Agar zarracha kuchlanganligi  $3 \text{ kV/m}$  bo'lgan gorizontal elektr maydonda joylashtirilib, unga  $40 \text{ nC}$  zaryad berilsa, u qanday barqaror tezlik ( $\text{cm/s da}$ ) bilan harakatlanadi? Havoning qarshilik kuchi tezlikka to'g'ri proporsional.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 39

1086.  $100 \text{ km/s}$  tezlik bilan harakatlanayotgan proton kuchlanganligi  $50 \text{ V/m}$  bo'lgan elektr maydonga maydon kuch chiziqlari yo'nalishiga qarama-qarshi yo'nalishda uchib kiradi. Necha

mikrosekunddan so'ng protonning tezligi nolga teng bo'ladi? Proton zaryadining massasiga nisbati  $10^{-8}$  C/kg.

Javob: 20

1087. Bir jinsli elektr maydonning kuchlanganlik chiziqlari bo'ylab elektron sekinlanuvchan harakatlanmoqda. Qandaydir momentda elektron 1,8 Mm/s tezlikka ega. Agar 0,1 mks dan keyin elektronning tezligi ikki baravar kamaygan bolsa, maydon kuchlanganligi qanday? Elektronning solishtirma zaryadi  $1,8 \cdot 10^{11}$  C/kg ga teng deb qabul qiling.

Javob: 50

1088. 0,01 mg massali, 10 nC zaryadli kichik sharcha gorizontal yo'nalgan bir jinsli elektr maydonda joylashgan. Sharcha harakatlana boshlaydi va 4 s dan so'ng 50 m/s tezlikka erishadi. Elektr maydon kuchlanganligini (mV/m da) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 7500

1089. 1 nC zaryadli, 1 g massali zaryadlangan zarracha kuchlanganligi 20 V/m bo'lgan bir jinsli elektr maydonga maydon kuchlanganligi chiziqlariga perpendikulyar ravishda uchib kiradi. Zarracha maydonga kirganidan keyin 2 s o'tgach, uning boshlang'ich yo'nalishidan og'ishini (mkm da) toping. Og'irlik kuchini hisobga olmang.

Javob: 40

1090. Elektron 60 kV/m kuchlanganlikdagi bir jinsli elektr maydonga 8 Mm/s tezlik bilan maydon kuchlanganlik chiziqlariga perpendikulyar ravishda uchib kirdi.  $5/9$  ns vaqt momentida uning tezlik miqdorini (Mm/s da) hisoblang. Elektronning solishtirma zaryadi  $1,8 \cdot 10^{11}$  C/kg.

Javob: 10

1091. Proton va alfa-zarracha bir xil tezlik bilan harakatlanib, yassi kondensator ichiga uning plastinalariga parallel holda uchib kiradi. Kondensator ichidan uchib chiqishda protonning og'ishi alfa-zarrachaning og'ishidan necha marta katta bo'ladi?

Javob: 2

1092. 30 cm uzunlikdagi kondensator qoplamlari orasidan uchib o'tayotgan elektron kondensator qoplamlariga parallel bo'lgan dastlabki yo'nalishidan 1,8 mm ga og'adi. Agar kondensator qoplamlari orasidagi elektr maydon kuchlanganligi 200 V/m bo'lsa, elektronning boshlang'ich tezligini (Mm/s da) aniqlang. Elektron zaryadining massasiga nisbati  $1,8 \cdot 10^{11}$  C/kg.

Javob: 30

1093. 70 mkC zaryad bir jinsli elektr maydonning kuchlanganlik chiziqlari bo'ylab qanday masofaga (cm da) ko'chirilganda, maydon tomonidan 1,4 mJ ish bajariladi? Elektr maydon kuchlanganligi 200 V/m.

Javob: 10

1094. Kuchlanganligi 10 kV/m bo'lgan bir jinsli elektr maydonda 70 mkC zaryadni maydon kuch chiziqlariga 60° burchak ostida 0,5 m masofaga ko'chirish uchun, qanday ish (mJ da) bajarish kerak? Javobda ishning modulini ko'rsating.

Javob: 175

**b) Kuchlanganlikni hisoblash. Superpozitsiya prinsipi**

1095. Nuqtaviy zaryad vakuumning qandaydir nuqtasida 600 V/m kuchlanganlikdagi maydonni yuzaga keltiradi. Agar zaryad 5 marta ortib, uning atrofidiagi bo'shilq dielektrik singdiruvchanligi 2 bo'lgan kerosin bilan to'ldirilsa, shu nuqtada maydon kuchlanganligi qanday bo'ladi?

Javob: 1500

1096. Zaryad tomonidan hosil qilinayotgan maydon kuchlanganligi 10 cm masofada 800 V/m ga teng. Zaryaddan 20 cm masofada bo'lgan nuqtaning maydon kuchlanganligini toping.

Javob: 200

1097. 4 nC miqdordagi, turli ishorali ikkita bir xil nuqtaviy zaryad bir-biridan 60 sm masofada joylashgan. Zaryadlarni tutashtiruvchi kesmaning o'rtaida joylashgan nuqtaning maydon kuchlanganligini toping.  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ N/F}$ .

Javob: 800

**1098.** Ikki musbat nuqtaviy zaryad orasidagi masofa 8 cm. Zaryadlarni birlashtiruvchi to'g'ri chiziqda, birinchi zaryaddan 6 cm masofada maydon kuchlanganligi nolga teng. Birinchi zaryad miqdorining ikkinchi zaryad miqdoriga nisbatini toping.

Javob: 9

**1099.** Agar 2 nC va -4 nC nuqtaviy zaryadlarni birlashtiruvchi kesmaning o'rtaida yotuvchi nuqtada faqat birinchi zaryad hosil qiladigan maydon kuchlanganligi  $2 \text{ V/m}$  ga teng bo'lsa, shu nuqtada ikkala zaryad hosil qiladigan maydon kuchlanganligining miqdorini toping.

Javob: 6

**1100.** Musbatining miqdori manfiysining miqdoridan  $2,25$  marta katta bo'lgan ikkita turli nomdagi nuqtaviy zaryadlar bor. Zaryadlar orasidagi masofa manfiy zaryaddan maydon kuchlanganligi nolga teng bo'lgan nuqttagacha bo'lgan masofadan necha marta kichik?

Javob: 2

**1101.**  $64 \text{ nC}$  va  $-48 \text{ nC}$  nuqtaviy zaryadlar orasidagi masofa  $10 \text{ cm}$  ga teng. Birinchi zaryaddan  $8 \text{ cm}$  va ikkinchisidan  $6 \text{ cm}$  uzoqlikda bo'lgan nuqtadagi maydon kuchlanganligini ( $\text{kV/m da}$ ) aniqlang.  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ m/F}$ .

Javob: 150

**1102.** Miqdori bir xil  $36 \text{ nC}$ , ishorasi esa turli xil bo'lgan nuqtaviy zaryadlar tomoni  $2 \text{ m}$  bo'lgan teng tomonli uchburchakning ikki uchida joylashgan. Uchburchakning uchinchi uchidagi elektr maydon kuchlanganligini aniqlang.  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ m/F}$ .

Javob: 81

**1103.** Miqdori bir xil  $5 \text{ nC}$ , ishorasi esa turli xil bo'lgan nuqtaviy zaryadlar bir-biridan  $2,4 \text{ m}$  masofada joylashgan. Har bir zaryaddan  $3 \text{ m}$  uzoqlikda bo'lgan nuqtadagi elektr maydon kuchlanganligini toping.  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ m/F}$ .

Javob: 4

**1104.**  $50 \text{ nC}$  va  $-32 \text{ nC}$  nuqtaviy zaryadlar bir-biridan  $9 \text{ cm}$  masofada joylashgan. Birinchi zaryaddan  $5 \text{ cm}$  va ikkinchisidan  $6 \text{ cm}$  masofada joylashgan nuqtadagi maydon kuchlanganligini ( $\text{kV/m da}$ ) toping.  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ m/F}$ .

Javob: 220

**1105.**  $24 \text{ pC}$  va  $135 \text{ pC}$  nuqtaviy zaryadlar bir-biridan  $11 \text{ cm}$  masofada joylashgan. Birinchi zaryaddan  $4 \text{ cm}$  va ikkinchisidan  $9 \text{ cm}$  masofada yotgan nuqtadagi maydon kuchlanganligini toping.  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ m/F}$ .

Javob: 165

**1106.**  $10 \text{ cm}$  tomonli kvadratning uchlarida har biri  $10 \text{ pC}$  dan bo'lgan uchta musbat zaryad va  $-20 \text{ pC}$  bitta manfiy zaryad joylashgan. Kvadrat markazidagi maydon kuchlanganligini aniqlang.  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ m/F}$ .

Javob: 54

**1107.** Tomoni  $1 \text{ m}$  bo'lgan rombning o'tkir burchaklari uchlarida har biri  $1 \text{ nC}$  dan bo'lgan musbat zaryadlar, o'tmas burchaklaridan birining uchida esa  $5 \text{ nC}$  musbat zaryad joylashgan. Agar rombning kichik diagonali uning tomoniga teng bo'lsa, rombning to'rtinchisi uchidagi elektr maydon kuchlanganligini aniqlang.  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ m/F}$ .

Javob: 54

**1108.** Tomoni  $20 \text{ cm}$  bo'lgan muntazam uchburchakning ikki uchida har biri  $14 \text{ pC}$  dan bo'lgan nuqtaviy zaryadlar, uchinchi uchida esa  $-2 \text{ pC}$  nuqtaviy zaryad joylashgan. Turli ishorali zaryadlarni birlashtiruvchi tomonning o'rtaida yotgan nuqtadagi maydon kuchlanganligini toping.  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ m/F}$ .

Javob: 15

**1109.** Tomoni  $30 \text{ cm}$  bo'lgan muntazam uchburchakning ikki uchida bir xil  $25 \text{ pC}$  miqdorli turli ishorali zaryadlar, uchinchi uchida esa  $55 \text{ pC}$  zaryad joylashgan. Uchburchak markazidagi maydon kuchlanganligini toping.  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ m/F}$ .

Javob: 21

1110. Tomoni 10 cm bo'lgan muntazam oltiburchakning uchlarida  $+5$  pC va  $-5$  pC zaryadlar navbatma navbat joylashgan. Oltiburchak markazida barcha zaryadlar hosil qiladigan maydon kuchlanganligini aniqlang.  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 0

1111. Tomoni 10 cm bo'lgan muntazam oltiburchakning uchta qo'shni uchlarida  $+5$  nC dan bo'lgan zaryadlar, uchta boshqa uchlarida esa  $-5$  nC dan bo'lgan zaryadlar joylashgan. Shakning markazida barcha zaryadlar hosil qiladigan maydon kuchlanganligini (kV/m da) aniqlang.  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 18

#### Potensiallar farqi

##### a) Bir jinsli maydonagi potensiallar farqi

1112. Bir-biridan 0,03 m masofada joylashgan va bir jinsli elektr maydonning bitta kuch chizig'ida yotgan nuqtalar orasidagi potensiallar farqi 12 V ga teng. Xuddi o'sha kuch chizig'ida bir-biridan 15 cm masofada yotgan nuqtalar orasidagi potensiallar farqini toping.

Javob: 60

1113. Yassi kondensatordagi elektr maydon kuchlanganligi 30 kV/m. Qoplamlar orasidagi potensiallar farqi 300 V. Kondensator qoplamlari orasidagi masofa (mm da) qanday?

Javob: 10

1114. Vakuumda bir-biridan 0,1 m masofada joylashgan ikkita parallel metall plastina 1 kV potensiallar farqigacha zaryadlangan. Plastinalar orasiga joylashtirilgan 100 mkC zaryadga qanday kuch ta'sir qiladi? Plastinalar orasidagi maydonni bir jinsli deb hisoblang.

Javob: 1

1115. Yassi kondensatorning gorizontall plastinalari orasida  $4,8 \cdot 10^{-12}$  kg massali chang zarrachasi muvozanatda turibdi. Agar kondensatorda kuchlanish 3000 V, plastinalar orasidagi masofa esa 2 cm bo'lsa, chang zarrachasining zaryadi elektron zaryadidan necha marta katta? Elektronning zaryadi  $1,6 \cdot 10^{-19}$  C,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2000

1116. Yassi kondensatorning gorizontall plastinalari orasida plastmass prujinaga zaryadlangan sharcha osilgan. Kondensator 500 V EYK li kuchlamish manbaiga ulanganida, prujina yana 1 cm ga cho'ziladi. Agar prujinaning bikurligi 10 N/m, kondensator plastinalari orasidagi masofa 20 cm bo'lsa, sharchaning zaryadini (mkC da) toping.

Javob: 40

1117. Mansiy zaryadlangan  $10^{-9}$  g massali chang zarrachasi plastinalari gorizontall joylashgan yassi kondensatorning ichida muvozanatda turibdi. Kondensatorga 500 V potensiallar farqi qo'yigan. Zarrachadan 500 ta elektron chiqib ketgandan so'ng ham u muvozanatda qolishi uchun plastinalar orasidagi potensiallar farqini necha voltga o'zgartirish kerak? Plastinalar orasidagi masoga 5 mm. Elektronning zaryadi  $1,6 \cdot 10^{-19}$  C,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2000

1118. Yassi kondensatorning gorizontall joylashgan plastinalari orasida, pastki plastinadan 10 cm masofada zaryadlangan sharcha muallaq turibdi. Plastinalar orasidagi potensiallar farqi 400 V. Agar potensiallar farqi oniy tarzda 200 V gacha kamaytirilsa, qancha vaqt so'ng (ms da) sharcha pastki plastinaning ustiga tushadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 200

1119. Zaryadlangan zarracha bir jinsli elektr maydonning kuchlanganlik chiziqlariga qarshi harakatlanadi. Zarrachaning boshlang'ich tezligi 1 Mm/s, uning solishtirma zaryadi  $10^{11}$  C/kg. Agar maydon kuchlanganligi 100 V/m ga teng bo'lsa, zarracha qanday masofa (cm da) o'tgach to'xtaydi?

Javob: 5

1120. Elektron yassi kondensator maydoniga qoplamatagi toshik orqali kuchlanganlik chiziqlari yo'nalishida uchib kiradi va 0.003 m yo'lni bosib o'tgach, o'z tezligini to liq yo'qotadi.

Agar elektronning boshlang'ich tezligi hamda kondensatorning potensiallar farqini 3 marta kamaytirilsa, u qanday masofada (mm da) tezligini to'liq yo'qotadi?

Javob: 1

1121. 5 kV potensiallar farqini o'tish natijasida tezlik olgan elektronlar yassi kondensator plastinalari orasiga o'rtadan uchib kiradi (plastinalarga parallel ravishda). Elektronlar kondensatorдан uchib chiqmasligi uchun unga qanday eng kichik kuchlanish qo'yish kerak bo'ladi? Kondensatorning uzunligi 5 cm, plastinalar orasidagi masofa 1 cm.

Javob: 400

1122. Uzunligi 10 cm va qoplamlari orasidagi masofa 1 cm bo'lgan yassi kondensator ichiga  $8 \cdot 10^{-15}$  J energiyali elektron plastinalarga  $15^\circ$  burchak ostida uchib kiradi. Plastinalar orasidagi kuchlanishning qanday qiymatida elektron kondensator ichidan chiqishda plastinalarga parallel ravishda barakatlanadi? Elektronning zaryadi  $1,6 \cdot 10^{-19}$  C.

Javob: 2500

1123. Massasi 5 g bo'lgan 2 mC zaryadli sharcha kuchlanganligi 20 V/m bo'lgan gorizontall elektr maydonda 1 m uzunlikdagi ipga osib qo'yilgan. Sharcha dastlab pastki holatda ushlab turiladi, keyin esa qo'yib yuboriladi. Sharcha dastlabki holatidan 20 cm ga yuqori ko'tarilgan paytda ipning tarangligini (mN da) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 92

1124. Massasi 10 g bo'lgan 100 mkC zaryadli sharcha 50 cm uzunlikdagi ipga osib qo'yilgan. U kuchlanganligi 100 V/m bo'lgan bir jinsli elektr maydonda turibdi, va bu maydonning kuch chiziqlari gorizontal hamda chapdan o'ngga tomon yo'nalgan. Sharcha chap tomoniga shunday tortildiki, bunda u ip osilgan nuqtadan 30 cm pastda bo'lib goldi, keyin esa qo'yib yuborildi. Sharcha vertikal vaziyatdan o'tayotgandagi ipning taranglik kuchini (mN da) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 196

**b) Potensialni hisoblash. Ish va potensiallar farqi**

1125. Tomoni 30 cm bo'lgan teng tomonli uchburchakning ikki uchida har biri 50 nC dan bo'lgan zaryadlar bor. Uchinchi uchdagagi potensialni" (kV da) toping.  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ m/F}$ .

Javob: 3

1126. Tomoni 30 cm bo'lgan kvadratning ikki qarama-qarshi uchlarida har biri 200 nC dan bo'lgan zaryadlar bor. Kvadratning qolgan ikki uchlaridagi potensialni (kV da) toping.  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ m/F}$ .

Javob: 12

1127. To'g'ri burchakli uchburchakning uchlarida 1, 2 va 3 nC nuqtaviy zaryadlar bor. Agar gipotenuzaning uzunligi 20 cm bo'lsa, uning (gipotenuzaning) o'rtasida potensial qanchaga teng bo'ladi?  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ m/F}$ .

Javob: 540

1128. Qirrasi 30 cm bo'lgan muntazam tetraedning uchta uchida 3, 5 va -2 nC nuqtaviy zaryadlar bor. To'rtinchchi uchdagagi potensialni toping.  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ m/F}$ .

Javob: 180

1129. Tomoni 27 cm bo'lgan muntazam oltiburchakning uchta uchida 1 nC dan, qolgan uchtasida 2 nC dan nuqtaviy zaryadlar bor. Oltiburchakning markazidagi potensialni toping.  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ m/F}$ .

Javob: 300

1130. 6 cm radiusli yupqa halqa bo'ylab 4 nC zaryad taqsimlangan. Halqaning o'qida, uning markazidan 8 cm masofada yotgan nuqtada halqa maydonining potensialini toping.  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ m/F}$ .

Javob: 360

\* Bu bo'limdagi barcha masalalarda cheksizlikdagi potensialni nolga teng deb qabul qiling.

1131. 30 cm radiusli sferaning sirti bo'ylab 4 nC zaryad taqsimlangan. Sfera markazida potensial qanchaga teng?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 120

1132. 10 nC musbat zaryad sirtida tekis taqsimlangan sferaning markazida -5 nC manfiy zaryadli kichik sharcha bor. Sferadan tashqarida, uning markazidan 9 cm masofada bo'lgan nuqtadagi elektr maydon potensialini toping.  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 5

1133. Elektrostatik maydonning bir nuqtasidan boshqa bir nuqtasiga 2 nC zaryadni ko'chirishda maydon qanday ish (mkJ da) bajaradi? Nuqtalar orasidagi potensiallar farqi 500 V ga teng.

Javob: 1

1134. Maydonning 20 V potensiali nuqtasidan 12 V potensiali boshqa bir nuqtasiga 8 mkC zaryadni ko'chirishda qanday ish bajariladi? Javobda ishning absolyut qiymatini mkJ da ko'rsating.

Javob: 64

1135. 130 nC zaryadni cheksizlikdan elektr maydonning qandaydir nuqtasiga ko'chirishda bajarilgan ish 65 mkJ ga teng. Shu nuqtaning potensialini toping.

Javob: 500

1136. 10 nC nuqtaviy zaryadni cheksizlikdan tekis zaryadlangan shar yuzasidan 20 cm masofada joylashgan nuqtaga ko'chirishda 0,5 mkJ ish bajarish kerak. Sharning radiusi 4 cm. Shar sirtidagi potensialni toping.

Javob: 300

1137. Manfiy zaryadlangan zarrachani musbat zaryadli, qo'zg'almas zarracha tomon ko'chirishda elektr maydonning bajargan ishi 9 J ga teng. Bunda zarracha qo'zg'almas zarrachagacha bo'lgan dastlabki masofaning yarmiga ko'chdi. Shu yo'lning birinchi yarmida elektr maydon tomonidan qanday ish bajarilgan?

Javob: 3

1138. 2 g massali zaryadlangan zarrachaning tezligi harakatning boshlang'ich nuqtasida 0,02 m/s ga, oxirgi nuqtasida esa 0,1 m/s ga teng. Agar zarrachaning zaryadi 30 nC ga teng bo'lsa, shu nuqtalar orasida potensiallar farqini toping.

Javob: 320

1139. 1 nC zaryad bilan tekis zaryadlangan 6 cm radiusli shar sirti yaqinida zaryadi 2 nC, massasi 30 mg bo'lgan zarracha joylashgan. Zarracha qo'yib yuboriladi. Zarracha shar sirtidan uning radiusiga teng masofaga uzoqlashgan paytda qanday tezlikka (cm/s da) ega bo'ldi?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 20

1140. Zaryadi 2 nC, massasi 10 mg bo'lgan zarracha 10 cm radiusli bir jinsi zaryadlangan og'ir shar tomonga uzoqdan harakatlarni kelmoqda. Agar sharning zaryadi 1 mkC ga teng bo'lsa, zarracha uning sirtigacha uchib borishi uchun shardan katta masofada qanday minimal tezlikka ega bo'lishi kerak?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 6

1141. Har biri 10 nC dan bo'lgan ikkita nuqtaviy zaryad bir-biridan 4 cm masofada mahkamlab qo'yilgan. Zaryadlarning o'rtafiga 2 mg massali va 36 nC zaryadli zarracha joylashtiriladi va qo'yib yuboriladi. Zaryadlardan uzoq masofada zarracha qanday tezlikka erishadi?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 18

1142. Teng yonli to'g'ri burchakli uchburchakning uchta uchida har hiri 20 nC dan bo'lgan bir xildagi nuqtaviy zaryadlar mahkamlab qo'yilgan. Gipotenuzaning o'rtafiga 3 mg massali va 40 nC zaryadli zarracha joylashtiriladi va qo'yib yuboriladi. Zaryadlardan uzoq masofada zarracha qanday tezlikka erishadi? Uchburchakning gipotenzasi 5 cm.  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 24

**1143.** Tomoni 12 cm bo'lgan teng tomonli uchburchakning ikki uchida har biri 6 nC dan bo'lgan nuqtaviy zaryadlar mahkamlangan, uchinchi uchida 3 mg massali va  $-30$  nC zaryadli zarracha turibdi. Zarracha qo'yib yuboriladi va u harakatga keladi. Zarracha aniq zaryadlar orasida bo'lib qolgan paytda, uning tezligi qanchaga teng bo'ladi?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 3

**1144.** 6 cm radiusli mahkamlab qo'yilgan, yupqa halqa bo'ylab 40 nC zaryad taqsimlangan. Halqa markaziga 9 mg massali va 12 nC zaryadli zarracha joylashtiriladi va qo'yib yuboriladi. Halqadan uzoq masofada zarrachaning tezligi qanchaga teng bo'ladi?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 4

**1145.** 4 cm radiusli yupqa halqa bo'ylab 50 nC zaryad tekis taqsimlangan. Halqaning o'qida, uning markazidan 3 cm masofada 1 mg massali va  $-18$  nC zaryadli zarracha joylashtiriladi va qo'yib yuboriladi. Zarracha halqa markazidan uchib o'tayotgan paytda qanday tezlikka ega bo'ladi?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 9

#### **Zaryadlar sistemasining o'zaro ta'sir energiyasi**

**1146.** Bir-biridan 30 cm masofada bo'lgan 2 mkC va 4 mkC nuqtaviy zaryadlarning o'zaro ta'sir energiyasi (mJ da) qanchaga teng?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 240

**1147.** Har biri 2 mkC dan bo'lgan to'rtta zaryaddan tashkil topgan sistema to'g'ri chiziq bo'ylab shunday joylashganki, bunda qo'shni zaryadlar orasidagi masofa 30 cm ga teng. Sistemaning o'zaro ta'sir energiyasi (mJ da) qanchaga teng?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 520

**1148.** 2, 1 va 3 mkC dan iborat bo'lgan uchta zaryad sistemasi to'g'ri chiziq bo'ylab ko'rsatilgan tartibda joylashtirilgan va qo'shni zaryadlar orasidagi masofa 30 cm ga teng bo'lsa, shu sistemaning o'zaro ta'sir energiyasi (mJ da) qanchaga teng?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 240

**1149.** Tomoni 10 cm bo'lgan teng tomonli uchburchakning uchlarida joylashgan, 2, -1 va 3 mkC zaryaddan iborat bo'lgan sistemaning o'zaro ta'sir energiyasi (mJ da) qanchaga teng?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 90

**1150.** Qirrasi 50 cm bo'lgan muntazam tetraedrning uchlarida joylashgan, 1, 2, 3 va 4 mkC zaryadlardan iborat bo'lgan sistemaning o'zaro ta'sir energiyasini (mJ da) toping.  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 630

**1151.** To'rtta bir xil 2 mkC zaryad to'g'ri chiziqda joylashgan. Qo'shni zaryadlar orasidagi masofa 60 cm ga teng. Shu zaryadlarni 60 cm qirrali to'g'ri tetraedrning uchlariga joylashtirish uchun qanday ish (mJ da) hajarish kerak?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 100

**1152.** Har birining massasi 2 mg va zaryadi 10 nC bo'lgan ikkita zarracha bir-biridan 5 cm masofada turibdi, ularning o'rtaida 60 nC zaryad mahkamlab qo'yilgan. Zarrachalar bir vaqtida qo'yib yuboriladi. Zarrachalar juda uzoq masofaga uchib ketgandan so'ng, ularning tezligi qanchaga teng bo'ladi?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 15

**1153.** Rombning o'tkir burchaklari uchlarida 7 nC zaryadlar mahkamlab qo'yilgan, o'tmas burchaklar uchlarida esa har birining zaryadi 2 nC va massasi 2 mg bo'lgan ikkita zarracha turibdi. Zarrachalar bir vaqtida qo'yib yuboriladi va ular harakatga keladi. Zarrachalar uzoq masofaga uchib ketgandan so'ng, ularning tezligi qanchaga teng bo'ladi? Rombning tomoni 3 cm, uning o'tkir burchagi esa  $60^\circ$ .  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 3

**1154.** Tomoni 2 cm bo'lgan teng tomonli uchburchakning bir uchida 40 nC nuqtaviy zaryad mahkamlab qo'yilgan, boshqa ikki uchida har birining zaryadi 10 nC va massasi 5 mg bo'lgan

ikkita zarracha turibdi. Zarrachalar qo'yib yuboriladi va ular harakatga keladi. Zaryaddan ancha uzoq masofada zarrachalarning tezligi qanchaga teng bo'ladidi?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 9

1155. Har birining zaryadi 0,2 mkC va massasi 4 mg bo'lgan to'rtta bir xil zarracha 30 cm tomonli tetaedrning uchlarida tutib turibdi. Zarrachalar bir vaqtida qo'yib yuboriladi. Zarrachalar juda katta masofaga uchib ketganda ularning tezligi qanchaga teng boladi?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 30

1156. 400 nC dan zaryadi bo'lgan ikkita bir xil sharcha prujina orqali ulangan va silliq gorizontol stol ustida turibdi. Sharchalar shunday tebranmoqdaki, bunda ular orasidagi masofa L dan 4L gacha o'zgaradi, bu yerda  $L = 2$  cm. Agar prujinaning uzunligi deformatsiyalanmagan holatda  $2L$  ga teng ekanligi ma'lum bo'lsa, uning bikrligini toping.  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 90

1157. 2 mkC dan zaryadi bo'lgan uchta bir xil sharcha uchta bir xil prujina orqali juftlab ulangan va har biri boshqasidan 5 cm masofada tutib turilibdi. Sharchalar qo'yib yuboriladi va ular harakatga keladi. Agar boshlang'ich holatda prujinalar deformatsiyalanmagan hamda harakat jarayonida sharchalar orasidagi maksimal masofa dastlabkisidan uch marta katta bo'lsa, har bir prujmaning bikirligini toping.  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 96

1158. Bir xil 10 mkC zaryad bilan zaryadlangan, har biri 5 g massali ikkita kichik jism gorizontol tekislik ustida bir-biridan 10 m masofada joylashgan. Jismalarning tekislikka ishqalanish koefitsiyenti 0,5 ga teng. Jismalardan biriga qanday minimal boshlang'ich tezlik berilganda, ikkinchi jism joyidan qo'zg'aladi?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 8

1159. Bir xil 10 mkC zaryad bilan zaryadlangan, har biri 50 g massali ikkita kichik jism gorizontol tekislik ustida bir-biridan 2 m masofada turibdi. Jismalarning tekislikka ishqalanish koefitsiyenti 0,1. Jismalar bir vaqtida qo'yib yuboriladi. Ular bir-biridan qanday masofada to'xtab qoladi?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 9

1160. 10 mkC zaryadli, 100 g massali ikkita kichik jism gorizontol tekislikda bir-biridan 1 m masofada tutib turilibdi. Jismalarning tekislikka ishqalanish koefitsiyenti 0,1. Jismalar bir vaqtida qo'yib yuboriladi. Jismalarning harakat jarayonidagi maksimal tezligini toping.  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

1161. Ikkita kichik sharcha uzunligi 20 cm, bikrligi 200 N/m bo'lgan, deformatsiyalanmagan prujina yordamida ulangan. Sharchalarga bir xil ishorali zaryad berilgach, prujinaning uzunligi ikki baravar kattalashdi. Prujinani avvalgi holatiga qaytarish uchun qanday ish bajarish kerak?

Javob: 12

1162. Silliq gorizontol stol ustida yotgan 150 g massali ikkita kichik sharcha uzunligi 40 cm, bikrligi 10 N/m bo'lgan, deformatsiyalanmagan prujina yordamida ulangan. Sharchalarga bir xil ishorali zaryad berilgach, prujinaning uzunligi ikki baravar kattalashdi. Sharchalar avvalgi masofaga qadar yaqinlashishi uchun ularning har biriga qanday minimal tezlik berish kerak?

Javob: 4

1163. Gravitatsion maydonda  $-10$  mkC nuqtaviy zaryad mahkamlab qo'yilgan, uning ostida  $5$  m masofada esa massasi  $9$  g bo'lgan  $4$  mkC zaryadli zarracha joylashgan. Zarracha mahkamlangan zaryad yonigacha uchib borishi uchun unga qanday minimal vertikal tezlik berish kerak?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 6

1164. Yerdan  $3$  m balandlikda  $-4$  mkC zaryad mahkamlab qo'yilgan, undan pastroqda,  $2,2$  m balandlikda esa massasi  $0,9$  g bo'lgan  $1$  mkC zaryadli zarracha joylashgan. Zarracha yer sirtiga

yeta olishi uchun unga vertikal pastga qarab yo'nalgan qanday minimal tezlik berish kerak?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F,  $g = 10$  m/s<sup>2</sup>.

Javob: 6

1165. Mahkamlab qo'yilgan -100 nC zaryaddan 1 m masofada massasi 0,1 g bo'lgan 2 mkC zaryadli zarracha joylashgan. Zaryadlar kuchlanganligi 100 V/m ga teng bo'lgan va manfiy zaryaddan musbat zaryadga tomon yo'nalgan bir jinsli tashqi maydonda turibdi. Zarrachaga kuch chiziqlari yo'nalishida qanday minimal tezlik berilganda, u cheksizlikka uchib ketadi?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F. Og'irlik kuchi hisobga olinmasin.

Javob: 4

1166. Massalari 2 va 3 g, zaryadlari 6 mkC dan bo'lgan ikki zarracha bir-biriga qarab yaqinlashmoqda. Zarrachalar orasidagi masofa 30 m ga teng bo'lganda, ularning har biri 3 m/s tezlikka ega bo'ladi. Harakat jarayonida zarrachalar orasidagi eng kichik masofani toping.  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 10

1167. Massalari 2 va 3 g, zaryadlari 3 va -12 mkC bo'lgan ikki zarracha bir-biridan uzoqlashmoqda. Zarrachalar orasidagi masofa 10 m ga teng bo'lganda, ularning har biri 3 m/s tezlikka ega bo'ladi. Harakatlanish jarayonida zarrachalar orasidagi eng katta masofani toping.  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 30

1168. Massalari 1 g dan bo'lgan ikkita zarracha 1 va -1 mkC zaryadlarga ega. Boshlang'ich paytda zarrachalar orasidagi masofa 3,2 m, ulardan biri tinch holatda turibdi, boshqasi esa undan 3 m/s tezlik bilan uzoqlashmoqda. Harakatlanish jarayonida zarrachalar orasidagi maksimal masofani toping.  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 16

1169. Ikkita zarracha 4 va 5 g massaga hamda 1 va -1 mkC zaryadga ega. Boshlang'ich paytda zarrachalar orasidagi masofa 10 cm, birinchi zarracha barakatsiz, ikkinchisi esa undan 9 tezlik bilan uzoqlashmoqda. 9 ning qanday minimal qiymatida shu zarracha birinchi zarracha bilan to'qnashmaydi?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 9

1170. Ikkii dielektrik shar bir xildagi 3 mkC zaryad bilan tekis zaryadlangan. Birinchi sharning massasi 6 g, ikkinchisining massasi 12 g, har bir sharning radiusi 1 cm. Dastlab sharlar shunday ushlab turiladiki, bunda ular bir-biriga tegib turadi, keyin esa qo'yib yuboriladi. Birinchi sharning oxirgi tezligini toping.  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 30

1171. Ikkii dielektrik shar hajm bo'yicha tekis zaryadlangan: birinchisi 1 mkC zaryad bilan, ikkinchisi 0,6 mkC zaryad bilan. Birinchi sharning massasi 6 g, ikkinchisini - 4 g, har bir sharning radiusi 1 cm. Dastlab birinchi shar tinch turibdi, ikkinchisi esa unga tomon 9 tezlik bilan uzoqdan yaqinlashib kelmoqda. 9 ning qanday minimal qiymatida sharlar bir-biriga tegadi?  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 15

1172. Har birining radiusi 1 cm va massasi 12 g bo'lgan ikki dielektrik shar bir xildagi 0,4 mkC zaryad bilan tekis zaryadlangan. Boshlang'ich paytda sharlardan biri tinch turadi, ikkinchisi esa uzoqdan 5 m/s tezlik bilan unga tomon yaqinlashib keladi. Sharlarning bevosita to'qnashuvidan oldin dastlab tinch turgan sharning tezligimi toping.  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 2

1173. Har birining radiusi 1 cm bo'lgan ikki dielektrik shar bir xildagi 0,4 mkC zaryad bilan tekis zaryadlangan. Boshlang'ich paytda 16 g massali sharlardan biri tinch turadi, 8 g massali ikkinchisi esa uzoqdan 6 m/s tezlik bilan unga tomon yaqinlashib keladi. Sharlar to'qnashuvidan keyinoq dastlab tinch turgan sharning tezligini toping. To'qnashuvni absolyut elastik hisoblang.  $k = 9 \cdot 10^9$  m/F.

Javob: 3

### O'tkazgich shar

1174. Agar 0,1 m radiusli o'tkazgich sharning sirtidan 10 m masofadagi potensial 20 V ga teng bo'lsa, sharning potensialini toping.

Javob: 200

1175. Havoda turgan metall sharga 1 nC zaryad berildi. Sharning radiusi 15 cm. Shardan tashqarida, uning sirtidan 10 cm masofadagi potensialini aniqlang.  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ N} \cdot \text{m}^2/\text{C}^2$ .

Javob: 36

1176. 5 cm radiusli metall shar 150 V potensialgacha zaryadlangan. Shar sirtidan 5 cm masofadagi nuqtada maydon kuchlanganligi qanchaga teng bo'ladi?

Javob: 750

1177. Bir xildagi mingta sharsimon simob tomchilarining har biri 0,01 V potensialgacha zaryadlangan. Kichik tomchilarning qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan katta sharsimon tomchining potensialini aniqlang.

Javob: 1

1178. Bir-biridan uzoqlashtirilgan ikki o'tkazgich sharlar mos ravishda 3 va 7 cm radiusga hamda 20 va 30 V potensialga ega. Sharlar yupqa o'tkazgich orqali ulangandan so'ng ularning potensiali qanday bo'ladi?

Javob: 27

1179. 8 cm va 20 cm radiusli ikki o'tkazgich shar bir-biridan katta masofada turibdi hamda 14 nC va -7 nC zaryadlarga ega. Agar sharlar o'tkazgich yordamida ulansa, ikkinchi sharning zaryadi (nC da) qanday bo'ladi? Ulovchi o'tkazgichning sig'imi inobatga olinmasin.

Javob: 5

1180. Bir xil zaryad bilan zaryadlangan metall sharlar 20 V va 30 V potensiallarga ega. Agar bu sharlar sim orqali ulansa, ularning potensiali qanday bo'ladi? Ulovchi simning sig'imi inobatga olinmasin. Sharlar orasidagi masofa ular radiuslariga nisbatan ancha katta.

Javob: 24

1181. Ikki konsentrik o'tkazgich sfera 19 cm va 20 cm radiuslarga ega. Ichki sfera zaryadlangan, tashqi sferaning zaryadi no'lga teng. Agar tashqi sfera yerga ulansa, ichki sferaning potensiali necha marta kamayadi?

Javob: 20

1182. Ikki konsentrik o'tkazgich sfera 8 va 10 cm radiuslarga ega. Tashqi sfera zaryadlangan, ichkisi esa - elektroneutral. Ichki sfera tashqi sferadagi kichkina teshik orqali o'tadigan yupqa sim yordamida yerga ulanadi. Bunda tashqi sferaning potensiali necha marta kamayadi?

Javob: 5

1183. Ikki konsentrik o'tkazgich sfera 2 cm va 12 cm radiuslarga ega. Ichki sfera zaryadlangan, tashqi sferaning zaryadi no'lga teng. Agar ichki sfera tashqi sfera bilan yupqa o'tkazuvchan sim yordamida ulansa, ichki sferaning potensiali necha marta kamayadi?

Javob: 6

1184. Agar yerga ulangan 3 cm radiushi o'tkazgich sferaning markazidan 10 cm masofada -20 mkC nuqtaviy zaryad joylashtirilsa, shu sferada qanday zaryad paydo bo'ladi?

Javob: 6

1185. 2 cm radiusli yakkalangan o'tkazgich sfera 10 nC zaryad bilan zaryadlangan. Agar sferaning markazidan 3 cm masofada -12 nC nuqtaviy zaryad joylashtirilsa, uning potensiali necha marta kamayadi?

Javob: 5

### Yassi kondensator. Elektr sig'imi

1186. Agar yassi kondensatorning zaryadi 30 mkC ga oshinlganda plastinalar orasidagi potensiallar farqi 10 V ga ortsa, uning sig'imi (mkF da) qanchaga teng?

Javob: 3

1187. Agar plastinalar yuzasini 8 marta orttirib, ular orasidagi masofani esa 2 marta kamaytirilsa, yassi kondensatorning sig'imi necha marta ortadi?

**Javob: 16**

1188. Kondensator vakuumda bir-biridan 0,88 mm masofaga turgan ikkita kvadrat plastinadan hosil qilingan. Kondensatorning sig'imi  $1 \text{ pF}$  ni tashkil etishi uchun kvadratning tomoni (cm da) qanchaga teng bo'lishi kerak?  $\epsilon_0 = 8,8 \cdot 10^{-12} \text{ F/m}$ .

**Javob: 1**

1189. Yassi kondensatorning sig'imi  $6 \text{ m}\kappa\text{F}$  ga teng. Agar plastinalar orasidagi masofani 2 marta orttirib, keyin ular orasidagi bo'shlqnini  $\epsilon = 5$  li dielektrik bilan to'ldirilsa, kondensatorning sig'imi ( $\text{m}\kappa\text{F}$  da) qanchaga teng bo'ladi?

**Javob: 15**

1190.  $1 \text{ m}\kappa\text{F}$  sig'imli yassi havo kondensator kuchlanish manbaiga ulandi, buning natijasida u  $10 \text{ m}\kappa\text{C}$  zaryadga ega bo'ldi. Kondensator plastinalari orasidagi masofa  $5 \text{ mm}$ . Kondensator ichidagi maydon kuchlanganligini ( $\text{kV/m da}$ ) aniqlang.

**Javob: 2**

1191. Zaryadlangan yassi kondensator plastinalari orasidagi masofa 2 marta kamaytirildi. Agar kondensator butun vaqt davomida kuchlanish manbaiga ulangan holda qolsa, bunda uning maydon kuchlanganligi necha marta ortadi?

**Javob: 2**

1192. Yassi havo kondensatori EYK 200 V bo'lgan kuchlanish manbaiga ulangan. Agar plastinalar orasidagi masofa  $1 \text{ cm}$  dan  $2 \text{ cm}$  ga orttirilsa, kondensatordagi elektr maydon kuchlanganligi ( $\text{kV/m da}$ ) qanchaga kamayadi?

**Javob: 10**

1193. Yassi kondensator plastinalari orasidagi masofa  $2 \text{ cm}$  ga teng. Plastinalar  $100 \text{ V}$  potensiallar farqigacha zaryadlangan. Agar zaryadni o'zgartirmagan holda, plastinalar orasidagi masofa  $8 \text{ cm}$  gacha oshirilsa, ular orasidagi potensiallar farqi qanchaga teng bo'ladi?

**Javob: 400**

1194.  $400 \text{ V}$  potensiallar farqigacha zaryadlangan, izolyatsiyalangan yassi kondensator qoplamlalari orasida qoplamlalarga zich holda tutashgan, dielektrik singdiruvchanligi  $5$  bo'lgan plastina joylashgan. Dielektrik olib tashlangandan so'ng kondensator qoplamlalari orasidagi potensiallar farqi qanday bo'ladi?

**Javob: 2000**

1195.  $100 \text{ m}\kappa\text{F}$  sig'imli yassi kondensatorning ichida joylashgan nuqtaviy zaryadga qandaydir kuch ta'sir qiladi. Kondensatordagi kuchlanish  $20 \text{ kV}$ . Agar kondensator ikki minut davomida  $0,1 \text{ A}$  tok bilan zaryadlab turilsa, zaryadga ta'sir qiluvchi kuch necha marta ortadi?

**Javob: 7**

1196. Qoplamlalaridagi zaryadning sirt zichligi  $6 \text{ nC/m}^2$  bo'lgan yassi kondensator ichida  $1,77 \text{ pC}$  zaryadli,  $10 \text{ g}$  massali chang zarrachasi vertikal yuqoriga qanday tezlanish bilan ko'tariladi?  $\epsilon_0 = 8,85 \cdot 10^{-12} \text{ F/m}$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 2**

1197. Yassi havo kondensatorining qoplamlalari bir-biriga qanday kuch ( $\text{mN da}$ ) bilan tortiladi? Kondensatorning zaryadi  $6 \text{ m}\kappa\text{C}$ , kondensator ichidagi maydon kuchlanganligi  $3 \text{ kV/m}$ .

**Javob: 9**

1198. Har birining radiusi  $6 \text{ cm}$  bo'lgan ikkita doirasimon metall plastina bir-biriga yaqin masofada joylashgan va yupqa o'tkazgich sim orqali ulangan. Agar plastinalar kuchlanganligi  $10 \text{ kV/m}$  ga teng va plastinalarga perpendikulyar yo'nalgan bir jinsli maydonda joylashtirilsa, plastinalarning har biriga qanday kuch ( $\text{mN da}$ ) ta'sir qiladi?  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ N/C}$ .

**Javob: 5**

1199. Qoplamlalari orasidagi masofa  $1 \text{ mm}$  bo'lgan kondensator ichida shunday qalinlikdag'i va dielektrik singdiruvchanligi  $3$  bo'lgan dielektrik plastina joylashgan. Agar kondensatorning zaryadi  $2 \text{ m}\kappa\text{C}$ , undagi kuchlanish  $200 \text{ V}$  bo'lsa, qoplamlalar plastinalarni qanday kuch ( $\text{mN da}$ ) bilan bosadi?

**Javob: 600**

1200. O'zgarmas kuchlanish manbaiga ulangan yassi kondensator ichiga qoplamaalar orasidagi bo'shligni butunlay to'diradigan dielektrik plastina kiritiladi. Agar dielektrikning dielektrik singdiruvchanligi 4 ga teng bo'ssa, bunda qoplamaalar orasidagi tortish kuchi necha marta ortadi?

Javob: 16

1201. Radiusi 6 cm bo'lgan, tekis zaryadlangan doirasimon plastina kuchlanganligi 10 kV/m va plastinaga perpendikulyar yo'nalgan bir jinsli maydonda joylashirildi. Plastinaning bir tomonida, uning markazi yaqinida maydonning kuchlanganligi nolga teng ekanligi ma'lum bo'ldi. Plastinaning zaryadi ( $\mu\text{C}$  da) qanchaga teng?  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ N/C}$

Javob: 2

1202. 1 nF sig'imi zaryadlanmagan kondensatorning bir plastiñasi yerga ulanadi, boshqasi esa uzoqda joylashgan, 92  $\mu\text{C}$  zaryadga ega bo'lgan 20 cm radiusli o'tkazgich sharga uzun yupqa sim orqali ulanadi. Sharda qanday zaryad ( $\mu\text{C}$  da) qoladi?  $k = 9 \cdot 10^9 \text{ N/C}$

Javob: 2

1203\*. Yassi kondensatorning qoplamałari bir-biridan 0,5 mm masofada joylashgan 5 cm radiusli doirasimon plastina ko'rinishiga ega. Dastlab kondensator zaryadlanmagan, keyin esa uning qoplamałari yupqa sim yordamida uzoqdagagi o'tkazgich sharlar bilan birinchisini 150 V potensialgacha zaryadlangan 50 cm radiusli shar bilan, ikkinchisini 60 V potensialgacha zaryadlangan 125 cm radiusli shar bilan ulanadi. Kondensatorda qanday kuchlanish hosil bo'ladı?

Javob: 20

#### Kondensatorlarni ularsh

1204. 160 pF sig'imi yassi kondensatorlar batareyasini hosil qilish uchun 800 pF sig'imi yassi kondensator bilan ketma-ket ulanishi kerak bo'lgan kondensatorning sig'imi (pF da) qanday bo'lishi lozim?

Javob: 200

1205. 20 pF sig'imi yassi kondensator o'lchamlari xuddi shunday, lekin dielektrik singdiruvchanligi 3 ga teng bo'lgan dielektrik bilan to'dirilgan kondensator bilan ketma-ket ulanadi. Shu batareyaning sig'imi (pF da) toping.

Javob: 15

1206. 5  $\mu\text{F}$  sig'imi yassi havo kondensatori dielektrik singdiruvchanligi 6 bo'lgan suyuq dielektrik bilan to'diriladi. Bu kondensatorga qanday sig'imi yassi kondensator ketma-ket ulanganda umumiylig yana 5  $\mu\text{F}$  bo'ladı?

Javob: 6

1207. Sig'imirli 2  $\mu\text{F}$  va 4  $\mu\text{F}$  ga teng bo'lgan ikkita kondensator ketma-ket ulangan hamda EYK 75 V bo'lgan kuchlanish manbaiga ulah qo'yilgan. Katta sig'imi yassi kondensatorning potensiallar farqini toping.

Javob: 25

1208. Har biri 300 V maksimal kuchlanishga mo'ljallangan, lekin 500 va 300 pF sig'implarga ega bo'lgan ikkita kondensator ketma-ket ulangan. Shu batareyaga qanday eng katta kuchlanish qo'yish mumkin?

Javob: 480

1209. 1, 2 va 3  $\mu\text{F}$  sig'imi yassi havo kondensator ketma-ket ulangan va 220 V EYK li kuchlanish manbaiga ulab qo'yilgan. Har bir kondensatorning zaryadini ( $\mu\text{C}$  da) aniqlang.

Javob: 120

1210. Ikkita bir xil yassi havo kondensatori ketma-ket ulangan va kuchlanish manbaiga ulab qo'yilgan. Kondensatorlardan biri suyuq dielektrikka botirilganda kondensatorlar plastinalarida zaryad 1,5 marta ortadi. Dielektrikning dielektrik singdiruvchanligini toping.

Javob: 3

1211. Ikkita bir xil yassi havo kondensatori ketma-ket ulangan va kuchlanish manbaiga ulab qo'yilgan. Ulardan birining ichiga qoplamaalar orasidagi butun bo'shligni to'diradigan

dielektrik ( $\epsilon = 3$ ) kiritiladi. Shu kondensatordagi maydon kuchlanganligi necha marta kamayadi?

Javob: 2

1212. Ikkita bir xil havo kondensatori ketma-ket ulangan va o'zgarmas kuchlanish manbaiga ulab qo'yilgan. Ulardan birining plastinalari orasidagi masofa uch marta orttiriladi. Shu kondensatordagi maydon kuchlanganligi necha marta kamayadi?

Javob: 2

1213. Ikkita bir xil havo kondensatori ketma-ket ulangan va o'zgarmas kuchlanish manbaiga ulab qo'yilgan. Ulardan birining plastinalari orasidagi masofa uch marta kamaytiriladi, boshqasinki esa – uch marta orttiriladi. Birinchi kondensatordagi kuchlanish necha marta kamayadi?

Javob: 5

1214. Plastinalari orasidagi masofa 2 mm bo'lgan 5 pF sig'imi yassi kondensator EYK 2 V bo'lgan kuchlanish manbaiga ulab qo'yilgan. Qoplamlar orasidagi bo'shliqqa ularga parallel ravishda 1 mm qalinlikdagi yassi metall plastina kiritiladi. Plastinani kiritish jarayonida manba orgali qancha zaryad ( $pC$  da) o'tadi?

Javob: 10

1215. Ikkita bir xil havo kondensatorlari parallel ulangan. Ulardan biri dielektrik singdiruvchanligi 5 bo'lgan dielektrik bilan to'dirilsa, bu ikki kondensatordan iborat bo'lgan sistemaning sig'imi necha marta ortadi?

Javob: 3

1216. 2 mkF va 3 mkF sig'imi ikkita kondensator ketma-ket ulanib, ularning tashqi uchlariga 0,8 mkF sig'imi uchinchi kondensator parallel ulangan. Kondensatorlar sistemasining umumiy sig'imi ( $mkF$  da) qanday bo'ladi?

Javob: 2

1217. 10 mkF va 1,5 mkF sig'imi kondensatorlar parallel ulangan. Kondensatorlarning umumiy zaryadi 2,3 mkC. Katta sig'imi kondensatorning zaryadini ( $mkC$  da) aniqlang.

Javob: 2

1218. Ikkita bir xil havo kondensatori parallel ulandi va zaryadlanib, manbadan uzb qo'yildi. Ulardan birining plastinalari orasidagi masofa 3 marta orttiriladi. Shu kondensatordagi maydon kuchlanganligi necha marta kamayadi?

Javob: 2

1219. Ikkita bir xil havo kondensatori parallel ulandi va zaryadlanib, manbadan uzb qo'yildi. Ulardan birining plastinalari orasidagi masofa uch marta kamaytiriladi, boshqasinki esa – uch marta orttiriladi. Ikkinci kondensatordagi maydon kuchlanganligi necha marta kamayadi?

Javob: 5

1220. Ikkita bir xil havo kondensatori parallel ulandi va zaryadlanib, manbadan uzb qo'yildi. Ulardan biri dielektrik singdiruvchanligi 5 bo'lgan dielektrik bilan to'diriladi. Shu kondensatordagi maydon kuchlanganligi necha marta kamayadi?

Javob: 3

1221. 500 V gacha zaryadlangan 1 mkF sig'imi kondensator 4 mkF sig'imi zaryadlanmagan kondensatorga parallel ulanadi. Kondensatorlardagi potensiallar farqini toping.

Javob: 100

1222. 240 V kuchlanishgacha zaryadlangan havo kondensatoriga zaryadlanmagan, o'lchamlari xuddi shunday, lekin ichida shisha dielektrik bo'lgan kondensator parallel ulandi. Agar sistema qisqichlaridagi kuchlanish 30 V ga teng bo'lib qolgan bo'lsa, shishaning dielektrik singdiruvchanligi qanday?

Javob: 7

1223. 100 V potensiallar farqigacha zaryadlangan kondensator 250 V potensiallar farqigacha zaryadlangan, ikki marta katta sig'imi kondensatorga ulanadi. Kondensatorlar qoplamlari orasida qanday potensiallar farqi yuzaga keladi?

**Javob: 200**

1224. 1,2 mkF sig'imi kondensator 135 V kuchlanishgacha zaryadlangan. U 110 V kuchlanishga ega bo'lgan 0,8 mkF sig'imi kondensator bilan parallel ulanadi. Ullovchi simlar bo'ylab qanday zaryad (mkC da) oqib o'tadi?

**Javob: 12**

1225. Birning sig'imi boshgasinikidan 4 marta katta bo'lgan ikki kondensator ketma-ket ulandi va EYK 75 V bo'lgan kuchlanish manbaiga ulab qo'yildi. So'ngra zaryadlangan kondensatorlar manbadan hamda bir-biridan ajratilib, parallel ravishda ulab qo'yildi. Shundan keyin kondensatorlarda kuchlanish qanday bo'ladi?

**Javob: 24**

1226. Agar plastinalari vertikal holda joylashgan yassi kondensator dielektrik singdiruvchanligi 5 bo'lgan suyuq dielektrikka yarmigacha botirilsa, kondensator sig'imi necha marta ortadi?

**Javob: 3**

1227. Plastinalari vertikal holda joylashgan yassi kondensator dielektrik singdiruvchanligi 5 bo'lgan suyuq dielektrikka yarmigacha botiriladi. Kondensatorning sig'imi yana avvalgidek bo'lishi uchun plastinalar orasidagi masofani necha marta orttirish kerak?

**Javob: 3**

1228. Qoplamlaridagi zaryad 1 nC bo'lgan 1 pF sig'imi yassi kondensator o'z hajmining 2/3 qismiga suyuq dielektrikka ( $\epsilon = 2$ ) botirildi. Bunda uning plastinalari suyuqlik sitiga tik joylashgan. Kondensatorning plastinalari orasidagi potensiallар farqi qanday?

**Javob: 600**

1229. Zaryadi 10 nC, plastinalarining yuzasi  $10 \text{ cm}^2$  va ular orasidagi masofa 17,7 mm bo'lgan kondensator o'z hajmining 2/3 qismiga kerosin ichiga hotirladi. Plastinalar vertikal holatda joylashgan. Bu kondensatordagи kuchlanish (kV da) qanchaga teng? Kerosinning dielektrik singdiruvchanligi 2.  $\epsilon_h = 8,85 \cdot 10^{-12} \text{ F/m}$ .

**Javob: 12**

1230. Yassi kondensatorning ichiga qoplamlarga parallel ravishda dielektrik plastina joylashtiriladi. Plastinaning yuzasi qoplamlar yuzasiga teng, qalinligi esa ular orasidagi masofadan uch marta kichik. Agar plastinaning dielektrik singdiruvchanligi 4 ga teng bo'ssa, kondensatorning sig'imi necha foizga ortadi?

**Javob: 60**

1231. Yassi kondensator ichiga qoplamlarga parallel ravishda dielektrik plastina joylashtiriladi. Plastinaning yuzasi qoplamlar yuzasiga teng, qalinligi esa ular orasidagi masofadan uch marta kichik. Agar kondensatorning sig'imi 20% ga ortgan bo'ssa, plastinaning dielektrik singdiruvchanligi qanchaga teng?

**Javob: 2**

#### **Kondensatordagи maydon energiyasi**

1232. 2 mkF sig'imi kondensatorga 1 mC zaryad berilgan. Kondensator qoplamlari o'tkazgich yordamida ulandi. Kondensatorni razryadlashda o'tkazgichda ajralgan issiqlik miqdorini (mJ da) toping.

**Javob: 250**

1233. 4 mkF sig'imi yassi havo kondensatorining elektr maydon kuchlanganligi 1000 V/m ga teng. Kondensator qoplamlari orasidagi masofa 1 mm. Kondensatorning elektr maydon energiyasini (mkJ da) aniqlang.

**Javob: 2**

1234. Har birining sig'imi 4 mkF bo'lgan 20 ta o'zaro parallel ulangan kondensatorlardan tashkil topgan batareyani razryadlashda 10 J issiqlik miqdori ajralib chiqdi. Kondensatorlar qanday potensiallar farqigacha zaryadlangan?

**Javob: 500**

1235. Yassi havo kondensatori qoplamlari orasidagi masofa 0,3 cm. Agar kondensator qoplamlari orasidagi masofa 1,2 cm ga yetkazilsa, kondensatorning elektr maydon energiyasi

necha marta ortadi? Kondensatorga elektr zaryadi berilgandan so'ng, u kuchlanish manbaidan uzib qo'yilgan.

Javob: 4

1236. O'zaro ketma-ket ulangan uchta kondensatordan iborat batareya kuchlanish manbaiga ulab qo'yilgan. Kondensatorlardan biriga shunday sig'imi yana bir kondensator parallel ravishda ulab qo'yiladi. Bunda batareyada jamlangan elektr energiyasi necha foizga ortadi?

Javob: 20

1237. 3 kV kuchlanishgacha zaryadlangan 14 mkF sig'imi kondensator suvli idishga solingen qarshilik yordamida razryadlanadi. Agar suvning massasi 100 g bo'ssa, uning harorati qanchaga (mK da) ortadi? Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ , qarshilik va idishning issiqlik sig'imi inobatga olinmasin.

Javob: 150

1238. 200 V kuchlanishgacha zaryadlangan 10 mkF sig'imi kondensator 15 mkF sig'imi zaryadlanmagagan kondensatorga parallel ravishda ulanadi. Bunda qanday miqdorda (mJ da) issiqlik ajralib chiqadi?

Javob: 120

1239. 100 V kuchlanishgacha zaryadlangan 8 mkF sig'imi kondensator xuddi shu sig'imdagi, biroq 200 V kuchlanishgacha zaryadlangan kondensatorga parallel ravishda ulanadi. Bunda qanday issiqlik miqdori (mJ da) ajralib chiqadi?

Javob: 20

1240. 200 V kuchlanishgacha zaryadlangan 30 mkF sig'imi kondensatorning qoplamlalari 400 V kuchlanishgacha zaryadlangan 10 mkF sig'imi kondensatorning qarama-qarshi zaryadlangan qoplamlalari bilan ulab qo'yiladi. Bunda qanday issiqlik miqdori (mJ da) ajralgan?

Javob: 1350

1241. 6 mkF sig'imi yassi havo kondensatori 200 V kuchlanishgacha zaryadlangan va manbadan uzib qo'yilgan. Plastinalar sekinlik bilan ikki tomoniga surilib, ular orasidagi masofa 4 marta kattalashdiriladi. Bunda qanday ish (mJ da) bajariladi?

Javob: 360

1242. Shisha plastina kondensator qoplamlalari orasidagi fazoni butunlay to'diradi. Kondensatorning sig'imi plastinasiz 2 mkF ga teng. Kondensator EYK 1000 V bo'lgan kuchlanish manbaidan zaryadlandi va manbadan uzib qo'yildi. Kondensatorдан plastinani chiqarib olish uchun elektr kuchlariga qarshi bajarilishi zarur bo'lgan mexanik ishni toping. Dielektrik singdiruvchanlik 2.

Javob: 2

1243. Yassi kondensator ichida uning qoplamlalriga parallel joylashgan shisha plastina bor. Plastinaning yuzasi qoplamlalar yuzasiga teng, qalinligi esa ular orasidagi masofadan ikki marta kichik. Kondensator 300 V kuchlanishgacha zaryadlanadi va manbadan uzib qo'yiladi. Plastinani kondensator ichidan sekinlik bilan chiqarib olish uchun qanday ish (mJ da) bajarish kerak? Kondensatorning sig'imi plastinasiz 4 mkF, shishaning dielektrik singdiruvchanligi 2.

Javob: 80

1244. Yassi kondensatorning ichida qoplamlalar orasidagi fazoni to'liq to'dirib turgan shisha plastina bor. Kondensator 100 V kuchlanishgacha zaryadlanadi va manbadan uzib qo'yiladi. So'ngra qoplamlardan biri sekin surilib, qoplamlalar orasidagi masofa uch marta orttiriladi. Bunda qanday ish (mJ da) bajariladi? Kondensatorning boshlang'ich sig'imi 8 mkF, shishaning dielektrik singdiruvchanligi 1,5.

Javob: 120

1245. Yassi kondensatorning ichida qalinligi qoplamlalar orasidagi masofaga teng, yuzasi esa ularning yuzasidan ikki marta kichik bo'lgan shisha plastina bor. Kondensator 200 V kuchlanishgacha zaryadlanib, kuchlanish manbaidan uzib qo'yiladi. Plastinani kondensatorдан sekinlik bilan chiqarib olish uchun qanday ish (mJ da) bajarish kerak? Kondensatorning sig'imi plastinasiz 6 mkF, shishaning dielektrik singdiruvchanligi 1,5.

Javob: 90

1246. EYK 200 V bo'lgan manbaga ulangan yassi kondensator ichida qoplamlar orasidagi butun fazomi to'dirib turgan shisha plastina bor. Kondensator manbadan uziladi, so'ngra plastinaning yarmi kondensatordan chiqariladi. Bunda qanday ish (mJ da) bajariladi? Kondensatorning boshlang'ich sig'imi 3 mF, shishaning dielektrik singdiruvchanligi 1,5.

Javob: 12

1247. O'lchamlari bir xil bo'lgan ikkita yassi kondensator parallel holda ulangan, 200 V kuchlanishgacha zaryadlangan va kuchlanish manbaidan uzib qo'yilgan. Kondensatorlardan birining ichi bo'sh, boshqasi esa qoplamlar orasidagi bo'shilqni butunlay to'diradigan shisha plastinaga ega. Agar 1-kondensatorning sig'imi 6 mF bolsa, 2-kondensatordan plastinani seklinlik bilan chiqarib ohsh uchun qanday ish (mJ da) bajarish kerak? Shishaning dielektrik singdiruvchanligi 1,5.

Javob: 75

#### 10. O'ZGARMAS TOK

Tok kuchi va zaryad orasidagi bog'lanish. O'tkazgichning qarshiligi

1248. O'zgaruvchan sig'imi 10 nF/s tezlik bilan tekis o'zgarsa, simlar bo'ylab oqayotgan tok kuchi (mA da) qanday bo'ladi?

Javob: 1

1249. Boshlang'ich sig'imi 12 mF bo'lgan vertikal joylashgan kondensatorдан uning ichini to'dirib turgan kerosin ( $\epsilon = 2$ ) tekis oqib chiqadi. Bunda kondensator bilan EYK 24 V bo'lgan batareyani bog'laydigan zanjirda 1 mA tok kuchi oqadi. Kerosinning hammasi necha sekund ichida oqib chiqadi? Tok manbaining ichki qarshiligi va simlarning qarshiligi inobatga olinmasin.

Javob: 144

1250. Elektrodlari yassi bo'lgan ikki elektroqli lampada kuchlanish 22 kV ni tashkil etadi. Elektronlar anodga 1 mN umumiy kuch bilan uriladi. Lampa orqali qanday tok kuchi (mA da) oqadi? Elektron zaryadining uning massasiga nisbati  $1,76 \cdot 10^{11}$  Kl/kg.

Javob: 2

1251. Agar 5 s vaqt davomida tok kuchi 0 dan 12 A gacha tekis ortsa, shu vaqt ichida o'tkazgichning ko'ndalang kesimi bo'ylab qanday zaryad o'tadi?

Javob: 30

1252. O'tkazgichdagi tok kuchi birinchi sekundda 0 dan 7 A gacha tekis ortadi, keyingi 1 s da o'zgarmas qoldadi, va oxirgi 1 s da esa tekis ravishda nolgacha kamayadi. 3 s ichida o'tkazgich orqali qanday zaryad o'tgan?

Javob: 14

1253. O'tkazgichning ko'ndalang kesimi orqali bir minut ichida 100 C zaryad o'tdi. Bunda tok kuchi birinchi 10 s da noldan qandaydir I miqdorgacha tekis ravishda ortgan, oxirgi 10 s da esa nolgacha tekis kamaygan. I ni toping.

Javob: 2

1254.  $0,25 \text{ mm}^2$  ko'ndalang kesimli sim orqali 2,4 A tok o'tmoqda. Agar simdagisi erkin elektronlar konsentratsiyasi  $2 \cdot 10^{28} \text{ m}^{-3}$ , elektronning zaryadi esa  $1,6 \cdot 10^{-19} \text{ C}$  bolsa, elektronlarning yo'naltirilgan harakat o'rtacha tezligi (mm/s da) qanchaga teng?

Javob: 3

1255. Elektrolampa tolasining cho'glanish harorati 2000° C. Lampa qarshiligining harorat koefitsiyenti 0,0045 1/K. Cho'glangan tolaning qarshiligi 0° C dagi sovuq tolaniidan necha marta katta?

Javob: 10

1256. Cho'glanma elektrolampuning volframli tolesi 2000° C haroratda  $220 \Omega$  qarshilikka ega. Tolaning 0° C dagi qarshiligini toping. Volfram qarshiligining harorat koefitsiyenti 0,005 1/K.

Javob: 20

**1257.** O'tkazgich orqali tok o'tganda uning qarsbili 10  $\Omega$  ga oshdi. Agar o'tkazgich qarshiligining harorat koefitsiyenti 0,005 1/K bo'lsa, uning harorati qanchaga ortgan? O'tkazgichning qarshiliqi 0° C da 100  $\Omega$  ga teng.

Javob: 20

**1258.** Mis simning qarshiliqi 6  $\Omega$ . Uzunligi 2 marta katta va ko'ndalang kesim yuzi uch marta katta bo'lgan mis simning qarshiliqi qanday?

Javob: 4

**1259.** Kesimining yuzasi 1 mm<sup>2</sup> bo'lgan nikelin simning qarshiliqi 50  $\Omega$  bo'lsa, uning uzunligi qanday? Nikelining solishtirma qarshiliqi  $4 \cdot 10^{-7}$   $\Omega \cdot m$

Javob: 125

**1260.** Uzunligi 1 m va massasi 0,83 g bo'lgan nixrom simning qarshiliginini aniqlang. Nixromning solishtirma qarshiliqi  $10^{-6}$   $\Omega \cdot m$ , zichligi 8300 kg/m<sup>3</sup>.

Javob: 10

**1261.** Ikkita – mis va alyuminiy sim bir xil massaga ega. Mis simning uzunligi alyuminiy simning uzunlididan 10 marta katta. Mis simning qarshiliqi necha marta katta? Misning zichligi alyumininiyning zichlididan 3,3 marta katta, solishtirma qarshiliqi esa 1,65 marta kichik.

Javob: 200

**1262.** 50  $\Omega$  qarshilikli reostat tayyorlash uchun 10 cm radiusli chinni trubkaga nechta sim o'ragini zich qilib o'rash kerak bo'ladi? Simning solishtirma qarshiliqi  $5 \cdot 10^{-6}$   $\Omega \cdot m$ , diametri 2 mm.

Javob: 50

**1263.** 40  $\Omega$  qarshilikli reostat tayyorlash uchun qanday uzunlikdagi nikelin lenta olish kerak? Nikelining solishtirma qarshiliqi  $4 \cdot 10^{-7}$   $\Omega \cdot m$ , lentaning qalinligi 0,5 mm, kengligi 10 mm.

Javob: 500

**1264.** Simning uzunligi cho'zish orqali ikki marta oshirildi. Uning qarshiliqi necha marta ortgan?

Javob: 4

**1265.** 1 m uzunlikdagi sim shunday cho'zildiki, bunda uning uzunligi 110 cm ga yetdi. Bu jarayonda simning qarshiliqi necha foizga ortgan?

Javob: 21

**1266.** Bir jinsli sim bo'lagi 8 ta bir xil qismga ajratildi va bu qismlar parallel ulandi. Bu sistemning qarshiliqi 1  $\Omega$  ga teng bo'ldi. Simni qirqishdan oldin uning qarshiliqi qanday bo'lgan?

Javob: 64

**1267.** Qarshiliqi 36  $\Omega$  bo'lgan bir jinsli o'tkazgich n ta bir xil qismga qirqilib, shu qismlar parallel ulanganida 1  $\Omega$  qarshilik hosil bo'lsa, n ni toping.

Javob: 6

**1268.** 80 ta bir xil qarshilikdan ikki usulda qo'shma element yasaldi. Birinchi marta – har birida 5 ta parallel ulangan qarshiliklardan iborat bo'lgan 16 ta bir xil guruh ketma-ket ulandi. Ikkinci marta – har birida 4 ta ketma-ket ulangan qarshiliklardan iborat bo'lgan 20 ta bir xil guruh parallel ulandi. Ikkinci holatdagi qarshilik birinchi holatdagidan necha marta kichik?

Javob: 16

**1269.** Kubning har bir qirrasiga 6  $\Omega$  qarshilik ulangan. Kub katta diagonali oxirlarida joylashgan uchlari bilan tarmoqqa ulanganda uning qarshiliqi qanchaga teng bo'ladi?

Javob: 5

**1270.** Kubning har bir qirrasiga 12  $\Omega$  qarshilik ulangan. Hosil bo'lgan sistema yonma-yon joylashgan uchlari bilan tarmoqqa ulanganda uning qarshiliqi qanchaga teng bo'ladi?

Javob: 7

**1271.** Kubning har bir qirrasiga 4  $\Omega$  qarshilik ulangan. Uning yoqlaridan birining diagonali oxirlarida joylashgan uchlari bilan tarmoqqa ulangadagi qarshiliqi qanchaga teng bo'ladi?

Javob: 3

**1272.** Tetraedrning har bir qirrasiga  $20 \Omega$  qarshilik ulangan. Hosil bo'lgan bu sistema ikki uchi bilan tarmoqqa ulanganda uning qarshiliqi qanchaga teng bo'ladi?

Javob: 10

**1273.** Muntazam oltiburchakning har bir tomoniga  $5 \Omega$  qarshilik ulangan. Bundan tashqari, uchlardan har biri oltiburchakning markazi bilan xuddi shunday qarshilik orqali ulangan. Hosil bo'lgan sistema qarama-qarshi uchlari bilan tarmoqqa ulanganda uning qarshiliqi qanchaga teng bo'ladi?

Javob: 4

**1274.** Muntazam oltiburchakning har bir tomoniga  $20 \Omega$  qarshilik ulangan. Bundan tashqari, uchlardan har biri oltiburchakning markazi bilan xuddi shunday qarshilik orqali ulangan. Hosil bo'lgan sistema yonma-yon uchlari bilan tarmoqqa ulanganda uning qarshiliqi qanchaga teng bo'ladi?

Javob: 11

**1275.** Kvadrat shaklidagi katakchalardan iborat bo'lgan cheksiz to'rning har bir qirrasiga  $20 \Omega$  qarshilik ulangan. To'r yonma-yon tugunlari bilan tarmoqqa ulanganda uning qarshiliqi qanchaga teng bo'ladi?

Javob: 10

**1276.** Uchburchak shaklidagi katakchalardan iborat bo'lgan cheksiz to'rning har bir qirrasiga  $12 \Omega$  qarshilik ulangan. To'rning yonma-yon tugunlari tarmoqqa ulanganda uning qarshiliqi qanchaga teng bo'ladi?

Javob: 4

#### Zanjirning bir jinsli qismi uchun Om qonuni

**1277.** Agar  $10 \Omega$  qarshilikli o'tkazgichning uchlariga  $12 V$  kuchlanish qo'yilgan bo'lsa,  $20 s$  vaqt ichida o'tkazgich bo'ylab qanday zaryad o'tadi?

Javob: 24

**1278.** Uzunligi  $100 m$  bo'lgan temir simdagi tok kuchi  $2 A$  bo'lganda undagi kuchlamishni toping. Simning kesimi tomoni  $3 mm$  bo'lgan kvadrat shakliga ega. Temirning solishtirma qarshiliqi  $9 \cdot 10^{-8} \Omega \cdot m$ .

Javob: 2

**1279.**  $110 V$  o'zgarmas kuchlanishli tarmoqqa ikkita bir xil lampa va  $3 \Omega$  qo'shimcha qarshilik ketma-ket ulangan. Agar har bir lampadagi kuchlanish  $40 V$  bo'lsa, zanjirdagi tok kuchini aniqlang.

Javob: 10

**1280.** Elektr tarmog'iga qarshiliklari mos ravishda  $50 \Omega$  va  $60 \Omega$  bo'lgan plitka va reostat ketma-ket ulab qo'yilgan. Agar plitkadagi kuchlanish  $75 V$  bo'lsa, reostatdagi kuchlanishni aniqlang.

Javob: 90

**1281.** Bir xil materialdan tayyorlangan ikkita bir xil uzunlikdagi o'tkazgich ketma-ket ulangan. Birinchi o'tkazgichning diametri  $1 mm$ , ikkinchisining diametri  $2 mm$ . Sistemaga  $300 V$  kuchlanish qo'yilgan. Ikkinci o'tkazgichdagi kuchlanishni aniqlang.

Javob: 60

**1282.** Uchta bir xil qarshilik  $120 V$  o'zgarmas kuchlanish tarmog'iga ulangan: ikkitasi o'zaro parallel, uchinchisi esa ularga ketma-ket. Parallel ulangan qarshiliklardagi kuchlanishni aniqlang.

Javob: 40

**1283.**  $100 V$  kuchlanishli tarmoqqa  $34 \Omega$  qarshilik va unga ketma-ket ravishda o'zaro parallel ulangan  $20 \Omega$  va  $80 \Omega$  qarshiliklar ulab qo'yilgan.  $80 \Omega$  qarshilikdagi kuchlanishni toping.

Javob: 32

**1284.** Har biri  $3 V$  kuchlanish va  $0,3 A$  tok kuchiga mo'ljallangan to'rtta elektr lampalarini o'zaro parallel ulab, EYK  $5,4 V$  bo'lgan o'zgarmas tok manbaidan ta'minlash kerak. Qanday

qo'shimcha qarshilik lampalar zanjiriga ketma-ket ulanishi kerak? Tok manbaining ichki qarshiligi inobatga olinmasin.

Javob: 2

1285. Archa chiroqlari tizimida nechta elektr lampochkasi ketma-ket ulanganda, uni 220 V kuchlanishli tarmoqqa ulash mumkin bo'ladi? Elektr lampochkasining har biri  $20\ \Omega$  qarshilikka ega va  $0,5\ A$  tok kuchida to'la cho'g'lanish bilan yonadi.

Javob: 22

1286. Har biri  $24\ \Omega$  qarshilikka ega bo'lgan hamda 12 V kuchlanishga mo'ljallangan o'nta lampa ketma-ket ulangan va 220 V o'zgarmas kuchlanishli tarmoqqa qandaydir qarshilik bilan ketma-ket tarzda ulab qo'yilgan. Lampalar to'la cho'g'lanish bilan yonishi uchun shu qarshilikning miqdori qanday bo'lishi kerak?

Javob: 200

1287. O'zgarmas tok tarmog'iga ikkita o'tkazgichni ketma-ket ulaganda tarmoqdagi tok kuchi, shu o'tkazgichlarni parallel holda ulagandagi tok kuchiga qaraganda  $6,25$  marta kichik bo'ladi. O'tkazgichlarning qarshiligi necha marta farq qiladi?

Javob: 4

1288. Akkumulyator  $5\ \Omega$  qarshilikka ulangan. Tok kuchini o'lhash uchun ichki qarshiligi  $2,5\ \Omega$  bo'lgan ampermetr tarmoqqa ulandi va u  $2\ A$  ni ko'rsatdi. Ampermetr ulangunga qadar zanjirda tok kuchi qanday bo'lgan? Akkumulyatorning ichki qarshiligi inobatga olinmasin.

Javob: 3

1289. Agar voltmetr  $14\ k\Omega$  qarshilik bilan ketma-ket ulansa, tarmoqdagi kuchlanish  $120\ V$  bo'lganda u  $50\ V$  ni ko'rsatadi. Agar voltmetr noma'lum qarshilik bilan ketma-ket ulansa, xuddi shu tarmoqqa ulanganda u  $10\ V$  ni ko'rsatadi. Noma'lum qarshilikning qiymatini ( $k\Omega$  da) aniqlang.

Javob: 110

1290. Elektroplitka  $60\ V$  kuchlanishli tarmoqqa qandaydir qarshilikka ega bo'lgan elektr simlar yordamida ulab qo'yilgan. Bunda plitkadagi kuchlanish  $40\ V$  ga teng. Agar unga parallel ravishda xuddi shunday 2-plitka ulansa, 1-plitkadagi kuchlanish qanchaga teng bo'ladi?

Javob: 30

1291. Elektroplitka  $60\ V$  kuchlanishli tarmoqqa qandaydir qarshilikka ega bo'lgan elektr simlar yordamida ulab qo'yilgan. Bunda plitkadagi kuchlanish  $40\ V$  ga teng. Agar unga ketma-ket ravishda xuddi shunday 2-plitka ulansa, 1-plitkadagi kuchlanish qanchaga teng bo'ladi?

Javob: 24

1292. Har birining qiymati  $100\ \Omega$  bo'lgan ikkita bir xil qarshilik o'zaro parallel ulangan va ularga ketma-ket tarzda  $200\ \Omega$  qarshilik ulab qo'yilgan. Butun sistema o'zgarmas tok manbaiga ulangan. Parallel ulangan qarshiliklarning uchlariga  $10\ mF$  sig'imiли kondensator ulab qo'yilgan. Agar kondensatorndagi zaryad  $0,22\ mC$  bo'lsa, tok manbaining EYK ni aniqlang. Tok manbaining ichki qarshiligidini hisobga olmang.

Javob: 110

### **Elektr o'lchov asboblari**

1293. Agar qarshiligi  $1\ k\Omega$  bo'lgan voltmetrga ketma-ket ravishda  $9\ k\Omega$  qo'shimcha qarshilik ulansa, voltmetr shkalasining yuqori chegarasi necha marta ortadi?

Javob: 10

1294.  $2\ V$  gacha kuchlanishni o'lhashga mo'ljallangan voltmetri  $12\ V$  kuchlanishli tarmoqqa ulash lozim. Agar voltmetrdagi tok kuchi  $0,05\ A$  dan oshmasligi kerak bo'lsa, buning uchun qanday qo'shimcha qarshilik talab etiladi?

Javob: 200

1295.  $100\ V$  shkalaligi voltmetr  $10\ k\Omega$  qarshilikka ega. Agar voltmetrga ketma-ket holda  $90\ k\Omega$  qo'shimcha qarshilik ulansa, shu asbob yordamida qanday eng katta potensiallar farqini o'lhash mumkin?

Javob: 1000

1296. 0,01 A dan ortiq bo'limgan tok kuchini o'lhashga mo'ljallangan milliampermestr yordamida 1 V gacha potensiallar farqini o'lhash imkoniyatiga ega bo'lish uchun shu asbob bilan ketma-ket tarzda qanday qoshimcha qarshilik ulash kerak?

Javob: 90

1297. Voltmetr qoshimcha qarshilik yordamida 100 V gacha kuchlanishni o'lchaydi. Agar voltmetrning qarshiliqi  $100 \Omega$ , qoshimcha qarshilik esa  $400 \Omega$  bo'lsa, shu voltmetr qoshimcha qarshiliksiz qanday eng katta kuchlanishni o'lchay oladi?

Javob: 20

1298. Qoshimcha qarshilik ulanganda kuchlanishni o'lhash chegarasi 5 marta ortdi. O'lhash chegarasini yana 5 marta orttirish uchun qoshimcha qarshilikni necha marta orttirish kerak?

Javob: 6

1299. Ampermestr  $0,02 \Omega$  ichki qarshilikka ega, uning shkalasi  $1,2 \text{ A}$  tok kuchiga mo'ljallangan. Shu ampermestr bilan  $6 \text{ A}$  gacha bo'lgan tok kuchini o'lchay olish uchun, unga parallel ularishi kerak bo'lgan shuntning qarshiligin ( $m\Omega$  da) aniqlang.

Javob: 5

1300. Qarshiliqi  $0,4 \Omega$  bo'lgan shunt bilan ta'minlangan ampermestr orqali  $5 \text{ A}$  tok kuchi borayotgan bo'lsa, asosiy tarmoqdagi tok kuchini aniqlang. Ampermetrning ichki qarshiliqi  $1,2 \Omega$ .

Javob: 20

1301. Shuntli ampermestr  $10 \text{ A}$  gacha tok kuchini o'lchaydi. Agar shuntning qarshiliqi  $0,05 \Omega$  bo'lsa, shu asbob yordamida shuntsiz qanday eng katta tok kuchini o'lhash mumkin bo'ladi? Ampermetrning qarshiliqi  $0,2 \Omega$ .

Javob: 2

1302. Shunt ulangandan so'ng tok kuchini o'lhash chegarasi 10 marta ortdi. O'lhash chegarasini yana 10 marta orttirish uchun shuntning qarshiligidni necha marta kamaytirish kerak?

Javob: 11

#### Yopiq zanjir uchun Om qonumi

1303. EYK  $15 \text{ V}$  va ichki qarshiliqi  $1 \Omega$  bo'lgan galvanik element  $4 \Omega$  qarshilikka ulangan. Zanjirdagi tok kuchini toping.

Javob: 3

1304. EYK  $20 \text{ V}$  bo'lgan batareya  $1 \Omega$  ichki qarshilikka ega. Tashqi qarshilik qanday bo'lganda zanjirdagi tok kuchi  $2 \text{ A}$  bo'ladi?

Javob: 9

1305. Ichki qarshiliqi  $0,2 \Omega$  va EYK  $2 \text{ V}$  bo'lgan akkumulyator kesimi  $1 \text{ mm}^2$  va solishtirma qarshiliq  $10^{-7} \Omega \text{ m}$  bo'lgan simga ulangan. Agar zanjirdagi tok kuchi  $4 \text{ A}$  bo'lsa, simning uzunligini toping.

Javob: 3

1306. Agar EYK  $3 \text{ V}$  va ichki qarshiliqi  $2 \Omega$  bo'lgan batareyaga ampermestr qisqa masofada ulansa, u  $1 \text{ A}$  tok kuchini ko'rsatadi. Ampermetrning qarshiligidni aniqlang.

Javob: 1

1307. EYK  $2,2 \text{ V}$  bo'lgan elementga ulangan, qarshiliqi  $2 \Omega$  bo'lgan o'tkazgichda  $1 \text{ A}$  tok kuchi oqadi. Elementning qisqa tutashuv tokini toping.

Javob: 11

1308. O'zaro parallel ulangan  $20 \Omega$  va  $30 \Omega$  qarshiliklar EYK  $14 \text{ V}$  bo'lgan akkumulyatorga ulangan. Umumiy zanjirdagi tok kuchi  $1 \text{ A}$  ga teng. Qisqa tutashuv tokini toping.

Javob: 7

1309. EYK  $15 \text{ V}$  bo'lgan tok manbai qandaydir qarshilikka ulanganda manba qutblaridagi kuchlanish  $9 \text{ V}$ , zanjirdagi tok kuchi esa  $1,5 \text{ A}$  bo'lди. Manbaning ichki qarshiligidni toping.

Javob: 4

**1310.** EYK 3,6 V bo'lgan batarcyaning ichki qarshiligi  $0,1 \Omega$ . Batareyaga har birining qarshiligi  $1,5 \Omega$  bo'lgan uchta lampochka parallel holda ulab qo'yilgan. Batarcya klemmalaridagi potensiallar farqini toping.

Javob: 3

**1311.** EYK 15 V va ichki qarshiligi  $1,4 \Omega$  bo'lgan o'zgarmas tok manbai o'zaro parallel ulangan  $2 \Omega$  va  $8 \Omega$  qarshiliklardan iborat bo'lgan tashqi zanjirni ta'minlaydi. Manba qisqichlaridagi potensiallar farqini toping.

Javob: 8

**1312.** EYK 12 V va ichki qarshiligi  $1 \Omega$  bo'lgan tok manbai o'zaro parallel ulangan, har biri  $6 \Omega$  dan bo'lgan uchta qarshilikni ta'minlaydi. Bitta qarshilikdagi kuchlanishni aniqlang.

Javob: 8

**1313.** Zanjir EYK 7,5 V va ichki qarshiligi  $0,3 \Omega$  bo'lgan tok manbai hamda o'zaro parallel ulangan, qarshiliklari  $2 \Omega$  va  $3 \Omega$  bo'lgan ikki o'tkazgichdan iborat. Ikkinchchi o'tkazgichdagi tok kuchini aniqlang.

Javob: 2

**1314.** Batareya  $10 \Omega$  qarshilikka ulanganda zanjirdagi tok kuchi  $2 A$ . Agar shu batareya  $20 \Omega$  qarshilikka ulansa, tok kuchi  $1,5 A$  bo'ladi. Batareyaning ichki qarshiliginini toping.

Javob: 20

**1315.** Element  $1,8 \Omega$  qarshilikka tutashtirilganda zanjirda  $0,7 A$  tok kuchi oqadi,  $2,3 \Omega$  qarshilikka tutashtirilganda esa zanjirdagi tok kuchi  $0,56 A$  bo'ladi. Qisqa tutashuv tokimi toping.

Javob: 7

**1316.** Batareya qisqichlariga ulangan, ichki qarshiligi  $2 \Omega$  bo'lgan ampermetr  $5 A$  tok kuchini ko'rsatadi. Xuddi shunday batareyaning qisqichlariga ulangan, ichki qarshiligi  $150 \Omega$  bo'lgan voltmetr  $12 V$  ni ko'rsatadi. Batareyadagi qisqa tutashuv tokini ( $mA$  da) toping.

Javob: 29600

**1317.** EYK  $6 V$  va ichki qarshiligi  $2 \Omega$  bo'lgan tok manbai hamda reostatdan iborat bo'lgan zanjirda  $1 A$  tok kuchi oqadi. Agar reostatning qarshiligi 4 marta kamaytirilsa, zanjirdagi tok kuchi qanday bo'ladi?

Javob: 2

**1318.** Tok manbaiga ikkita bir xil qarshilik ketma-ket ulandi. Ular parallel holda ulanganda, zanjirdagi tok kuchi 3 marta ortdi. Har bir qarshilik manbaning ichki qarshiligidan necha marta katta?

Javob: 4

**1319.** Akkumulyator va  $20 \Omega$  qarshilikdan tashkil topgan zanjirga voltmetr dastlab ketma-ket, keyin esa qarshilikka parallel ravishda ulanadi. Voltmetrning ko'rsatishi ikki holatda ham bir xil. Agar akkumulyatorning ichki qarshiligi  $0,1 \Omega$  bo'lsa, voltmetrning qarshiligi qanday?

Javob: 4000

**1320.** Ketma-ket ulangan ikkita voltmetri qandaydir ichki qarshilikka ega bo'lgan tok manbaiga ulab qo'yilgan. Voltmetrlarning ko'rsatishlari  $12 V$  va  $4 V$  ga teng. Agar manbaga faqat birinch voltmetr ulansa, bunda u  $15 V$  ni ko'rsatadi. Manbaning EYK qanchaga teng?

Javob: 20

**1321.** Kondensator batareya qisqichlariga ulab qo'yilgan.  $15 \Omega$  qarshilik kondensatorga parallel ulanganda, undagi zaryad 1,2 marta kamaydi. Batareyaning ichki qarshiliginini aniqlang.

Javob: 3

#### Bir necha EYK li zanjir

**1322.** Har birining EYK  $20 V$  va ichki qarshiligi  $2 \Omega$  bo'lgan ikkita bir xil batareya o'zaro parallel ulangan va  $9 \Omega$  qarshilikka ulab qo'yilgan. Qarshilik orqali o'tuvchi tok kuchini toping.

Javob: 2

**1323.** Cho'ntak fonaarning batareyasi har birining EYK  $1,5 V$  va ichki qarshiligi  $0,2 \Omega$  bo'lgan uchta ketma-ket ulangan elementdan iborat. Agar sonar lampasining qarshiligi  $0,9 \Omega$  bo'lsa, u orqali o'tuvchi tok kuchini toping.

Javob: 3

1324. EYK lari 1 V, 2 V va 3 V hamda mos ravishda ichki qarshiliklari 1 Ω, 2 Ω va 3 Ω bo'lgan uchta o'zgarmas tok manbai o'za lo ketma-ket ulangan. Zanjirdagi tok kuchini aniqlang.

Javob: 1

1325. Har birining EYK 20 V va ichki qarsibligi 1 Ω bo'lgan nechta akkumulyator ketma-ket ulanganda, batareyaga ulab qo'yilgan 6 Ω qarshilikli o'tkazgichdagi tok kuchi 0,5 A bo'ladi?

Javob: 2

1326. Batareyada nechta element o'zaro parallel ulanib, unga 49 Ω qarshilik ulanganda zanjirda 2 A tok kuchi hosil bo'ladi? Har bir elementning EYK 100 V, ichki qarshiliqi 2 Ω.

Javob: 2

1327. Ikkita bir xil element o'zaro parallel ulanib, 4 Ω qarshilikka ulab qo'yildi. Keyin esa shu elementlar ketma-ket ulandi va xuddi shunday qarshilikka ulab qo'yildi. Bunda tashqi qarshilik orqali o'tuvchi tok o'zgarmay qoldi. Har bir elementning ichki qarshiliqi qanchaga teng?

Javob: 4

1328. Har birining ichki qarshiliqi 6 Ω bo'lgan uchta bir xil batareya qandaydir qarshilikka ulanadi: birinchi marta o'zaro parallel, ikkinchi marta o'zaro ketka'ket ulangan holda. Ikki holatda ham tashqi zanjirdagi tok kuchi bir xil bo'ldi. Tashqi qarshidik qanchaga teng?

Javob: 6

1329. Birining EYK 2 V va ichki qarshilikli 1 Ω, ikkinchisining EYK 5 V va ichki qarshiliqi 0,5 Ω bo'lgan ikkita tok manbai yopiq zanjir hosil qilgan holda mos qutblari bilan ulanadi. Har bir manbaning musbat va manfiy qutblari orasidagi potensiallar farqi qanchaga teng?

Javob: 4

1330. Birining EYK 5 V va ichki qarshilikli 1 Ω, ikkinchisining EYK 3 V va ichki qarshiliqi 3 Ω bo'lgan ikkita tok manbai ketma-ket ulanadi va 12 Ω tashqi qarshilikka ulab qo'yiladi. Birinchi manbadagi potensiallar farqi ikkinchi manbadagiga qaraganda necha marta katta?

Javob: 3

#### Joul-Lens konuni

1331. O'zgarmas kuchlanish tarmog'iga ulangan qarshiliqi 10 Ω bo'lgan o'tkazgichda 5 s ichida 450 J energiya ajraldi. Tarmoqdagi kuchlanish qanday?

Javob: 30

1332. Qarshiliqi 6 Ω bo'lgan o'tkazgich bo'yilab 9 s davomida o'zgarmas tok o'tkazildi. Agar o'tkazgich kesimi orqali 3 C zaryad o'tgan bo'lsa, shu vaqt ichida o'tkazgichda qanday miqdorda issiqlik ajralib chiqqan?

Javob: 6

1333. Agar tarmoqdagi kuchlanish o'zgarmas va 220 V ga, tok kuchi esa 2 A ga teng bo'lsa, elektrodazmolning 50 s davomidagi qizishi uchun qancha miqdorda energiya (kJ da) sarflanadi?

Javob: 22

1334. Elektroplitka 220 V kuchlanishli tarmoqqa ulangan. Qandaydir vaqt ichida unda 1100 J energiya ajraldi. Shu vaqt ichida plitka orqali qanday zaryad o'tgan?

Javob: 5

1335. Reostatdagi kuchlanish 10 V bo'lganda, u 20 W quvvat iste'mol qilishi uchun, unda necha metr nixrom sim o'rash kerak bo'ladi? Simning ko'ndalang kesimi yuzasi 1 mm<sup>2</sup>, nixromning solishtirma qarshiliqi 10<sup>-6</sup> Ω·m.

Javob: 5

1336. Agar suv elektroplitkada ajraladigan energiyaning 50% ini olsa, qaynab turgan 132 g massali suvning bug'lanishi uchun qancha vaqt (minutda) talab etiladi? Plitkadagi kuchlanish 220 V, tok kuchi 4,6 A. Suvning solishtirma bug'lanish issiqligi 2,3 MJ/kg.

Javob: 10

1337. 600 cm<sup>3</sup> hajmli suvi bo'lgan elektr choynakni 20 °C haroratda bo'lganida o'chirishni unutishdi. Shundan necha sekund o'tib, suvning hammasi bug'lanib ketadi? Choynakning qizdirgichi 30 Ω qarshilikka ega va 300 V o'zgarmas kuchlanishli tarmoqqa ulangan.

Choynakning FIK 40%. Suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ , suvning solishtirma bug'lanish issiqligi  $2,3 \text{ MJ}/\text{kg}$ .

Javob: 1318

1338. Agar qizdirgich orqali  $100 \text{ C}$  zaryad o'tsa, kalorimetrdagi suvning harorati qanchaga o'zgaradi? Qizdirgichdagi kuchlanish  $210 \text{ V}$ , suvning massasi  $1 \text{ kg}$ , suvning solishtirma issiqlik sig'imi  $4200 \text{ J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ .

Javob: 5

1339. Zanjirga uzunligi va diametri bir xil bo'lgan volfram va alyuminiy simlar ketma-ket ulangan. Agar volframning solishtirma qarshiligi alyuminiyikidan ikki marta katta bo'lsa, volfram simda necha marta ko'p issiqlik ajraladi?

Javob: 2

1340. Ikkita o'tkazgich parallel holda ulangan va o'zgarmas kuchlanish tarmog'iga ulab qo'yilgan. Birinchi o'tkazgichning uzunligi ikkinchisiniidan 3 marta, ko'ndalang kesim yuzasi esa 9 marta katta. O'tkazgichlarda bir xil quvvat ajraladi. Birinchi o'tkazgichning solishtirma qarshiligi ikkinchisiniidan necha marta katta?

Javob: 3

1341.  $7 \Omega$  va  $5 \Omega$  qarshilikli ikkita o'tkazgich o'zaro parallel ulanadi va tok manbaiga ulab qo'yiladi. Birinchi o'tkazgichda  $300 \text{ J}$  issiqlik ajraldi. Ikkinchi o'tkazgichda shu vaqt ichida qancha issiqlik miqdori ajraladi?

Javob: 420

1342.  $5 \Omega$  va  $7 \Omega$  qarshiliklar ketma-ket ulangan. Ikkala qarshilikda hammasi bo'lib  $960 \text{ J}$  issiqlik ajraldi. Birinchi qarshilikda shu vaqt ichida qancha miqdorda issiqlik ajralgan?

Javob: 400

1343. Agar elektroplitka spiralining qarshiligi 2 marta kamaytirilib, tarmoqdagi kuchlanish esa 2 marta orttirilsa, plitka vositasida ajraladigan issiqlik miqdori necha marta ortadi?

Javob: 8

1344. Agar elektropechning  $500^{\circ}\text{C}$  haroratida unda  $240 \text{ W}$  quvvat ajralsa, pech  $1000^{\circ}\text{C}$  gacha qizdirilganda, unda qanday quvvat ajralib chiqadi? Pech simi qarshiligining harorat koefisiyenti  $0,005 \text{ 1/K}$ .

Javob: 140

1345. Elektroplitkaning ikkita bir xil spiralini ketma-ket yoki parallel holda ulash mumkin. Parallel ravishda ulanganda ketma-ket ulangandagiga qaraganda, ayni bir vaqt ichida necha marta ortiqroq issiqlik miqdori ajraladi? Spiralarning qarshiligi ish sharoitiga bog'liq emas.

Javob: 4

1346. Elektroplitkani ta'mirlashda spiral dastlabki uzunligining  $0,2 \text{ qismiga}$  qisqartirildi. Plitkaning quvvati necha foizga ortgan? Spiralning solishtirma qarshiliginini o'zgarmas deb hisoblang.

Javob: 25

1347. Ikkita bir xil elektr lampasi  $20 \text{ V}$  o'zgarmas kuchlanishi tarmoqqa ulangan: birinchi holda ketma-ket, ikkinchi holda parallel ravishda. Ikkinchi holatda lampalar iste'mol qilgan quvvat birinchi holatdagidan  $6 \text{ W}$  ga ortiq. Har bir lampaning qarshiligini toping. Qarshilik o'zgarmas deb hisoblang.

Javob: 100

1348. Ikki lampochkaning nominal quvvati bir xil, nominal kuchlanishlari esa  $120$  va  $240 \text{ V}$  ga teng. Ikkinchi lampaning qarshiligi birinchiniidan necha marta katta?

Javob: 4

1349. Lampochkaning nominal quvvati  $36 \text{ W}$ , nominal kuchlanishi  $120 \text{ V}$ . Agar u  $220 \text{ V}$  kuchlanishi tarmoqqa ulansa, unda qanday quvvat ajraladi? Lampaning qarshiligi ish sharoitiga bog'liq emas.

Javob: 121

1350. O'zida  $100$  va  $150 \text{ W}$  quvvatlari ko'rsatilgan ikkita elektr lampasi har bir lampaning nominal kuchlanishiga mos keladigan o'zgarmas kuchlanishi tarmoqqa ketma-ket ulangan.

Lampalarda qanday umumiy quvvat ajralib chiqadi? Lampalar qarshiligi ish sharoitiga bog'liq emas.

Javob: 60

1351. Elektr choynakning qizdirgichi bir xildagi ikki seksiyadan iborat. Bir seksiya ulanganda choynakdagi suv 26 minutdan so'ng qaynaydi. Agar ikkala seksiya parallel holda ulansa, suv necha minutdan keyin qaynaydi? Seksiyalar qarshiligi ish sharoitiga bog'liq emas.

Javob: 18

1352. 600 va 300 W quvvat iste'mol qiladigan elektr kastryul va choynak tarmoqqa parallel holda ulangan va ulardag'i suv bir xil vaqtida, 20 minutdan so'ng qaynaydi. Agar ular ketma-ket ulansa, kastryuldagi suv choynakdagidan necha minut keyin qaynaydi? Qurilmalarning qarshiligi ish sharoitiga bog'liq emas.

Javob: 135

1353. 800 va 400 W nominal quvvatga ega bo'lgan, suv bilan to'ldirilgan ikkita elektr choynak tarmoqqa parallel ravishda ulanganda ikkalasi ham suvni 16 minutda qaynatadi. Shu choynaklar ketma-ket ulaganda suvlarning qaynash vaqtini har xil bo'ladi. Shu vaqtlardan kattasini (minutda) toping. Choynaklarning qarshiligi ish sharoitiga bog'liq emas.

Javob: 144

1354. Yassi kondensatororda plastinalar orasidagi dielektrik namlandi va tok o'tkaza boshladi. Tokning zichligi  $0,02 \text{ A/m}^2$  bo'lganda dielektrikda sekundiga  $10 \text{ J/m}^3$  issiqlik (hajim birligida) ajralib chiqdi. Kondensatordag'i elektr maydon kuchlanganligi qanchaga teng?

Javob: 500

1355. Diametrleri 0,2 va 0,8 mm bo'lgan, bir xil materialdan tayyorlangan ikkita sim qizdirgich vazifasini bajaradi va tarmoqqa parallel holda ulanadi. Uzoq ishlash davomida similarning harorati bir xil bo'lib qoldi. Agar ingichka simning uzunligi 55 cm va 1 s ichida atrof muhitga beriladigan issiqlik miqdori sirt yuzasiga proporsional bo'lsa (bir xil haroratda), qalin simning uzunligini (cm da) toping.

Javob: 110

1356. Yupqa simdan 5 A gacha tok kuchi o'tganda, u erimaydi. Shu materialdan yasalgan, lekin diametri 4 marta katta bo'lgan sim uchun kritik tok qanday bo'ladi? 1 s ichida atrof muhitga beriladigan issiqlik miqdori sirt yuzasiga proporsional (bir xil haroratda).

Javob: 40

#### Tok manbaining ishi

1357. 4 mF sig'imiли zaryadlanmagan kondensator 200 V EYK li tok manbaining qisqichlariga ulab qo'yildi. Kondensatorni zaryadlash jarayonida qancha issiqlik (mJ da) ajralgan?

Javob: 80

1358. 100 V kuchlanishgacha zaryadlangan 8 mF sig'imiли kondensatorni qo'shimcha zaryadlash maqsadida 200 V EYK li manbaga ulandi. Qo'shimcha zaryadlashda qancha issiqlik (mJ da) ajralgan?

Javob: 40

1359. 200 V kuchlanishgacha zaryadlangan 6 mF sig'imiли kondensatorni qayta zaryadlash uchun 100 V EYK li manbaga ulanadi, bunda musbat zaryadlangan qoplama manbaning musbat qutbi bilan, manfiy zaryadlangan qoplama esa manfiy qutb bilan tutashtiriladi. Qayta zaryadlashda qancha issiqlik (mJ da) ajralgan?

Javob: 30

1360. 100 V kuchlanishgacha zaryadlangan 8 mF sig'imiли kondensatorni qo'shimcha zaryadlash uchun 200 V EYK li tok manbaiga ulandi, biroq qoplamlar almashtirib qo'yildi: musbatini manfiy qisqichga, manfiysini esa musbat qisqichga tutashtirildi. Qayta zaryadlashda qancha issiqlik (mJ da) ajralgan?

Javob: 360

**1361.** 3 va 1  $\text{m}\mu\text{F}$  sig'imiли kondensatorlar ketma-ket ulangan hamda 200 V EYK li tok manbaiga tutashtirilgan. Kichik sig'imiли kondensator teshilganda qancha issiqlik ( $\text{mJ}$  da) ajralib chiqadi?

Javob: 45

**1362.** Sig'imirli  $C_1 = 5 \text{ m}\mu\text{F}$  va  $C_2 = 15 \text{ m}\mu\text{F}$  bo'lgan, o'zaro parallel ulangan ikkita kondensator  $C_3 = 30 \text{ m}\mu\text{F}$  sig'imiли kondensatorga ketma-ket ulab qo'yilgan. Kondensatorlar batareyasi 100 V EYK li manbaiga ulangan.  $C_1$  kondensator teshilganda qancha issiqlik ( $\text{mJ}$  da) ajralib chiqadi?

Javob: 90

**1363.** 3  $\text{m}\mu\text{F}$  sig'imiли kondensator 100 V EYK li tok manbaiga ulab qo'yilgan. Kondensator plastinalari sekinlik bilan ikki tomonga surilib, ular orasidagi masofa uch marta orttiriladi. Bunda qanday ish ( $\text{mJ}$  da) bajariladi?

Javob: 10

**1364.** Yassi kondensator ichida qoplamlar orasidagi fazoni to'liq to'ldiradigan shisha dielektrik plastina turibdi. Kondensatorning plastinasiz sig'imi 10  $\text{m}\mu\text{F}$ , shishaning dielektrik singdiruvchanligi 1,5. Agar kondensator 200 V EYK li tok manbaiga ulangan bo'lsa, kondensator ichidan plastinani sekin chiqarib olish uchun qanday ish ( $\text{mJ}$  da) bajarish kerak?

Javob: 100

**1365.** 100 V EYK li manbaiga ulangan yassi kondensator ichida qoplamlar orasidagi butun fazoni to'liq to'ldiradigan shisha plastina bor. Qoplamlardan biri sekin surilib, ular orasidagi masofa uch marta orttiriladi. Bunda qanday ish ( $\text{mJ}$  da) bajariladi? Kondensatorning boshlang'ich sig'imi 8  $\text{m}\mu\text{F}$ , shishaning dielektrik singdiruvchanligi 1,5.

Javob: 30

**1366.** 100 V EYK li manbaiga ulangan yassi kondensator ichida qoplamlar orasidagi butun fazoni to'liq to'ldiradigan shisha plastina bor. Kondensatorning plastinaning yarmini surib chiqarish uchun qanday ish ( $\text{mJ}$  da) bajarish kerak? Kondensatorning plastinasiz sig'imi 8  $\text{m}\mu\text{F}$ , shishaning dielektrik singdiruvchanligi 1,5.

Javob: 10

**1367.** 12  $\text{m}\mu\text{F}$  sig'imiли ikkita bir xil yassi havo kondensatori ketma-ket ulangan va 200 V EYK li manbaiga tutashtirilgan. Ulardan birining qoplamlari orasidagi masofani ikki marta oshirish uchun qanday ish ( $\text{mJ}$  da) bajarish kerak?

Javob: 40

**1368.** Ikkita bir xil o'lchamdagи kondensator ketma-ket ulangan. Ulardan birining ichi bo'sh, boshqasida esa shisha plastina bor va bu kondensatorlar 100 V EYK li tok manbaiga ulab qo'yilgan. Ichi bo'sh kondensatorning sig'imi 6  $\text{m}\mu\text{F}$ , shishaning dielektrik singdiruvchanligi 2, plastina qoplamlar orasidagi butun fazoni to'ldiradi. Plastinani kondensatordan sekinlik bilan chiqarib olish uchun qanday ish ( $\text{mJ}$  da) bajarish kerak?

Javob: 5

#### **Yopiq zanjirda energetik balans**

**1369.** 6 V EYK li element 2  $\Omega$  tashqi qarshilikka tutashtirilgan. Bunda tashqi zanjirda 8 W quvvat ajraladi. Elementning ichki qarshiligini toping.

Javob: 1

**1370.** Agar tok manbaiga ulangan 10  $\Omega$  qarshilikda 100 W, butun zanjirda esa 110 W quvvat ajralsa, tok manbaining ichki qarshiligi qanday?

Javob: 1

**1371.** Element o'zining ichki qarshiligidan 2 marta katta bo'lgan tashqi qarshilikka ulangan. Agar zanjirdagi tok kuchi 3 A bo'lganda tashqi qarshilikda 18 W quvvat ajralsa, elementning EYK ni toping.

Javob: 9

**1372.** Tashqi qarshilik 23  $\Omega$ , ichki qarshilik esa 1  $\Omega$  bo'lganda EYK 24 V bo'lgan batareyaning foydali quvvatini toping.

Javob: 23

1373. Har birining EYK 2 V bo'lgan elementlarning 5 tasi ketma-ket ulanib batareya hosil qilingan. Tok kuchi 4 A bo'lganda zanjirda ajraladigan to'liq quvvat qanchaga teng?

Javob: 40

1374. Ichki qarshiligi  $2 \Omega$  bo'lgan tok manbaiga  $3 \Omega$  qarshilik ulagan. Agar tashqi qarshilikdagi kuchlanish 6 V bo'lsa, manbaning to'lal quvvati qanday?

Javob: 20

1375. Har birining qarshiligi  $1,4 \Omega$ , EYK  $3,5$  V bo'lgan bir nechta element o'zaro parallel ulanib batareya hosil qilingan. Tashqi zanjirdagi tok kuchi 1 A bo'lganda batareyaning foydali quvvati  $3,3$  W bo'ladi. Batareyada nechta element bor?

Javob: 7

1376. Har birining EYK  $0,5$  V, qarshiligi  $0,2 \Omega$  bo'lgan elementlar ketma-ket ulanib batareya hosil qilingan. Tashqi zanjirdagi tok kuchi  $2$  A bo'lganda batareyaning foydali quvvati  $1$  W bo'ladi. Batareyada nechta element bor?

Javob: 5

1377. Tashqi qarshilik  $3 \Omega$  dan  $10,5 \Omega$  gacha oshirilganda tok manbaining FIK ikki marta ortadi. Manbaning ichki qarshiligi qanchaga teng?

Javob: 7

1378. Ichki qarshiligi  $4 \Omega$  bo'lgan tok manbai  $8 \Omega$  qarshilikka tutashtirilgan. Tashqi qarshilikning yana qanday boshqa qiymatida, tashqi zanjirda ajraladigan quvvat  $8 \Omega$  qarshilikda ajaraladigan quvvatga teng bo'ladi?

Javob: 2

1379. Tok manbaining EYK  $6$  V, ichki qarshiligi  $2 \Omega$ . Ikkita bir xil qarshilik manbaga birinchi marta ketma-ket, ikkinchi marta parallel holda ulanadi. Ikkala holatda ham tashqi zanjirda bir xil quvvat ajraladi. Shu quvvat qanchaga teng?

Javob: 4

1380. Tok manbaiga navbatma-navbat ulangan, qarshiliklari  $3$  va  $12 \Omega$  bo'lgan lampochkalar bir xil quvvat iste'mol qiladi. Tok manbaining ikkinchi holatdagi FIK birinchi holatdagidan necha marta ortiq?

Javob: 2

1381. Tok manbaining EYK  $2$  V, ichki qarshiligi  $1 \Omega$ . Tashqi zanjir  $0,75$  W quvvat iste'mol qiladi. Bu shartlarni tok kuchining ikkita qiymati qanoatlantiradi. Ularning ayirmasi qanchaga teng?

Javob: 1

1382. Akkumulyatorlar batareyasining EYK  $12$  V, qisqa tutashuvdagi tok kuchi  $5$  A. Tashqi zanjirda qanday eng katta quvvat olinishi mumkin?

Javob: 15

1383. Elementlar batareyasi  $9 \Omega$  qarsilikka tutashtirilganda  $1$  A tok beradi. Qisqa tutashuv toki  $10$  A. Batareya qanday maksimal foydali quvvat berishi mumkin?

Javob: 25

1384. Element 1-marta  $4 \Omega$  qarshilik bilan, 2-marta  $9 \Omega$  qarshilik bilan tutashtiriladi. Ikkala holatda ham tashqi zanjirda bir xil quvvat ajraladi. Tashqi qarshilikning qanday qiymatida, bu quvvat eng katta bo'ladi?

Javob: 6

1385. Batareyaning foydali quvvati turli xildagi ikki tashqi qarshilik:  $2$  va  $8 \Omega$  larda  $32$  W ga teng. Batareya bera oladigan eng katta foydali quvvat qanday?

Javob: 36

1386. Tok manbai  $2 \Omega$  tashqi qarshilikka tutashtirilganda unda (qarshilikda)  $32$  W quvvat,  $3 \Omega$  tashqi qarshilikka tutashtirilganda esa  $27$  W quvvat ajraladi. Bu manba bera oladigan eng katta foydali quvvat qanday?

Javob: 36

1387. Zanjirdagi tok kuchining ikkita  $2$  va  $6$  A qiymatlarida batareyaning foydali quvvati  $6$  W ga teng. Shu batareyaning maksimal foydali quvvati qanchaga teng?

Javob: 8

1388. Zanjirdagi tok kuchi 2 A bo'lganda batareyaning foydali quvvati 10 W, 4 A bo'lganda esa 16 W. Batareya qanday eng katta foydali quvvat bera oladi?

Javob: 18

1389. Tramvayning elektrosvigateli 100 A tok kuchi va 500 V kuchlanishda ishlaydi. Dvigatelning 4 kN tortish kuchida tramvayning tezligi 18 km/h. Dvigatel chulg'amining qarshiligi qanchaga teng?

Javob: 3

1390. Elektrosvigatel 50 kg massali yukni 2 m/s tezlik bilan ko'tarmoqda. Agar motorning  $12 \Omega$  qarshilikli chulg'ami bo'y lab 10 A tok o'tsa, u qanday kuchlanishda ishla moqda?

Javob: 220

Elektroliz

1391. Agar 2 A tok kuchi yordamida ajralib chiqqan nikelning massasi 1,8 g ga teng bo'lsa, nikellash necha minut davom etgan? Nikelning elektrokimyoviy ekvivalenti  $0,3 \text{ mg/C}$ .

Javob: 50

1392. Mis sulfatni elektrolizlashda 200 s davomida katodda necha milligramm mis ajralib chiqadi? Bunda birinchi 100 s davomida tok kuchi 0 dan 6 A gacha tekis ortadi, keyingi 100 s da 2 A gacha tekis kamayadi. Misning elektrokimyoviy ekvivalenti  $3,3 \cdot 10^{-7} \text{ kg/C}$ .

Javob: 231

1393. Har birining EYK 10 V, ichki qarshiligi  $4 \Omega$  bo'lgan elementlarning 10 tasi ketma-ket ularib batareya hosil qilingan. Batareyaga  $200 \Omega$  qarshilikli elektrolitik vanna ulab qo'yiladi. 6 soat ishlash davomida elektrodda necha milligramm rux ajraladi? Ruxning elektrokimyoviy ekvivalenti  $0,4 \text{ mg/C}$ .

Javob: 3600

1394.  $200 \text{ cm}^2$  yuzali metall sirtni 20 mkm qalinlikdagi kumush qatlami bilan qoplash kerak. Elektrolit orqali 0,5 A tok kuchi necha minut o'tkazilishi kerak? Kumushning zichhgi  $10500 \text{ kg/m}^3$ , elektrokimyoviy ekvivalenti  $1,12 \text{ mg/C}$ .

Javob: 125

1395. Agar elektrolizlashda tokning zichligi  $300 \text{ A/m}^2$  bo'lsa, necha minutdan so'ng misli anod  $0,03 \text{ mm}$  ga qalinroq bo'ladi. Misning elektrokimyoviy ekvivalenti  $3 \cdot 10^{-7} \text{ kg/C}$ , zichligi  $9000 \text{ kg/m}^3$ .

Javob: 50

1396. Havo sharnini vodorod bilan to'ldirish uchun sho'r suvni elektrolizlash 1000 soat davom etdi. Elektrolizda tok kuchi 500 A bo'lgan. To'ldirilgan havo sharining ko'tarish kuchi (itarib chiquvchi kuch minus sharni to'ldirgan gazning og'irligi) qo'chaga teng? Vodorodning elektrokimyoviy ekvivalenti  $10^{-8} \text{ kg/C}$ , vodorodning va havoning molyar massalari 2 va 29 (g/mol da). Vodorod hamda sharni o'rab turgan havo bir xil bosim va haroratga ega.

Javob: 2430

1397. Sulfat kislota eritmasini elektrolizlashda 37 W quvvat sarflanadi. Agar 500 minut ichida  $0,3 \text{ g}$  vodorod ajralsa, elektrolitning qarshilagini aniqlang. Vodorodning elektrokimyoviy ekvivalenti  $10^{-8} \text{ kg/C}$ .

Javob: 37

1398. Agar elektroslardagi potensiallar farqi 4 V bo'lib, 80 kJ energiya sarflanganda 5,6 g kumush ajralgan bo'lsa, kumushli tuz eritmasini elektrolizlovchi qurilmaning FIK (foizda) qanchaga teng? Kumushning elektrokimyoviy ekvivalenti  $1,12 \text{ mg/C}$ .

Javob: 25

1399. Elektroliz 9 V kuchlanishda olib borilsa, va qurilmaning FIK 50% bo'lsa, 1 kg alyuminiy olish uchun qanday miqdorda elektroenergiya (MJ da) sarflanadi? Alyuminiyning elektrokimyoviy ekvivalenti  $9 \cdot 10^{-8} \text{ kg/C}$ .

Javob: 200

## **11. MAGNETIZM**

### **Amper qonunu**

1400. Induksiyasi  $0,1\text{ T}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonda joylashgan,  $20\text{ A}$  tok o'tayotgan  $0,5\text{ m}$  uzunlikdagi o'tkazgichga  $0,5\text{ N}$  kuch ta'sir qiladi. O'tkazgichdagi tokning yo'nalishi magnit induksiya vektori bilan qanday burchak (graduslarda) hosil qiladi?

Javob: 30

1401. Tokli to'g'ri o'tkazgich bir jinsli magnit maydonda induksiya chiziqlariga perpendikulyar joylashtirilgan. O'tkazgich shunday buriladiki, undagi tok yo'nalishi maydon induksiya vektori bilan  $30^\circ$  burchak hosil qiladi. Bunda magnit maydon tomonidan o'tkazgichga ta'sir etuvchi kuch necha marta kamayadi?

Javob: 2

1402. Har birining uzunligi  $50\text{ m}$  bo'lgan va har biridan  $300\text{ A}$  tok o'tayotgan ikkita parallel simlar qanday kuch bilan o'zaro ta'sirlashadi? Simlardan har biri boshqasi joylashgan o'rinda  $1,2\text{ mT}$  induksiysi magnit maydon hosil qiladi.

Javob: 18

1403.  $140\text{ cm}$  uzunlikdagi o'tkazgich to'g'ri burchak ostida shunday bukildiki, bunda burchak tomonlaridan biri  $60\text{ cm}$  ga teng bo'ldi. So'ngra induksiyasi  $2\text{ mT}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonda, har ikkala tomoni bilan induksiya chiziqlariga tik holda joylashtirildi. Agar o'tkazgichdan  $10\text{ A}$  tok o'tkazilsa, unga qanday kuch ( $\text{mN da}$ ) ta'sir qiladi?

Javob: 20

1404.  $110\text{ cm}$  uzunhkdag'i o'tkazgich  $60^\circ$  burchak ostida shunday bukildiki, bunda burchak tomonlaridan biri  $30\text{ cm}$  ga teng bo'ldi va induksiyasi  $2\text{ mT}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonda, har ikkala tomoni bilan induksiya chiziqlariga tik holda joylashtirildi. Agar o'tkazgichdan  $10\text{ A}$  tok o'tkazilsa, unga qanday kuch ( $\text{mN da}$ ) ta'sir qiladi?

Javob: 14

1405.  $0,2\text{ m}$  uzunlikdagi,  $5\text{ A}$  tok o'tayotgan o'tkazgichni bir jinsli magnit maydonda  $0,5\text{ m}$  masofaga ko'chirishda Amper kuchi bajaradigan ishni ( $\text{mJ da}$ ) aniqlang. O'tkazgich maydon chiziqlariga tik joylashgan va Amper kuchi yo'nalishi tomonga harakatlanadi. Magnit maydon induksiyasi  $0,1\text{ T}$ .

Javob: 50

1406. Magnit induksiya chiziqlariga perpendikulyar holda joylashgan to'g'ri o'tkazgichdan  $1\text{ A}$  tok o'tganida, o'tkazgich  $2\text{ m/s}^2$  tezlanishga erishdi. O'tkazgichning ko'ndalang kesim yuzasi  $1\text{ mm}^2$ , o'tkazgich materialining zichligi  $2500\text{ kg/m}^3$ . Magnit maydon induksiyasi ( $\text{mT da}$ ) qanchaga teng? Og'irlik kuchini hisobga olmang.

Javob: 5

1407. Uzunligi  $20\text{ cm}$  va massasi  $4\text{ kg}$  bo'lgan, gorizontal joylashgan o'tkazgich bo'ylab  $10\text{ A}$  tok oqadi. Og'irlik kuchi magnit kuchi bilan muvozanatlashishi uchun o'tkazgich joylashtirilishi kerak bo'lgan magnit maydon induksiyasini minimal qiymatini toping.  $g = 10\text{ m/s}^2$ .

Javob: 20

1408. O'tkazgich induksiyasi  $0,01\text{ T}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonda gorizontal holatda turibdi. Maydon induksiya chiziqlari gorizontal va o'tkazgichga perpendikulyar holda yo'nalgan. O'tkazgich muallaq turishi uchun undan qanday tok o'tkazish kerak? O'tkazgich uzunlik birligining massasi  $0,01\text{ kg/m}$ .  $g = 10\text{ m/s}^2$ .

Javob: 10

1409. Uzunligi  $20\text{ cm}$  va massasi  $50\text{ g}$  bo'lgan to'g'ri o'tkazgich bir jinsli magnit maydonda ikkiti yengil ip orqali gorizontal holda osib qo'yilgan. Induksiya vektori gorizontal hamda o'tkazgichga perpendikulyar yo'nalgan. O'tkazgich orqali qanday tok o'tkazilganda, iplardan biri uzilib ketadi? Maydon induksiyasi  $50\text{ mT}$ . Har bir ip  $0,4\text{ N}$  yuklanishda (nagruzkada) uzilib ketadi.  $g = 10\text{ m/s}^2$ .

Javob: 30

**1410.** 10 cm uzunlikdagi o'tkazgich induksiyasi 1 mT bo'lgan magnit maydonda gorizontall ravishda, kuchi chiziqlariga perpendikulyar holda shunday joylashtiriladi, bunda og'irlik kuchi magnit kuchi bilan muvozanatlashadi. O'tkazgich uchlaridagi kuchlanish 100 V, uning solishtirma qarshiliqi  $10^{-5} \Omega \cdot m$ . Shu o'tkazgich materialining zichligi ( $g/cm^3$ da) qanchaga teng?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 10

**1411.** 10 g massali va 20 cm uzunlikdagi o'tkazgich induksiyasi 0,25 T bo'lgan vertikal magnit maydonda gorizontal holatda osib qo'yilgan. O'tkazgich bo'ylab 2 A tok o'tkazilsa, u osib qo'yilgan iplar vertikaldan qanday burchakka (graduslarda) og'adi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 45

**1412.** 20 g massali va 5 cm uzunlikdagi sterjen gorizont bilan  $\alpha$  burchak hosil qiladigan ( $ig\alpha = 0,3$ ) silliq qiya tekislik ustida gorizontal holda qo'yildi. Butun sistema induksiyasi 150 mT bo'lgan vertikal magnit maydonda joylashgan. Sterjendagi tok kuchi qanday bo'lganida u muvozanatda bo'ladi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 8

**1413.** Simli kvadratning uchta tomoni bir-biri bilan qattiq mahkamlangan, to'rtinchisi esa ular bo'ylab sirpana oladi. Kvadrat gorizontal sirt ustida va induksiyasi 100 mT bo'lgan vertikal magnit maydonda joylashgan. Agar qo'zg'aluvchan tomonning massasi 20 g va kontaktlardagi ishqalanish koefitsiyenti 0,2 bo'lsa, shu tomonni siljitim uchun kontur bo'ylab qanday minimal tok o'tkazish kerak? Kvadratning tomoni 10 cm,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 4

**1414.** Bir jinsli magnit maydonda joylashgan, 50 A tok o'tayotgan to'g'ri burchakli ramkaga ta'sir qiladigan kuchlarning maksimal momenti  $1 \text{ N} \cdot \text{m}$  ga teng. Ramkaning kengligi 0,1 m, uzunligi esa 0,2 m bo'lsa, maydon induksiyasini aniqlang.

Javob: 1

**1415.** Agar  $1 \text{ cm}^2$  yuzali ramkadagi tok kuchi 1 A bo'lganda, unga ta'sir etuvchi kuchlarning maksimal momenti  $50 \text{ mN} \cdot \text{m}$  ga teng bo'lsa, magnit maydon induksiyasini amqlang. Ramka 100 ta sim o'ramidan iborat.

Javob: 5

**1416.** Massasi 10 g, tomoni 10 cm bo'lgan simli kvadrat ramka o'zining tomonlaridan biri bilan mos tushadigan gorizontal o'q atrofida aylana oladi. Ramka induksiyasi 0,1 T bo'lgan bir jinsli vertikal magnit maydonda turibdi. Ramkadagi tok kuchi qanday bo'lganda, u gorizont bilan  $45^\circ$  burchak hosil qilib, qo'zg'almay turadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 5

**1417.** 4 A tok o'tayotgan, yuzi  $150 \text{ cm}^2$  bo'lgan to'g'ri burchakli konturga faqat induksiyasi  $0,1 \text{ T}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydon ta'sir etganida, u barqaror muvozanat holatini egallaydi. Shundan so'ng konturni qarama-qarshi tomonlarining o'rtasi orqali o'tadigan o'q atrofida astasekin  $90^\circ$  ga burish uchun qanday ish ( $\text{mJ da}$ ) bajarish kerak?

Javob: 6

**1418.** 3 A tok o'tayotgan, yuzi  $150 \text{ cm}^2$  bo'lgan to'g'ri burchakli konturga faqat induksiyasi  $0,1 \text{ T}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydon ta'sir etganida, u barqaror muvozanat holatini egallaydi. Shundan so'ng konturni qarama-qarshi tomonlarining o'rtasi orqali o'tadigan o'q atrofida astasekin  $180^\circ$  ga burish uchun qanday ish ( $\text{mJ da}$ ) bajarish kerak?

Javob: 9

**Lorens kuchi**

**1419.** Induksiyasi  $0,006 \text{ T}$  bo'lgan magnit maydoniga induksiya chiziqlariga  $30^\circ$  burchak ostida  $100 \text{ km/s}$  tezlikda uchib kirgan  $30 \text{ mxC}$  zaryadga maydon qanday kuch bilan ( $\text{mN da}$ ) ta'sir qiladi?

Javob: 9

**1420.** Elektr maydon kuchlanganligi  $1,5 \text{ kV/m}$ , magnit maydon induksiyasi esa  $0,1 \text{ T}$  bo'lsa, elektronga ta'sir qiladigan elektr kuchi magnit kuchidan necha marta katta? Elektronning tezligi  $200 \text{ m/s}$  ga teng hamda magnit maydon induksiyasi chiziqlariga perpendikulyar holda yo'nalgan.

Javob: 75

**1421.** Bir jinsli magnit maydoniga maydon induksiyasi chiziqlariga perpendikulyar ravishda proton va alfa-zarracha uchib kiradi. Agar magnit maydon tomonidan alfa-zarrachaga ta'sir qiladigan kuch protonga ta'sir qiluvchi kuchdan 8 marta katta bo'lsa, alfa-zarrachaning tezligi protonning tezligidan necha marta katta?

Javob: 4

**1422.** Magnit maydoniga perpendikulyar ravishda kuchlanganligi  $100 \text{ kV/m}$  bo'lgan elektr maydon uyg'otilgan. Zaryadlangan zarracha har ikkala maydonga tik ravishda  $100 \text{ km/s}$  o'zgarmas tezlik bilan harakatlanadi. Magnit maydon induksiyasini aniqlang?

Javob: 1

**1423.** Induksiyasi  $3 \text{ mT}$  bo'lgan magnit maydonida maydon chiziqlariga tik ravishda  $2 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanayotgan protonning tezlanishini ( $\text{km/s}^2$  da) toping. Proton zaryadining massasiga nisbati  $10^8 \text{ C/kg}$ .

Javob: 600

**1424.** Proton  $60 \text{ km/s}$  tezlik bilan chiziqlari yo'nalish bo'yicha mos keladigan elektr va magnit maydonlari fazosiga, shu chiziqlarga perpendikulyar ravishda uchib kiradi. Agar magnit maydon induksiyasi  $0,1 \text{ T}$ , ikkala maydon ta'sirida yuzaga kelgan protonning boshlang'ich tezlanishi esa  $10^{12} \text{ m/s}^2$  bo'lsa, elektr maydon kuchlanganligini ( $\text{kV/m}$  da) aniqlang. Proton zaryadining massasiga nisbati  $10^6 \text{ C/kg}$ .

Javob: 8

**1425.** Elektron induksiyasi  $0,01 \text{ T}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonda induksiya chiziqlariga perpendikulyar holda yo'nalgan  $1,6 \cdot 10^7 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanadi. Elektron harakatlanadigan aylananing radiusini ( $\text{mm da}$ ) aniqlang. Elektronning zaryadi  $1,6 \cdot 10^{-19} \text{ C}$ , massasi esa  $9 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$ .

Javob: 9

**1426.**  $6,4 \cdot 10^{-23} \text{ kg} \cdot \text{m/s}$  impulsiga ega bo'lgan elektron induksiyasi  $0,02 \text{ T}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonda aylana bo'ylab harakatlanmoqda. Shu aylana radiusini ( $\text{cm da}$ ) toping. Elektronning zaryadi  $1,6 \cdot 10^{-19} \text{ C}$ .

Javob: 2

**1427.** Induksiyasi  $0,03 \text{ T}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonda  $1 \text{ cm}$  radiusli aylana bo'ylab harakatlanayotgan elektron qanday kinetik energiyaga ( $\text{eV da}$ ) ega? Elektronning zaryadi  $1,6 \cdot 10^{-19} \text{ C}$ , massasi esa  $9 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$ . ( $1 \text{ eV} = 1,6 \cdot 10^{-19} \text{ J}$ ).

Javob: 8000

**1428.** Induksiyasi  $8,36 \text{ mT}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonga proton maydon chiziqlariga perpendikulyar ravishda uchib kiradi. Proton qanday burchak tezlik bilan ( $\text{rad/s da}$ ) aylanadi? Protonning zaryadi  $1,602 \cdot 10^{-19} \text{ C}$ , massasi  $1,672 \cdot 10^{-27} \text{ kg}$ .

Javob: 801

**1429.** Proton va alfa-zarracha bir jinsli magnit maydoniga maydon chiziqlariga perpendikulyar holda uchib kiradi. Alfa-zarrachaning aylanish davri protonning aylanish davridan necha marta katta?

Javob: 2

**1430.** Boshqaruvi sistemasi o'chirib qo'yilgan elektron nurli trubka elektronlarning harakat tezligiga perpendikulyar bo'lgan bir jinsli magnit maydoniga joylashtiriladi. Bunda elektronlar uchib chiqadigan joydan  $14 \text{ cm}$  uzoqlikda joylashgan ekranda elektronlar dastasining  $12 \text{ cm}$  ga silsiydi. Agar maydon induksiyasi  $25 \text{ mT}$ , elektronning solishtirma zaryadi esa  $1,8 \cdot 10^{11} \text{ C/kg}$  bo'lsa, elektronlarning tezligi ( $\text{km/s da}$ ) qanday?

**Javob: 2250**

1431. Elektron 500 V tezlatuvchi potensiallar farqini o'tgach, induksiyasi 0,001 T bo'lgan bir jinsli magnit maydoniga uchib kiradi. Elektron trayektoriyasining egrilik radiusini (mm da) toping. Elektronning zaryadi  $1,6 \cdot 10^{-19}$  C, massasi esa  $9 \cdot 10^{-31}$  kg.

**Javob: 75**

1432. Bir jinsli magnit maydonga induksiya chiziqlariga perpendikulyar holda bir xildagi potensiallar farqi bilan tezlashtirilgan proton va geliyning bir zaryadli ionni uchib kiradi. Ion harakatlanayotgan aylana radiusi protonning aylana radiusidan necha marta katta?

**Javob: 2**

1433. Bir jinsli magnit maydonga ikkita ion uchib kirdi. Birinchisi 5 cm radiusli, ikkinchisi esa 2,5 cm radiusli aylana bo'ylab harakatlana boshladi. Ikkinci ionning zaryadi birinchining zaryadidan ikki marta katta. Agar ular bir xil potensiallar farqini o'tgan bo'lsa, birinchi ionning massasi ikkinchisining massasidan necha marta katta?

**Javob: 2**

1434. Induksiyasi 0,01 T bo'lgan magnit maydondagi proton 10 cm radiusli aylana yoyi bo'ylab harakatlanmoqda. Magnit maydondan uchib chiqqach, u elektr maydoni ta'sirida to'liq tormozlanadi. Agar proton zaryadining massasiga nisbati  $10^8$  C/kg bo'lsa, tormozlovchi potensiallar farqining moduli qanchaga teng?

**Javob: 50**

1435. Manfiy zaryadlangan zarracha induksiyasi 0,001 T bo'lgan bir jinsli magnit maydon sohasiga uchib kiradi va bu yerda u 0,2 m radiusli aylana yoyi bo'ylab harakatlanadi. Keyin zarracha bir jinsli elektr maydoniga tushib qoladi va bu yerda potensiallar farqi 1000 V bo'lgan uchastkani uchib o'tib, tezligini 3 marta kamaytiradi. Zarrachaning oxirgi tezligini (km/s da) amiqlang.

**Javob: 3750**

1436. Protonlar dastasi induksiyasi 0,1 T bo'lgan bir jinsli magnit maydoniga induksiya chiziqlariga perpendikulyar holda uchib kiradi. Protonlar magnit maydonda 20 cm radiusli aylana yoyi bo'ylab harakatlanadi va yerga ulab qo'yilgan nishonga kelib tushadi. Agar dastadagi tok kuchi 0,1 mA bo'lsa, nishonda ajraladigan issiqlik quvvatini toping. Proton zaryadining massasiga nisbati  $10^8$  C/kg.

**Javob: 2**

1437. 5 g massali sharchaga 2 mC zaryad berildi va induksiyasi 2 T bo'lgan gorizontal magnit maydonda 10 m uzunlikdagi ipga osib qo'yildi, so'ngra maydonga perpendikulyar bo'lgan tekislikda qandaydir burchakka o'g'diril, qo'yib yuborildi. Agar sharcha quyi nuqtadan o'tayotgan paytda ipning taranglik kuchi 0,17 N ga teng bo'lsa, uning chetki holati quyi holatidan necha santimetrga baland?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 720**

1438. 2 g massali musbat zaryadlangan sharcha induksiyasi 0,5 T bo'lgan gorizontal magnit maydonda 10 cm uzunlikdagi ipga osib qo'yilgan. Ip sharcha bilan birga maydonga perpendikulyar bo'lgan tekislikda gorizontal holatgacha og'diriladi va qo'yib yuboriladi. Agar ipning taranglik kuchi pastki nuqtada 51,8 mN bo'lsa, sharchaning zaryadi (mC da) qanchaga teng?  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 10**

1439. Induksiyasi 0,5 T bo'lgan gorizontal magnit maydonda uzun ipga osib qo'yilgan 2 mC zaryadli kichkina sharcha induksiya vektoriga perpendikulyar bo'lgan tekislikda tebranadi. Sharcha quyi nuqtadan har xil yo'nalishlarda o'tayotganida ipning taranglik kuchlari 0,01 N ga farq qiladi. Sharchaning chetki vaziyati pastki vaziyatidan necha santimetrga baland?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 125**

1440. Vaznsiz ipga osilgan 4 mC zaryadli va 2 g massali kichkina sharcha induksiyasi 3 T bo'lgan vertikal magnit maydonda turibdi. Sharcha gorizontal tekislikda ikki bor aylanma

harakatga keltiriladi, bunda aylanish radiusi ikkala holatda ham bir xil, aylanish yo'nalishi esa qarama-qarshi. Bu aylanma harakatlardagi burchak tezliklar bir-biridan qanchaga farq qiladi?

Javob: 6

#### Magnit oqimi. Elektromagnit induksiya qonuni

##### a) Magnit maydouning o'zgarishi

1441. Tomoni 10 cm bo'lgan kvadrat ramka induksiyasi 0,2 T bo'lgan bir jinsli magnit maydonda shunday joylashganki, bunda uning sitiga o'tkazilgan normal induksiya vektori bilan  $60^\circ$  burchak hosil qiladi. Ramka tekisligi orqali o'tuvchi magnit oqimni ( $\text{mWb da}$ ) aniqlang.

Javob: 1

1442. Yuzi  $0,001 \text{ m}^2$  bo'lgan yassi o'ram bir jinsli magnit maydonning induksiya chiziqlariga perpendikulyar joylashgan. Agar maydon induksiyasi  $4 \cdot 10^{-4} \text{ s da}$  da  $0,5 \text{ T}$  dan  $0,1 \text{ T}$  gacha tekis kamaysa, o'ramda hosil bo'ladigan EYK ning absolyut qiymatini toping.

Javob: 1

1443. Agar magnit maydon 1 s davomida tekis yo'qotilganda 10 ta o'ramga ega bo'lgan g'altakda 10 V EYK induksiyanansa, g'altakning har bir o'ramidan qanday magnit oqim o'tib turgan?

Javob: 1

1444. Magnit maydonda joylashtirilgan g'altakning har bir o'ramidan o'tuvchi magnit oqim  $0,1 \text{ Wb}$  ga teng. Magnit maydon 0,1 s davomida nolgacha tekis kamayadi, bunda g'altakda 20 V EYK induksiyanadi. G'altakda nechta o'ram bor?

Javob: 20

1445. Yuzi  $0,03 \text{ m}^2$  bo'lgan qo'zg'almas kontur bir jinsli, tekis o'zgarayotgan magnit maydonda induksiya chiziqlariga perpendikulyar turibdi. Agar bunda  $0,9 \text{ V}$  induksion EYK hosil bo'ssa, magnit induksiyanining o'zgarish tezligini ( $\text{T/s da}$ ) toping.

Javob: 30

1446.  $5 \text{ cm}^2$  yuzali 100 o'ramdan iborat bo'lgan g'altak bir jinsli magnit maydonda shunday joylashtirilganki, bunda o'ramlar tekisligi induksiya vektoriga perpendikulyar. G'altak simlarining uchlarini  $4 \text{ mF}$  sigimli yassi kondensator qoplamlariga ulangan. Agar magnit maydon  $20 \text{ T/s}$  tezlik bilan kamaysa, kondensatorning qoplamlarida qanday zaryad ( $\text{mkC da}$ ) hosil bo'ladi?

Javob: 4

1447. Qarshiligi  $2 \text{ k}\Omega$  bo'lgan simli ramka magnit maydonda joylashgan. Ramka yuzi orqali o'tuvchi magnit oqimi  $0,001 \text{ s da}$   $6 \text{ Wb}$  ga tekis o'zgaradi. Bunda ramkadagi tok kuchi qanchaga teng?

Javob: 3

1448. Bir jinsli magnit maydonda yuzi  $0,001 \text{ m}^2$  bo'lgan yassi o'ram maydon chiziqlariga tik bolatda turibdi. Agar maydon induksiyasi  $0,01 \text{ T/s}$  o'zgarmas tezlik bilan kamaysa, o'rindagi tok kuchi ( $\text{mkA da}$ ) qanchaga teng bo'ladi? O'ramning qarshiligi  $1 \Omega$ .

Javob: 10

1449. Ko'ndalang kesim yuzasi  $1 \text{ mm}^2$  bo'lgan mis simdan tomoni  $6,8 \text{ mm}$  bo'lgan kvadrat ramka yasalib, bir jinsli magnit maydonda induksiya chiziqlariga perpendikulyar holda joylashtirildi. Magnit maydon induksiyasi  $0,1 \text{ s da } 2 \text{ T}$  ga tekis o'zgaradi. Bunda ramkadagi tok kuchi qanchaga teng bo'ladi? Misning solishtirma qarshiligi  $1,7 \cdot 10^{-8} \Omega \cdot \text{m}$ .

Javob: 2

1450. Berk (tutash) sim sakkiz raqami shaklida bukildi va bir jinsli magnit maydonda induksiya chiziqlariga perpendikulyar holda joylashgan. Sakkizning halqalarini radiuslari  $3 \text{ cm}$  va  $7 \text{ cm}$  bo'lgan aylanalar deb hisoblab, magnit maydon  $3 \text{ mT/s}$  tezlik bilan kamayganda sim bo'ylab oqadigan tek kuchini ( $\text{mkA da}$ ) toping. Simning uzunlik birligining qarshiligi  $2 \Omega/m$ .

Javob: 30

1451. Induksiysi  $0,09 \text{ T}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonda induksiya chiziqlariga perpendikulyar holda joylashgan o'ram turibdi. Magnit maydon o'chirilganda o'ram bo'ylab qanday zaryad ( $\text{mkC da}$ ) oqib o'tadi? O'ramning yuzi  $0,001 \text{ m}^2$ , qarshiligi  $1 \Omega$ .

Javob: 90

1452. 100 ta o'ramdan iborat bo'lgan doiraviy berk g'altak o'z o'qiga parallel bo'lgan bir jinsli magnit maydonda joylashtirilgan. Magnit induksiyasi  $0,2 \text{ mT}$  ga o'zgartirilganda g'altak orqali  $40 \text{ mkC}$  zaryad o'tadi. Agar simning uzunlik birligining qarshiliqi  $0,1 \Omega/\text{m}$  bo'lsa, g'altakning radiusi (cm da) qanchaga teng?

Javob: 4

1453. Yuzi  $0,08 \text{ m}^2$ , qarshiliqi esa  $0,004 \Omega$  bo'lgan mis halqa bir jinsli magnit maydonda shunday joylashtirilganki, bunda halqa tekisligi maydonning induksiya chiziqlariga perpendikulyar holda turibdi. Agar magnit maydon induksiyasi  $0,01 \text{ T/s}$  tezlik bilan kamaysa, halqada  $0,1 \text{ s}$  da qanday issiqlik miqdori (mkJ da) ajraladi?

Javob: 16

1454. Yuzi  $10 \text{ cm}^2$  bo'lgan 100 ta o'ramdan iborat berk g'altak o'z o'qiga parallel bo'lgan bir jinsli magnit maydonda joylashtirilgan. Magnit maydon  $0,1 \text{ s}$  davomida  $0,1 \text{ T}$  ga tekis o'zgartirilganda g'altakda  $10^{-3} \text{ J}$  issiqlik ajraladi. G'altakning qarshiliqi qanchaga teng?

Javob: 1

1455. Bir jinsli magnit maydonda kvadrat shaklidagi 1000 ta o'ramdan iborat bo'lgan chulg'am bor. Maydon chiziqlarining yo'nalishi o'ramlar tekisligiga perpendikulyar. Maydon induksiyasi  $0,1 \text{ s}$  da  $0,02 \text{ T}$  ga tekis o'zgarganda chulg'amda  $0,1 \text{ J}$  issiqlik ajralib chiqadi. Chulg'am simlarining ko'ndalang kesim yuzasi  $1 \text{ mm}^2$ , solishtirma qarshiliqi  $10^{-8} \Omega \cdot \text{m}$ . Kvadratning tomonini (cm da) aniqlang.

Javob: 10

**b) Kontur yuzasining o'zgarishi**

1456. Yuzi  $10 \text{ cm}^2$  bo'lgan yassi berk kontur induksiyasi  $10 \text{ mT}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonda induksiya chiziqlariga perpendikulyar holatda qolib, deformatsiyalanadi.  $2 \text{ s}$  da konturning yuzi  $2 \text{ cm}^2$  gacha tekis kamayadi. Agar konturning qarshiliqi  $1 \Omega$  bo'lsa, shu vaqt mobaynida konturdagi o'rtacha tok kuchini (mkA da) aniqlang.

Javob: 4

1457. Tomoni  $60 \text{ cm}$  bo'lgan kvadrat ramka induksiyasi  $1 \text{ mT}$  bo'lgan magnit maydonda induksiya chiziqlariga perpendikulyar holatda turibdi. Ramka cho'zilib, to'g'ri chiziq shakliga keltiriladi. Ramkaning shakli o'zgarishida undan qanday zaryad (mC da) oqib o'tadi? Ramka simining uzunlik birligining qarshiliqi  $0,01 \Omega/\text{m}$ .

Javob: 15

1458. Tomoni  $3 \text{ m}$  bo'lgan kvadrat ramka induksiyasi  $1 \text{ T}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonda induksiya chiziqlariga perpendikulyar holatda joylashtirildi. So'ngra, uni maydonidan chiqarmasdan va oriyentatsiyasini o'zgartirmay turib, tomonlarining nisbati  $1 : 2$  bo'lgan to'g'ri to'rtauchak shakliga keltirildi. Bunda kontur bo'ylab qanday zaryad o'tgan? Ramkaning qarshiliqi  $1 \Omega$ .

Javob: 1

1459. Qarshiliqi  $5 \Omega$  bo'lgan simdan yasalgan kvadrat induksiyasi  $0,2 \text{ T}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonda induksiya chiziqlariga perpendikulyar holda joylashtirildi. So'ngra, uni maydonidan chiqarmasdan va oriyentatsiyasini o'zgartirmay turib, tomonlarining nisbati  $1 : 3$  bo'lgan to'g'ri to'rtauchak shakliga keltirildi. Bunda kontur bo'ylab 4 mkC zaryad o'tgan. Simning uzunligi (cm da) qanday?

Javob: 8

**c) Kontur va maydon orasidagi burchakning o'zgarishi**

1460. 100 ta o'ramga ega bo'lgan va  $6 \text{ T}$  induksiyali magnit maydonga perpendikulyar joylashgan g'altak  $1 \text{ s}$  da  $90^\circ$  burchakka buriladi. Bu vaqt ichida g'altakda o'rtacha  $0,6 \text{ V}$  qiyamatli EYK hosil bo'ladi. G'altakning ko'ndalang kesim yuzasini ( $\text{cm}^2$  da) aniqlang.

Javob: 10

1461.  $5 \text{ cm}$  radiusli mis halqa induksiyasi  $8 \text{ mT}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonda induksiya chiziqlariga perpendikulyar holda joylashtiriladi. Agar halqa o'z diametri bilan

ustma-ust tushadigan o'q atrofida  $180^\circ$  ga burilsa, undan qanday zaryad ( $\text{mC da}$ ) o'tadi? Halqaning uzunlik birligining qarshiligi  $2 \text{ m}\Omega/\text{m}$  ga teng.

Javob: 200

1462. Simli o'ram induksiyasi  $0,2 \text{ T}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonda induksiya chiziqlariga perpendikulyar joylashgan. O'ram galvanometrga ulab qo'yilgan. O'ram qandaydir burchakka burilganida galvanometr orqali o'tgan to'liq zaryad  $0,08 \text{ C}$  ga teng. Agar o'ramning yuzi  $4000 \text{ cm}^2$ , galvanometr bilan birqalikdagi qarshiligi esa  $1,5 \Omega$  bo'lsa, o'ram qanday burchakka (graduslarda) burilgan?

Javob: 120

1463. Yupqa simli o'ram bir jinsli magnit maydonga perpendikulyar joylashgan. O'ram  $180^\circ$  ga burilganda, undan  $7,2 \text{ m}\text{kC}$  zaryad o'tgan. O'ram bo'ylab  $1,8 \text{ m}\text{kC}$  zaryad o'tishi uchun uni qanday burchakka (graduslarda) burish kerak?

Javob: 60

1464. Doiraviy ramka bir jinsli magnit maydonda o'zining diametri orqali o'tuvchi va induksiya vektoriga perpendikulyar bo'lgan o'q atrofida aylanmoqda. Agar ramkaning yuzi  $0,2 \text{ m}^2$ , aylanish burchak tezligi  $50 \text{ rad/s}$ , magnit maydon induksiyasi esa  $0,1 \text{ T}$  bo'lsa, ramkada hosil bo'ladijan induksion EYK ning maksimal qiymatini toping.

Javob: 1

1465. Yuzi  $200 \text{ cm}^2$  bo'lgan ramka o'z tekisligida yotuvchi va tomonlari o'rtasini tutashtiruvchi o'q atrofida  $100 \text{ rad/s}$  burchak tezlik bilan aylanadi. Ramka  $0,01 \text{ T}$  induksiyali bir jinsli magnit maydonda joylashgan bo'lib, induksiya vektori aylanish o'qiga perpendikulyar. Ramkadagi maksimal induksion EYK  $1 \text{ V}$  ga teng bo'lishi uchun unga nechta sim o'ramini o'rash kerak bo'ladi?

Javob: 50

1466. Yuzi  $300 \text{ cm}^2$  bo'lgan doiraviy ramka  $100 \text{ ta o'ramga ega}$  va induksiyasi  $0,2 \text{ T}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonda o'z diametri orqali o'tuvchi hamda induksiya vektoriga perpendikulyar bo'lgan o'q atrofida aylanmoqda. Agar ramkadagi induksion EYK ning maksimal qiymati  $15 \text{ V}$  bo'lsa, ramkaning aylanish burchak tezligini toping.

Javob: 25

1467. Bir jinsli magnit maydonda aylanayotgan to'g'ri burchakli ramkada yuzaga keladigan induksion EYK ning maksimal qiymati  $3 \text{ V}$  ga teng. Agar ramka orqali o'tuvchi maksimal magnit oqimi  $0,05 \text{ Wb}$  bo'lsa, ramka qanday burchak tezlik bilan aylanmoqda? Ramkaning aylanish o'qi uning qarama-qarshi tomonlarining o'rtalari orqali o'tadi va maydon induksiyasiga perpendikulyar.

Javob: 60

#### Magnit maydonda o'tkazgichning harakati

1468.  $1 \text{ m}$  uzunlikdagi o'tkazgich bir jinsli magnit maydonning induksiya chiziqlariga perpendikulyar ravishda  $5 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanadi. Agar o'tkazgich uchlariда  $0,02 \text{ V}$  potensiallar farqi yuzaga kelsa, magnit maydon induksiyasining miqdorini ( $\text{mT da}$ ) aniqlang.

Javob: 4

1469. Samolyot  $900 \text{ km/h}$  tezlik bilan gorizontal uchmoqda. Agar Yerning magnit maydon induksiyasining vertikal tashkil etuvchisi  $50 \text{ m}\text{kT}$ , samolyot qanotlarining uchlari orasidagi masofa  $12 \text{ m}$  bo'lsa, qanotlar uchlari orasida yuzaga keladigan potensiallar farqmi ( $\text{mV da}$ ) toping.

Javob: 150

1470. Samolyot qanotlarining uchlari orasidagi masofa  $20 \text{ m}$  bo'lsa, uning  $900 \text{ km/h}$  tezlik bilan harakatlanishida hosil bo'lishi mumkin bo'lgan maksimal EYK ( $\text{mV da}$ ) qanchaga teng? Yerning magnit maydonining gorizontal tashkil etuvchisi  $0,03 \text{ mT}$ , vertikal tashkil etuvchisi  $0,04 \text{ mT}$ .

Javob: 250

1471.  $2 \text{ m}$  uzunlikdagi o'tkazgich induksiyasi  $0,2 \text{ T}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonda maydon chiziqlariga perpendikulyar ravishda  $10 \text{ m/s}$  tezlik bilan harakatlanmoqda. Tezlik

vektori o'tkazgichga perpendikulyar va induksiya chiziqlari bilan  $30^\circ$  burchak hosil qiladi. O'tkazgichda induksiyalanadigan EYK ni toping.

Javob: 2

1472. To'g'ri o'tkazgichda 0,3 V induksion EYK yuzaga kelishi uchun uni induksiyasi 0,2 T bo'lgan bir jinsli magnit maydonning chiziqlariga perpendikulyar bo'lgan tekishikda, uchlaridan biri orqali o'tuvchi o'q atrofida qanday burchak tezlik bilan aylantirish kerak? O'tkazgichning uzunligi 20 cm.

Javob: 75

1473. To'g'ri to'rburchakli karkasning (simlardan yasalgan shakl) 10 cm uzunlikdagi bir tomoni boshqa ikki tomoni bilan elektr kontaktida qolgan holda ular bo'ylab 1 m/s tezlik bilan sirpanmoqda. To'g'ri to'rburchakning tekisligi induksiyasi 0,01 T bo'lgan bir jinsli magnit maydonning induksiya chiziqlariga tik joylashgan. Harakat boshidan 0,9 s o'tgach, to'g'ri to'rburchakdagi tok kuchini (mkA da) toping. Simlarning uzunlik birligining qarshiligi  $1 \Omega/m$ . Boshlang'ich vaqt momentida to'g'ri burchakning yuzi nolga teng.

Javob: 500

1474. Uzunlik birligining qarshiligi  $0,1 \Omega/m$  bo'lgan simdan kvadrat yasaldi va u induksiyasi 4 mT bo'lgan bir jinsli magnit maydonda maydon chiziqlariga perpendikulyar holda o'rnatildi. Kvadratning ikki qarama-qarshi tomoni bo'ylab xuddi shu simdan tayyorlangan ulagich (otkazgich sim) qolgan ikki tomoniga parallel qolgan holda  $0,3 \text{ m/s}$  tezlik bilan sirpanmoqda. Ulagich kvadratni teng ikkiga bo'lgan paytda ulagichdan o'tuvchi tok (mA da) qanchaga teng bo'ladi?

Javob: 6

1475. Uzunlik birligining qarshiligi  $0,1 \Omega/m$  bo'lgan simdan muntazam uchburchak yasaldi va u induksiyasi 7 mT bo'lgan bir jinsli magnit maydonda maydon chiziqlariga perpendikulyar holda o'rnatildi. Uchburchak bo'ylab xuddi shu simdan tayyorlangan ulagich uning bir tomoniga parallel qolgan holda  $0,5 \text{ m/s}$  tezlik bilan sirpanmoqda. Ulagich uchburchak tomonlarining ortasi orqali o'tayotgan paytda ulagichdan o'tuvchi tok (mA da) qanchaga teng bo'ladi?

Javob: 15

1476. Uzunlik birligining qarshiligi  $0,1 \Omega/m$  bo'lgan simdan  $60^\circ$  burchakli romb yasaldi va u induksiyasi 4 mT bo'lgan bir jinsli magnit maydonda maydon chiziqlariga perpendikulyar holda o'rnatildi. Romb bo'ylab xuddi shu simdan tayyorlangan ulagich uning kichik diagonaliga parallel qolgan holda  $0,5 \text{ m/s}$  tezlik bilan sirpanmoqda. Ulagich rombning qoshni tomonlarining ortasi orqali o'tayotgan paytda ulagichdan o'tuvchi tok (mA da) qanchaga teng bo'ladi?

Javob: 8

1477. Diametri 1 mm, solishtirma qarshiligi  $10^7 \Omega \cdot m$  bo'lgan simdan aylana yasaldi va u induksiyasi 4 mT bo'lgan bir jinsli magnit maydonda maydon chiziqlariga perpendikulyar holda o'rnatildi. Kontur bo'ylab qarshiligi juda kichik bo'lgan ulagich  $0,3 \text{ m/s}$  tezlik bilan sirpanmoqda. Ulagich aylanani teng ikkiga bo'lgan paytda ulagichdan o'tuvchi tok (mA da) qanchaga teng bo'ladi?

Javob: 12

1478. Uzunlik birligining qarshiligi  $0,01 \Omega/m$  bo'lgan simdan 17 cm radiusli aylana yasaldi va u induksiyasi 7 mT bo'lgan bir jinsli magnit maydonda maydon chiziqlariga perpendikulyar holda o'rnatildi. Kontur bo'ylab xuddi shu simdan tayyorlangan ulagich  $0,3 \text{ m/s}$  tezlik bilan sirpanmoqda. Ulagich aylanani teng ikkiga bo'lgan paytda sistemada issiqlik hosil bo'lishining quvvati (mkW da) qanchaga teng bo'ladi?  $\pi = 3,14$  deb hisoblang.

Javob: 84

1479. Uzun sim  $\alpha$  burchak ostida bukildi ( $\operatorname{tg}\alpha = 3/4$ ) va induksiyasi  $0,1 \text{ T}$  bo'lgan bir jinsli magnit maydonda maydon chiziqlariga perpendikulyar holda o'rnatildi. Burchak tomonlari bo'ylab xuddi shu simdan tayyorlangan ulagich tekis harakatlantirilmoqda: bunda u tomonlardan biri bilan hamma vaqt to'g'ri burchak hosil qilmoqda. Ulagich boshlang'ich paytda burchak uchidan  $0,2 \text{ m}$  masofada,  $1 \text{ s}$  dan keyin esa  $0,6 \text{ m}$  masofada joylashadi. Shu vaqt ichida sistemada qancha issiqlik (mJ da) ajralgan? Simning uzunlik birligining qarshiligi  $0,01 \Omega/m$ .

Javob: 12

1480. Bir jinsli magnit maydonda induksiya chiziqlariga perpendikulyar joylashgan  $\Pi$ -simon ramka bo'ylab qarshiligi  $2 \Omega$  bo'lgan ulagich  $2 \text{ m/s}$  o'zgarmas tezlik bilan ishqalanishsiz harakatlanadi. Ulagichga  $4 \text{ N}$  kuch qo'yilgan. Ulagichdagi tok kuchini toping. Ramkaning qarshiligi va og'irlik kuchi hisobga olinmasin.

Javob: 2

1481. Induksiyasi  $40 \text{ mT}$  bo'lgan bir jinsli vertikal magnit maydonda joylashgan gorizontal  $\Pi$ -simon ramka bo'ylab qarshiligi  $0,1 \Omega$ , uzunligi  $50 \text{ cm}$  bo'lgan ulagich ishqalanishsiz harakatlanadi. Ulagichning harakat tezligi  $1 \text{ m/s}$  bo'lishi uchun unga qanday minimal kuch ( $\text{mN}$ ) da qo'yish kerak? Ramkaning qarshiligi inobatga olinmasin.

Javob: 4

1482. Qiyaligi gorizontga  $30^\circ$  bo'lgan  $\Pi$ -simon ramka o'z tekisligiga tik yo'nalgan bir jinsli magnit maydonda joylashtirilgan. Ramka bo'ylab  $30 \text{ g}$  massali ulagich ishqalanishsiz sirpanib tusha boshlaydi. Ulagichning uzunligi  $10 \text{ cm}$ , qarshiligi  $2 \text{ m}\Omega$ , maydon induksiyasi  $0,1 \text{ T}$ . Ulagichning barqaror harakat tezligini toping. Ramkaning qarshiligi inobatga olinmasin.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

1483. Qiyaligi gorizontga  $30^\circ$  bo'lgan  $\Pi$ -simon ramka bir jinsli vertikal magnit maydonda joylashtirilgan. Ramka bo'ylab  $30 \text{ g}$  massali ulagich ishqalanishsiz sirpanib tusha boshlaydi. Ulagichning uzunligi  $10 \text{ cm}$ , qarshiligi  $1 \text{ m}\Omega$ , maydon induksiyasi  $0,1 \text{ T}$ . Ulagichning barqaror harakat tezligini toping. Ramkaning qarshiligi inobatga olinmasin.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

1484. Qiyaligi gorizontga  $\alpha$  bo'lgan ( $\sin \alpha = 0,8$ )  $\Pi$ -simon ramka bir jinsli vertikal magnit maydonda joylashtirilgan. Ramka bo'ylab  $20 \text{ g}$  massali ulagich sirpanib tushmoqda. Ulagichning uzunligi  $10 \text{ cm}$ , qarshiligi  $1,2 \text{ m}\Omega$ , maydon induksiyasi  $0,1 \text{ T}$ , ulagich va ramka orasidagi ishqalanish koefitsiyenti  $0,5$ . Ulagichning barqaror harakat tezligini toping. Ramkaning qarshiligi inobatga olinmasin.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

1485. Ikkita vertikal reykaning uchlari orasida bir xildagi  $4 \text{ m}\Omega$  qarshiliklar ularanib, berk kontur hosil qilingan. Reykalar orasidagi masofa  $10 \text{ cm}$ , ularning qarshiligi juda kichik. Kontur bir jinsli magnit maydonda joylashgan va bu maydonning induksiyasi  $0,1 \text{ T}$  hamda kontur tekisligiga perpendikulyar. Reykalar bo'ylab qarshiligi  $4 \text{ m}\Omega$ , massasi  $10 \text{ g}$  bo'lgan ulagich ishqalanishsiz sirpanmoqda. Ulagichning barqaror harakat tezligini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 6

1486. Ikkita vertikal reykaning yuqori uchlari orasida EYK  $60 \text{ mV}$  va ichki qarshiligi  $1 \text{ m}\Omega$  bo'lgan tok manbai ulangan, pastki uchlari esa uzunligi  $10 \text{ cm}$ , massasi  $10 \text{ g}$  bo'lgan ulagich bilan tutashtirilib, berk kontur hosil qilingan. Kontur bir jinsli magnit maydonda joylashgan va bu maydonning induksiyasi  $0,1 \text{ T}$  hamda kontur tekisligiga perpendikulyar. Ulagich qo'yib yuborilgach, ko'tarila boshlaydi. Reykalarning va ulagichning qarshiliklarini hamda ishqalanishni inobatga olmagan holda, ulagichning barqaror tezligini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 5

1487. Ikkita vertikal reykaning pastki uchlari orasida EYK  $60 \text{ mV}$  va ichki qarshiligi  $1 \text{ m}\Omega$  bo'lgan tok manbai ulangan, yuqori uchlari esa uzunligi  $10 \text{ cm}$ , massasi  $10 \text{ g}$  bo'lgan ulagich bilan tutashtirilib, berk kontur hosil qilingan. Kontur bir jinsli magnit maydonda joylashgan va bu maydonning induksiyasi  $0,1 \text{ T}$  hamda kontur tekisligiga perpendikulyar. Ulagich qo'yib yuborilgach, pastga tusha boshlaydi. Reykalarning va ulagichning qarshiliklarini hamda ishqalanishni inobatga olmagan holda, ulagichning barqaror tezligini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 7

1488. Bir jinsli magnit maydonda joylashgan vertikal  $\Pi$ -simon ramka bo'ylab ulagich ishqalanishsiz sirpanmoqda. Magnit maydon ramka tekisligiga perpendikulyar. Ramkaning qisqa tomonida  $2 \text{ mF}$  sig'imali kondensator ulab qo'yilgan. Ulagichning massasi  $3 \text{ g}$ , uzunligi  $50$

cm, maydon induksiyasi 2 T. Zanjirdagi barcha elementlarning qarshiligini inobatga olmasdan, ulagichning tezlanishini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 6

1489. Qiyaligi gorizontga  $30^\circ$  bo'lgan va bir jinsli vertikal magnit maydonda joylashgan II-simon ramka bo'ylab ulagich ishqalanishsiz sirpanmoqda. Ramkaning qisqa tomonida 4 mF sig'imiли kondensator ulab qo'yilgan. Ulagichning massasi 2 g, uzunligi 25 cm, maydon induksiyasi 4 T. Zanjirdagi barcha elementlarning qarshiligini inobatga olmasdan, ulagichning tezlanishini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 2

#### **Induktivlik. O'zinduksiya EYK. Magnit maydon energiyasi**

1490. Berk o'tkazgich bo'ylab 1,5 A tok oqadi. Bu tokning magnit maydoni 6 mW ga teng bo'lgan, kontur sirti orqali o'tuvchi oqim hosil qiladi. O'tkazgichning induktivligini (mH da) toping.

Javob: 4

1491. G'altak o'rami bo'ylab oqayotgan tok kuchi 0,25 s da 5 A ga tekis o'zgaradi. Bunda 200 V o'zinduksiya EYK yuzaga keladi. G'altakning induktivligini toping.

Javob: 10

1492. Agar 1 s ichida g'altakdagi tok kuchi 5 A dan 10 A gacha tekis o'zgarganda 60 V o'zinduksiya EYK yuzaga kelsa, g'altakning induktivligini aniqlang.

Javob: 12

1493. Induktivligi 6 mH bo'lgan g'altakdagi tok kuchi tekis o'zgarganda unda 8 mV o'zinduksiya EYK yuzaga keladi. 3 s ichida tok kuchi qancha miqdorga o'zgaradi?

Javob: 4

1494. Induktivligi 0,2 mH bo'lgan g'altakdagi tok kuchi reostat yordamida 100 A/s tezlik bilan tekis oshiriladi. G'altakda hosil bo'ladigan o'zinduksiya EYK ning absolyut qiymati (mV da) qanday bo'ladi?

Javob: 20

1495. Induktivligi 6 mH bo'lgan g'altakdagi tok 40 A ga tekis orttirliganda 8 V o'zinduksiya EYK yuzaga keldi. Tokni orttirish necha millisekund davom etgan?

Javob: 30

1496. G'altak orqali 5 A tok o'tkazilganda unda induksiyasi 3 T bo'lgan magnit maydon paydo bo'ladi. Agar g'altakning ko'ndalang kesim yuzasi  $100 \text{ cm}^2$ , o'ramlar soni esa 2500 ta bo'lsa, g'altakning induktivligini aniqlang.

Javob: 15

1497. Kontur bo'ylab oqayotgan 10 A tok vositasida hosil bo'lib, uning sirti orqali o'tuvchi magnit oqim 0,9 mW ga teng. Tok kuchi 1 ms da 5 A gacha tekis kamayganda konturda hosil bo'lvchi o'zinduksiya EYK ni (mV da) aniqlang.

Javob: 450

1498. Induktivligi 0,1 mH, yuzi  $20 \text{ cm}^2$  bo'lgan berk o'ram induksiyasi 2 mT bo'lgan bir jinsli magnit maydonda induksiya chiziqlariga perpendikulyar holda joylashtiriladi. So'ngra o'ram o'ta o'tkazuvchanlik holatigacha sovutiladi va maydon o'chirib qo'yiladi. Shundan so'ng konturdagi tok kuchi (mA da) qanday bo'ladi?

Javob: 40

1499.  $50 \text{ cm}^2$  yuzali 200 ta o'ramdan iborat bo'lgan 2 H induktivlikli g'altak o'z o'qiga parallel bo'lgan 60 mT induksiyali bir jinsli magnit maydonda joylashtiriladi. G'altakning o'rami o'ta o'tkazuvchanlik holatigacha sovutiladi, keyin esa g'altak  $60^\circ$  ga buriladi. G'altakda qanday tok kuchi (mA da) yuzaga keladi?

Javob: 15

1500. 10 A tok kuchida 0,6 W magnit oqim yuzaga keladigan solenoidning magnit maydonining energiyasini toping.

Javob: 3

1501. Qarshiligi  $10 \Omega$  bo'lgan g'altakda  $50 \text{ V}$  kuchlanish saqlab turiladi. Agar g'altakning induktivligi  $20 \text{ mH}$  bo'lsa, unda jamlangan magnit maydon energiyasi ( $\text{mJ da}$ ) qanchaga teng?

Javob: 250

## 12. TEBRANISHLAR VA TOLQINLAR

### Garmonik tebranishlar kinematikasi

1502. Tebranishlar chastotasi  $440 \text{ Hz}$  bo'lsa, moddiy nuqta  $5 \text{ s}$  ichida necha marta to'liq tebranadi?

Javob: 2200

1503. Moddiy nuqta  $x = 2\sin(\pi/3 + \pi/2)$  qonun bo'yicha garmonik tebranadi. Bunda barcha kattaliklar SI birliklarida berilgan. Tebranishlar davrini aniqlang.

Javob: 6

1504. Garmonik tebranishlar  $x = A\sin\omega t$  qonun bo'yicha sodir bo'ladi.  $\pi/6 \text{ rad}$  fazada siljish  $4 \text{ cm}$  ga teng. Tebranishlar amplitudasini ( $\text{cm da}$ ) aniqlang.

Javob: 8

1505. Torning nuqtasi  $1 \text{ kHz}$  chastota bilan tebranadi. Agar tebranishlar amplitudasi  $1 \text{ mm}$  bo'lsa, shu nuqta  $1,2 \text{ s}$  da qanday yo'lni ( $\text{cm da}$ ) bosib o'tadi?

Javob: 480

1506. Prujinaga osilgan sharcha  $x = A\sin(\pi/4)$  qonun bo'yicha tebranadi. Harakat boshlanganidan so'ng, sharcha necha sekund ichida o'z tebranishlarining amplitudasiga son jihatdan teng bo'lgan yo'lni bosib o'tadi?

Javob: 2

1507. Prujinaga osilgan sharcha  $x = A\cos(\pi/16)$  qonun bo'yicha tebranadi. Harakat boshlanganidan so'ng, sharcha necha sekund ichida o'z tebranishlarining uchta amplitudasiga son jihatdan teng bo'lgan yo'lni bosib o'tadi?

Javob: 24

1508. Mayatnik  $2 \text{ cm}$  ga og'dirildi va qo'yib yuborildi. Agar mayatnikning tebranishlar davri  $8 \text{ s}$  bo'lsa,  $10 \text{ s}$  ichida u qanday yo'l ( $\text{cm da}$ ) o'tadi?

Javob: 10

1509. Prujinaga osilgan yukcha  $2 \text{ cm}$  amplituda bilan to'g'ri chiziq bo'ylab tebranadi. Tebranishlar davri  $2 \text{ s}$ . Muvozanat vaziyatidan boshlab muvozanat vaziyatidan maksimal og'ishgacha bo'lgan oraliqdagi yuk harakatining o'rtacha tezligini ( $\text{cm/s da}$ ) aniqlang.

Javob: 4

1510.  $x = A\sin\omega t$  qonun bo'yicha tebranayotgan nuqta harakat boshidan necha sekund o'tgach, muvozanat vaziyatidan amplitudaning yarmiga teng bo'lgan masofaga siljydi? Tebranishlar davri  $24 \text{ s}$ .

Javob: 2

1511.  $x = A\cos\omega t$  qonun bo'yicha tebranayotgan nuqta harakat boshidan necha sekund o'tgach, boshlang'ich vaziyatidan amplitudaning yarmiga teng bo'lgan masofaga siljydi? Tebranishlar davri  $24 \text{ s}$ .

Javob: 4

1512. Tebranayotgan nuqtaning amplitudaning birinchi yarmini bosib o'tish vaqtini ikkinchi yarmini bosib o'tish vaqtidan necha marta kichik? Tebranishlar  $x = A\sin\omega t$  qonun bo'yicha yuz beradi.

Javob: 2

1513. Nuqtaning garmonik tebranishlari amplitudasi  $6 \text{ cm}$ , maksimal tezligi esa  $1,2 \text{ m/s}$  bo'lsa, tebranishlarning siklik chastotasi qanchaga teng?

Javob: 20

1514. Ikki moddiy nuqta garmonik tebranmoqda. Birinchi nuqtaning maksimal tezligining miqdori  $4 \text{ m/s}$  ga teng. Agar ikkinchi nuqtaning tebranishlar davri birinchi nuqtanikidan  $3$  marta katta, tebranishlar amplitudasi esa  $6$  marta katta bo'lsa, uning maksimal tezligining miqdori qanday?

Javob: 8

**1515.** Moddiy nuqta muvozanat vaziyatidan 4 cm ga siljiganida uning tezligi 6 cm/s ga, 3 sm ga siljiganida esa 8 cm/s ga teng. Siklik chastotani toping.

**Javob:** 2

**1516.** Moddiy nuqta muvozanat vaziyatidan 4 cm ga siljiganida uning tezligi 6 cm/s ga, 3 sm ga siljiganida esa 8 cm/s ga teng. Tebranishlar amplitudasini (cm da) toping.

**Javob:** 5

**1517.** Ikki moddiy nuqta garmonik tebranmoqda: birinchisi – 36 rad/s davriy chastota bilan, ikkinchisi – 9 rad/s davriy chastota bilan. Agar ularning tebranishlar amplitudasi bir xil bo'lsa, birinchi nuqtaming maksimal tezlanishining qiymati ikkinchi nuqtaning maksimal tezlanishidan necha marta katta?

**Javob:** 16

**1518.** Aravacha ustiga g'isht qo'yiladi va u pol bo'ylab shunday harakatlantiriladi, bunda uning koordinatasi  $x = A \cos \omega t$  qonun bo'yicha o'zgaradi, bu yerda  $A = 10$  cm. G'isht aravachaga nisbatan siljimay turadigan maksimal siklik chastota  $\omega$  ni aniqlang. G'isht va aravacha orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti 0,5,  $g = 9,8$  m/s<sup>2</sup>.

**Javob:** 7

**1519.** Ustida brusok yotgan gorizontal taglik vertikal yo'nalishda shunday harakatlana boshlaydiki, bunda uning koordinatasi  $y = Asin \omega t$  qonun bo'yicha o'zgaradi, bu yerda  $A = 20$  cm. Qanday maksimal  $\omega$  siklik chastotada brusok taglikdan uzilmaydi?  $g = 9,8$  m/s<sup>2</sup>.

**Javob:** 7

**1520.** Massasi 200 g bo'lgan magnit gorizontal metall plitadan yotibdi. Magnitni plitadan tortib olish uchun uni 16 N kuch bilan yuqoriga tortish kerak. Buning o'rniiga plitani  $y = Asin \omega t$  qonun bo'yicha vertikal yo'nalishda tebrantiriladi, bu yerda  $A = 5$  cm. Qanday minimal  $\omega$  siklik chastotada magnit plitadan uziladi?

**Javob:** 40

### **Matematik mayatnik**

**1521.** Birinchi matematik mayatnikning uzunligi ikkinchi matematik mayatnikning uzunligidan 4 marta katta. Ikkinchi mayatnik tebranishlar chastotasining birinchi mayatnik tebranishlar chastotasiga nisbatini toping.

**Javob:** 2

**1522.** Ikkita matematik mayatnikning biri 40 marta tebranganida, ikkinchisi 20 marta tebranadi. Ikkinchi mayatnikning uzunligi birinchisining uzunligidan necha marta katta?

**Javob:** 4

**1523.** Agar matematik mayatnikning uzunligi 5 cm ga qisqartirilganda, tebranishlar chastotasi 1,5 marta ortsa, uning dastlabki uzunligini (cm da) aniqlang.

**Javob:** 9

**1524.** Matematik mayatnik tebranishlarining xususiy davriy chastotasi qandaydir planetada 5 rad/s ni tashkil etadi. Agar mayatnikning uzunligi 0,4 m bo'lsa, shu planetada og'irlik kuchining tezlanishi qanchaga teng?

**Javob:** 10

**1525.** Oydagi matematik mayatnikning uzunligi (cm da) qanday bo'lganida, uning tebranishlar davri Yerda joylashgan 54 cm uzunlikdagi matematik mayatnikning tebranishlar davriga teng bo'ladi? Oydagi og'irlik kuchining tezlanishi Yerdagidan 6 marta kichik.

**Javob:** 9

**1526.** Matematik mayatnik Yerdan boshqa planetaga ko'chirilganda, uning tebranishlar davri 3 marta ortdi. Agar Yerning radiusi planetaning radiusidan 2 marta katta bo'lsa, Yerning massasi planetaning massasidan necha marta katta?

**Javob:** 36

**1527.** Matematik mayatnik 0,36g tezlanish bilan tushayotgan tezyurar lift kabinasiga joylashtirilganda, uning tebranishlar davri necha foizga ortadi?

**Javob:** 25

1528. Mayatnikli soatda tebranishlar davri 1 s bo'lgan matematik mayatnikdan foydalaniadi. Soat o'zgarmas tezlanish bilan ko'tarila boshlaydigan raketaga joylashtiriladi. Agar ko'tarilishning 7 sekundida soatning mayatnigi 8 marta to'liq tebransa, raketaning tezlanishi qanchaga teng?  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

1529. Ipga osilgan 0,1 kg massali sharcha garmonik tebranadi. Agar sharchaga 200 m/s zaryad berilsa va kuchlanganligi 40 kV/m bo'lgan, vertikal pastga yo'nalgan bir jinsli elektr maydonda joylashtirilsa, tebranishlar chastotasi necha marta ortadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 3

1530. Uzunligi 0,1 m bo'lgan matematik mayatnik 0,007 m amplituda bilan garmomik tebranadi. Mayatnik yukining eng katta harakat tezligini (cm/s da) aniqlang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 7

1531. Uzunligi 20 m bo'lgan ipga osilgan 499 g massali sharchaga gorizontal uchayotgan 1 g massali o'q kelib tegadi va uning ichida tiqilib qoladi. Agar zarb oqibatida sharcha 4 cm ga og'gan bo'lsa, o'qning tezligi qanchaga teng bo'lgan?  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 14

1532. Ikkita parallel iplarga bir xildagi elastik sharchalar shunday osilganki, bunda ular bir-biriga tegib turadi va ularning markazi bir sathda joylashgan. Uzunligi 40 cm bo'lgan birinchi sharchaning ipini kichik burchakka og'dirlib, qo'yib yuboriladi. Shundan qancha vaqt (ms da) o'tgach, sharchalarning ikkinchi to'qnashuvi yuz beradi? Ikkinci sharcha ipining uzunligi 10 cm.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .  $\pi = 3,14$ .

Javob: 628

#### **Prujiniali mayatnik. Tebranishlar tenglamasi. Tebranishlar energiyasi**

1533. Bikriliqi 100 N/m bo'lgan yengil prujinaga osilgan 250 g massali kichkina sharcha garmonik tebranishlarining davriy chastotasi qanchaga teng?

Javob: 20

1534. Prujinaga osilgan 0,1 kg massali yuk garmonik tebranadi. Unga massasi 300 g bo'lgan yuk mahkamlab qo'yilganda tebranishlar davri necha marta ortadi?

Javob: 2

1535. Bikriliklari 400 N/m va 100 N/m bo'lgan prujinalarga osilgan ikkita sharcha bir xil davrlar bilan vertikal garmomik tebranmoqda. Bir sharchaning massasi boshqasining massasidan necha marta katta?

Javob: 4

1536. Elastik rezina shnurga osilgan yuk garmonik tebranadi. Agar yuk xuddi shunday, lekin ikki buklangan shnurga mahkamlansa, tebranishlar davri necha marta kamayadi?

Javob: 2

1537. Kichik yuk yengil prujinaga osilgan. Agar yukning shu prujinadagi xususiy davriy chastotasi 5 rad/s bo'lsa, yuk olib qo'yilgach prujina necha santimetrga qisqaradi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 40

1538. Vertikal holatda mahkamlangan dinamometrga yuk osib qo'yildi. Bunda yuk 10 rad/s chastota bilan garmonik tebrana boshladi. Yuk tebranishdan to'liq to'xtagach dinamometr prujinasining deformatsiyasini (cm da) toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 10

1539. 0,2 kg massali yuk bikriliqi 125 N/m bo'lgan prujinada garmonik tebranmoqda. Tebranishlar amplitudasi 0,08 m bo'lsa, yukning eng katta tezlanishini aniqlang.

Javob: 50

1540. Prujinaga ilingan 50 g massali sharcha 5 cm amplituda bilan garmonik tebranmoqda. Sharchaga ta'sir etadigan qaytaruvchi kuchning (mN da) maksimal qiymatini toping. Tebranishlarning siklik chastotasi 2 rad/s.

Javob: 10

**1541.** Yengil prujinaga osilgan kichik sharcha 2 cm amplituda bilan vertikal garmonik tebranadi. Tebranishlarning to'la energiyasi 0,3 mJ. Sharcha muvozanat vaziyatidan qanchaga siljiganida (mm da) unga 22,5 mN qaytaruvchi kuch ta'sir qiladi?

Javob: 15

**1542.** Prujinaga osilgan kichkina yuk muvozanat holatidan chiqarildi va qo'yib yuborildi. Necha millisekunddan keyin yukning kinetik energiyasi prujinaning potensial energiyasidan 3 marta katta bo'ladi? Tebranishlar davri 0,9 s.

Javob: 150

**1543.** Prujinali mayatnik muvozanat vaziyatidan chiqarildi va qo'yib yuborildi. Qanday vaqtidan keyin (ms da) tebranayotgan jismning kmetik energiyasi prujinaning potensial energiyasiga teng bo'ladi? Tebranishlar davri 1 s.

Javob: 125

**1544.** Prujinaga osilgan sharcha muvozanat vaziyatidan vertikal pastga qarab 3 cm ga tortildi va unga 1 m/s boshlang'ich tezlik berildi. So'ngra sharcha 25 rad/s davriy chastota bilan vertikal garmonik tebrana boshladи. Shu tebranishlarning amplitudasini (cm da) toping.

Javob: 5

**1545.** Silliq polda yotgan 249 g massali brusok gorizontal prujina yordamida vertikal devor bilan ulangan. Prujina o'qi bo'ylab 50 m/s tezlik bilan uchayotgan 1 g massali o'q brusokka kelib tegadi. Brusok o'zida tiqilib qolgan o'q bilan birgalikda 4 cm amplituda bilan tebrana boshlaydi. Shu tebranishlarning davriy chastotasi qanchaga teng?

Javob: 5

**1546.** Tubi pastga qaragan holda suv yuzida vertikal suzayotgan butilkaning vertikal garmonik tebranishlari davrini (ms da) toping. Butilkaning massasi 300 g, tubining yuzi  $30 \text{ cm}^2$ . Ishqalanishni hisodga olmang.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ ,  $\pi = 3,14$ .

Javob: 628

**1547.** Asosining yuzi  $75 \text{ cm}^2$  bo'lgan 120 g massali silindr suv yuzida vertikal holatda suzmoqda. Agar silindr muvozanat holatidan bir oz chiqarilsa, uning vertikal garmonik tebranishlari qanday davriy chastota bilan yuz beradi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 25

**1548.** Balandligi 5 cm bo'lgan temir silindr prujinaga vertikal holatda osib qo'yildi va qisman suvga botirildi. Bunday silindrnning kichik vertikal tebranishlarining davriy chastotasi qanchaga teng? Prujinadagi tebranishlarning davriy chastotasi suvga tushirishdan oldin 12 rad/s bo'lgan. Ishqalanishni hisobga olmang. Temirning zichligi  $8000 \text{ kg/m}^3$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 13

**1549.** Bir jinsli silindr bikrili 140 N/m bo'lgan prujinaga vertikal holatda osib qo'yildi. Agar silindr qisman suvga botirilsa, uning kichik vertikal tebranishlarining chastotasi necha foizga ortadi? Ishqalanishni hisobga olmang. Silindrning kesim yuzasi  $30 \text{ cm}^2$ ,  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 10

**1550.** Uzunligi 40 cm bo'lgan sterjen aylana yoyi bo'ylab yarim halqa shaklida bukildi va aylana markazi orqali o'tuvchi gorizontal o'qqa vaznsiz kegaylar (spitsa) yordamida mahkamlab qo'yildi. Agar aylanish o'qi yarim halqa tekisligiga perpendikulyar bolsa, uning muvozanat vaziyati atrofidiagi kichik tebranishlarining davriy chastotasini toping.  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 7

**1551.** Uzunligi 20 cm bo'lgan sterjen aylana uzunligining 1/6 qismini tashkil qiladigan yoy shaklida bukildi va aylana markazidan uning tekisligiga tik ravishda o'tuvchi gorizontal o'qqa vaznsiz kegaylar (spitsa) yordamida mahkamlab qo'yildi. Bunday sistemaning muvozanat vaziyati atrofidiagi kichik tebranishlarining davriy chastotasini toping.  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

Javob: 7

**1552.** Kesimi  $10 \text{ cm}^2$  bo'lgan U-simon trubkaga 400 g suv quyildi. Ishqalanishni inobatga olmagan holda, trubkadagi suyuqlikning vertikal tebranishlari davriy chastotasini toping.  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 7**

1553. Vaznsiz kegaylorari (spitsalari) bo'lgan 400 g massali yupqa g'ildirak gorizontal o'q atrofida erkin aylana oladi. G'ildirakka 100 g massali kichkina yuk mahkamlandi. Bunday sistemaning muvozanat vaziyati atrofidagi kichik tebranishlarining davriy chastotasini toping. G'ildirakning radiusi 50 cm.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 2**

1554. Vaznsiz sterjen 5 cm radiusli aylana uzunligining 1/3 qismini tashkil qiladigan yoy shaklida bukildi va aylana markazidan uning tekisligiga tik ravishda o'tuvchi gorizontal o'qqa vaznsiz kegaylorar (spitsa) yordamida mahkamlab qo'yildi. Sterjen uchlariga ikkita bir xil kichkina yuk mahkamlab qo'yildi. Bunday sistemaning muvozanat vaziyati atrofidagi kichik tebranishlarining davriy chastotasini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 10**

1555. Uzunligi 2,5 m bo'lgan vaznsiz sterjen o'rtasidan 120° burchak ostida bukildi, uning uchlariga bir xilda kichkina yuklar mahkamlab qo'yildi va bukilgan joyi bilan devorga qoqilgan yupqa mixga osildi. Ishqalanishni hisobga olmagan holda, bunday sistemaning muvozanat vaziyati atrofidagi kichik tebranishlarining davriy chastotasini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 2**

1556. Massasi 20 g va uzunligi 118 cm bo'lgan sterjen yarim halqa shaklida bukildi va yarim halqa markazidan uning tekisligiga tik ravishda o'tuvchi gorizontal o'qqa vaznsiz kegaylorar (spitsa) yordamida mahkamlab qo'yildi. Sterjenning o'rtasiga 100 g massali kichkina yuk mahkamlab qo'yilgan. Bunday sistemaning muvozanat vaziyati atrofidagi kichik tebranishlarining davriy chastotasini toping.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ ,  $\pi = 3,14$ .

**Javob: 5**

1557. Uzunligi 20 cm bo'lgan vaznsiz sterjen o'zining o'rtasi orqali o'tadigan gorizontal o'q atrofida erkin aylana oladi. Sterjenning uchlariga massalari  $m$  va  $3m$  bo'lgan ikkita kichkina yuk mahkamlab qo'yildi. Bunday sistemaning muvozanat vaziyati atrofidagi kichik tebranishlarining davriy chastotasini toping.  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 7**

1558. Uzunligi 3,5 m bo'lgan vaznsiz sterjen o'zining uchlaridan biri orqali o'tadigan gorizontal o'q atrofida erkin aylana oladi. Sterjenning bo'sh uchiga  $m$  massali, o'rtasiga esa  $3m$  massali yuk mahkamlab qo'yildi. Bunday sistemaning muvozanat vaziyati atrofidagi kichik tebranishlarining davriy chastotasini toping.  $g = 9,8 \text{ m/s}^2$ .

**Javob: 2**

1559. Silliq gorizontal sirt bo'ylab sirpanayotgan 5 cm uzunlikdagi sterjen g'adir-budir sohaga kirib boradi va u yerda o'z uzunligining ma'lum bir qismini o'tib to'xtab qoladi. Agar sterjen va g'adir-budir sirt orasidagi ishqalanish koefitsiyenti 0,5 bolsa, tormozlanish qancha vaqt (ms da) davom etgan?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ ,  $\pi = 3,14$ .

**Javob: 157**

1560. Uzunligi 45 cm bo'lgan yupqa zanjir gorizont bilan 30° burchak hosil qiluvchi silliq qiya tekislikda yuqori uchidan tutib turilibdi. Agar dastlab zanjirning pastki uchi qiya tekislik oxirida turgan bo'lsa, u qo'yib yuborilgach qancha vaqt (ms da) o'tib, zanjir qiya tekislikni to'liq tark etadi?  $g = 10 \text{ m/s}^2$ ,  $\pi = 3,14$ .

**Javob: 471**

1561. Uzun trubka to'g'ri burchak ostida bukildi va tirsaklaridan biri vertikal yuqoriga qaratib o'rnatildi. Vertikal tirsakda uzunligi 90 cm bo'lgan arzon shunday tutib turilibdiki, bunda u qayrilgan joygacha yetib boradi. Arzon qo'yib yuborilgach, qancha vaqt (ms da) o'tib, u gorizontal tirsak ichiga yarmigacha sirpanib kiradi? Ishqalanish inohatga olinmasin.  $g = 10 \text{ m/s}^2$ ,  $\pi = 3,14$ .

**Javob: 314**

1562. Gorizontal tekislik bo'ylab 1 m/s tezlik bilan sirpanayotgan 45 cm uzunlikdagi zanjircha qiya tekislikka, uning pastki chegarasiga perpendikulyar holda chiq qoshlaydi. Qancha vaqtadan ( $m/s$  da) so'ng zanjirchaning tezligi ikki marta kamayadi? Tekislikning qiyalik burchagi  $30^\circ$ ,  $g = 10 \text{ m/s}^2$ ,  $\pi = 3,14$ . Ishqalanish inobatga olinmasin.

Javob: 314

#### To'lqinlar

1563. Davri 0,01 s bo'lgan tebranishlar 10 m uzunlikka ega bo'lgan tovush to'lqinini yuzaga keltiradigan materialda tovushning tarqalish tezligini toping?

Javob: 1000

1564. Tovushning havedagi tarqalish tezligi 340 m/s, qandaydir suyuqlikda esa 1360 m/s. Havodan suyuqlikka o'tishda tovush to'lqinining uzunligi necha marta ortadi?

Javob: 4

1565. 200 Hz chastotali tovush to'lqinining uzunligi 750 MHz chastotali ultraqisqa to'lqinlar diapazonining radioto'lqini uzunligidan necha marta katta? Tovush tezligi 320 m/s.

Javob: 4

1566. Radiostansiya 30 m to'lqin uzunligida ishlaydi. 5 kHz chastotali tovush tebranishlarining bir davri davomida tarqatuvchi chastota qancha tebranadi?

Javob: 2000

1567. Tovushning suvdagi tezligi 1450 m/s. Agar tebranishlar chastotasi 725 Hz bo'lsa, qarama-qarshi fazalarda tebranuvchi qo'shni nuqtalar bir-biridan qanday masofada joylashgan?

Javob: 1

1568. Chastotasi 10 Hz bo'lgan to'lqin qandaydir muhitda tarqaladi, bunda tebranishlar manbai bilan bir to'g'ri chiziqda yotgan, bir-biridan 1 m masofada joylashgan ikki nuqtaning fazalar farqi  $\pi$  radianga teng. To'lqinning shu muhitda tarqalish tezligini toping.

Javob: 20

1569. Agar muhitning bir to'g'ri chiziqda yotgan, bir-biridan 0,5 masofada joylashgan ikki nuqtasi  $\pi/8$  fazalar farqi bilan tebransa, to'lqin uzunligini toping.

Javob: 8

1570. Ikkita kogerent tovush manbalari bir xil fazada tebranadi. Birinchi manbadan 2,1 m, ikkinchisidan esa 2,27 m uzoqlikdagi nuqtada tovush eshitilmaydi. Bu hodisa sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tebranishlarning minimal chastotasini (kHz da) toping. Tovush tezligi 340 m/s.

Javob: 1

1571. Ikkita kogerent tovush manbai bor. Birinchi manbadan 2,3 m, ikkinchisidan esa 2,48 m uzoqlikdagi nuqtada tovush eshitilmaydi. Bu hodisa sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tebranishlarning minimal chastotasi 1 kHz. Tovushning tarqalish tezligini toping.

Javob: 360

1572. 1 kHz chastotali ikkita kogerent tovush manbai 340 m/s tezlik bilan tarqaluvchi to'lqinlar surlaydi. Bir manbadan 2,6 m masofada joylashgan nuqtada tovush eshitilmaydi. Shu nuqtadan ikkinchi manbagacha bo'lgan minimal masofa 2,6 m dan ortiq ekanligi ma'lum bo'lsa, bu masofa (cm da) qanchaga teng?

Javob: 277

#### Elektr tebranish konturi

1573. Agar konturning induktivligi 10 marta orttirilib, sig'imi 2,5 marta kamaytirilsa, konturning xususiy tebranishlar chastotasi necha marta kamayadi?

Javob: 2

1574. Kondensatorining sig'imi 1  $\mu\text{kF}$  bo'lgan tebranish konturi 400 Hz chastotaga sozlangan. Agar unga parallel ravishda ikkinchi kondensator ulansa, konturdagi tebranishlar chastotasi 200 Hz ga teng bo'ladi. Ikkinci kondensatorning sig'imi (mkF da) aniqlang.

Javob: 3

1575. Tebranish konturidagi kondensatorga parallel ravishda sig'imi uch marta katta bo'lgan boshqa kondensator ulab qo'yilganda konturning tebranishlar chastotasi 300 Hz ga kamaydi. Kontur tebranishlarining dastlabki chastotasini toping.

**Javob: 600**

1576. Tebranish konturi g'altak va kondensatordan iborat. Agar konturga sig'imi birinchi kondensatornikidan 3 marta kichik bo'lgan boshqa kondensator ketma-ket ulansa, konturning xususiy tebranishlar chastotasi necha marta ortadi?

**Javob: 2**

1577. Tebranish konturi induktiv g'altak hamda parallel holda ulangan ikkita bir xil kondensatordan iborat. Konturning xususiy tebranishlar davri 0,02 s. Agar kondensatorlar ketma-ket ulansa, davr (ms da) qanchaga teng bo'ladi?

**Javob: 10**

1578. Tebranish konturi sig'imi 8 pF bo'lgan kondensator va induktivligi 0,2 mH bo'lgan g'altakdan iborat. Agar maksimal tok kuchi 40 mA bo'lsa, kondensator qoplamalaridagi maksimal kuchlanishni toping.

**Javob: 200**

1579. Tebranish konturining kondensatoridagi maksimal potensiallar farqi 100 V. Agar kondensatorning sig'imi 36 m<sup>2</sup>F, g'altakning induktivligi 0,01 H bo'lsa, maksimal tok kuchi qanday bo'ladi?

**Javob: 6**

1580. Zaryadi 250 pC bo'lgan kondensatorga induktiv g'altak ulandi. Agar konturdagi erkin tebranishlarning davriy chastotasi  $8 \cdot 10^7$  rad/s bo'lsa, g'altak orqali o'tuvchi maksimal tok kuchini (mA da) aniqlang.

**Javob: 20**

1581. 4 m<sup>2</sup>F sig'imi zaryadlangan kondensator induktivligi 90 mH bo'lgan g'altakka ulandi. Ulangandan qanday minimal vaqt (mks da) o'tgach, kondensator zaryadi 2 marta kamayadi?  $\pi = 3,14$ .

**Javob: 628**

1582. 2 m<sup>2</sup>F sig'imi zaryadlangan kondensator induktivligi 80 mH bo'lgan g'altakka ulangan. Ulangan paytdan qanday vaqt (mks da) o'tgach, elektr maydon energiyasi magnit maydon energiyasiga teng bo'ladi?  $\pi = 3,14$ .

**Javob: 314**

1583. Radiopriyomnikning tebranish konturi 3 mH induktivlik va 3 nF sig'imga ega. U qanday to'lqin uzunligiga sozlangan?  $\pi = 3,14$ .

**Javob: 5652**

1584. 100 m to'lqin uzunligida ishlayotgan radiostansiyani eshitish imkoniyatiga ega bo'lish uchun 6 MHz chastotaga sozlangan radiopriyomnikning konturidagi sig'imi necha marta orttirish kerak?

**Javob: 4**

1585. Tebranish konturi  $1,5 \cdot 10^7$  Hz chastotaga sozlangan. Konturni 40 m to'lqin uzunligiga qayta sozlash uchun kondensator sig'imini necha marta orttirish kerak?

**Javob: 4**

1586. Induktivlik g'altagi va havo kondensatoridan iborat bo'lgan tebranish konturi 300 m to'lqin uzunligiga sozlangan. Bunda kondensator plastinalari orasidagi masofa 6,4 mm. Kontur 240 m to'lqin uzunligiga sozlangan bo'lishi uchun bu masofa (mm da) qanday bo'lishi kerak?

**Javob: 10**

#### **O'zgaruvchan tok. Transformator**

1587. O'zgarmas tok oqayotgan zanjir qismining uchlardagi kuchlanish vaqt bo'yicha  $U = U_0 \sin(\omega t + 2\pi/3)$  qonun bo'yicha o'zgaradi.  $t = T/12$  vaqt momentida kuchlanishning only qiyimti 9 V ga teng. Kuchlanish amplitudasini aniqlang.

**Javob: 18**

1588. O'zgaruvchan tok tarmog'iga ulangan neon lampa yonadigan va o'chadigan kuchlanish shu tarmoq kuchlanishining effektiv qiymatiga mos keladi. Lampa har bir yarim davr mobaynida 2/3 ms yonib turadi. O'zgaruvchan tok chastotasini toping.

**Javob: 375**

1589. Neon lampa elektrodlaridagi kuchlanish ma'lum bir  $U^*$  qiymatga erishgan paytda u yonadi. Agar lampa effektiv qiymati  $U^*$  bo'lgan kuchlanish tarmog'iga ulangan bo'lsa, har yarim davrda lampa yonib turadigan vaqt intervalini ( $ms$  da) aniqlang. Tarmoqdagi kuchlanish 50 Hz chastota bilan o'zgaradi. Neon lampa yonadigan va o'chadigan kuchlanish bir xil deb hisoblang.

**Javob: 5**

1590. Transformatorning birinchi chulg'amidagi tok kuchi 2 A, uning uchlaridagi kuchlanish 220 V. Ikkinci chulg'am uchlaridagi kuchlanish 40 V. Ikkinci chulg'amidagi tok kuchini aniqlang. Transformatorning yo'qotishlar inobatga olinmasin.

**Javob: 11**

1591. Agar transformatorning 3500 ta o'rami bo'lgan ikkinchi chulg'amidagi kuchlanish 105 V bo'lsa, 1000 o'ramga ega bo'lgan birinchi chulg'am qanday kuchlanish ostida bo'ladi?

**Javob: 30**

1592. Transformatorning birinchi chulg'amidagi tok kuchi 0,5 A, uning uchlaridagi kuchlanish 220 V. Ikkinci chulg'amidagi tok kuchi 11 A, uchlaridagi kuchlanish 9,5 V. Transformatorning FIK ni (foizda) aniqlang.

**Javob: 95**

1593. Transformatorning birinchi chulg'ami o'zgaruvchan tok tarmog'iga ulanganida ikkinchi chulg'amida 30 V kuchlanish yuzaga keladi. Xuddi shu tarmoqqa ikkinchi chulg'am ulanganida birinchi chulg'amina qisqichlarida 120 V kuchlanish yuzaga keladi. Transformatorning birinchi chulg'amidagi o'ramlari soni ikkinchi chulg'amidagi o'ramlar sonidan necha marta ko'p?

**Javob: 2**

1594. Radiolampani cho'g'lanirishga mo'ljallangan transformatorning birinchi chulg'ami 2200 o'ramga ega va 220 V kucblamshli tarmoqqa ulangan. Agar ikkinchi chulg'aming aktiv qarshiliqi  $0,5 \Omega$ , lampa cho'g'lanishining kuchlanishi esa 1 A tok kuchida 3,5 V bo'lsa, ikkinchi chulg'amida qancha o'ram bo'lishi kerak?

**Javob: 40**

1595. O'zgaruvchan tok generatoriga qarshiliqi  $200 \Omega$  bo'lgan elektropech ulangan. Pechning 5 minut ishlashida unda  $270 \text{ kJ issiqlik ajraladi}$ . Bunda pech orqali o'tadigan tok kuchining amplitudasi qanday?

**Javob: 3**

1596. Qarshiliqi  $22 \Omega$  bo'lgan elektropech o'zgaruvchan tok generatoridan energiya oladi. Agar tok kuchining amplitudasi  $10 \text{ A}$  bo'lsa, pechda bir minutda ajraladigan issiqlik miqdorini ( $\text{kJ da}$ ) aniqlang.

**Javob: 66**

1597. Agar g'altak  $10 \text{ kHz}$  chastota o'rniغا  $50 \text{ Hz}$  chastotali o'zgaruvchan tok zanjiriga ulansa, g'altakning induktiv qarshiliqi necha marta kamayadi?

**Javob: 200**

1598.  $200 \Omega$  qarshilik hamda kondensator siklik chastotasi  $2500 \text{ rad/s}$  bo'lgan o'zgaruvchan tok manbaiga parallel ravishda ulangan. Agar qarshilikdan o'tuvchi tok kuchining amplitudaviy qiymati  $1 \text{ A}$  ga, kondensator orqali esa  $2 \text{ A}$  ga teng bo'lsa, kondensatorning sig'imi (mkF da) toping.

**Javob: 4**

1599. O'zgarmas tokning qanday siklik chastotasida  $0,5 \text{ H}$  induktivligi bo'lgan g'altakdan va sig'imi  $200 \text{ mkF}$  bo'lgan kondensatoridan tarkib topgan berk zanjirda kuchlanish rezonansi ro'y keladi?

**Javob: 100**

### **13. OPTIKA. ATOM FIZIKASI**

#### **Elektromagnit to'lqinlar. Sindrish ko'rsatkichi. Difraksiya**

1600. Ultrabimafsha nurlanishining vakuumdagi to'lqin uzunligi  $1,5 \cdot 10^{-5}$  cm ni tashkil etadi. To'lqinning tarqalish tezligi  $1,5 \cdot 10^8$  m/s bo'lgan modda ichida shu nurlanishning to'lqin uzunligi (nm da) qanchaga teng?

Javob: 75

1601. Chastotasi  $1,5 \cdot 10^{15}$  Hz bo'lgan monoxramatik yorug'lik sindirish ko'rsatkichi 1,6 bo'lgan shaffof plastinkada tarqalmoqda. Shu yorug'likning plastinkadagi to'lqin uzunligi (nm da) qanchaga teng?

Javob: 125

1602. Qizil yorug'lik to'lqini sindirish ko'rsatkichi 1,8 bo'lgan yupqa shaffof pylonka orqali o'tadi. Pylonkaning qalinligi  $3,8 \cdot 10^{-5}$  m. Agar yorug'likning vakuumdagi to'lqin uzunligi 720 nm bo'lsa, pylonka ichida nechta yorug'lik to'lqini joylashadi? To'lqin pylonka tekisligiga perpendikulyar ravishda tushadi.

Javob: 95

1603. Difraksion panjara tekisligiga tik ravishda to'lqin uzunligi 500 nm bo'lgan yorug'lik tushadi. Difraksion manzaradagi beshinchchi bosh maksimum tushayotgan yorug'likka nisbatan  $90^\circ$  burchak ostida ko'rinishi uchun panjaraning 1 mm da nechta tirkish bo'lishi kerak?

Javob: 400

1604. Agar difraksion panjaraga yorug'lik normal tushganda lampa spektrining yashil chizig'i (to'lqin uzunligi 550 nm) beshinchchi tartibda  $30^\circ$  burchak ostida ko'rinsa, panjara davrini (nm da) aniqlang.

Javob: 5500

1605. Agar davri 4,4 mkm bo'lgan difraksion panjaraga yorug'lik normal tushganda to'rtinchi tartibli maksimum  $30^\circ$  burchak ostida ko'rinsa, shu yorug'likning to'lqin uzunligini (nm da) toping.

Javob: 550

#### **Yorug'likning qaytishi va sinishi. To'la ichki qaytish**

1606. Parallel yorug'lik dastasi gorizontal ravishda tarqalmoqda. Yassi ko'zgudan qaytgan dasta vertikal ravishda tarqalishi uchun ko'zguni gorizontga nisbatan qanday burchak ostida (gradusda) joylashtirish kerak?

Javob: 45

1607. Gorizontga  $30^\circ$  burchak ostida tushib, ko'zgudan qaytgan quyosh nurlari yordamida vertikal quduqning tubini yoritish uchun ko'zgu gorizontga qanday burchak ostida (gradusda) joylashtirilishi kerak?

Javob: 60

1608. Yassi ko'zgu tushuvchi va qaytuvchi nurlar yotgan tekistikka perpendikulyar bo'lib, nurning tushish nuqtasi orqali o'tuvchi o'q atrofida qandaydir burchakka burilganda, tushayotgan va qaytayotgan nurlar orasidagi burchak  $40^\circ$  ga ortdi. Ko'zgu qanday burchakka (gradusda) burilgan?

Javob: 20

1609. Odam vertikal devorda o'rnatilgan yassi ko'zgu oldida turibdi. U o'z tasvirini to'liq ko'ra olishi uchun ko'zguning minimal balandligi (cm da) qanday bo'lishi kerak? Odamning bo'yi 180 cm.

Javob: 90

1610. Yassi ko'zgu buyumning ko'zgudagi tasviri turgan joyga ko'chirilganda, buyum va uning tasviri orasidagi masofa necha marta ortadi? Buyum qo'zg'almas holda turibdi.

Javob: 2

1611. Yassi ko'zgu nuqtaviy yorug'lik manbai tomonga 10 cm/s tezlik bilan harakatlanmoqda. Tasvir qanday tezlik bilan (cm/s da) harakatlanadi? Tezlik yo'nalishi ko'zgu tekisligiga perpendikulyar.

Javob: 20

1612. Ikkita yassi ko'zgu bir·biriga nisbatan burchak ostida o'rnatildi va ular orasiga nuqtaviy yorug'lik manbai joylashtirildi. Bu manbadan birinchi ko'zgugacha bo'lgan masofa 3 cm, ikkinchisigacha 4 cm. Birinchi tasvirlar orasidagi masofa 10 cm. Ko'zgular orasidagi burchakni (gradusda) toping.

Javob: 90

1613. O'zaro  $60^{\circ}$  burchak ostida o'rnatilgan ikkita yassi ko'zguda buyumning nechta tasviri hosil bo'ladi (ko'rinadi)?

Javob: 5

1614. Ikkita yassi ko'zgu bir·biriga nisbatan burchak ostida o'rnatildi va ular orasiga nuqtaviy yorug'lik manbai joylashtirildi. Bu manbadan birinchi ko'zgugacha bo'lgan masofa 3 cm, ikkinchisigacha 8 cm. Ko'zgularagi birinchi tasvirlar orasidagi masofa 14 cm. Ko'zgular orasidagi burchakni (gradusda) toping.

Javob: 120

1615. Yassi parallel shisha plastinkaga orasidagi masofa 3 cm bo'lgan ikkita yorug'lik nuri  $60^{\circ}$  burchak ostida tushadi. Shu nurlar plastinkadan chiqib ketadigan nuqtalar orasidagi masofani (cm da) toping.

Javob: 6

1616. Sindirish ko'rsatkichi  $\sqrt{3}$  ga teng bo'lgan shisha plastinkaga yorug'lik nuri qanday burchak (gradusda) ostida tushganda, singan nur qaytgan nurga perpendikulyar bo'ladi?

Javob: 60

1617. Quyosh gorizont bilan sinusi 0,6 bo'lgan burchak hosil qiladi. Balandligi 170 cm bo'lgan tayoq 80 cm chuqurlikdagi hovuzning tubiga qoqib qo'yilgan. Bu tayoqning hovuz tubidagi soyasining uzunligini (cm da) toping. Suvning sindirish ko'rsatkichi 4/3.

Javob: 180

1618. Yorug'lik nuri qalinligi 2 cm bo'lgan shaffof plastinkaga sinusi 0,8 bo'lgan burchak ostida tushadi. Nur plastinkadan o'tishda necha millimetrga siljiydi? Plastinka moddasining sindirish ko'rsatkichi 4/3.

Javob: 7

1619. Yorug'lik nuri yassi ko'zguga sinusi 0,75 bo'lgan burchak ostida tushmoqda. Agar ko'zgu ustiga sindirish ko'rsatkichi 4/3 bo'lgan 2 cm qalinlikdagi shaffof plastinka qo'yilsa, qaytgan nur necha millimetrga siljiydi?

Javob: 12

1620. Yorug'lik qandaydir shaffof modda ichida vakuumdagi yorug'lik tezlididan ikki marta kichik tezlik bilan tarqaladi. Shu moddaning vakuum bilan hosil qilgan chegara tekisligi uchun to'la qaytishning chegaraviy burchagi (gradusda) qanchaga teng bo'ladi?

Javob: 30

1621. Sindirish ko'rsatkichi  $5/3$  bo'lgan suyuqlik solingen idish tubida nuqtaviy yorug'lik manbai turibdi. Yuqorida qaraganda manba ko'rinnasligi uchun suyuqlik yuzida suzib yurgan noshaffof disk qanday minimal radiusga (cm da) ega bo'lishi kerak? Suyuqlik qatlaming balandligi 12 cm.

Javob: 9

1622. Noshaffof keng idish sindirish ko'rsatkichi 1,25 bo'lgan suyuqlik bilan limmo-lim to'ldirilgan. Suyuqliknинг usti 2 cm radiusli teshigi bo'lgan noshaffof plastina bilan yopildi. Agar idish bulutli osmonning har tarafidan tushadigan tarqoq nurlari bilan yoritilayotgan bo'lsa, uning tubidagi yorug' dog'ning diametrini (cm da) aniqlang. Suyuqlik qatlaming qalinligi 6 cm.

Javob: 20

1623. Sindirish ko'rsatkichli 1,5 bo'lgan shisha ichida sindirish ko'rsatkichi 4/3 bo'lgan suv bilan to'ldirilgan 9 cm radiusli sferik kovak bor. Kovakka parallel yorug'lik nurlari tushmoqda. Kovak ichiga kiradigan yorug'lik dastasining radiusini (cm da) aniqlang.

Javob: 8

**1624.** Yorug'lik nurining birinchi muhitdan ikkinchisiga o'tishida sinish burchagi  $45^\circ$  ga, birinchi muhitdan uchinchisiga o'tishida esa sinish burchagi  $30^\circ$  ga teng (tushish burchagi bir xil). Uchinchi muhitdan ikkinchisiga o'tayotgan nur uchun to'la ichki qaytishning chegaraviy burchagini (gradusda) toping.

**Javob:** 45

**1625.** Yorug'lik nurining havodan 40 cm qalinlikdagi suv qatlamiga tushish burchagi suv uchun to'la ichki qaytish burchagiga teng. Shu suv qatlamidan o'tish natijasida nurning siljishini (cm da) hisoblang. Suvning sindirish ko'rsatkichi 4/3.

**Javob:** 12

**1626.** Hovuzning chuqurligi 2 m ga teng. Agar uning tubiga suvning tepasida egilib, vertikal pastga qaragan holda nazar solinsa, hovuzning tuyulma chuqurligini (cm da) aniqlang. Suvning sindirish ko'rsatkichi 4/3. Burchaklarni kichkina deb hisoblang, ya'ni  $\operatorname{tg}\alpha = \sin\alpha$ .

**Javob:** 150

**1627.** Nuqtaviy yorug'lik manbai bilan kuzatuvchi orasiga 24 mm qalinlikdag'i shisha plastina o'rnatildi. Manbaning ko'rinma vaziyati necha millimetrga silsidi? Shishaning sindirish ko'rsatkichi 1,5. Plastina kuzatish yo'nalishiga tik holatda, burchaklarni kichkina deb hisoblang, ya'ni  $\operatorname{tg}\alpha = \sin\alpha$ .

**Javob:** 8

**1628.** Ko'zlari ochiq holda suvga sho'ng'igan suzuvchi o'zining hoshi tepasida suv sirtidan 75 cm balandlikda bo'lgan nur sochib turgan predmetga suv ostidan qaraydi. Predmetning ko'zga ko'rindigan balandligi (suv sirtidan, cm da) qanday bo'ladi? Suvning sindirish ko'rsatkichi 4/3. Burchaklarni kichkina deb hisoblang, ya'ni  $\operatorname{tg}\alpha = \sin\alpha$ .

**Javob:** 100

**1629.** Suvli idish tubida yassi ko'zgu yotibdi. Suv qatlaming qalinligi 16 cm. Suv sirtidan 20 cm masofada nuqtaviy yorug'lik manbai joylashgan. Manbaning suvdan qaytib chiqqan nurlardan hosil bo'lgan tasviri ko'zgudan qanday masofada (cm da) bo'ladi? Suvning sindirish ko'rsatkichi 4/3. Burchaklarni kichkina deb hisoblang, ya'ni  $\operatorname{tg}\alpha = \sin\alpha$ .

**Javob:** 28

**1630.** Radiusi 5 cm bo'lgan shisha sharning sirtiga kichkina qora dog' chizib qo'yildi. Dog'ga sharning diametri bo'yicha qarama-qarshi tomonidan qaraladi. Uning ko'zga ko'rindigan vaziyati shishaning (kuzatuvchiga) eng yaqin sirtidan qanday masofada bo'ladi? Shishamning sindirish ko'rsatkichi 1,5.

**Javob:** 20

**1631.** Yopqa shisbadan yasalgan akvarium 3 cm radiusli shar shakliga ega. Akvarium suv bilan to'ldirildi va uning ichiga kichkina baliqcha qo'yib yuborildi. Baliqcha qandaydir vaqt momentida kuzatuvchining ko'zlari va shar markazi orasida, markazdan 1 m masofada joylashib qoldi. Baliqchaning ko'zga ko'rindigan vaziyati real vaziyatidan necha santimetrga yaqin bo'ladi? Suvning sindirish ko'rsatkichi 4/3.

**Javob:** 20

### Linzalar

#### a) nurlarning yo'lli

**1632.** Fokus masofasi 17 cm bo'lgan yig'uvchi linzaga uning bosh optik o'qiga parallel bo'lgan yorug'lik dastasi tushmoqda. Bu linzadan fokus masofasi 0,09 m bo'lgan sochuvchi linza qanday masofada (cm da) o'rnatilganda, yorug'lik dastasi ikki linzadan o'tgach paralleligicha qoladi?

**Javob:** 8

**1633.** Fokus masofasi 10 cm bo'lgan sochuvchi linzaga bosh optik o'qqa parallel bo'lgan silindriks nurlar dastasi tushmoqda. Linza ortida undan 20 cm masofada ekran o'rnatilgan bo'lib, unda 15 cm diametrli dumaloq yorug' dog' hosil bo'lmoqda. Nurlar dastasining diametrini (cm da) aniqlang.

**Javob:** 5

**1634.** Yig'uvchi linzaga bosh optik o'qqa parallel bo'lgan 15 mm diametrli silindriks nurlar dastasi tushmoqda. Dastaning simmetriya o'qi linzaning optik markazi orqali o'tadi. Linzaning

ortida birinchi marta linzadan 8 cm masofada, ikkinchi marta esa 12 sm masofada ekran o'rnatalganda, ekranda hosil bo'lувчи yorug' dog'ning diametri bir xil boladi. Shu diametr (mm da) qanchaga teng?

Javob: 3

1635. Ekrandagi teshik ichiga fokus masofasi 10 cm bo'lgan sochuvchi linza o'rnatalgan. Linzaga parallel nurlar dastasi tushmoqda. Linzadan 30 cm masofada uning tekisligiga parallel ravishda ekran joylashgan. Sochuvchi linza xuddi shunday diametrli yig'uvchi linzaga almashtirilganda ekrandagi yorug' dog'ning radiusi o'zgarmay qoldi. Yig'uvchi linzaning fokus masofasi (cm da) qanchaga teng?

Javob: 6

1636. Nuqtaviy yorug'lik manbai fokus masofasi 6 cm bo'lgan yig'uvchi linzaning fokusida o'rnatalgan. Linza ortida undan 12 cm masofada yorug' dog' ko'riniib turgan yassi ekran joylashtirilgan. Ekrandagi yorug' dog'ning radiusi 2 marta ortishi uchun yorug'lik manbaini optik o'q bo'ylab linza fokusidan qanday masofaga (cm da) ko'chirish kerak?

Javob: 2

**b) linza formulasi**

1637. Buyum fokus masofasi 15 cm bo'lgan yig'uvchi linzadan 20 cm masofada joylashgan. Tasvirdan linzagacha bo'lgan masofani (cm da) toping.

Javob: 60

1638. Yig'uvchi linzaning fokus masofasi 20 cm. Agar buyumming aniq tasviri hosil bo'layotgan ekran linzaning orqa (ikkinchi) fokusidan 40 cm masofada joylashgan bo'lsa, buyumdan linzaning old (birinchi) fokusigacha bo'lgan masofani (cm da) toping.

Javob: 10

1639. Buyumdan yig'uvchi linzagacha bo'lgan masofa fokus masofadan 1,5 marta katta. Tasvirdan linzagacha bo'lgan masofa fokus masofadan necha marta katta?

Javob: 3

1640. Buyum optik kuchi 10 D bo'lgan yig'uvchi linzadan 8 cm masofada turibdi. Buyumning tasviri linzadan qanday masofada (cm da) joylashadi?

Javob: 40

1641. Buyum optik kuchi 4 D bo'lgan yig'uvchi linzadan 20 cm masofada turibdi. Tasvirdan buyumgacha bo'lgan masofani (cm da) toping.

Javob: 80

1642. Fokus masofasi 10 cm bo'lgan yig'uvchi linza o'zidan 15 cm masofada mavhum tasvir hosil qilmoqda. Buyum bu tasvirdan qanday masofada (cm da) joylashgan?

Javob: 9

1643. Tasvirdan sochuvchi linzagacha bo'lgan masofa 0,75 fokus masofani tashkil etadi. Buyumdan linzagacha bo'lgan masofa fokus masofadan necha marta katta?

Javob: 3

1644. Buyumdan fokus masofasi 4 cm bo'lgan sochuvchi linzagacha bo'lgan masofa 12 cm ga teng. Tasvirdan buyumgacha bo'lgan masofani (cm da) toping.

Javob: 9

1645. Buyumning sochuvchi linzadagi mavhum tasviri linzadan buyumdan linzagacha bo'lgan masofaga qaraganda 2 marta kichik masofada joylashgan. Agar linzaning fokus masofasi 50 cm bo'lsa, linzadan tasvirgacha bo'lgan masofam (cm da) toping.

Javob: 25

1646. Sochuvchi linzaga (bir nuqtaga) yig'iluvchi nurlar dastasi tushmoqda. Nurlar linza orqali o'tgach, linzadan 15 cm masofadagi nuqtada kesishadi. Agar linza olib qo'yilsa, nurlarning kesishish nuqtasi linza tomonga qarab 5 cm ga siliydi. Linzaning fokus masofasini (absolyut qiymat bo'yicha, cm da) aniqlang.

Javob: 30

**1647.** Ikkita nuqtaviy yorug'lik manbai bir biridan 24 cm masofada joylashgan. Manbalar orasiga ularning biridan 6 cm masofada yig'uvchi linza joylashtirilgan. Bunda har ikki manbaning tasviri bitta nuqtada hosil bo'ldi. Linzaning fokus masofasini (cm da) toping.

Javob: 9

**1648.** Yig'uvchi linza yordamida olingan buyumning haqiqiy tasviri linzadan 8 cm masofada joylashgan. Agar yig'uvchi linza fokus masofasi xuddi shu kattalikda bo'lgan sochuvchi linzaga almashtirilsa, bu buyumning mavhum tasviri linzadan 2 cm uzoqlikda bo'ladi. Linzalar fokus masofasining absolyut qiymatini (cm da) toping.

Javob: 32

**1649.** Nuqtaviy yorug'lik manbai bilan ekran orasidagi masofa 3,75 m. Ekranda manbaning aniq tasviri yig'uvchi linzaning ikki vaziyatida hosil bo'ladi. Bu vaziyatlar orasidagi masofa 0,75 m. Linzaning fokus masofasini (cm da) toping.

Javob: 90

**1650.** Nuqtaviy yorug'lik manbai fokus masofasi 6 cm bo'lgan yig'uvchi linzadan 9 cm masofada joylashgan. Bu linzaning ortida undan 6 cm masofada xuddi shunday boshqa bir linza turibdi. Manbaning linzalar sistemasi hosil qilgan tasviri ikkinchi linzadan qanday masofada (cm da) joylashadi?

Javob: 4

**1651.** Nuqtaviy yorug'lik manbai fokus masofasi 10 cm bo'lgan yig'uvchi linzadan 12 cm masofada joylashgan. Linzaning ortida 10 cm masofada linzaning bosh optik o'qiga perpendikulyar holda yassi ko'zgu o'rnatilgan. Ko'zgudan qaytgach, linza orqali o'tgan nurlardan hosil bo'lgan tasvir linzadan qanday masofada (cm da) joylashgan.

Javob: 8

**1652.** Nuqtaviy yorug'lik manbai fokus masofasi 6 cm bo'lgan yig'uvchi linzadan 8 cm masofada joylashgan. Linzaning ortida 15 cm masofada fokus masofasi 12 cm bo'lgan sochuvchi linza joylashgan. Manbaning linzalar sistemasi hosil qilgan tasviri sochuvchi linzadan qanday masofada (cm da) joylasbadi?

Javob: 36

**1653.** Nuqtaviy yorug'lik manbai fokus masofasi 5 cm bo'lgan yig'uvchi linzadan 6 cm masofada joylashgan. Agar manba bilan linza orasiga yassirparallel shisha plastma qo'yilsa, nuqtaning tasviri qanday masofaga (cm da) siljiydi? Plastina linzaming bosh optik o'qiga perpendikulyar ravishda o'rnatilgan, plastinaning qalinligi 4,5 cm, shishaning sindirish ko'rsatkichi 1,5.

Javob: 75

### *○ linzaning kattalashtrishi*

**1654.** Proyekcion sonar obyektivining fokus masofasi 25 cm. Agar ekran obyektivdan 200 cm masofa uzoqlikda bo'lsa, sonar diapozitivning qanday kattalashtrishini beradi?

Javob: 7

**1655.** Daraxt 10 m masofadan suratga olingan. Fotoapparat obyektivining optik kuchi 12,6 D. Daraxt tanasining fotoplyonkadagi tasvirining kengligi 2 mm. Daraxt tanasining diametrini (cm da) toping.

Javob: 25

**1656.** Bo'y 160 cm bo'lgan odamning fotoplyonkadagi tasvirining balandligi 2 cm. Agar odam 9 m masofadan suratga olingan bo'lsa, fotoapparat obyektivining optik kuchini (D da) toping.

Javob: 9

**1657.** 3 marta kattalashgan haqiqiy tasvir hosil qilish uchun buyumni fokus masofasi 30 cm bo'lgan yig'uvchi linzadan qanday masofada (cm da) joylashtirish kerak?

Javob: 40

**1658.** Predmetdan yig'uvchi linzagacha bo'lgan masofa fokus masofasining 1,25 qismini tashkil etadi. Linzaning kattalashtrishini toping.

Javob: 4

**1659.** Yig'uvchi linzadan 60 cm masofada joylashtirilgan predmetning tasviri linzaning ort tomonida o'z kattaligida hosil bo'lgan. Agar predmet linza tomonga 20 cm ga surilsa, tasvir o'lchami necha marta kattalashadi?

Javob: 3

**1660.** Predmet yig'uvchi linzaning old tomonida 0,2 m masofada joylashgan. Linza yordamida predmetning 5 marta kattalashgan mavhum tasviri hosil qilingan. Linzaning optik kuchini (D da) aniqlang.

Javob: 4

**1661.** Yig'uvchi linza yordamida hosil qilingan predmetning mavhum tasviri linzadan uning fokusiga nisbatan 4 marta uzoqda joylashgan. Linza kattalashtirishini toping.

Javob: 5

**1662.** Predmet va uning 3 marta kattalashgan haqiqiy tasviri orasidagi masofa 80 cm. Linzaning fokus masofasini (cm da) toping.

Javob: 15

**1663.** Predmet va uning 5 marta kattalashgan mavhum tasviri orasidagi masofa 80 cm. Predmetdan linzagacha bo'lgan masofani (cm da) toping.

Javob: 20

**1664.** Fokus masofasi 8 cm bo'lgan sochuvchi linza predmetni ikki marta kichraytiradi. Predmetdan tasvirogacha bo'lgan masofani (cm da) toping.

Javob: 8

**1665.** Fokus masofasi 4 cm bo'lgan sochuvchi linza predmetning 4 marta kichraygan tasvirini beradi. Predmetdan tasvirogacha bo'lgan masofani (cm da) toping.

Javob: 9

**1666.** Fokus masofasi 12 cm bo'lgan linza predmetning 3 marta kichraygan haqiqiy tasvirini shakllantiradi. Birinchisi o'rniqa joylashtirilgan boshqa linza predmetning 3 marta kattalashgan haqiqiy tasvirini hosil qiladi. Ikkinci linzaning fokus masofasini (cm da) toping.

Javob: 36

**1667.** Fokus masofasi 8 cm bo'lgan linza predmetning 5 marta kattalashtirilgan haqiqiy tasvirini hosil qiladi. Birinchchi linzaning o'rniga joylashtirilib, 5 marta kattalashgan mavhum tasvirga ega bo'lishimiz uchun uning fokus masofasi (cm da) qanday bo'lishi kerak?

Javob: 12

**1668.** Yig'uvchi linza ekranda qandaydir predmetning tasvirini beradi. Tasvirning balandligi 9 cm. Ekrana predmetni qo'zg'almas qilib qo'yib, linza ekranga yaqinroq surildi va 4 cm balandlikdagi aniq tasvir hosil bo'ldi. Predmetning balandligini (cm da) toping.

Javob: 6

**1669.** Fokus masofasi 5 cm bo'lgan yig'uvchi linzaning optik o'qi bo'ylab sterjen shunday joylashtirilganki, bunda uning ortasi linzadan 8 cm masofada turibdi. Agar sterjenning bo'ylama kattalashishi 5 ga teng bo'lsa, uning uzunligi (cm da) qanchaga teng?

Javob: 4

**1670.** Yopqa sterjen yig'uvchi linzaning bosh optik o'qi bo'ylab joylashtirilgan. Agar sterjenning bir uchida joylashgan obyekt 4 kattalashtirish bilan, boshqa uchidagisi esa 2,75 kattalashtirish bilan aks etsa, sterjenning bo'ylama kattalashishi qanday bo'ladi?

Javob: 11

**1671.** Yig'uvchi linzaning bosh optik o'qida undan fokus masofasidan bir yarim marta katta uzoqlikda joylashgan nuqtaviy manba 4 mm/s tezlik bilan o'qqa perpendikulyar ravishda silijiy boshlaydi. Manbaning tasviri qanday tezlik (mm/s da) bilan harakatlanadi?

Javob: 8

**1672.** Nuqtaviy manba fokus masofasi 6 cm bo'lgan yig'uvchi linzaning hosh optik o'qida linzadan 8 cm masofada joylashgan. Linza optik o'qqa perpendikulyar yo'nalishda 3 mm/s tezlik bilan silijiy boshlaydi. Manbaning tasviri qanday tezlik (mm/s da) bilan harakatlanadi?

Javob: 12

**1673.** Nuqtaviy manba tokus masofasi 8 cm bo'lgan yig'uvchi linzaning bosh optik o'qi bo'ylab 2 mm/s tezlik bilan harakatlanadi. Manba linzadan 10 cm masofada bo'lgan paytda manbaning tasviri qanday tezlik (mm/s da) bilan harakatlanadi?

Javob: 32

**1674.** Fokus masofasi 10 cm bo'lgan yig'uvchi linzaning bosh optik nuqtaviy yorug'lik manbai turibdi. Linza manbagaga tomon 3 mm/s tezlik bilan ko'chitiladi. Linza bilan manba orasidagi masofa 12 cm bo'lgan paytda tasvir qanday tezlik (mm/s da) bilan harakatlanadi?

Javob: 72

**Yorug'lik kvantlari**

**1675.** Jismga 90 MJ ga teng bo'lgan qo'shimcha energiya berilganda uning massasi necha mikrogramma ortadi?

Javob: 1

**1676.** Atom elektron bilan to'qnashganda  $13,24 \cdot 10^{-19}$  J energiya olib, yorug'lik kvantini nurlantiradi. Nurlanish chastotasini (petagersda) aniqlang. Plank doimiysi  $6,62 \cdot 10^{-34}$  J · s. ( $1 \text{ PHz} = 10^{15} \text{ Hz}$ ).

Javob: 2

**1677.** Fotonining energiyasi  $2,2 \cdot 10^{-19}$  J bo'lgan yorug'likning sindirish ko'rsatkichi 1,5 bo'lgan muhitdagi to'lqin uzunligini (nm da) aniqlang. Plank doimiysi  $6,6 \cdot 10^{-34}$  J · s.

Javob: 600

**1678.**  $3 \cdot 10^{20}$  Hz chastotali gamma nurlanishga mos keladigan fotonning energiyasi  $2 \cdot 10^{-10}$  m to'lqin uzulikdagi rentgen nurlanishining foton energiyasidan necha marta katta?

Javob: 200

**1679.** Agar yorug'lik fotonining impulsi  $1,1 \cdot 10^{-27}$  kg · m/s, shu yorug'likning to'lqin uzunligi (nm da) qanday? Plank doimiysi  $6,6 \cdot 10^{-34}$  J · s.

Javob: 600

**1680.**  $8 \cdot 10^{-27}$  kg · m/s impulsiga ega bo'lgan fotonning energiyasi 5 V potensiallar farqini o'tishda elektron olgan kinetik energiyadan necha marta katta? Elektronning zaryadi  $1,6 \cdot 10^{-19}$  C.

Javob: 3

**1681.** Agar insonnинг ko'zi yorug'lik oqimining  $1,8 \cdot 10^{-16}$  W quvvatida to'lqin uzunligi 0,55 mm bo'lgan yorug'likni qabul qilsa, 1 s da ko'zga qancha foton tushadi? Plank doimiysi  $6,6 \cdot 10^{-34}$  J · s.

Javob: 500

**1682.** 15 mA tok kuchi va 66 kV kuchlanish ostida ishilayotgan rentgen trubkasi sekundiga  $10^{16}$  foton nurlantiradi. Nurlanishning to'lqin uzunligi  $10^{-10}$  ga teng deb hisoblab, qurilmaning FIK ni (foizlarda) aniqlang. Plank doimiysi  $6,6 \cdot 10^{-34}$  J · s.

Javob: 2

**1683.** Lazer har impulsda to'lqin uzunligi  $6,6 \cdot 10^{-5}$  cm bo'lgan  $2 \cdot 10^{19}$  ta yorug'lik kvantini nurlantiradi. Agar lazer chiqnashining davomiyligi 2 ms bo'lsa, chiqnash quvvati qanchaga teng? Plank doimiysi  $6,6 \cdot 10^{-34}$  J · s.

Javob: 3000

**1684.** 132 W quvvat iste'mol qiladigan cho'glanma lampochkaning yorug'lik uzatishi (FLK) 6 % ga teng, lampa nurlanishining o'rtaча chastotasi esa  $6 \cdot 10^{14}$  Hz. Lampadan 100 m uzoqlikda turgan kishi ko'zining qorachig'iga shu lampadan sekundiga necha milliard foton tushadi? Qorachiqui 2 mm radiusli yassi doira deb hisoblang. Plank doimiysi  $6,6 \cdot 10^{-34}$  J · s.

Javob: 2

**1685.** Razryad trubkasida qandaydir metall bug'lari elektrodlar orasidagi kuchlanish 9,9 V bo'lganda yorug'lik chiqara boshlaydi. Yuzaga kelgan nurlanishning to'lqin uzunligi bir

mikrometrdan necha marta kichik? Plank doimiysi  $6,6 \cdot 10^{-34} J \cdot s$ , elektronning zaryadi  $1,6 \cdot 10^{-19} C$ .

Javob: 8

1686. Kosmik stansiyaning  $50 m^2$  yuzali quyosh batareyasi quyosh tomonga perpendikulyar ravishda joylashtirilgan. Batareya o'ziga tushadigan quyosh nurlanishining yarmini qaytaradi. Agar  $1 m^2$  yuzaga tushadigan nurlanish quvvati  $1,4 \text{ kW}$  ga teng bo'lsa, nurlanishning batareyaga beradigan bosim kuchi (mkN da) qanchaga teng?

Javob: 350

1687. Lazerning  $600 W$  quvvatlari nurlanishi  $20 \text{ ms}$  davom etdi. Nurlangan yo'rug'lik  $2 \text{ mg}$  massali ideal qaytaruvchi folga bo'lagiga tushganda, folga bo'lagi qanday tezlik ( $\text{cm/s da}$ ) oladi? Folga nurning tarqalish yo'naliishiga perpendikulyar holda joylashgan.

Javob: 4

Fotoeffekt

1688. Kvantining energiyasi  $3,5 \text{ eV}$  bo'lgan yorug'lik metall plastinkadan elektronlarni urib chiqaradi. Agar bu elektronlarning maksimal kinetik energiyasi  $1,5 \text{ eV}$  bo'lsa, shu metalldan elektronlarning chiqish ishini ( $\text{eV da}$ ) toping.

Javob: 2

1689. Metallga to'lqin uzunligi  $0,33 \text{ mkm}$  bo'lgan ultrabinafsha nurlanish ta'sir etganida undan uzilib chiqadigan elektronlar qanday maksimal kinetik energiyaga ( $\text{eV da}$ ) ega bo'ladi? Elektronlarning chiqish ishi  $2,8 \cdot 10^{-19} J$ . Plank doimiysi  $6,6 \cdot 10^{-34} J \cdot s$ . ( $1 \text{ eV} = 1,6 \cdot 10^{-19} J$ )

Javob: 2

1690. Fotonlarining energiyasi  $7,8 \cdot 10^{-19} J$  bo'lgan yorug'lik yordamida metall sirtidan urib chiqarilgan fotoelektronlarni to'xtatuvchi kuchlanish qanchaga teng? Bu metalldan chiqish ishi  $3 \cdot 10^{-19} J$ . Elektronning zaryadi  $1,6 \cdot 10^{-19} C$ .

Javob: 3

1691. Fotoeffektning qizil chegarasi qandaydir metall uchun  $6,6 \cdot 10^{-7} \text{ m}$  to'lqin uzunligiga mos keladi. To'lqin uzunligi  $1,8 \cdot 10^{-5} \text{ cm}$  bo'lgan nurlanish yordamida shu metalldan urib chiqarilgan fotoelektronlarni to'liq to'xtatuvchi kuchlanish qanchaga teng? Plank doimiysi  $6,6 \cdot 10^{-34} J \cdot s$ , elektronning zaryadi  $1,6 \cdot 10^{-19} C$ .

Javob: 5

1692. Metallga tushayotgan yorug'lik chastotasi ikki marta ortganda fotoelektronlarni to'xtatuvchi kuchlanish uch marta ortadi. Dastlab tushayotgan yorug'likning chastotasi  $1,2 \cdot 10^{15} \text{ Hz}$ . Shu metall uchun "qizil chegara" ga mos keladigan yorug'likning to'lqin uzunligini ( $\text{nm da}$ ) toping.

Javob: 500

1693. Agar elektronlarning metall sirtidan chiqish ishi  $6 \cdot 10^{-19} J$ , urib chiqarilgan fotoelektronlarning maksimal kinetik energiyasi  $6 \cdot 10^{-20} \text{ bo'lsa}$ , metall sirtiga tushayotgan yorug'likning to'lqin uzunligini ( $\text{nm da}$ ) aniqlang. Plank doimiysi  $6,6 \cdot 10^{-34} J \cdot s$ .

Javob: 300

1694. Qandaydir metall sirtidan elektronlarning chiqish ishi  $3,375 \text{ eV}$ . Metallni to'lqin uzunligi  $2 \cdot 10^{-7} \text{ bo'lgan}$  yorug'lik bilan yoritganda uning sirtidan uchib chiqadigan elektronlarning tezligini ( $\text{km/s da}$ ) toping. Elektronning massasi  $9 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$ . Plank doimiysi  $6,6 \cdot 10^{-34} J \cdot s$ . ( $1 \text{ eV} = 1,6 \cdot 10^{-19} J$ )

Javob: 1000

1695. Qandaydir metall sirtidan elektronlarning chiqish ishi  $5,2 \cdot 10^{-19} J$ . Metall sirtiga impulsi  $2,4 \cdot 10^{-27} \text{ kg} \cdot m/s$  bo'lgan fotonlar tushadi. Fotoeffekt paytida metall sirtidan uchib chiqadigan elektronlarning maksimal impulsi tushayotgan fotonlarning impulsidan necha marta katta? Elektron massasi  $9 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$ .

Javob: 250

### Vodorod atomi

1696. Agar vodorod atomi bir holatdan boshqa bir holatga o'tganda orbita radiusi 16 marta kamaysa, elektronning chiziqli tezligi necha marta ortadi?

Javob: 4

1697. Agar vodorod atomining bir statsionar holatdan boshqa holatga o'tishida elektronning kinetik energiyasi 16 marta oshsa, elektronning orbita radiusi necha marta kamayadi?

Javob: 16

1698. Agar vodorod atomi bir statsionar holatdan boshqa bir holatga o'tganda undagi elektronning orbita bo'ylab aylanishining burchak tezhgi 8 marta ortgan bolsa, bunda elektronning kinetik energiyasi necha marta ortgan?

Javob: 4

1699. Agar vodorod atomi bir statsionar holatdan boshqa bir holatga o'tganda undagi elektronning orbita radiusi 4 marta kamaysa, bu elektronning aylanish burchak tezhgi necha marta ortadi?

Javob: 8

1700. Vodorod atomlarining 2-tartibli holatdan normal holatga o'tishi qandaydir to'lqin uzunlikdagi ultrabinafsha nurlanish orqali yuz beradi. To'lqin uzunligi 4 marta katta bo'lgan kvantlarni yutganda vodorod atomlari 2-tartibli holatdan qanday tartibli (nomerli) qo'zg'aligan holatga o'tadi?

Javob: 4

1701. Vodorod atomlarining 6-tartibli holatdan 2-tartibli holatga o'tishida ko'zga ko'rinishidan yorug'lik nurlanadi. Shu yorug'likning to'lqin uzunligi ultrabinafsha nurlanishning to'lqin uzunligidan necha marta katta? Vodorod atomlari ultrabinafsha nurlarni yutganda normal holatdan 3-tartibli holatga o'tadi.

Javob: 4

1702. Energiyası vodorod atomining ionlashish energiyasining 8/9 qismini tashkil etadigan fotoni yutganda, vodorod atomi normal holatdan qanday tartibli (nomerli) qo'zg'atilgan holatga o'tadi?

Javob: 3

### Yadroviy reaksiyalar

1703. Massa va zaryad sonlari 14 va 7 bo'lgan azot atomining yadrosi massa va zaryad sonlari 65 va 30 bo'lgan rux yadrosiga qaraganda necha marta kam neytronlarga ega?

Javob: 5

1704. Massa soni 239 va zaryad soni 92 bo'lgan radioaktiv holatdagi uran yadrosi elektron chiqarganidan so'ng qandaydir elementning yadrosiga aylanadi. Mendeleyevning elementlar davriy sistemasida shu elementning tartib raqami qanday?

Javob: 93

1705.  $^{14}N$  azot atomi yadrosiga alfa-zarracha kelib uriladi va uning ichida qoladi. Bunda qandaydir elementning yadrosi hosil bo'ladi va proton chiqariladi. Mendeleyevning elementlar davriy sistemasida shu elementning tartib raqami qanday?

Javob: 8

1706. Qandaydir yadrolarni protonlar bilan bombardimon qilganda alfa-zarracha hosil bo'ladi hamda pozitron chiqariladi. Dastlabki yadrodagı neytronlar sonini aniqlang.

Javob: 1

1707.  $^{23}Al$  izotop bilan  $^{12}C$  uglerodning reaksiyasida alfa-zarracha, neytron hamda qandaydir izotopning yadrosi hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan yadrodagı neytronlar sonini aniqlang.

Javob: 17

1708.  $^{7Li}$  litiyni neytronlar bilan bombardimon qilganda geliy-4 yadrosi va qandaydir elementning izotopi hosil bo'ladi. Bu izotopning yadrosidagi neytronlar sonini aniqlang.

Javob: 2

1709.  $^{27}_{13}Al$  alyuminiy atomining yadroasi neytronlar bilan bombardimon qilinganda alfa-zarracha chiqadi va qandaydir izotopning yadroasi hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan izotopning yadrosidagi neytronlar sonini aniqlang.

Javob: 13

1710.  $^{9Be}$  berilliylizotopining yadroasi deutronni (masa soni 2 bo'lgan vodorod izotopini) yutib, qandaydir elementning yadrosiga aylanadi. Bunda bitta neytron chiqadi. Hosil bo'lgan elementning Mendeleyevning elementlar davriy sistemmasidagi tartib raqami qanday?

Javob: 5

1711. Alyuminiy atomining yadroasi alfa-zarrachani tortib olinidan noytron va qandaydir elementning radioaktiv izotopi hosil bo'ladi. Bu izotop yomirilgani dan pozitron uchib chiqadi. Bu parchalanish natijasida hosil bo'ladigan elementning tartib raqami qanday? Alyuminiyning tartib raqami 13.

Javob: 14

1712.  $^{238}_{92}U$  uran izotopining yadroasi neytronni yutganidan keyin radioaktiv uran izotopiga aylanadi va u ikki ketma-ket beta-yemirilishdan so'ng plutoniya aylanadi. Plutoniy atomining yadroasi nechta neytronga ega?

Javob: 145

1713. Ketma-ket 5 beta-yemirilish va bir nechta alfa-yemirilishdan so'ng og'ir elementning yadrosi turg'un atom yadrosiga aylanadi. Bu atomning tartib raqami dastlabkisidan 13 taga kichik. Turg'un yadroning massa soni dastlabkidan qanchaga kichik bo'ladi?

Javob: 36

1714.  $^{218}_{92}U$  ning  $^{207}_{82}Pb$  ga radioaktiv aylanish (o'zgarish) zanjirida bir nechta alfa- va beta-yemirilishlar bor. Bu zanjirdagi umumiy yemirilishlar soni qancha?

Javob: 11

1715. Radioaktiv aylanishlar (o'zgarishlar) zanjirida bir nechta alfa- va beta-yemirilishdan keyin qandaydir og'ir atomning yadrosi turg'un atom yadrosiga aylanadi, va bu yadroda neytronlarning soni dastlabki yadrodagiga qaraganda 27 ta ga km. Alfa-yemirilishlar soni beta-yemirilishlar soniga tengligi ma'lum. Umumiy yemirilishlar soni qanchaga teng?

Javob: 18

1716. Qandaydir X elementning yadrosi alfa-zarrachani yutadi. Bunda bitta neytron chiqadi va Y elementning yadrosi hosil bo'ladi. Bu yadro o'z navbatida bitta pozitron chiqarib, Z elementning yadrosini hosil qilgan holda parchalanadi. Z element yadrosidagi neytronlar soni X elementdagiga qaraganda qanchaga ko'p ostanligini aniqlang.

Javob: 2

1717. 150 s vaqt ichida radioaktiv yadrolar dastlabki sonining  $\frac{7}{8}$  qismi yemirildi. Bu yadroning yarim yemirilish davri qanchaga teng?

Javob: 50

1718. 100 s vaqt ichida radioaktiv modda yadrosining yarini yemirildi. Bundan qancha vaqt o'tgach qolgan yadrolarning  $\frac{3}{4}$  qismi yemirildi?

Javob: 200